

O. A. HAYDAROV

POYABZAL VA CHARM- ATTORLIK BUYUMLARNI MODELLASHTIRISH ASOSLARI

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

‘Oliy va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi o‘quv metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan.

Taqrizchilar:

- A.Z. Abdullayev* — «O‘zbekyengilsanoat» uyushmasining nazorat va ilmiy texnika tarjimalar boshqarmasi boshlig‘i.
O. Meliyev — «Andijon poyabzal» hissadorlik jamiyatি Boshqaruv raisining muovini.

Haydarov O.A.

Poyabzal va charm-attorlik buyumlarni modellashtirish asoslari: Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.— T.: «Sharq», 2007. — 208 b.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada charm buyumlarni konstruktiv tavsifi va shu buyumlarni loyihalashda anatomo-fiziologik, antropometrik va biomexanik asoslari keltirilgan. Buyumlarni modellashtirish va konstruksiyalash usullari ko‘rib chiqilgan hamda poyabzal detallari seriyasini gradatsiyasi, razmer va to‘lalik assortimenti kabi savollarni nazariy asoslari keltirilgan.

O‘quv qo‘llanma kasb-hunar kollejlari talabalari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, undan oliy o‘quv yurtlarida tahsil oluvchi bakalavr va magistrlar, charm buyumlar sanoatida ishlab turgan muhandis-texnik xodimlar ham foydalanishlari mumkin.

MUQADDIMA

Hozirgi davrda mustaqil davlatimiz xalqni kelajak ravnaqi uchun yuqori talablarga javob beruvchi sifatli xalq iste'mol mollarini, shu jumladan charm mahsulotlarini ko'paytirishga katta ahamiyat bermoqda.

Aholining charm buyumlarga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun charm mahsulotlar sanoatida ishlab chiqarish hajmini va uning sifatini oshirish, mehnat unumдорligini ~~yanada~~ o'stirish, hozirgi zamon talablariga javob beradigan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishga erishish ko'zda tutiladi.

Charm buyumlari deb, ~~oxirgi~~ asrgacha faqat charmdan tayyorlanuvchi keng iste'mol mollari, ya'ni poyabzal va charm-attorlik mahsulotlari aytilar edi. Hozirgi ~~yaqtida~~ poyabzal, chamodon, qo'lqop va boshqa attorlik mahsulotlari ~~charmdan~~ tashqari juda ko'p sintetik va sun'iy materiallar ishlashiga qaramay, qisqa qilib charm buyumlari deb ataladi.

Bu mahsulotlarni ishlab chiqarishda poyabzal korxonalariga alohida joy ajratilib, uning oldida poyabzalni modellashtirish, loyihalash, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, assortimentlik guruhlarini rivojlantirish, poyabzal sifatini yaxshilash kabi muhim vazifalarni yanada takomillashtirish ko'zda tutiladi.

Charm mahsulotlarini, ya'ni poyabzal va qo'lqop qurilmalarini vujudga keltirish, uni loyihalash usullarini o'rghanish uchun loyihalovchidan quyidagi dastlabki ma'lumotlar talab qilinadi:

1. Charm buyumlari qurilmalarining rivojlanish tarixi.
2. Zamonaviy charm buyumlarining konstruktiv tasnifi.
3. Qo'l va oyoq anatomiya, fiziologiya, antropometriya va biomexanikasi to'g'risidagi ma'lumotlar.
4. Detallar ishi, ularning konstruktiv tavsifi va biriktiruvchi choklar to'g'risida ma'lumotlar.

5. Poyabzal va qo'lqoplarni gigiyenik hamda fizik xossalari.

6. Charm buyumlar qurilmalarining texnik iqtisodiy tavsifi.

Shuni ta'kidlash kerakki, poyabzal va charm-attorlik korxonalarida, asosan, charm mahsulotlarini modellashtirish hamda konstruksiyalash, ya'ni mahsulotlarni bichish uchun andozalar yaratish kabi ishlar bajariladi va uni yig'ish, qoliplash, pardozlash natijasida maqsadga muvofiq qurilma hosil bo'ladi.

Ba'zi korxonalar poyabza~~n~~ning ichki shaklini, ya'ni qolipni loyihalash ishlari bilan qisman shug'ullanadi, asosan, bu yo'nalishdagi ishlarni ilmiy-

tekshirish institutlari bajaradi. Bundan tashqari ilmiy-tekshirish institutlari mahsulotni ratsionalligini va alohida sharoitlarni hisobga olgan holda, qo'shimcha tadqiqtolar asosida, yangi original qurilmalarni vujudga keltiradi, poyabzal detallarini seriyaga ko'paytirish va o'lcham-to'lalik assortimenti ni ishlab chiqarish kabi ishlar bilan shug'ullanadi. Bu tadbirlarni amalga oshirishda kasb-hunar kollejlardida va oliy o'quv yurtida charm buyumlar yo'nalishi bo'yicha mutaxassis bo'lib chiqadigan xodimlar katta rol o'ynaydi. Buning uchun ular maxsus fanlarni chuqur o'rganishlari lozim. Ana shunday maxsus fanlardan biri «Charm buyumlarini modellashtirish»dir. Hozirgi davrgacha charm buyumlarini loyihalash va texnologiyasi kurslarini o'qishda bir qancha darslik va o'quv qo'llanmalar rus tilida mavjud bo'lib, O'zbekiston davlat tilida biror-bir adabiyot chop etilmagan.

Vaholanki, «O'z fikrini mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, rahbarlik lavozimida o'tirganlarni bugun tushunish ham, oqlash ham qiyin», deyiladi I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqida¹.

Yuqorida keltirilgan savollarni o'rganish uchun ushbu o'quv qo'llanmada poyabzal va charm-attorlik mahsulotlarini loyihalashning asosiyo yo'nalishlari, ko'p mualliflarning ilmiy-tekshirish ishlarini natijaiali mujassamlangan bo'lib, charm buyumlarini konstruksiyalash va texnologiyasi mutaxassisligi bo'yicha tahsil oluvchi kasb-hunar kollejlari talabalari va korxona modelyerlari, muhandis-texnik xodimlari uchun mo'ljallangan.

Mazkur o'quv qo'llanma muallifi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida ko'p yillardan buyon olib borayotgan tajribasi asosida yozildi. O'quv qo'llanmani yozishda «Charm buyumlarini konstruksiyalash» faniga va bu fanlarga oid boshqa tillarda nashr etilgan ko'p adabiyotlardan foydalaniidi.

O'quv qo'llanma qo'lyozmasini ko'rib chiqib muhim fikr-mulohazalar taklif etilgani uchun professor S.S. Maxsudovga, professor X.Q. Tursunov va dotsent Q.I. Abulniyazovlarga, «O'zbekyengilsanoat» uyushmasining nazorat va ilmiy texnika tarjimalar boshqarmasi boshlig'i A.Z. Abdullayevga va «Andijon poyabzal» ishlab chiqarish hissadorlik jamiyatining bosh muhandisi O. Meliyevlarga o'z minnatdorchiligidizni izhor etamiz.

O'quv qo'llanma birinchi marta chop etilayotganligi sababli kamchiliklardan holi deb bo'lmaydi, shuning uchun mutaxassislar tomonidan bayon etilgan tanqidiy mulohazalarni muallif minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

Muallif.

¹ Barkamol avlod — O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so'zlagan nutqi (29-avgust 1997-yil).

1-bob.

CHARM BUYUMLARINI RIVOJLANISH TARIXI

1.1. POYABZAL KONSTRUKSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

Insoniyat paydo bo'lgan vaqtidan beri poyabzal bor. Poyabzal odamning oyoq panjasi va shu bilan birga butun inson tanasini tashqi muhit ta'siridan himoya qilish vazifasini bajaradi.

Odam paydo bo'lgan birinchi davrlarda, ular hayvon terisini yoki daraxt po'stlog'ini oyoq panjalariga ildiz, ichak yoki teri tasmasi bilan bog'lab yurishgan. Bu davrdagi poyabzallar juda oddiy ko'rinish (konstruksiya)da bo'lgan. Har xil sharoit va geografik kenglikda yashayotgan xalq ob-havo sharoitiga qarab turli xil poyabzallarni kiygan.


Issiq mamlakatlarda havo harorati nol gradusdan past bo'limgan joylarda, asosan, oyoq panjasining tag qismini himoya qiladigan, ya'ni taglikni birorta tasma yoki ildiz bilan bog'lab olinadigan poyabzallarni kiyishgan. Hozirgi davrda ham shunday poyabzallarning takomillashgan turi, tasmali sandallar ko'p tarqalgan.

O'rta iqlimdagи hududlarda issiq yoz o'rniغا sovuq qish keladigan yerlarda, oyoq panjasining faqat tagini emas, balki butun oyoq panjasini himoya qilish kerak bo'lgan. Bu hududlarda, hozirgi davrda kiyilayotgan tuqli, qo'njsiz botinka va botinkalarga o'xshash bo'lgan eng oddiy tuzilishdagi choriplarni, asosan Rossiya va Yevropa mamlakatlarida, bizning eramizdan 4 ming yil ilgari odamlar kiyishgan (1.1-rasm).

Yoz juda qisqa, qish esa uzoq davom etadigan yerlarda, qor butun mavsum davomida yerni qoplab yotadigan joylarda, asosan, etikka o'xshatib, oddiy hayvon mo'ynasini oyoqqa o'rab, boylab yurishgan. Bunday poyabzallarni Uzoq Shimol xalqlari kiyishan.

1.1.1. TURLI MAMLAKLARDА POYABZAL KONSTRUKSIYASINI RIVOJLANISH TARIXI

Poyabzalning konstruksiysi, ularni ishlab chiqarish usullari har doim rivojlanib boradi. Poyabzalning konstruksiyasini rivojlanishi ishlab chiqarish qurollari va poyabzalda qo'llaniladigan materiallarni rivojlanishiga o'ta bog'liq.



1.1-rasm. Tosh davri odamlarining ishlatgan materiali (a) va tayyor poyabzali (b).

Har bir yangi konstruksiya ma'lum bir davr odamlarining talabini qondirsa, ma'lum vaqt o'tgandan keyin unga talab yo'qolib, yangi konstruksiyadagi poyabzal ishlab chiqarish kerak bo'lib qolgan.

Poyabzal konstruksiyasining rivojlanish tarixi arxeologik qazilmalar asosida davrlar bo'yicha quyidagicha bo'lgan: tosh davri; bronza yoki suyak davri; temir davrining boshi; temir davrining o'rtalari; O'rta asrlar; XIX asr; XX asr kabi davrlar.

Ibtidoiy jamoa asrlarida poyabzalni, asosan, yaxlit bitta detaldan yasashgan, poyabzalga oyoq panjasining shaklini berish uchun yaxlit tekis teri parchasini qayrib, shu teridan qilingan qo'pol tasmalar yordamida chetlari biriktirilgan. Shunday usulda butun dunyoda poyabzal qilinganligi to'g'risida to'la ma'lumotlar bor (choriq, mokasin va boshqalar).

Qozog'iston va Tog'li Oltoya kigizdan qilingan etiklardan ko'p foydalilanilgan. Bu etiklar hozirgi etiklarning eng oddiy konstruksiyasi bo'lib, uning orqasini ochiq paypoqqa o'xshatib tayyorlashgan. Bunday etiklar kiyilgandan keyin oyoq shaklini olgan, panja va boldir qismi esa to'g'ri burchakli bo'lgan.

Qadim davrlarda poyabzallar qo'pol ishlangan, yungi olingen teridan qilingan. Bunday poyabzallarning ustki qismi g'ijimlanib qolgan va ular yurgan hamda chopganda oyoq panjasiga botmasligi uchun oyoq panjasini har xil o'tlar bilan o'rab olingen. Keyinchalik bu g'ijimlarni qirqib, hosil bo'lgan yirtiqqlarni tikadigan bo'lishgan. Bu esa poyabzalni qo'nj va betlik detallariga ajralishiga olib keldi.

Yaxlit bo'lak teridan yasalgan poyabzal kiyilganda yer bilan ishqalanib, sirtqi qismi esa ko'p egiladigan joyidan teshilib qolgan. Poyabzalning xizmat muddatini uzaytirish uchun teshilgan joylariga yamoq solishgan. Shunday qilib, akademik B.A. Ribakovning taxmini bo'yicha, tag va ustki detallarga ajratila boshlagan. Bunday ajralish poyabzalning konstruksiyasida katta inqilobiy sakrash bo'lib, tag va ustki detallarga har xil materiallarni ishlatish imkonini berdi. Keyinchalik poyabzalning konstruksiyasini mukammallashtrish, asosan, poyabzal shaklining oyoq panjasining shakliga yaqinlashtirish, materiallarni tejamli ishlatish va tashqi qiyofasini yaxshilash yo'nalishida bo'ldi.

Detallarni teridan qilingan tasmalar bilan biriktirilganda qo'pol choklar hosil bo'lgan, chunki tasmani o'tkazish uchun teshiklar tosh parchalari yordamida teshilgan. Quruq ichaklar va paylar ishlatila boshlagandan keyin bigiz hamda ignalar kerak bo'la boshladи, oldiniga ularni suyaklardan, keyinchalik bronza va temirdan yasashgan. Pay, quruq ichaklarni ishlatish keyinchalik iplarni qo'llash, har xil choklar paydo bo'lishga olib keldi. Shunday qilib, qo'yma, ag'darma va biriktirma choklar paydo bo'ldiki, bu choklar hozir ham qo'llanilmoqda.

Tikilgan poyabzalga shakl berish maqsadida oyoq panjasining shaklidagi bir bo'lak yog'och (shon) namlangan poyabzalga kiygizilar edi.

Poyabzallarni kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, birinchi navbatda tovon va tumshuq qismida joylashgan detallar, biriktiruvchi choklar yirtilar ekan, chunki yurganda eng ko'p kuch oyoq panjasining shu qismiga tushadi. Chokni

yirtilishdan himoya qilish maqsadida, ular poyabzalning yuqori qismiga tikiladigan bo'ldi. Buni amalga oshirish uchun taglikning tovon va tumshuq qismini uzunroq qilinadigan bo'ldi. Poyabzalning ustki qismida qiytim qilib, unga ponan shaklidagi taglikning ziyi tikilar edi. Sekin-asta taglikning ishlatish vaqtini uzaytirish maqsadida tagliklar ikki qavat qilinadigan bo'ldi.

Shunday qilib, XII asrdan hozirgacha saqlanib qolgan, ustki detallarning konstruksiyasi paydo bo'ldi. Bular, asosan, boshliq va orqa detal (dastak)lar yoki qo'njlar. Rossiyada X—XII asrlargacha katta qoramollar bo'lmagani sababli taglikka ishlataladigan charmlar ham bo'lmagan. Ular har xil mayda hayvonlarning terisini cheprak (eng qalin, zichligi katta) qismini taglik uchun, qolgan qismini ustki detallar uchun ishlatishgan.

Rossiyada katta qoramollar va qalin tag charmlar paydo bo'lgandan keyin, tagliklar shu materiallardan, yengil (echki, qo'y, buzoq) terilardan esa ustki detallar tayyorlana boshlagan. Ular faqat qora rangdagina emas, balki Osiyo va Sharq mamlakatlaridan keltirilgan rangli (qizil, yashil, jigar rang) charmlarni ishlatish yo'lga qo'yildi. Bunday charmlar, ayrim hollarda detallarga har xil rangdagi iplar yordamida bezatilar ham edi.

Ustki detallarning tovon qismi tez yedirilar va shaklini yo'qotar edi. Poyabzalning tovon qismi o'z shaklini yo'qotmasligi uchun XIII asrdan boshlab, qalin charmdan bikir dastak qo'yiladigan bo'ldi, bu esa o'z navbatida poyabzalning tovon qismida qo'yma chok paydo bo'lishga olib keldi.

XII asrdan boshlab taglikning tovon qismi tez yedirilmasligi uchun taglikning tovon qismiga bir parcha charm biriktirilib ikki qavat qilinadigan bo'ldi. Shunday qilib, XII asrda yangi detal — poshna paydo bo'ldi. Bir nechta charm qavatdan tashkil topgan detalni Rossiyada ko'p vaqtgacha tovon osti deb yuritildi, keyinchalik poshna deb nomlandi. Patakning yo'qligi (XII—XVII asr) poshnani mixlar bilan biriktirishni qiyinlashtirdi, shuning uchun poshna ip yordamida tashqi chok bilan tikilar edi. Poshna tez yedirilmasligi uchun poshnaga katta qalpoqli mixlar qoqlilar edi. Keyinchalik XVI—XVII asrlarda poshna ostiga taqa qoqladigan bo'ldi. Shu davrga kelib sof rus poyabzalining konstruksiyasini rivojlanish davri tugadi.

Eski Polsha, Vengriya, Bolgariya va Bolqon davlatlarining poyabzalini konstruksiyasi qadimiy Rossiya poyabzaliga o'xshash bo'lgan. Keyinchalik, o'rta asrlar davrida G'arbiy Yevropa mamlakatlarining poyabzal konstruksiyasi bu davlatga kirib kelgan.

Ma'lumki, XVI—XVII asrlarda rus madaniyatida, Pyotr I reformasiga asosan, katta o'zgarishlar bo'ldi, ya'ni chet el urf-odatlari, kiyim va poyabzallari Rossiyaga kirib keldi. Pyotr I ning farmoniga binoan (qamchi bilan savalash yoki surgunga yuborish jazosi bilan) rus poyabzallarini kiyishi shart edi, faqat ruhoniylar va Sibir xalqlari bundan mustasno edilar. Chet el (G'arbiy Yevropa) poyabzali o'zgacha konstruksiyaga ega (patakli, bikir dastakli, ayrim hollarda ustki materiallardan qoplangan yog'och poshnali) bo'lgan. Ustki detallari murakkab shaklda bo'lib, detallarga bo'linishi eskicha edi. Poyabzalni oyoq panjasiga mahkamlash uchun tugma-

lar, pistonlar, tasmalar paydo bo'la boshladi. Keyinchalik poyabzalning ustki detalini old qismi tumshuq va betlikka bo'lindi.

Sekin-asta poyabzal ishlab chiqarish o'zgara boshladi: shonlar o'rniqa qoliplar ishlatila boshladi; poyabzalning ustki detallari qolipga tortilib, qolipning shakli berildi; ustki detallarni tortish baxyasi ipli choc yordamida patakka biriktiriladigan bo'ldi. Shu paytga kelib, taglikni ustki detallar bilan biriktirishni mix va mix-cho'p usuli, ish qurollaridan etikdo'zning bolg'asi hamda tortish uchun ombur paydo bo'ldi. Ular hozirgi paytgacha ishlatilib kelinmoqda.

Yig'ma poshnalarini patakka va taglikka mix-cho'p yordamida biriktira boshlandi. Yog'och poshnalar ustini qoplama bilan qoplab tikib, patakka yo'g'on mix bilan (o'rtasidan) biriktirilar edi. Yog'och poshnaning ostiga charmdan poshna osti qoqilar edi.

XVIII asrga kelib, baland poshnali poyabzallarning moda bo'lishi natijasida, poyabzalning axmi qismini mustahkamlash kerakligi ma'lum bo'ldi. Chunki oyoq panjasining tashqi gumbazi tag detallarini egib, yurganda poshna old va orqa tomoniga harakat qilib, oyoqni shikastlantirar hamda o'z qiyofasini yo'qtar edi. Poyabzalning axmi qismining mustahkamligini oshirish maqsadida, poshnalarining old konturi (frontal tomoni) uzunroq (1.2 a-rasm) tayyorlana boshlandi, keyinchalik tashqi temir qo'ygich paydo bo'ldi, u poshna osti bilan taglikning axmi qismini tutashtirib turdi (1.2 b-rasm).

Shuni ta'kidlash kerakki, Rossiyaga baland poshna Osiyodan kirib keldi. O'zbek va Qirg'iz otliqlari etiklarning baland poshnasini qirrasi bilan otlarni boshqarar edilar. Bunday etiklarning metall plastinkasi, poyabzal ichidan patak orqali o'tib, taglikning tovon qismini o'rtasidan, charm poshna orqali tashqariga chiqib turar edi (1.2 d-rasm).

Baland poshnali poyabzallarning axmi qismini mustahkamlash uchun charmdan yarim pataklar qo'llana boshlandi. Oldingi asrlarda uni lubdan, keyinchalik faner va shakllantirilgan po'lat tasma bilan almashtirildi (1.2-e rasm). Poyabzalning konstruksiyasi boshqa mamlakatlarda ham xuddi shunday rivojlandi.

Nil daryo vodiysi, Tigr va Evfrat daryolarining orasida joylashgan qadimgi shaharlarda o'tkazilgan arxeologik izlanishlar natijasida, eramizdan oldingi V va IV asrlarda yaratilgan poyabzallar topilgan. Bu poyabzallarni, ya'ni qo'pol qirqilgan teri parchasini (taglik) tasma yoki o'simlik ildizlaridan to'qilgan arqon yordamida oyoq panjasiga bog'lab yurishganligi



1.2-rasm. Poyabzaning axmi qismini o'zgarish shakli.

ma'lum bo'ldi. Ular teri-tasmani yoki arqonni taglikning old qismini teshib o'tkazib olgan yoki bo'lmasa tovon qismini qirqib teshiklar(qulqoqcha)ga tasmani boylab yurganlar (1.3-a, b rasm).

Bunday poyabzallar yirtilganda oldin yamoq solinib, keyinchalik ikki qavat, ya'ni taglik va patak paydo bo'lgan.

G'arbiy Yevropada Sharqiye Yevropaga nisbatan oldinroq tanavor qolipga tortilar va patakka biriktirilar, so'ngra taglik hamda poshnani biriktirishar edi. Ustki detalning patakka biriktiradigan qismini keyinchalik *tanavorning tortish baxyasi* deb ataladigan bo'ldi.

Shunday qilib, paták va tortish baxyasini paydo bo'lishi natijasida, hozirgi paytgacha saqlanib qolgan, o'ziga xos tikish texnologiyasi vujudga keldi.

O'rta asrlar davrida Yevropada tumshuq qismi uzaytirilgan poyabzallar ko'p tarqalgan. Bu poyabzallarning tagiga qo'shimcha yog'ochdan taglik qo'yilgan bo'lib, ular loy va boshqa iflosliklardan saqlar edi. Bunday uzun tumshuqli poyabzallarning, asosan, boy zodagonlar kiyar va ular qancha boy bo'lishsa, shuncha tumshuq qismi uzun tayyorlangan (1.4-rasm).

XVIII asrغا kelib hamma Yevropa mamlakatlarida poyabzal konstruksiyasining rivojlantirilishi bir yo'lda bordi.


XIX asr o'rtalariga kelib poyabzal ishlab chiqarishni mexanizatsiya-lashtirish boshlandi. Birinchi bo'lib taglik va patakni qirqish uchun sodda vint (burama) li presslar paydo bo'ldi.

XVIII asrning oxirida tikuv mashinasining ixtiro qilinishi poyabzal ishlab chiqarish texnologiyasini mukammallashtirdi va rivojlantirdi.


Sun'iy materiallarni paydo bo'lishi esa poyabzal konstruksiyasini rivojlantirishga katta ta'sir qildi.

Rezina ishlab chiqarish texnologiyasini rivojlantirish natijasida yangi quyma yaxlit taglik paydo bo'ldi, ya'ni taglik, poshna, qo'ygich va to'ldirgichlar bitta qilib maxsus qoliplarda quyiladigan bo'ldi.


1932—1934-yillarga kelib «Skoroxod» poyabzal fabrikasida (Peterburg) taglikni biriktirishda yangi issiq vulkanizatsiya usuli ixtiro qilindi. Bu usulda bir vaqtning o'zida taglik va poshna rezina qorishmasidan vulkanizatsiya



1.3-rasm. O'rta Yer dengiz atrofida yashovchi aholining sandallari.



1.4-rasm. Uzaytirilgan tumshuqli poyabzallar.



1.5-rasm. Fir'avn pojabzali.

talablarga ham javob berishi kerak.

Bizning davrimizga yetib kelgan eng qadimiy juda go'zal tilla va qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan pojabzallardan biri (1.5-rasm), Fir'avn Tutanxomonning oyoq kiyimidir (eramizzdan oldingi XIII asr).

Olttoy xalqi boshliqlarining qabrini arxeologik o'rghanish natijasida ayollar etigining qo'nji o'ta go'zal milliy naqshlar bilan bezatilganligi aniqlangan.



1.6-rasm. Poyabzalning tashqi ko'rinishini bezash turlari.

Hozir ular Ermitaj ko'rgazmasi sifatida saqlanmoqda. Qo'nji quritilgan ichak yordamida tilla suvi va qalay yuritilib tikilgan (1.6 a-rasm).

Qadimgi Gretsiyada boy zodagonlar va harbiy boshliqlar uchun (1.6 b-rasm) alohida poyabzallar tikilgan. Ularning poyabzali omma (xalq) poyabzalidan ajralib turishi uchun ustki detallarini turli (oq, qizil, yashil va boshqa) rangdagi charmlardan tayyorlashgan.

Nenetslar hozir ham piymalarni har xil rangdagi tabiiy mo'ynadan tayyorlashadi. Evenklar esa etiklarni turli rangdagi naqshlar va bezak toshlari bilan bezashadi (1.6 d, e-rasm). Ular mo'yna va matodan qilingan har xil aplikatsiyalar, turli bezaklar yordamida o'ta go'zal ustki kiyimga mos keladigan etiklar yaratishadi. Yuqorida aytilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, bunday poyabzallarni asosan tantanali kechalarda, bayram kunlari boy-badavlat odamlar kiyishgan (1.6 f, g-rasm). Kundalik uchun esa sodda, milliy an'analar asosida tikilgan poyabzallar kiyishgan.

Inqilobdan oldin qishloqda odamlar kundalik uchun choriq yoki charmidan tikilgan qo'pol poyabzal, ishchilar esa qora rangdagi etik va botinkalar kiyishgan. Arxeologik izlanishlar shuni ko'rsatadi, Rossiyada o'ta go'zal, o'ziga xos naqshli rasmlar tikilgan poyabzal juda kam bo'lgan.

1.1.2. MARKAZIY OSIYO XALQLARI POYABZALLARI KONSTRUKSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

O'rta Osiyo xalqlari poyabzallarining tuzilishi (konstruksiyasi) bir xil, qadim zamonlardan beri saqlab qolgan mahsi, kovush, etiklar (1.7-rasm) bo'lib, ular hozirgi davrda ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Eng qadimiy va sodda qiyofadagi poyabzal choriq — cho'ponlar hamda kambag'al xalqning oyoq kiyimi bo'lib, bir parcha xom terini bir tomo-



1.7-rasm. Markaziy Osiyo xalqining poyabzallari.

nidan tikib, teshikchalar qilib undan tasma o'tkazib yoki jun arqon yordamida bog'lab yurishgan. Boylar esa o'zlariga alohida, yaxshi oshlangan teridan, to'q qizil va boshqa ranglarda, bezak choklarga boy, naqshli choriplarni eng malakali etikdo'zlarga tiktirib kiyishar edi. Keyinchalik paydo bo'lган kavushlarni erkaklar ham, ayollar ham yozda yalangoyoqqa, qishda esa paypoq bilan kiyishar edi. Kavushlarni kavushchilar to'q jigarrang qalin charmdan tikishgan. Kavushning betligi oyoq panjasining kaft va barmoq qismini to'la berkitib kalta dastakli yoki dastaksiz bo'lib, oyoq panjasining tovon qismini berkitmas edi. Kavushning poshnasi tagligi bilan bitta bo'lib, poshna qismiga bir nechta charm bo'laklarini qo'yib, mix-cho'p yoki mix yordamida biriktirib qo'yilar edi.

Qishda, boy-badavlat odamlar Xiva bulg'ori charmidan qilingan uzun etiklarni kiyishar edi. Bu etiklarni Xiva etikdo'zları tikishib, bular Xiva etigi deb atalardi. Bu etiklarning qo'nji ikki bo'lakdan iborat bo'lib, old tomoni tizzadan yuqorida, orqa tomoni kaltaroq bo'lган (1.7-rasmga qarang). Boshlig'i esa yaxlit, tag charmi yassi, past yig'ma poshnali, tumshuq qismi yuqoriga ko'tarilgan bo'lган. Bunday etiklarni o'zbeklar va qoraqlapoqlar kiyishgan.

Barcha Markaziy Osiyo xalqlari, turkmanlar, o'zbeklar, tojiklar, qoraqlapoqlar va tog'lik xalqlar mahsi kiyishgan. Mahsi ag'darma etiklarning bir turi bo'lib, tagligi yumshoq charmdan qilingan. Mahsilarning o'sha davrdagi konstruksiyasi hozir ham saqlanib qolgan. Mahsini qadim-qadimdan qishda kalish bilan, yozda kavush bilan kiyishgan.

Ayollarning mahsilar kundalik (bachkana) va ko'chalik mahsilarga bo'linib, kelinlar kiyadigan mahsi qizil, gul solingan bo'lган. Oddiy kundalik mahsilar sariq rangda, tekis qo'y terisidan, ayrim hollarda jigar rangda ishlab chiqarilgan.

Qo'njining orqa tomonidan, ayrim hollarda, oldidan ham tikishgan. Qo'njni ko'pincha gulchin bilan birga bir bo'lak charmdan bichishgan. Tag charmini ham xuddi shu yumshoq qizil yoki jigarrang charmdan chok yordamida tikishgan.

Qo'nj bilan betlikni tikayotganda bir parcha yashil rangdagi charm, sag'ri qo'yishar edi. Sag'ri bu ot terisining sag'ri qismidan, oshlangan yashil rangdagi charm bo'lib, mahsining ko'p yediriladigan tovon qismiga rangli iplar yordamida tikilar, buning natijasida o'sha yer mustahkamligi ortar edi.

XX asrning boshlaridayoq boy-badavlat shahar va qishloqlar aholisi kelinlar uchun maxsus gulli mahsilar tikishar va bu mahsilarga turli rangdagi charmlarni tilla suvi yuritilgan iplar bilan tikib, bezashar va maxsus kavushlar bilan kiyishga mo'ljallahar edi.

Kambag'al ayo'llarning kavushi erkaklarning kavushiga o'xhash bo'lardi. Ko'pincha qo'pol qo'y terisidan, qora rangda tayyorlanar edi. Tagligi qalin charmdan bo'lib, kavushning tumshuq qismi uchli, dastagi past, poshnasi to'g'ri yog'ochdan yoki bir necha charm bo'laklaridan iborat bo'lган.

1.2. CHARM-ATTORLIK BUYUMLAR KONSTRUKSIYASINING RIVOJLANISH TARIXI

Charm-attorlik buyumlariga kiradigan xurjun juda qadim zamonalarda paydo bo'lgan, bunga afsonalar, arxeologik qazilmalar guvohlik beradi.

Eng sodda xalta vazifasini bir parcha teridan, mo'ynadan yoki matodan qilingan tugun bajargan. Xalta, xurjunlarning asosiy vazifasi ro'zg'or buyumlarini, oziq-ovqatlarni saqlash va ko'tarib ot-ulovga ortib yurish bo'lgan. Ularning tuzilishi texnika rivojlanishiga bog'liq.

Texnika rivojlangan sari, charm-attorlik buyumlarini ishlab chiqarish mukammallahшиб, turli xil konstruksiyadagi buyumlar hosil bo'la boshlagan.

Tog'li Oltodayda o'tkazilgan qazilmalarda eramizdan oldingi V asrda ishlangan ikki bo'lak suvsar mo'ynasidan tikelgan qop va juda murakkab konstruksiyadagi xaltalar topilgan. Masalan, bittasi yaxlit teri bo'lagidan tashkil topgan bo'lib, chetlari qayirib, ziyi bo'yicha tikiladi va ikkita cho'ntak hosil qiladi. Cho'ntaklarning hajmi pona shaklidagi qistirma paylar yordamida tikilib kengaytirilgan. Xaltaning o'rtasi ingichka tasmalar bilan yog'och kaltakka biriktirilgan. Xaltaning ushlagichi charm tasmdan qilingan bo'lib, bir tomonining cheti uch bo'lakka bo'lingan, ikkinchi bo'lagi yog'och kaltakning ikki chetiga, o'rta bo'lagi yog'och kaltakning o'rtasidagi quloqchaga biriktirilgan. Xaltada kumush ko'zgu, kichik ko'zacha, yassi to'rtburchakli xaltacha va boshqa narsalar bo'lgan. To'rtburchakli xaltacha zamsha bo'lagidan tayyorlangan bo'lib, ziylariga juda go'zal shaklda charmdan yasalgan mag'iz, o'rtasida esa o'ta murakkab konstruksiyada bezalgan cho'ntak tikilgan edi.

O'sha qazilmada qalin charmdan yasalgan, e'tiborga loyiқ konstruksiyadagi, ichki cho'ntak va cho'ntakni yopuvchi tashqi yopqich (klapan) li yumshoq yupqa charm xalta topilgan. Cho'ntak xaltaga nisbatan katta bo'lib, uning yuqori ozod qismi taxlanib, xaltaga solib qo'yilgan. Cho'ntakdan foydalanish uchun yopqichni ko'tarib turib taxlangan cho'ntakni chiqarib olish kerak. Xalta qoplanning mo'ynasi va har xil ko'rinishdagi o'rdak hamda g'ozlarning rasmi (shakli) tushirilgan, oltin suvi yuritilgan mis bo'laklari bilan pardozlangan edi. Bularidan tashqari har xil shakldagi hamyonlar ham topilgan.

Qadimi Novgorod shahri qazilmalarida (XI—XV asrlar) ham turli charm buyumlar topilgan. Ko'proq turli ko'rinishdagi hamyonlar bo'lib, ularning konstruksiyasi sodda, ya'ni ikki bo'lak charmdan, past qismi yarim doira shaklida, yuqori qismida teshikchalar bo'lib, unda charm tasma o'tkazib tortganda yopiladigan qilib ishlangan.

Hamyonlar, asosan, biriktirma va ag'darma choklar yordamida tikilgan. Hamyonlarning ichki detallari to'qima materiallardan bo'lgan. Shuningdek, Novgorod shahri qazilmalarida turli shakldagi katta o'chamdag'i xaltalar va yaxlit bir bo'lak yoki ikki bo'lak charmdan biriktirma hamda ag'darma chok bilan tikilgan qo'lqoplar topilgan.



1.8-rasm. Markaziy Osiyo xalqlarining charm-attorlik buyumlari.

Uzoq Shimol va Uzoq Sharq xalqlari charm-attorlik buyumlarini, asosan, bug‘u, it va nerpa terilaridan qilishgan. Ayrim hollarda baliq terisini butun holda, tayyor buyum sifatida shilib olishgan.

Charm, gilam va to‘qima materiallar bilan dong taratgan O‘rtta Osiyo mam-lakatlarida xaltalarни gilam va boshqa matolardan, hamyonlarni charmdan tay-yorlashgan. Hamma O‘rtta Osiyo xalqlari bir xil konstruksiyadagi xurjunlardan foydalanishgan. Bu xurjunlar ochiq, ayrim hollarda arqon yoki tasma bilan berki-tiladigan bo‘lgan (1.8-rasm).

Mayda tangalar uchun maxsus ko‘zacha shaklidagi hamyonlarni ishlash-gan. Bu hamyonlarning bo‘g‘izi tor bo‘lib, tangalarni qo‘l bilan olib bo‘lmasdi, ularni faqat silkitib qo‘l kaftiga tushirib olish mumkin edi.

Tojikistonda hamma buyumlar, hattoki xurjunlar ham charmdan bo‘lgan. Narsalarni ko‘tarib yurish va saqlab turish uchun qo‘zichoqlarning terisini butun holda shilib olib, tagini tikib qop va xaltalar tayyor-lashgan.

Kavkaz va Kavkaz orti xalqlaridan ham teridan tayyorlangan, usti ochiq yoki yopiq xurjunlar va musallas, yog‘, pishloq solishga mo‘ljallangan meshlar ko‘p tarqalgan edi.

Qadimiy davrlardan beri juda ko‘p xalqlarda kamarga bog‘langan hamyonlar ishlatalib kelingan. Hozirgi davrda uning turli xil takomillashgan konstruksiyalari qo‘llanilmoqda.

Xaltalar oldiniga yaxlit bir bo‘lak materialdan bo‘lib, og‘zini ip yoki tasma bilan tortib, yopib qo‘yilgan. Keyinchalik qor, suv, chang kirmasligi uchun xaltalarning yuqori qismiga yopqich(klapan) tikiladigan bo‘lgan. Xaltalarning hajmini kattalashtirish maqsadida yon tomoniga pona (past tomoni keng) shaklidagi qistirma tikib qo‘yilgan.

Yumshoq materiallardan tayyorlangan xaltalarning mustahkamligini oshirish uchun matodan qilingan astar tikilar edi, keyinchalik har xil narsalarni saqlash hamda foydalanish oson bo‘lishi uchun xaltaning ichini devor bilan bo‘lib, ichiga cho‘ntak qo‘yiladigan bo‘ldi.

XIII asrga kelib osib yuriladigan va qo‘lda ko‘tarib yuradigan xaltalar paydo bo‘ldi. Ularning shakli kvadrat va to‘g‘ri to‘rburchakli bo‘lib, ushlagichlari (tutqichlari) tikilgan tasmalardan iborat bo‘lgan. Qimmatbaho xaltalarni shoyi, oltin va kumush iplar bilan tikib, tag qismini har xil qo‘ng‘iroqchalar bilan bezashgan.

XV asrgacha xaltalarni, asosan, savdogarlar va mahsulot almashuvchilar ishlatishtgan. Kamar, hamyon ularning libosini ajralmas qismi bo'lgan. Xuddi shunday xaltalarni va hamyonlarni o'rta asr davrida rus savdogarlari ham tutishgan. XV asrga kelib xaltalarning libosdagi o'rni o'zgardi. Bu davrga kelib xalta jamiyatning barcha tabaqalari ishlata digan buyumga aylandi.

Erkak va ayollar uchun alohida xaltalar ishlab chiqarila boshlandi. Ayollar yupqa charm yoki matodan, shoyi va metall iplar bilan tikilgan, uzun tasma yoki zanjir bilan kamarga osilgan, erkaklar esa qo'pol charmdan, tekis devorli, chetlari qirqilgan kalta charm ilmoq bilan kamarga biriktirilgan xaltalarni tutganlar.

XVII asrga kelib erkaklar va ayollarning kiyimlarida cho'ntaklar paydo bo'ldi hamda shuning natijasida erkaklar kamarga bog'lab yuradigan xalta va hamyonlarni ishlatmaydigan bo'lishdi.

Bu bilan xaltalar butunlay yo'qolib ketgani yo'q. Ayollarning xaltalari XVIII asrga kelib haqiqiy san'at asariga aylandi.

Xaltalarning konstruksiyasi hozirgi qiyofada XIX asrning oxiri va XX asrning boshida paydo bo'lgan.

Kimyo fani, texnikani rivojlanishi va keng assortimentdagi tabiiy, sun'iy va sintetik materiallar charm-attorlik buyumlarining konstruksiyasiga katta ta'sir qildi.

Nazorat savollari

1. Yashash sharoiti va iqlimiga qarab qanday poyabzallar ishlatilgan?
2. Turli mamlakatlarda poyabzal konstruksiyasini rivojlanish tarixini izohlang.
3. Poyabzal detallarini paydo bo'lish tarixi haqida gapirib bering.
4. Bezash turlari haqida gapirib bering.
5. Markaziy Osiyo poyabzallarining rivojlanish tarixini izohlab bering.
6. Charm-attorlik buyumlari konstruksiyasining rivojlanish tarixini izohlab bering.

2-bob.

ZAMONAVIY CHARM BUYUMLARINING KONSTRUKTIV TAVSIFI

2.1. POYABZALLARNING KONSTRUKTIV TAVSIFI

Zamonaviy poyabzallar konstruksiya jihatidan qiyofasi (ko‘rinishi), ishlataladigan materiallar, detallarning tuzilishi, soni, shakli va o‘lchamlari va shuningdek, detallarning o‘zaro tikilishi kabi belgilar bilan ta’riflanadi.

Bu belgilardan tashqari poyabzal o‘zining ichki shakli, tuzilishi, kimlar uchun mo‘ljallangani va yosh-jinsiy guruhlarga qarab bo‘linadi. Har bir yosh-jinsiy guruh o‘z navbatida har xil o‘lcham va to‘laliklarga ajratiladi.

Poyabzal qachon va qayerda ishlatalishiga qarab, maishiy hamda maxsus guruhlarga bo‘linadi.

Maishiy guruh o‘z navbatida — kundalik, modelli (bashang) va uy(xona)da kiyiladigan turlardan tashkil topgan.

Maxsus guruh poyabzalni tayyorlashda oyoqni har xil xavf ta’siridan saqlash maqsadida himoyalovchi materiallar qo‘llangan poyabzal bo‘lib, o‘z navbatida, ishlab chiqarish korxonalarida, sport turlari bo‘yicha va tibbiy maqsadlarda ishlataladigan poyabzallar hisoblanadi.

2.1.1. POYABZALNING QIYOFASI

Poyabzal qiyofasi jihatidan quyidagi 5 turi mavjud: tasmali sandallar, tuflilar, qo‘njsiz botinkalar, botinkalar va etiklar (2.1-rasm)

Tasmali sandallar — ustki detallari tasmalardan iborat yoki old va orqa tomonlari juda ochiq bo‘lgan poyabzallar.

Tuflি — dastagi to‘piqdan past bo‘lgan, ustki esa panjaning sirtini to‘la qoplamaydigan poyabzal.

Qo‘njsiz botinka — dastagi to‘piqdan past bo‘lgan, ustki detallari oyoq panjasining sirtini to‘la qoplaydigan va oyoq panjasiga birorta yordamchi moslama (bog‘ich, rezinka) bilan mahkamlanadigan poyabzal.

Botinka — dastagi to‘piqni berkituvchi va oyoqqa birorta yordamchi moslama bilan mahkamlanadigan poyabzal.

Etik — uzun qo‘nli, oyoq panjasini, boldirini, ayrim maxsus hollarda hattoki sonni qoplaydigan poyabzal.

2.1.2. POYABZAL ISHLAB CHIQARISHDA ISHLATILADGAN MATERIALLAR

Poyabzallarning detallari qayerda, qaysi maqsadlarda va bajaradigan ishiga qarab ularda ishlataladigan materiallar ham turfichadir. Asosan, charm, to‘qima material(gazmol)lari, sun’iy va sintetik charmlar, yog‘ochlar hamda metallar ishlatalidi.

Tasmali sandallar					
Tufslilar					
Qo'njisiz botinkalar					
Botinkalar					
Etiklar					

2. I-rasm. Poyabzallarning qiyofasi bo'yicha turlari.

Hamma ishlatiladigan materiallar o'z fizik-mexanik xususiyatlariga qarab tanavor, ya'ni ustki detallar poyabzalning bikirligini oshirishda ishlatiladigan karkas materiallar va tag detallar uchun ishlatiladigan materiallar kabi uch guruhga bo'linadi.

1. Ustki detallarida ishlatiladigan, qalinligi 1—2,5 mm, bikirligi kam, ko'p martali egilish, bukilish deformatsiyalariga yaxshi ishlaydigan, egilish radiusi esa 0,5—1 mm bo'lgan materiallar.

2. Oraliq detallarida ishlatiladigan karkas materiallar kam egiladigan, birinchi guruhga nisbatan bikirligi katta, asosan, charm buyumlarining shaklini ushlab turadigan materiallar.

3. Tag detallarida ishlatiladigan: ishqalanish, ko'p marotabali egilish, bukilish (egilish radiusi 50 mm), siqilish va cho'zilish deformatsiyalariga yaxshi ishlaydigan qalin materiallar.

Poyabzal, asosan, tanavorning sirtqi va taglikning materiallariga qarab turlarga bo'linadi.

2.1.3. POYABZALNING USTKI DETALLARI, ULARNING TUZILISHI VA O'LCHAMLARI

Poyabzal, asosan, ma'lum ketma-ketlikda biriktirilgan ustki va tag detallaridan tashkil topgan.

Ustki detallar, asosan, oyoq panjasining ustki va yon qismini, boldirini va ayrim hollarda sonini berkitadi. Tag detallari esa oyoq panjasining tagida yotadi.

Hamma detallar joylashishiga qarab sirtqi, ichki va oraliq detallarga bo'linadi.

Sirtqi detallar quyidagilar: dastak, qo'nj, gulchin, orqa tashqi tasma, tumshuq, boshliq, hoshiya, mag'iz, tilcha, oval qistirmali, uzun qanotli, yaxlit, yig'ma yoki tilchali betlik va boshqalar.

Ichki detallar orqa tasma, charm astar, to'qima astar (gazmol), qo'njinig astari, jiyak, qo'njinig kalta astari, boshliq astari, blochka osti, ilmoq osti, yostiqcha, quloqcha va boshqalar.


Oraliq detallar oraliq astar (dastakniyi, betlikniyi), yondor, bikir dastak, tumshuq osti, blochka osti oraliq astari va boshqalar.

Tanavorning sirtqi detallarining soni, o'lchamlari, shakli, konstruksiyasi, poyabzalning qiyofasiga, qaysi maqsadda va qachon kiyilishiga hamda zamonaliviy modaning yo'nalishiga bog'liq. Shunday bo'lganda ham, detallarning ichida eng ko'p uchraydigan va poyabzalning qiyofasini belgilaydigan detallar bor.


Etiklardagi shunday detallardan qo'nj 1 (2.2 a-rasm), asosan, oyoqning boldir qismini, ayrim hollarda sonini berkitadi, gulchin 2 oyoq panjasining tovon qismini va boshliq 3 oyoq panjasining kaft sirtini, barmoqlarini berkitadi. Gulchin boshqa qiyofadagi poyabzallarda ham uchraydi.

Yuqorida keltirilgan detallardan tashqari yana, orqa tashqi tasma va mag'iz uchraydi. Ular biriktirma choklarning mustahkamligini oshirib, choc orqali nam va suv o'tishga to'sqinlik qiladi. Etikning quloqchalari esa qo'nj ichiga tikilib, etikni kiyishni osonlashtiradi.

Botinkalar, qo'njsiz botinkalar, tuflilar va ularning turlarida eng ko'p uchraydigan detallar: betlik, dastak, tumshuq, tashqi orqa tasma, tilcha va oval qistirmadir.



2.2-rasm. Etik tanavorining konstruksiyasi va detallari.



2.3-rasm. Botinka tanavorining va detallari konstruksiyasi.

Betliklar tuzilishi, shakli, o'lchamlariga ko'ra quyidagicha bo'ladi: qirqilgan 7 (2.3-a rasm), oyoq panjasining kaft qismini berkitib turadi; aylanma 5 (2.5-a rasm), oyoq panjasini berkitib, konstruktiv elementlarga bo'linmaydi; yaxlit 6 (2.3-b rasm), oyoq panjasining kaft va barmoq qismini berkitib, konstruktiv elementlarga bo'linmaydi; qanotlari uzaytirilgan 9 (2.3-d rasm), poshnaning old konturigacha yetadi; tilchali 2 konstruksiya tilcha bilan yaxlit bo'lgan (2.4-d rasm) betlik; dastak 4 (2.3, 2.4-rasm), oyoq panjasining tovon qismini to'piqqacha yoki to'piq tepasigacha berkitib turadi. Dastakning yuqori old konturi tagida tilcha joylashgan bo'ladi. U oyoq panjasini blochka va bog'ich ipning ta'siridan saqlaydi. Tumshuq 8 (2.3-a rasm), oyoq panjasinting barmoq qismini berkitib turadi. Orqa tashqi tasma, orqa chocni mustahkamligini oshirishda ishlatiladi.

Yuqorida keltirilgan detallar ko'p uchraydigan detallar bo'lib, ulardan tashqari kam uchraydigan detallar hoshiya, mahkamlagich, kuchaytirgich, tasmalar, ayrim bezak detallari va boshqalar. Bu detallar, asosan, poyabzalni bezashda, biror qismini mustahkamlashda yoki ko'rindigan joyiga ishlov berishda ishlatiladi.


Ichki detallar komplekti, poyabzalning gigiyenik va issiqlikdan himoya qilish xususiyatlarini, poyabzalning shaklini hamda oyoqqa, sirtqi detallar chokini ta'siridan himoya qilishda ishlatiladigan detallarga *astarlar* deyiladi.

Etiklarning ichki detallariga qo'nj astari yoki kalta astari, betlik (boshliq) ning astari kiradi. Etiklarning ichki detallarini shakli hamda o'lchamlari xuddi sirtqi detallarning shakli va o'lchamlariga o'xshash va teng bo'ladi. Qo'njsiz botinka va tuflilarning asosiy ichki detallariga dastakning charm astari (dastak ostida) va betlikning to'qima astari (betlik astari) kiradi.


Ayrim hollarda dastak va betlik ostiga yaxlit charm astar ham ishlatilishi mumkin. Bir qator ichki detallar borki, ular choklarning mustahkamligini va to'qima astarlarining har xil deformatsiyalardan himoya qilish uchun tumshuq osti, bikir dastak qo'yiladi. Tumshuq osti va bikir dastaklar shunday materiallardan tayyorlangan bo'lishi kerakki, u poyabzalni qolipdan chiqargandan keyin va kiyish davomida o'z shaklini yo'qotmasligi kerak.

Shuning uchun ular tabiiy charmdan, maxsus kartondan, yuqori molekulali qoplama bilan qoplangan matodan tayyorlanadi.


Yuqorida keltirilgan detallarning bir-birlarini o'zaro tikish usuli, tanavorning konstruksiyasini belgilaydi. Etiklar quyidagi konstruksiyada bo'ladi: quyma boshliqli (betlikli), ya'ni boshliq qo'njga qo'yib tikiladi (2.2-a rasmga qarang), teskari bo'lsa qo'yma qo'njli deb ataladi. Agar



2.4-rasm. Qo'njsiz botinka tanavorining konstruksiyasi va detallari.



2.5-rasm. Tuflilar tanavorining konstruksiyasi va detallari.



2.6-rasm. Tasmali sandallar tanavorining konstruksiyasi va detallari.

boshliq (betlik) qo‘nj bilan biriktirma chok yordamida tikilsa, biriktirma boshliqli etiklar deb ataladi (2.2-d rasm).

Tuflilar konstruksiyasi jihatidan juda xilma-xil, eng ko‘p uchraydigan «qayiqsimon» tuflilar (2.5-a rasm), tasmali tuflilar (2.5-e rasm) bitta yoki ikkita tasmali, ochiq axmili yozgi tuflilar, ochiq tovonli, ochiq tumshuqli, ochiq tovon va tumshuqli bo‘lishi mumkin.


Tasmali sandallar, asosan, har xil shakl va o‘lchamdagи tasmalardan iborat bo‘ladi. Ayrim hollarda tovon qismi yaxlit dastakdan iborat bo‘lishi mumkin.

2.1.4. POYABZALNING TAG DETALLARI, ULARNING TUZILISHI VA KONSTRUKSIYASI

Tag detallari ham xuddi ustki detallarga o‘xshab, joylashishiga qarab sirtqi, ichki va oraliq detallarga bo‘linadi.

Sirtqi detallarga quyidagilar kiradi: taglik (2.7-rasm), oyoq panjasining ostida yotadi; tashqi kapak, shakli va o‘lchamlari bilan taglikni tutam hamda tutam qismiga o‘xshash, taglikning ishlash muddatini uzaytiruvchi detal; poshna (2.8-rasm), poyabzalning tovon qismini ma’lum balandlikka ko‘tarib turadi; poshna osti, poshna yoki taglikka biriktiladi; rant, eni 12–14 mm li tabiiy yoki sun’iy charmidan tayyorlanadi.

Tagliklar tabiiy charmidan, sun’iy va sintetik materiallardan tayyorlanishi mumkin. Charmidan tayyorlangan tagliklar yassi, yaxlit va yig‘ma, ya’ni tovon qismi (poshna osti) sun’iy materiallardan bo‘lishi mumkin.




2.7-rasm. Poyabzal tagliklarining konstruksiyasi.

Konstruksiyasi jihatidan charmdan va sun'iy materiallardan tayyorlangan tilchali taglik 1 (2.7-a rasm) taglikning tovon qismi qisqartirilgan bo'lib, poshna ostiga kiradi; krokulli taglik 2 (2.7-b rasm) taglikni krokul qismi, poshnating frontal tekisligi shaklida bo'lib, tayyor poyabzallarda unga biriktiriladi

Sun'iy va sintetik materiallardan tayyorlangan tagliklar: yassi-butun, yuzasi bo'yicha bir xil qalinlikka ega (2.7 d-rasm); shakkantirilgan-yassi bo'lib (2.7 e-rasm), har xil qalinlikka ega; quyma (2.7 f-rasm), poshnasi bilan maxsus qolipda yaxlit quyilgan, ular to'ldirgich va qo'yigichlik, yuradigan tomoni rasmlı yoki rasmsiz; yarim quyma poshnasiz maxsus qolipda quyilgan bo'lib, yuradigan tomonning kaft va tumshuq qismi rasmlı hamda rasmsiz konstruksiyada bo'lishi mumkin.

Poshnalar (2.8-rasm) quyma 4, yig'ma 5, ponasimon 6, ustunsimon 7, fransuzcha 8, inglizcha 9, xipchalashadirilgan 10, uzaytirilgan 11, tag tomoni kengaytirilgan 12 konstruksiyalarda bo'ladi.

Rantlar ishlatalish maqsadiga qarab uch turga bo'linadi. Asosiy rantlar — taglik ustki detallar bilan shu rant orqali biriktiriladi (rant; parko 1, parko 2); quyma rantlar — taglikni ustki detallar bilan biriktirilgan



2.8-rasm. Poshnalarni tuzilishi va konstruksiyasi.

chokning mustahkamligini oshiradi (sandal va doppel usullarida); bezak rantlar —poyabzallarni bezashda ishlatiladi.

Sirtqi detallarga poshna, yumshoq taglik poshna va patak larning qoplamlalari ham kiradi. Qoplamlalar ko'pincha ustki detallarning materialidan tayyorlanadi. Ular poshnani yon va frontal tomonlarini, yumshoq taglikni va patakning ziyini qoplab (berkitib) turadi.

Poshna osti, taglikning tovon qismiga yoki poshna tagiga oson almashtiriladigan qilib biriktirilishi kerak, chunki u tez yediriladi, shuning uchun poshna osti tez-tez almashtirilib turiladi.


Ichki tag detallari bevosita oyoq panjasiga tegib turadi, ularga: patak, ich patak, yarim ich patak va yumshoq tovon osti kiradi.

Patak oyoq panjasining ostida joylashgan bo'lib, unga tanavorning tortish baxyasi va tag detallari biriktiriladi.

Pataklar konstruksiysi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi: yassi patak (2.9 a-rasm) qolipning tag qismini shakliga mos; shakllantirilgan patak (2.9 b-rasm); rant patagi (2.9 d-rasm) maxsus do'nglikka ega bo'lib, bu do'nglik *patakning labi* deb ataladi. Rant patagi labiga tanavorning tortish baxyasi va asosiy rant tikiladi. Rant patagi sun'iy, tabiyi bir yoki ikki labli bo'lishi mumkin.

Ich patak, yarim ich patak, yumshoq tovon osti asosiy patakkaga yopishtilib, poyabzalning gigiyenik xususiyatini yaxshilashga, poyabzalning ichki qiyofasini bezashga xizmat qiladi.

Ichki va sirtqi detallar orasiga qo'yiladigan oraliq detallar qo'ygich to'ldirgich, yupqa taglik, yumshoq taglik, poshna jiyagi (kranets), poshna qatlam (flik)laridir. To'ldirgich qolipa tortilgan tanavorni tortish baxyasi orasining tumshuq va tutam qismini to'ldiradi. Qo'ygich esa tovon axmi qismining bikirligini oshirib, shaklini saqlab turadi (2.9 f-rasm).



2.9-rasm. Patakning tuzilishi va konstruksiysi.

Bulardan tashqari poyabzallarning hamma konstruksiyasida metall yoki plastmassa qo'ygich (gelenok) (2.9 e-rasm) bo'lishi shart, sandal va ag'darma usul bundan mustasno. Yupqa va yumshoq tagliklar shakli, tuzilishi jihatidan yassi taglikning xuddi o'zi bo'lib, poyabzallarning gigiyenik va issiqdan saqlash xususiyatlarini saqlaydi.

Yupqa taglik tabiiy charmdan, yumshoq taglik kartondan, kigizdan va boshqa materiallardan bo'lishi mumkin.

Yig'ma poshnalar fliklar(poshna qatlami)dan tashkil topgan, poshnaning balandligi va materialarning qalinligiga qarab, fliklarning soni ham har xil bo'ladi. Eng yuqorida joylashgan flikka jiyak (kranets) qo'yiladi. Jiyak-taglik bilan poshna jipslashishi uchun ular oralariga taqasimon charm tasma qo'yiladi.

Jiyaklar yassi tagliklarga ham xuddi yuqorida aytilgan maqsadda biriktirilishi mumkin.

Oyoq panjasining tovon qismini bukilishi poshnaning balandligiga bog'liq. Poshna qancha baland bo'lsa, oyoq panjasi yuqoridan shuncha kalta ko'rindi (past poshnali poyabzalga nisbatan).

Bundan tashqari poshna qancha baland bo'lsa, oyoq panjasining yuzasi shuncha kam yerga tegib turadi va oyoq panjasining kaft qismi esa yurayotganda kam bukiladi.

2.1.5. DETALLARNI BIRIKTIRISHDA ISHLATILADIGAN CHOKLAR

Biriktiriladigan materialarning xususiyatiga va ishslash sharoitiga qarab choklar uch guruhg'a bo'linadi:

1. Qalinligi 2 mm gacha, bikirligi kam ($D = 200 \div 1200H$) bo'lgan materialarda ishlatiladigan choklar, mustahkamligi 12 dan 80N gacha ip va yelim yordamida hosil qilinadi. Bunday choklar poyabzalda egilish deformatsiyasiga ko'proq ishlaydi.

2. Qalinligi $2 \div 6$ mm, bikirligi o'rtacha ($D = 1300 \div 1500H$) bo'lgan materialarda ishlatiladigan choklar, mustahkamligi 120 dan 200N gacha bo'lgan iplar va yelimir hamda mix, mix-cho'p yordamida hosil qilinadi. Bunday choklar egilish deformatsiyasiga kamroq uchraydi.

3. Qalinligi va bikirligi katta materialarda ishlatiladigan choklar asosan: mix, vint, mix-cho'p yordamida hosil qilinadi.

Birinchi guruhdagi choklar, asosan, ustki detallarni (tanavor) biriktirishda, ikkinchi guruhdagilar — taglikni ustki detallar bilan biriktirishda, uchinchisi — poshnalarini biriktirishda ishlatiladi.

a) Ustki detallarni biriktirishda ishlatiladigan choklar

Poyabzal ishlab chiqarishda baxyalarni hosil bo'lishiga qarab uch xil baxya ishlatiladi. Mashina ignasi yordamida materialarda hosil qilingan qo'shni teshiklar orasidagi iplar chalishuvining bitta tugallangan sikli baxya deyiladi. Ketma-ket qator takrorlangan baxyalardan baxyaqator hosil

bo'ladi. Igna o'tgan ikki qo'shni teshiklar orasidagi masofa baxya qadami (yirikligi)ni ifodalaydi. Baxyaqatorlar konstruksiya va qayerda qo'llanilishiga qarab turli tikuv mashinalarda bajariladi. Tikuv mashinalarda moki baxya va zanjirsimon baxya hosil bo'ladi. Moki banya ikki ipdan: ustki(igna) va ostki (moki) iplaridan hosil qilinadi. Ustki va ostki ip materiallar orasida chalishib, ustida uzlusiz joylashgan ip qatorini hosil qiladi. Bu iplar to'g'ri chiziq, siniq chiziq yoki boshqacha joylashishi mumkin. Moki baxya mashinalarda uch xil baxyaqator: choklash baxyaqator, siniq baxyaqator va yashirin baxyaqatorni bajarish mumkin.

Choklash baxya qatori eng ko'p tarqalgan bo'lib, ommaviy ishlab chiqarishda turli tezliklarda tikiladigan, baxyani hosil qilish jarayoni turlicha va mexanizmlar konstruksiysi har xil bo'lgan mashinalarda bajariladi. Choklash mashinalari bir ignali va ko'p ignali bo'lib, ulardan bitta yoki bir yo'la bir nechta parallel moki baxyaqator hosil qilishi mumkin.

Siniq baxyalarning choklash baxyaqatordan farqi shundaki, unda material ustiga joylashgan iplar siniq shaklida bo'ladi. Bu baxya qator hosil bo'layotganda mashinaning ignasi yuqori va pastga oddiy harakat qilishdan tashqari baxyaqatorga nisbatan ko'ndalangiga og'adi. Siniq baxya qatorining choki oddiy choklash baxyaqatorga qaraganda ancha elastikroq bo'lib, detal qirqimlarini tililishidan saqlash imkonini beradi. Bunday baxyaqator yuritib, bostirma chok bilan ulash, detallarning ziyini yo'rmash mumkin.

Zanjirsimon baxyaqatorning ko'rinishi ustki tomonidan oddiy choklash moki baxyaqatoriga o'xshash, ostki tomonidan esa zanjirsimon ko'rinishda bo'ladi. Zanjirsimon baxya hosil qilishda moki bo'limganligi tufayli mashinaga to'la g'altak ip taqilsa, butun ish vaqt davomida boshqa ip taqmay tikish mumkin. Ikki ipli zanjirsimon baxya hosil qilishga, moki baxyaqatorga nisbatan ikki barobar ortiq ip sarf bo'ladi.


Zanjirsimon baxyaqatorining asosiy xususiyatlardan biri baxyaqatorning oxirgi uchidan oson so'kilishidir. Shuning uchun zanjirsimon baxyalar tanavorni tikishda kam ishlatiladi.

Tanavorni tikishda ishlatiladigan choklar, asosan, detallarni tikayotganda o'zaro joylashishiga, vazifasiga, konstruksiyasiga ko'ra uch turga bo'linadi: birlashtiruvchi choklar, ziy choklar va bezak choklar.

Birlashtiruvchi choklar; qo'yma, biriktirma, yorma, tutashtirma choklardan iborat.

Qo'yma chok (2.10-a, b, d rasm) — ustki detallarni birlashtirishda eng ko'p uchraydigan (50—60 foiz) bo'lib, u sirtqi va ichki detallarni tikishda ishlatiladi. Qo'yma chok juda ko'p va to'la o'rganilgan. Detallarning birini o'ng tomoniga, ikkinchi detalni teskari tomoni qo'yilib bir, ikki yoki uch baxyaqator bilan bir yoki ikki ignali tikuv mashinalarida tikiladi.

Biriktirma chok poyabzalning dastak, gulchin, etik qo'njining tovon chizig'i bo'ylab tikishda qo'llaniladi. Buning uchun detallar bir-biriga o'ng (yuz) tomonlar bilan qo'yib baxyaqator yuritiladi, (2.10-e rasm) keyin 180° ag'darib dazmollaniladi (2.10-f rasm).



2.10-rasm. Qo'yma, biriktirma va tutashtirma choklar.

Biriktirma chok turlari:

a) tashqi orqa tasmalı biriktirma chok (2.10-g rasm), biriktirma chokning ustidan tashqi orqa tasma qo'yib, qo'yma chok bilan mustahkamlanadi.

b) yorma chok (2.10-h rasm) bajarishda detallar biriktirma chok bilan tikiladi, hosil bo'lgan chok ikki tomonga yorib, ma'lum oraliqda (material qalinligi va modelga qarab) chokning ikki tomonidan bostirib tikiladi.

d) mag'izli biriktirma chok — biriktirma choklarni (2.10-j rasm) mustahkamligini oshirish va chok orqali suv o'tishning oldini olish uchun tikilayotgan detallarni orasiga mag'iz (ingichka charm tasma) qo'yib tikiladi.

e) ikki qavat mag'izli biriktirma chok (2.10-k rasm).


Tutashtirma chok — detallar ziy-ziyiga qo'yilib siniq baxyaqator yuritiladi (2.10-l rasm). Tutashtirma chok detallar ulangan chokning qalinligi oshib ketmasligi uchun ishlataladi.

Tutashtirma chokni dastakni, tovon chizig'ini, tilchani astarini tikishda va boshqa hollarda qo'llash mumkin. Dastakning tovon chizig'ida ishlataliganda, tutashma chok tashqi orqa tasma bilan qo'yma chok yordamida mustahkamlanishi shart.

Ziy chok — detallarning chetlarini titilib ketishidan saqlashda, detallarning ko'rindigan ziylariga ishllov berishda ishlataladi. Ziy choklar buklama, mag'iz, ag'darma choklardan iborat.

Buklama chok — bir marta bukib, ochiq qirqimli (2.11-a rasm) yoki ikki marta bukib (2.11-b rasm), yopiq qilib tikilishi mumkin. Ushbu chok, asosan, charm-attorlik buyumlarda va astarsiz poyabzallarda uchraydi.

Mag'iz chok — poyabzalni yoki charm-attorlik buyumlarni qaysi detallarida va nima maqsadda ishlatalishiga qarab ochiq, yopiq qirqimli va maxsus



2.11-rasm. Ziy va bezak choklar.

tasmalı bo'lishi mumkin. Astarsiz poyabzallar va charm-attorlik buyumlar, sun'iy va sintetik charmdan, to'qima materiallardan tayyorlangan poyabzal hamda charm-attorlik buyumlarini ko'rindigan ziy(kant)lari mag'iz chok bilan tikiladi.

Ochiq qirqimli mag'iz chok — (2.11-d rasm) tikishda qiyiq qilib tikilgan material parchasi, asosiy detal ustiga o'ngini ichkariga qaratib qo'yiladi va 3—4 mm kenglikda chok bilan tikiladi. Mag'iz parchasi asosiy detal atrofidan o'tkaziladi, keyin tikilgan chokdan 1—1,5 mm nariroqda bostirma baxyaqator yuritiladi.

Yopiq qirqimli mag'iz chokni (2.11-e rasm) maxsus buklagich qo'llab tikishda, mag'iz cheti buklagich bilan bukilib, mashina ignasi tagiga uzatib beriladi va bitta baxyaqator yuritib tikiladi. Yopiq qirqimli mag'iz chokni, ochiq qirqimli mag'iz chok kabi tikishda mag'iz parchasi ikki buklanib olinadi (2.11-f rasm). Maxsus tasmalı mag'iz chok tasma milkidan (2.11-g rasm) 1—1,5 mm oralig'ida baxyaqator yuritib tikiladi.

Ag'darma chok yordamida, asosan, sirtqi detalga astar tikiladi. Buning uchun asosiy detallarning o'ngini ichkariga qaratib qo'yib biriktirma chok tikiladi, keyin chokni yorib dazmollab yoki dazmollamay, detalning o'ngiga ag'darib baxyaqator yuritiladi. Bahyaqatorni yuritish sirtqi detalning qalinligiga bog'liq, agar qalin bo'lsa, biriktirma chokdan pastda (2.11-i rasm), yupqa bo'lsa, yuqorida (2.11-h rasm) joylashgan bo'ladi.

Bezak chok — poyabzal yoki charm-attorlik buyumlarini bezashda ishlatib, taxamlar va bo'rtma choklardan iborat bo'ladi.

Taxlamalar, asosan, charm-attorlik buyumlarida ishlatiladi. Ular birlashtiruvchi yoki faqat bezatuvchi bo'lishi mumkin. Birlashtiruvchi taxlamalar (2.11-j, k, l, m, n rasm) bir nechta detalni birlashtirib taxlama hosil qiladi.

Bezak taxlama belgi chiziqlar bo'ylab o'ngini ichkariga qaratib bukib, ikkinchi belgi chiziq bo'ylab tikiladi. Taxlamalar ikki tomoniga yoki bir-biriga qaratilib, modelga muvofiq o'ng tomonida baxyaqator bostirib tikiladi.

Bo'rtma choklar (2.11-*o*, *p* rasm) detalning o'ng tomonidan mayda-mayda taxlar shaklida, detal orasiga maxsus shnur qo'yib, bo'rttirilgan yoki detalning ham teskari, ham o'ng tomonidan baxyaqator yuritib bo'rttirilgan bo'lishi mumkin. Bo'rtma choklarni tikish uchun, detalning o'ng tomonidan bezak o'mi, shakli belgilab olinadi yoki belgilamay maxsus moslama ishlatib, shnur qo'yib, bo'rtma chok tikiladi.

b) Ustki detallar(tanavor)ni taglik bilan biriktirish usullari va ulardagи cholklarning turlari

Ustki detallarni taglik bilan biriktirish usullari mexanik, kimyoviy va murakkab guruhga bo'linadi.

Mexanik usuli o'z navbatida mixli, vintli va ipli usullardan iborat. Har bir usul detallarni biriktirishda ishlatiladigan biriktiruvchi (mix, vint, mixcho'p, ip) nomi bilan aytildi.


Kimyoviy usul yelimli, quyma va issiq vulkanizatsiya guruhlari hisoblanadi. Hozirgi paytda yelimli va quyma usullar poyabzal ishlab chiqarishning 70–80 foizini tashkil qiladi.

Murakkab usullar, asosan, yuqorida aytilgan usullarning ikkita yoki uchtaсини birga kelishi natijasida hosil qilinadi, ya'ni qadolatli yelimalsh, sandalli yelimalsh, mixli yelimalsh va hokazolar.


Mexanik usullar

Mixli usulda tanavoring tortish baxyasi patakka mix (teks) yordamida biriktirilib, tortish milkining oralari to'idirgich bilan to'idiriladi, so'ngra mix yordamida asosiy patakka (2.12-*d*, *b* rasm) biriktiriladi.

Mixcho'pli va vintli usullarning cholklarini konstruksiyasi xuddi mixli usulga o'xshash, faqat taglikni biriktirishda birinchisida (2.12-*d* rasm) mixcho'p, ikkinchisida (2.12-*a* rasm) vint ishlatiladi.



2.12-rasm. Mixcho'pli biriktirish usullari.



2.13-rasm. Ipli biriktirish usullari.

Ag'darma usul (2.13-a, b rasm) tanavorni taglikka biriktirma chok bilan tikib, so'ngra o'ngi ag'dariladi yoki yashirin chok bilan tikiladi.

Sandal usulida (2.13-d rasm) taglik tanavorni tashqi tomonga qayrilgan tortish baxyasiga quyma qadolat qo'yilib, butun perimetri bo'ylab tikiladi. Bunday poyabzal asosiy pataksiz va astarsiz bo'ladi.

Doppel usulida (2.13-e rasm) tanavorning astari qolipini ostiga qayirib, asosiy patakka biriktiriladi. Sirtqi detalning tortish baxyasi esa tashqi tomonga qayrilib, qo'yma qadolat qo'yib yoki qo'ymay taglikka poshna qismigacha tikiladi. Poshna qismi esa xuddi mixli, mixcho'qli, yelimlash usullariga o'xshab biriktirilishi mumkin.


Tikma usulda (2.13-f rasm) tanavorning tortish baxyasi asosiy patakka xuddi mixli usuldagidek biriktirilib, tortish milki oralig'i to'ldirgich bilan to'ldirganidan keyin, taglik asosiy patakka tortish baxyasi bilan qo'shib tikiladi.

Rant-tikish usuli (2.13-h rasm) yassi patakka tanavorning tortish baxyasi bilan qo'shib tikilgan rantga taglik ip bilan biriktiriladi.

Rant usulida (2.13-h rasm) tanavorning qolip ostiga qayrilgan tortish baxyasi rantli patakning labiga mix yoki yelim yordamida biriktiriladi. Patak labiga tanavor milki qo'shib tikilgan rantga taglik ip bilan biriktiriladi. 2.13-i, l rasmlarda «Parko-1», «Parko-2» usullari keltirilgan.

Kimyoviy usullar

Yelimlash usulida (2.14-a rasm) tanavorming tortish baxyasi qolip ostiga qayrilgan bo'lib, asosiy patakka yelim yoki mix yordamida biriktirilib, tortish milk orasi to'ldirgich bilan to'ldiriladi. Taglik tortish milkiga yelim bilan yopishtiriladi. *Yelimlash* usullarida turli yelimlar ishlatiladi, ularning ichida eng ko'p ishlatiladigan nairit va poliuretan yelimlaridir.



2.14-rasm. Kimyoviy biriktirish usullari.


Issiq vulkanizatsiya usulida (2.14-b rasm) taglik vulkanizatsiyalovchi press-qolipda rezina qorishmasidan shakllantirish bilan birga, qolipga tortilgan tanavorga yopishtiriladi.

Quyish usulida (2.14-d, e rasm) taglik maxsus dastgohlarda qolipga tortilgan tanavorga bosim bilan shakllantirilib biriktiriladi.

Murakkab usullar

Rant yelimlash usulida (2.15-a rasm) taglikning birinchi qatlami, yupqa taglik, rant usuli bilan ikkinchi qatlami esa taglik birinchi qatlamga yelim bilan biriktiriladi.

Sandal yelimlash usulida ham avval sandal usulida yupqa taglik (birinchi qatlam) biriktirilib olib, keyin taglik (ikkinchi qatlam) yelim yordamida yopishtiriladi (2.15-b rasm).



2.15-rasm. Tag detallarini murakkab usullar bilan biriktirish.

Tikib — yelimlash usulida (2.15-d rasm) yumshoq patak tanavorga va qoplamaaga tikib olinib, qolipga kiygiziladi. Qoplamani tortish baxyasini yumshoq taglikka yelim yordamida biriktiriladi va qoplamaning tortish milkiga taglik yopishtiriladi.

2.1.6. POYABZALNING ICHKI O'LCHAMI (RAZMERI) VA SHAKLI

Ommaviy poyabzalning ichki o'lchami (razmeri) va shakli oyoqqa loyiq hamda har xil sharoitda kiyishgaga mos bo'lishi kerak. Poyabzallar ichki o'lchamlari hamda shakli bo'yicha bir nechta razmerlarga va to'laliklarga bo'linadi.

Hozirgi paytda poyabzal sanoatida bir nechta: fransuzcha — shtixmasli, inglizcha — dyuymli va 1964-yildan millimetrlı sistema qo'llanib kelinmoqda.

Shtixmasli sistemada poyabzalning razmeri deb, patakning uzunligi qabul qilingan. Shtix (st) Fransuzcha uzunlik birligi bo'lib, 1 st = 2/3 sm ga teng. Shtixmasli sistemada bir razmer ikkinchi razmerdan 1st ga farq qiladi:


$$N \text{ st} = 0,15 (L_{\text{o.p.}} + p - s),$$

bu yerda: $L_{\text{o.p.}}$ — oyoq panjasining uzunligi; p — tumshuq qismidagi qo'shimcha; s — tovon qismining siljishi.

Poyabzalning razmerini aniqlashda tumshuq qismidagi qo'shimcha (p) (2.16-rasm) katta ahamiyatga ega, chunki u modaning yo'naliishi-ga qarab o'zgarib turadi, (s) tovon qismining siljishi esa poshnaning baland va pastligiga bog'liq. Shuning uchun bu sistemada har bir oyoq panjasining uzunligiga bir nechta razmerdagi poyabzallar to'g'ri kelishi mumkin.

Inglizcha sistemada ham, poyabzalning razmeriga patakning uzunligi, o'lchov birligi qilib esa $1/3$, (dyuym), ya'ni 8,46 mm, yoki $1/6$ (dyuym), 4,23 mm qabul qilingan.

Angliya va Amerikada o'lchov birligi sifatida dyuym qabul qilingan bo'lsa ham, poyabzalning razmeri N_a , shartli ravishda butun sonlar bilan belgilangan, ya'ni $1 \div 13$. Masalan: eng kichik bolalar poyabzali $4(1/3)$ dyuym = $1,8$ ($1/3$) esa = 13 gacha, kattalar uchun ham $1 \div 13$ bo'lgan razmerlar mavjud. Faqat kattalar uchun $8(2/3)$ dyuym uzunlikdagi pataklar uchun shartli ravishda 1 raqam qo'yiladi va hokazo 13 raqam gacha.



2.16-rasm. Poyabzal razmerini aniqlash.

Poyabzalning razmerini belgilashda bunday farqlar, davlatlararo savdo qilishda chalkashliklarni vujudga keltiradi. Shuning uchun

1964-yilda Yu.P. Zibin tomonidan poyabzal razmerini belgilashda yangi sistema yaratildi. Bu sistemaga asosan, poyabzalning razmeri deb, oyoq panjasining uzunligi $L_{o.p.}$ millimetrda qabul qilingan. Razmerlar orasidagi farq (oyoq panjasini «sezish, befarqlik chegarasini» nisobga olgan holda) 5 mm ga teng, ya'ni (260, 265), bulg'ori charmdan qilingan poyabzallar uchun esa 7,5 mm ga teng.

Har xil sistemadagi razmerlar o'zaro quyidagicha bog'langan:

Erkaklar va ayollar poyabzali uchun		Qolgan guruhdagi poyabzallar uchun	
Nst	= 1.27 (25+Na)	Ns	= 1.27 (12 + Na)
Na	= 0.79 Nst + 25	Na	= 0.79 Nst + 12
Ncm	= 0.84 (6) (25+Na)	Ncm	= 0.84 (6) (12+Na)
Ncm	= 0.66 (6) Nst	Ncm	= 0.66 (6) Nst
Nst	= 0,15 (Nmm + P - S)	Nst	= 0,15 (Nmm + P - S)

Hozirgi paytda O'zbekistonda poyabzallar 10 yosh-jinsiy guruhlarga bo'linadi va ularning o'lchamlari 1, 2-jadvallarda berilgan.

1-jadval

**Ommaviy poyabzal va qoliplarni yosh-jinsiy guruhlarga
va razmerlarga bo'linishi**

Poyabzal guruhli	Nomi	To'latiklar soni	Qolip va poyabzal razmeri, mm da	Guruuning o'rtacha razmeri, mm da
0 1	Chaqaloqlar			
	1-guruhi	1+7	95÷125	100
2 3	Maktab yoshigacha bolalar			
	1-gunuhi	1+9	145÷160	155
4	2-guruhi	1+9	165÷200	185
	Maktab yoshidagi qiz bolalar	1+9	205÷225	215
5	Qiz bolalar			
	1-guruhi	1+9	230 ÷ 240	
6	2-guruhi	1+9	245÷260	235
	Maktab yoshidagi o'g'il bolalar	1+9	205÷225	215
7	O'g'il bolalar			
	1-guruhi	1+9	230÷240	
8	2-guruhi	1+9	245÷280	240
	Ayollar	1+9	210÷275	240
9	Erkaklar	1+9	245÷305	270

**Bulg'ori charmidan tayyorlangan poyabzallarni yosh-jinsiy
guruhi va razmerlarga bo'linishi**

Qoliplar guruhi		Qolipning razmeri, mm da	Guruhning o'rtacha razmeri
Nomeri	Nomi		
3	Bolalar	177÷200	1853
6	Maktab yoshidagi o'g'il bolalar	207÷230	215
7	O'g'il bolalar	237÷60	245
8	Ayollar	217÷285	240
9	Erkaklar	240÷307	270

Eslatma. Har bir guruhdá kamida 3 ta to'lalik bo'lishi shart.

Poyabzallarni ommaviy ishlab chiqarishda faqat uzunligi hisobga olinibgina qolmay, ularning to'laliklarini ham hisobga olish kerak.

Bir razmerdan ikkinchi razmerga o'tganda, poyabzal va qolipning har bir ko'ndalang kesimi ham ma'lum qiymatda o'zgaradi. Bitta razmerdag'i oyoq panjalarining eni va balandligi har xil bo'ladi. Shuning uchun bir razmerdag'i poyabzal va qolipni bir nechta to'lalikda ishlab chiqarilishi ko'zda tutilgan.

Erkaklar va ayollarning poyabzallari uchta to'lalikda chiqarilishi shart. Kundalik poyabzallarning ko'ndalang kesmasi (to'laliklari) orasidagi farq 8 mm. Bashang poyabzallarda esa 4 ta to'lalikda — 6 mm interval bilan ishlab chiqariladi.

Qolip va poyabzallarning to'laliklari son yoki harflar bilan shartli ravishda belgilanadi. Sonlar qancha katta bo'lsa, to'lalik ham shuncha katta bo'ladi.

2.1.7. POYABZALNING VAZIFASI BO'YICHA TURLARI

Poyabzallar ko'rinishi, razmerlari, materiali, detallar soni va shakli, ularning o'zaro biriktirilishiga qarab, ma'lum maqsadlarda va sharoitda kiyishga mo'ljallangan poyabzallar quyidagi turlarga bo'linadi.

Maishiy poyabzallar

Eng ko'p uchraydigan poyabzallar turlariga maishiy poyabzallar kiradi. Bular kundalik, ko'chalik (bashang) va xonada kiyiladigan poyabzallarga bo'linadi. Ular o'z navbatida yil fasliga qarab yozgi, qishki, bahorgi-kuzgi; xonada kiyiladigan poyabzallar esa faqat qishki va yozgi bo'ladi.

Qishda kiyiladigan poyabzallarning razmeri kattaroq bo'ladi, chunki issiq paypoq yoki paytava bilan kiyish uchun mo'ljallangan. Qishki poyabzallar, asosan, oyoq panjasini ko'proq berkitib turadigan, ustki va tag detallari esa issiqlikni kam o'tkazadigan qalin, g'ovak materiallardan

tayyorlangan bo'lishi kerak. Bunday poyabzallarning astari mo'yna va boshqa shunga o'xshash tukli materiallardan bo'ladi. Bu talablarga javob beradigan poyabzallar botinka va etiklardir.

Yozgi poyabzallarning ichki o'lchamlari (razmeri) qishki poyabzallardan kichikroq bo'ladi, chunki yozda yupqa paypoq bilan yoki paypoqsiz kiyiladi.

Tasmali sandallar hamda orqa va old, axmi qismlari ochiq tuflilar yozgi poyabzallar hisoblanadi.

Bahorgi-kuzgi poyabzallarga yozgi va qishki poyabzallar orasidagi talablar qo'yiladi. Ularning ko'rinishi, konstruksiyasi, detallarning o'zaro biriktirilishi turlicha bo'ladi. Ularga qo'yiladigan talablardan eng asosiysi suvni kam o'tkazishi kerak. Shuning uchun tagliklar plastmassadan, rezinalardan va qalin charmlardan bo'ladi.

Yozgi, qishki, bahorgi poyabzallardan tashqari og'ir (ishchi) poyabzallar bulg'ori charmdan (yuft) va kirzadan tayyorlangan etik hamda botinkalar bor. Bu poyabzallar boshqa guruhlardan materiallarning qalinligi, ichki o'lchamlar (razmerlar) va massasining kattaligi bilan farq qiladi. Bu poyabzallar, asosan, qishloq xo'jaligida va ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladi.

Xonada kiyiladigan poyabzallar o'zining yengilligi va yumshoqligi bilan ajralib turadi. Xonada kiyiladigan poyabzalda oyoq dam olishi va oyoq panjasini siqib turmasligi kerak. Ko'pincha xonada kiyiladigan poyabzallarni poshnasiz yoki past poshnali, ko'p qismi ochiq ko'rinishdagi tuflilar tashkil qiladi. Ustki detallarni charmdan, har xil rangdagi gulli va gulsiz gazmollardan tayyorlanadi.

Xonada kiyiladigan poyabzallar qishki va yozgi bo'ladi. Yozgi poyabzallar yupqa materiallardan qilinsa, qishkilarda qalin drap yoki issiq astar, ayrim hollarda sun'iy yoki tabiiy mo'yna ishlatiladi.

Maxsus poyabzallar

Ishlab chiqarishda, sport turlarida, tibbiy maqsadlarda kiyiladigan poyabzallarning ishlatilish sharoiti, maishiy poyabzallarnikiga qaraganda o'zgacha bo'lgani uchun, ularning qiyofasini, konstruksiyasini, umumiy yo'nalishini saqlab qolgan holda har bir maxsus poyabzalni o'ziga xos talablarini hisobga olib ishlab chiqariladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida poyabzal oyoqni yoki oyoq panjasining har xil xavfli ta'siridan himoya qilishda, ya'ni birorta og'ir narsa, qizdirilgan yoki eritilgan metall, kimyoiy mahsulotlar tushishidan, suv, issiq va sovuq havoning muttasil ta'siridan hamda portlash va yong'indan xavfli xonalarda ishlaganda kerak bo'ladi.

Hozirgi maxsus konstruksiyadagi poyabzallar borki, ular yuqorida aytilgan barcha talablarni qondiradi, ya'ni po'latdan yasalgan tumshuqli betukli poyabzallar, og'ir metall tushishidan himoya qilsa, maxsus materialdan qilingan va orasiga issiqlikni kam o'tkazuvchi (asbest) material qo'yib tikilgan poyabzallar katta issiq ta'sir qiladigan korxonalarda kiyiladi va hokazo.

Sport poyabzali juda turlidir, u asosan, sport turlariga bog'liq: alpinistlar, sayyoqlar, futbolchilar, basketbolchilar, tennischilar gimnastikachilar, kurashchilar, bokschilar va boshqalar.

Har bir sport turidagi poyabzallarga o'ziga xos talablar qo'yiladi. Masalan: ayrim poyabzallar (tug' sporti) o'ta mustahkam, og'ir, dastagi baland; ayimlari esa (konkida yugirish) yengil, dastagi baland; (gimnastika) yumshoq va yengil bo'lishi kerak.


Tibbiy poyabzallar ikki, kasalning oldini olishga — profilaktik va kasal oyoqlar uchun — ortopedik turga bo'linadi.

2.2. CHARM-ATTORLIK BUYUMLARINI KONSTRUKTIV TAVSIFI


Charm-attorlik buyumlari vazifasiga qarab, asosan, uch turga bo'linadi: narsalarni ko'tarib yurish va saqlashga mo'ljallangan buyumlar, qo'lqoplar hamda kamarlar.

Ishlash sharoitiga qarab charm-attorlik buyumlari maishiy va maxsus turlarga bo'linadi. Narsalarni ko'tarib yurishga va saqlashga mo'ljallangan buyumlar o'z navbatida kundalik, ko'chalik, safarlik, xo'jaliq (bozorlik) bo'lib; maxsus turlari esa sport va ishlab chiqarish korxonalarida ishlataladigan buyumlarga bo'linadi. Kamarlarning maishiy turlari, asosan, soatlar va bel (shim) kamarlari hisoblanadi.


Narsalarni ko'tarib yurish va saqlashga mo'ljallangan buyumlar o'z navbatida ixtiyoriy o'lcham hamda shakldagi va shakli, o'lchami unga solinadigan narsalarning o'lchami va shakliga bog'liq buyumlarga bo'linadi. Narsalarni ko'tarib yurish va saqlashga mo'ljallangan buyumlar o'z navbatida qiyofasi jihatidan: xaltalar (2.17-rasm), jamadonlar (2.18-rasm), portfel va papkalar (2.19-rasm), hamyonlar (qog'oz pul va tangalar uchun)




2.17-rasm. Kundalik (a), xo'jaliq (b), ko'chalik (d,e) xaltalar.



2.18-rasm. Qattiq (a, b.), yarim qattiq (d, e) konstruksiyadagi jamadonlar:
1 — qopqoqning yuqori qismi,
2 — qopqoqning botani, 3 — korpusning botani, 4 — korpusning tubi.



2.19-rasm. Portfel va papkalar. Erkaklar (a, b), o'quvchilar (d) portfellari, portfel-papka (e).



2.20-rasm. Mayda charmattorlik buyumlari (hamyonlar).


(2.20-rasm) ga bo'linadi. Shakli va o'lchami, unga solinadigan narsaning shakli va o'lchamiga bog'liq buyumlarga, turli (ko'zoynak, tanbur, g'ijjak) g'iloflar, jild (daftar, avtomobil)lar va hokazolar kiradi.

2.2.1. IXTIYORIY O'LCHAM VA SHAKLDAGI BUYUMLAR DETALLARINING SONI, O'LCHAMI VA SHAKLI


Detallarning soni, o'lchami va shakli bo'yicha nav (assortiment)lari behisob bo'lib, faqat ayrim, eng ko'p uchraydigan turlarini ko'rib chiqish kifoya.

Shu guruhdagи buyumlarni detallari joylashishiga qarab sirtqi, ichki va oraliq detallarga bo'linadi.

Sirtqi detallar o'z navbatida asosiy va qo'shimcha detallarga bo'linadi. Asosiy detallar (2.21-rasm) buyumning korpusini tashkil qilib, uning shaklini va o'lchamini belgilaydi. Bu devorchadan iborat bo'lib, o'z navbatida *old va orqa 3 devorchalar* deb ataladi. Devorchalar to'rburchak, trapetsiyasimon, ovalsimon, figurali bo'lishi mumkin. Ularning shakli, o'lchami, buyumning



2.21-rasm. Charm-attorlik buyumlарининг сиртқи деталари.



2.22-rasm. Charm-attorlik buyumlарининг ichki detallари.

shakli va o'Ichamini belgilaydi. Devorchalarning bir qismi bo'lgan *faldalar* 4 chaqmoq zanjirli buyumlarning yuqori qism hajmini kattalashtirish uchun, *koketkalar* 5 esa turli shaklda bo'lib, devorchani yuqori yoki quyi qismini tashkil qilib, buyumlarni bezashda ishlataladi.


Tubi 1 devorchalarini orasida joylashgan bo'lib, korpusning quyi yuzasini tashkil qiladi.

Korpusning old, orqa va tag yuzasi yaxlit materialdan tashkil topgan va uning o'Ichamlari shakli devorcha singari turlicha bo'lishi mumkin.

Buyumlarning yon qismini oddiygina qilib, buyumning yoni yoki bo'lmasa *qiyiq* 2 deb atashadi. Buyumning yon qismining shakli va konstruksiyasi har xil bo'lib, ko'p hollarda tekis shaklda yoki bo'lmasa bir burmali va ko'p burmali bo'lishi mumkin.

Tag — botan — buyumning tubini va ikki yon yuzasini, yuqori botan ikki yon va yuqori yuzasi, aylanma botan — tubini, yon va yuqori yuzalarini (2.22-rasm) tashkil qiladi. Botan, xuddi qiyiqga o'xshash bir yoki ko'p burmali bo'lishi mumkin.

Yopqich (klapan) 3 buyumlarning yuqori qismini berkitish uchun xizmat qiladi, u istalgan shaklda va o'Ichamda bo'lishi mumkin.



2.23-rasm. Charm-attorlik buyumlарининг sirtqi detallари.

Yuqorida keltirilgan hamma asosiy sirtqi detallar yaxlit yoki yig'ma (masalan, botan, ikki qismdan iborat bo'lib, tag qismining o'rtasida tikiladigan) bo'lishi mumkin.

Qo'shimcha detallarga, buyumlarning yuqori qismini yopishda ishlataladigan: kichik yopqich 5, (2.22-rasm) super 2, gort 1, tasma 4 hamda ushlagich, cho'ntaklar va bezak detallari kiradi.

Ichki detallar buyumning ichida joylashgan bo'lib (2.23-rasm), ular buyumlarning ich yuzasini bezaydi va bo'laklarga bo'ladi (devor 1, devorcha cho'ntak 2, chaqmoq zanjirli cho'ntak 3 va hokazolar).

Oraliq detallar sirtqi va ichki detallarning orasida joylashgan bo'lib, buyumlarning turli shakllarini hosil qilish hamda saqlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari ayrim oraliq detallar sirtqi detallarning choklarini mustahkamligini oshiradi.


Oraliq detallari uchun maxsus attorlik kartonlar, paxta va yog'och tolalar, viniplast va boshqa materiallar, shuningdek, maxsus tasmalar, shnurlar, yopishqoq tasma (velkro)lar ishlataladi.

Oraliq detallar qattiq materiallardan bo'lsa, qattiq korpusli xaltalar deyiladi. Qattiq korpusli xaltalarning hamma detallariga yoki ko'p detallariga; yarim qattiq konstruksiyadagi xaltalarga, korpusning qisman detallariga qattiq oraliq detallari qo'yiladi. Yumshoq konstruksiyadagi buyumlarda qattiq materiallardan qilingan oraliq detallar bo'lmaydi.


Bularning o'lchamlarini uning old devorining gorizontal yo'nalishdagi maksimal uzunligi U va maksimal balandligi B hamda yon yuzasining maksimal eni E bilan belgilanadi (2.24-rasm).

Xaltalarning ustini yopqich (klapan), chaqmoq zanjir, ramkali qulflar yordamida berkitish mumkin. Korpusning materiali ramkali qulfining tagidan, yonidan yoki ustidan qistirib biriktirish (2.25-rasm) usullari mavjud.


Charm-attorlik buyumlarida juda ko'p material turlari ishlatalishi mumkin. Sirtqi



2.24-rasm. Charm-attorlik buyumlarining eni (E), uzunligi (U), balandligi (B).



2.25-rasm. Ramkali qulfn biriktirish turlari.



2.26-rasm. Noag'darma biriktirish usullari.

detallarga charm, sun'iy va sintetik charmlar, plyonkalar, gazzollar, ichki detallar uchun esa to'qima hamda turli sun'iy va sintetik materiallar ishlataladi.

Ixtiyoriy o'Icham va shakldagi buyumlarning tikish (yig'ish) hamda ko'rinaligan ziylariga ishlov berish usullari mayjud.

Charm-attorlik buyumlarini yig'ishda, asosan, ag'darma va noag'darma usul qo'llaniladi.

Ag'darma usulda korpusning hamma asosiy detallari biriktirma chok va uning turlari yordamida biriktiriladi. Ag'darma usul eng qulay va oson, ish unumдорligi yuqori bo'lgan usul bo'lib, detallarning ziyiga qo'shimcha ishlov berish talab etilmaydi. Sirtqi detallarni biriktiriladigan bunday choklar, buyumlarning ichida joylashgan bo'lib, ularni astar berkitib turadi. Shuning uchun iplar yedirilmaydi. Astarsiz buyumlarda mag'iz choklar qo'llaniladi. Ag'darma usul, asosan, sirtqi detallarga yumshoq materiallar ishlataliganda qo'llaniladi.

Noag'darma usul murakkab usul hisoblanadi, chunki ziylarga maxsus ishlov berish kerak bo'ladi. Noag'darma usulda buyumlarning ko'rinaligan ziylari bukiladi, qirqladi va mag'iz (2.26-rasm) yoki qaviq choklar yordamida tikiladi.

Ko'rinaligan ziylarni biriktirishning uch xil ko'rinishi bor: birinchi detallarning ziyini, ikkinchi detalning ziyi bo'yicha qayriladi va tikiladi (a), birinchi detalning ziyini qayririb, ikkinchi detalning ziyi qirqladi (b) va ikkala detal qayririb tikiladi (d).

Qirqligan detallarning ziyi materialning rangida bo'yaladi.

Xaltalarning detallarini, yopqich, cho'ntak, koketka va qo'shimcha detallarni biriktirish uchun qo'yma choklar ishlataladi.

Biriktirma choklar — tashqi va ichki detallarda ishlataladi. Biriktirma chokning mustahkamligini oshirish va bezash uchun poyabzaldagi mag'iz o'rniga keder ishlataladi (2.27-rasm).



2.27-rasm. Kederli biriktirma choklar:

a — qirqligan, b — ikkiga buklangan, d — profillangan.

2.2.2. QO'LQOPLARNING KONSTRUKSIYASI BO'YICHA TAVSIFI

Qo'lqoplar ishlatish maqsadiga va sharoitiga qarab maishiy hamda maxsus turlarga bo'linadi. Maxsus qo'lqoplar o'z navbatida sport va ishlab chiqarish korxonalarida ishlatiladigan turlarga bo'linadi. Har bir turini hisobga olgan holda (bokschilar, velosipedchilar, darvozabonlar va hokazolar uchun), shuningdek ishlab chiqarish korxonalarida ishlash jarayoniga mos keladigan qo'lqoplar ishlab chiqarilishi kerak. Bu esa qo'lqoplar konstruksiyasini ko'payishiga olib keladi.

Maishiy qo'lqoplar o'z navbatida, qishki (mo'yna va bayka astarli) va bahorgi-kuzgi (astarsiz) mavsumlarga mo'ljallangan guruhlarga bo'linadi.

Qo'lqoplar yosh-jinsiy guruhiga va razmeriga qarab erkaklar, ayollar, yoshlar va bolalar uchun mo'ljallangan bo'ladi.

Qo'lqopning razmeri beshinchi kaft suyagini boshehasi orqali o'tkazilgan quchoq o'lchami millimetrda aniqlanadi.


Yosh-jinsiga qarab qo'lqop razmerlari 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval

t/r	Jinsi	Qo'lqop o'lchamlari, mm da
1.	Ayollar	170, 180, 190, 200, 210, 220, 230, 240, 250, 270, 280, 300.
2.	Erkaklar	200, 220, 230, 240, 250, 270, 280, 300, 310, 320, 340, 350, 360.
3.	Yoshlar	190, 200, 220.
4.	Bolalar	140, 150, 160, 170.


Qo'lqoplar kaft ro'molchasi 1 (platok), bosh barmoq ro'molchasi 2 (napalka) va qo'lqop mili 3 dan tashkil topgan (2.28-rasm). Kaft ro'molchasi yaxlit yoki bo'lmasa ikki, kaft va tashqi qismidan iborat bo'lishi mumkin. Qo'lqoplarni qo'l panjasiga mahkamlash uchun maxsus moslamalar qo'llaniladi.

Qo'lqoplarda, asosan, kaft ro'molchasi va bosh barmoq ro'molchasi ostiga astar qo'yildi. Qo'lqop detallari, asosan, qo'yma va biriktirma chok yordamida biriktiriladi.



2.28-rasm. Qo'lqoplar:

1 — kaft ro'molchasi; 2 — bosh barmoq ro'molchasi; 3 — qo'lqop mili.



2.29-rasm. Qo'lqop detallarini biriktirish usullari:
a — to'g'ri baxya; b — yarim ag'darma; c — dent; d — ag'darma;
e — halqa qaviq usullari.

(rasm).

Qo'lqoplarning sirtqi detallari uchun maxsus oshlangan charmlar, sun'iy va to'qima materiallarni qo'llash mumkin. Astarlar uchun esa tabiiy mo'yna, noto'qima material, tukli materiallar, sun'iy mo'yna, to'qima materiallar ishlataladi.

Nazorat savollari

1. Poyabzalning konstruktiv tavsifi nimalar bilan ifodalanadi?
2. Poyabzal qiyofasi bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?
3. Poyabzal ishlab chigarishda ishlataladigan materiallari bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?
4. Poyabzalning ustki detallari, ularning tuzilishi va o'lchamlarini izohlab bering.
5. Poyabzalning tag detallari, ularning tuzilishi, konstruksiyasini va o'lchamlarini izohlang.
6. Ustki detallarni biriktirishda ishlataladigan chok turlarini aytib bering.
7. Ustki detallarni taglik bilan biriktirish usullari va ulardagagi choklarning turlarini aytib bering.
8. Poyabzalning razmeri to'g'risida tushuncha bering.
9. Poyabzallar vazifasi bo'yicha qanday turlarga bo'linadi?
10. Charm-attorlik buyumlarining konstruktiv tavsifini izohlang.
11. Qo'lqoplarning konstruksiyasi bo'yicha tavsifini izohlang.

Qo'lqoplar, asosan, besh xil usulda ishlab chiqariladi.

1. *To'g'ri baxya usuli* — detallar bir-biri bilan qo'yma chok yordamida tikiladi (2.29 a-rasm).

2. *Yarim ag'darma usul* — qo'l panjasining kaft tomonidagi detallar biriktirma chok, tashqi tomonidagilar esa qo'yma chok bilan tikiladi (2.29 b-rasm).

3. *Ag'darma usul* — detallar bir-biriga o'ng (yuza) tomonlari bilan qo'yilib, biriktirma chok yordamida tikiladi (2.29 c-rasm).

4. *Dent usuli* — detallar bir-biriga teskari tomonlari bilan qo'yilib, biriktirma chok yordamida tikiladi. Chok qo'lqopning tashqi tomonida joylashgan (2.29 d-rasm).

5. *Halqa qaviq usuli* — detallar bir-biriga teskari tomonlari bilan qo'yilib, halqa qaviq yordamida tikiladi (2.29 e-f-rasm).

3-bob.

CHARM BUYUMLARNI QURISHDA ODAM ANATOMIYA VA FIZIOLOGIYASI, ANTROPOMETRIYA HAMDA BIOMEXANIKA ASOSLARI

3.1. QO'L VA OYOQ ANATOMIYA HAMDA FIZIOLOGIYASI

Anatomiya — organizm va uning organlari tuzilishi hamda shaklini, fiziologiya esa yaxlit organizm, ayrim organlar va ular sistemasining hayotiy vazifalarini o'rganadigan fan.

Anatomiya va fiziologiya o'zaro chambarchas bog'liq. Odam organizmining tuzilishi va vazifalari bir-biri bilan bog'liq hamda mustahkam hamkor. Odamning har bir organi muayyan vazifani bajaradi. Umumiy vazifalari birgalikda bajaradigan organlar, guruhlar va sistemalarni tashkil etadi. Organlar sistemalari o'z faoliyatida o'zaro bog'liqdirlar. Ular bir vaqtida kechadigan uyg'un jarayonlar butun organizmning hayotini ta'minlaydi. Organ bu tananing bir qismi, u o'z tuzilishiga, shakliga ega va bitta yoki bir nechta vazifani bajaradi. Bir xil organlar tanani zararlanishidan himoya qiladi, boshqalari uning harakatlanishini ta'minlaydi, uchinchi xil organlarda ovqatni o'zlashtirib, to'rtinchisi xil organlar tananing hamma organlariga to'xtovsiz qon yetkazib beradi.

Har bir organlarda qon tomirlari mavjud, ko'plari esa ingichka tomirchalarga ega. O'xshash vazifani bajaruvchi har xil organlar bir sistemaga birlashgan bo'ladi. Bular tayanch harakat, ovqat hazm qilish, nafas olish organlari, ayirish organlari, nerv, sezgi organlari, qon aylanish, ichki sekretsiya bezlari, ko'payish organlari sistemalaridir.

3.1.1. SKELETNING TUZILISHI VA VAZIFALARI

Skelet va muskullar tanamizning tayanchini tashkii etadi va ular harakatlanish organlari hisoblanadi. Shu bilan bir vaqtida skelet va muskullar himoya vazifasini bajaradi. Hayot uchun zarur bo'lgan organlar biroz shikastlangandayoq ularning normal faoliyati buzilishi mumkin. Ammo ko'krak bo'shilg'ida joylashgan organlar (yurak, o'pka)ni, ko'krak qafasi va qorin bo'shilg'ida joylashgan (oshqozon, ichak, buyrak va boshqa) organlarni esa umurtqa pog'onasining pastki bo'limi, chanoq suyaklarining pishiq muskullari himoya qilib turadi. Bosh miya miya qutisining ichida va orqa miya esa umurtqa pog'onasining ichidan o'tgan kanalda yotadi.

3.1. 2. SUYAKLARNING TUZILISHI

Suyak — asosan to'qimadan tuzilgan. Suyaklar qattiq va elastik bo'lib, tarkibida har xil kimyoiy moddalar bor, shunga ko'ra, ular qaynatilganda

ham shakli saqlanib qoladi. Suyak moddasi ikki xil, ya'ni 1/3 qismi organik (osein, xitin, muguz, tog'ay) moddalar bo'lsa, qolgan 2/3 qismi anorganik moddalardan tashkil topgan. Organik va anorganik moddalarning suyaklar tarkibidagi munosabati natijasida zarur mustahkamlik vujudga keladi. U yoshga qarab o'zgarib boradi. Yosh ulg'ayib borishi bilan mineral tuzlar suyaklar tarkibida ko'payadi. Shuning uchun qariyalarning suyaklari elastik xususiyati asta-sekin yo'qolib, mo'rt va salga sinadigan bo'lib qoladi.

Suyaklar ikki xil moddadon: zich (qattiq) va g'ovak moddalardan iborat. Zich modda yaxlit moddaga o'xshab ko'rindi. G'ovak moddada esa ingichka xovonlar bir-biri bilan chatishib, har xil burchaklar hosil qildi. Ular orasida mayda katak(bo'shliq)lar vujudga keladi. Qattiq modda suyaklarning tashqi qismida joylashgan bo'lsa, g'ovak moddalar juda kam bo'lib, ichkarida turadi.

Suyaklarning ichki qismida, odatda, qon va nerv tolalari o'tadi. Suyakning sirtqi yuzasi ustki pardasi — periost bilan qoplangan. Periost o'zining suyaklarini alohida teshikchalardan o'tib boradigan tolachalari vositasida suyak ustiga mustahkam yopishib turadi. Periost ikki qavatdan iborat. Tashqi qavat tolali fibroz to'qima, ichki qavat nerv tomirlariga boy, suyak hosil qilinadigan qismidir. Suyakning kovak (ilik kanal)lari suyak iligi bilan to'la bo'ladi. Suyak iligi organizmda qon yaratadi va biologik himoya vazifasini bajaradi. Shunday qilib, suyaklarni hosil qilishda, asosan, suyak to'qimalari qatnashsa-da, ularning tarkibida suyak iliklari, suyak ustki pardasi, bo'g'im tog'ayi, qon tomirlari va nervlari bo'ladi.

Odam skeleti deyarli uch davrni o'tkazib takomillashadi: qo'shuvchi to'qima, parda davri, tog'aylanish va suyaklanish davrlari. Kalla suyagining tepe bo'lagi va yuz qismining ayrim suyaklari, o'mrov suyaklarning ko'pchilik qismi faqat ikki — qo'shuvchi to'qima va suyaklanish davrlarida takomillashadi.

3.1. 3. SUYAKLARNI TURKUMLARGA BO'LINISHI

Odam skeleti o'z tuzilishi, shakliga ko'ra naysimon, g'ovak, yassi va aralash suyaklarga ajratiladi.

Naysimon suyaklar

Bu suyaklar o'z navbatida uzun va kalta naysimon suyaklardan iborat bo'ladi:

a) Uzun naysimon suyaklarga yelka bilan son, boldir suyaklari kiradi, ular g'ovak va zich moddalardan tuzilgan bo'lib, ichida ilik kanali bo'ladi. Uzun naysimon suyaklar odamda uzun richag harakatiga ega bo'lib, tayanch va mudofaa vazifalarini bajaradi.

b) Kalta naysimon suyaklarga qo'l va oyoqning panja suyaklari kiradi, ularning vazifalari uzun naysimon suyaklarga o'xhash bo'lib, faqat kalta harakat richaglariga ega.

G'ovak suyaklar

Bu xildagi suyaklar uzun va kalta g'ovak suyaklarga bo'linadi:

a) Uzun g'ovak (qovurg'a va to'sh) suyaklari — asosan, g'ovak moddadan tuzilib, ularni yupqa zich modda plastinkasi qoplab turadi. Bu suyaklar himoya va tayanch vazifalarini bajaradi.

b) Kalta g'ovak suyaklar — umurtqa, qo'l va oyoq panja suyaklari.

d) Sesamasimon suyaklar (bu suyaklar nomi kunjut, sesama doniga o'xshashligidan olingan) g'ovak moddadan tuzilgan tizza qopqog'i, no'xatsimon suyak, qo'l va oyoq barmoq suyaklari hisoblanadi. Ular harakatni osonlashtiradi va muskullar vazifalarini bajarishda quaylik tug'diradi.

Yassi suyaklar

a) Boshning yassi suyaklari himoya vazifasini bajaradi.

b) Yassi kamar suyaklar — kurak va chanoq suyaklari tayanch hamda himoya vazifasini bajaradi.

Aralash suyaklar

Aralash suyaklarga bosh suyagining asosiy qismini tashkil qilgan va bir necha suyaklarning birikishidan hosil bo'lган suyaklar kiradi. Bu xildagi suyaklar turlicha rivojlangan har xil shakldagi suyaklardir.

3.1. 4. SUYAKLARNING O'ZARO BIRLASHUVI

Odamlarning hamma suyaklari bir-biri bilan turli darajada birlashadi. Suyaklar nimalar vositasida va qanday birlashishiga ko'ra quyidagi ikkita guruhga bo'linadi:

1. *Uzlusiz birikmalar* (harakatsiz).

2. *Harakatchan birikmalar* (bo'g'imlar).

Uzlusiz ravishda qo'shilgan suyaklar qimirlamay yoki harakati juda chegaralangan bo'ladi. Binobarin bu birikmalarni *bo'g'im* deb atab bo'lmaydi. Harakatchan birikma (*bo'g'im*)lar esa butunlay boshqacha tuzilgan va o'zgacha xususiyatga ega. Suyaklar orasida bo'shliq bo'ladi va suyaklarning uchi bir-biridan ancha qochib turadi, shu sababli bo'g'imlarda erkin harakat sodir bo'ladi. Suyaklarning o'zaro birlashish vositalari ikki xil bo'ladi.

1. Fibroz to'qimalar vositasida birlashish.

2. Tog'aylar vositasida birlashish.

Suyaklarning bunday birlashishi ularning rivojlanish davridagi o'zgarishlar natijasidir. Biz yuqorida suyaklarning rivojlanish davri ikki holatda kechishini aytib o'tgan edik, ya'ni dastlab suyaklarning parda holida paydo bo'lishi, so'ngra ularning ko'pchiligi ikkinchi holatga — tog'ay holatiga o'tadi, shundan keyin suyaklanish boshlanadi. Demak, suyaklarning orasi o'zgarmasdan parda holida qolib ketsa, bu fibroz to'qimalari vositasida

birlashish hisoblanadi yoki suyaklar orasidagi parda suyaklanmay qolganiga tog‘aylar vositasida birlashish deyiladi. Ba’zi joyda suyaklar orasidagi parda yoki tog‘ay suyaklanib ketadi.

3.1. 5. HARAKATCHAN BIRIKMALAR (BO‘G‘IMLAR)

Suyaklarning bir-biriga juda yaqinlashmasdan, o‘rtada bo‘shliq qoldirib qo‘shilishi *bo‘g‘im* deyiladi. Odatda, bo‘g‘imlar ichidagi bo‘shliqda *sinovial* suyuqlik bo‘ladi, shuning uchun buni *harakatchan birlashma* deyiladi. Harakatchan birlashmalar haqiqiy bo‘g‘im deb hisoblanishi uchun uchta asosiy shartlari bo‘lishi lozim (3.1 a-rasm).


1. Suyaklarning bo‘g‘im hosil qilishda ishtirok etuvchi uchlari (bo‘g‘im yuzlari) shakl jihatidan bir-biriga mos kelishi. Masalan: bir suyakning uchi yumaloq shaklida bo‘lsa, ikkinchisining uchi shunga yarasha botiq bo‘lishi.

2. Suyakning bo‘g‘im yuzalari 0,2—0,5 mm qalinlikdagi tog‘ay bilan qoplangan. Tog‘ay qavat bo‘g‘im yuzalarini silliqlab, harakatni yengillashdiradi. Bundan tashqari, tog‘aylar ancha yumshoq bo‘lganidan suyaklarning zarb yeishi (ezilish)dan saqlab turadi.

3. Suyaklarning bo‘g‘im hosil qiluvchi uchlari va ular o‘rtasidagi bo‘shliqning gir atrofi bo‘g‘im xaltasi bilan o‘ralgan. Odatda, bu xalta bo‘g‘im yuzalarining chetiga yoki bo‘g‘imdan uzoq qismlariga birikib ketadi.

Bo‘g‘im xaltasi ikki qavatdan — fibroz to‘qimadan tuzilgan tashqi va ichki qavatdan iborat. Fibroz tashqi qavat bo‘g‘im xaltasini mustahkamlash uchun xizmat qilsa, siyrak biriktiruvchi to‘qimadan tuzilgan ichki qavat xalta yuzasini silliqlash uchun xizmat qildi. Ichki qavat bo‘g‘imga shiraga o‘xhash cho‘zilgan sarg‘ish rangli tiniq suyuqlik (*sinovial suyuqligi*)ni chiqaradi. Bu suyuqlik bo‘g‘im yuzalarini namlab, ba’zi serharakat bo‘g‘imlarni qizishdan saqlab turadi. Bo‘g‘im yuzalarining bir-biriga moslashtirish uchun bo‘g‘im bo‘shlig‘i ichida tolali tog‘aydan tuzilgan halqlar (chanoq-son bo‘g‘imida), tog‘ay plastinkalar hamda bo‘g‘imlarni ichidan mustahkamlash uchun bo‘g‘imlararo boylamalar bo‘ladi.

Bo‘g‘imlarning harakat qilishi suyaklarning bo‘g‘im yuzalarining shakliga bog‘liq. Odatda, bir suyakning bo‘g‘im hosil qiluvchi uchi yumaloq (shar) shaklida bo‘lsa, ikkinchi suyak uchi shunga yarasha botiq (chuqurcha) hosil qiladi yoki bir suyak silindr shaklida bo‘lsa, ikkinchisi shunga moslangan kemtik bo‘ladi va hokazo.



3.1-rasm. Bo‘g‘im turlari.

Demak, bo'g'im hosil qilishda ishtirok etuvchi suyaklar boshlarining shakliga qarab, ularning harakatlari aniqlanadi yoki, aksincha, bo'g'imlarga qarab suyaklar boshining shakli aniqlanadi.

Bo'g'imlar faqat bir o'q atrofida harakat qilsa, ya'ni faqat bukilib yozilsa *bir o'qli bo'g'im* deb ataladi (masalan: tirsak, barmoqlardagi bo'g'imlar). Bunday harakat suyaklarning bittasini yuzasi silindr yoki g'altak shaklida bo'lganda sodir bo'ladi. Agar bo'g'im ikki taraflama harakat qilsa, ya'ni bir-biri bilan kesishgan ikki o'q atrofida aylansa, *ikki o'qli bo'g'im* deyiladi (masalan, bilak suyagi bilan kaft usti suyaklari o'rtasidagi bo'g'im), bunday harakat suyaklarning bittasini uchi tuxumsimon (elipssimon) yoki egarsimon bo'lganda vujudga keladi. Ba'zi bo'g'imlar har taraflama harakat qilish xususiyatiga ega. Shuning uchun ular *ko'p o'qli bo'g'im* deb ataladi. Bunday bo'g'imni hosil qilishda boshi yumaloq (sharsimon) suyaklar qatnashadi (masalan: yelka, chanoq-son bo'g'imlari).

Bo'g'imlarda, asosan, to'rt xil harakat mavjud.

1. Ko'ndalang o'q atrofidagi harakat: bukish va yozish yoki frontal (tikka) o'q atrofida ikki yonga harakatlanish.

2. Segital (oldindan orqa tomonga ketgan) o'q atrofidagi harakat: yaqinlashtirish va uzoqlashtirish.

3. Doira hosil qilib aylanish — suyaklarning bir uchi joyda turgani holda ikkinchi uchining o'z doirasi atrofida aylanishi.

4. O'z o'qi atrofida aylanish (burilish). Shunday qilib, *a* — sharsimon, *b* — tuxumsimon, *d* — egarsimon, *f*, *h* — g'altaksimon va yassi ko'rinishdagi bo'g'imlar mavjud (3.1-rasm).

3.1.6. QO'L SKELETI


Odam skeleti, asosan, tana, bosh va qo'l, oyoq suyaklaridan tashkil topgan. Odamning qo'l skeleti bilan oyoq skeleti tuzlشida bir qadar o'xshashlik bo'ladi, lekin ular vazifalari bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Odam oyoqlari vositasida bir joydan ikkinchi joyga yurib boradi va gavdani ko'tarib yuradi. Qo'l esa mehnat quroli bo'lib, ushlash vazifasini bajaradi. Qo'l va oyoq suyaklari joylashgan o'miga qarab kamar hamda erkin turgan bo'limlarga ajratiladi. Qo'l ham, oyoq ham o'z kamarlari vositasida tana skeletiga qo'shilib turadi.

Qo'l skeleti qo'l kamari va qo'l suyaklaridan tuzilgan. Qo'l kamarining — ikkala tomonini bittadan o'mrov va ko'krak suyaklari (3.2-rasm) tashkil qiladi. Qo'l suyaklarining o'zi esa uch bo'limga bo'linadi:

1) yelka bo'limi (kamardan keyin joylashgan bo'lib) naysimon yelka suyagidan (3.3 *a*, *b*-rasm);


2) o'rta bo'lim — bilak, ikkita uzun (tirsak va bilak) suyaklardan (3.3 *d*-rasm);

3) qo'lning distal bo'limi qo'l panjasining skeletidan iboratdir. Qo'l panjasining skeleti kafti usti, kaft va barmoq (falanga) suyaklariga bo'linadi (3.3 *e*-rasm).



3.2-rasm. Qo'l kamari suyaklari: *a* — kurak suyagi; *b* — o'mrov suyagi.
1 — tumshuqsimon o'simta; *2* — akromial o'simta; *3* — bo'g'im chuqurligi; *4* — ko'krak boshchasi; *5* — o'mrov tanasi; *6* — akromial boshcha.

Kaft usti suyaklari turli shakldagi sakkizta mayda suyaklardan iborat bo'lib, to'rtadan ikki qator bo'lib joylashgan. Bulardan birinchi yoki proksimal qatori (bosh barmoq tomonidan hisoblanganda) qayiqsimon 37, yarimoysimon 35, uch qirrali 34 va no'xatsimon 33 suyaklardan iborat.



3.3-rasm. Qo'lining erkin turgan qismi suyaklari: *a* — yelka suyagini old; *b* — orqa tomonlaridan ko'rinishi; *c* — bilak suyaklari; *d* — qo'l panja suyaklari. I. Barmoq suyaklari. II. Kaft suyaklari. III. Kaft usti suyaklari.

1 — yelka suyagining kichik do'mbogi; *2* — kichik do'mboq qirrasi; *3* — toj chuqurchasi; *4*, *5* — bilak suyaklari bilan birlashuvchi bo'g'im yuzalar; *6* — suyak tanasidagi g'adir-budurligi; *7* — katta do'mboq qirrasi; *8* — do'mboqlararo ariqcha; *9* — yelka suyagining katta do'mbogi'; *10* — yelka suyagining boshchasi; *11* — anatomik bo'yinchasi; *12* — chirurgik bo'yinchasi; *13* — lateral o'simta; *14* — tirsak chuqurchasi; *15* — medial o'simta; *16* — tirsak o'simtas; *17* — yarimoysimon qirqim; *18* — toj o'simtas; *19* — tirsak suyagi; *20* — tirsakning distal boshchasi; *21* — bigizsimon o'simta; *22* — bo'g'im yuzasi; *23* — bilak suyagining o'simtas; *24* — bilak suyagi; *25* — bilak suyagining bo'yinchasi; *26* — bilak suyagining proksimal boshchasi; *27* — bilak suyagining chuqurchasi; *28* — tirnog falangasi; *29* — o'rtaligalanga; *30* — asosiy falanga; *31* — beshta kaft suyaklari; *32* — ilmoqli suyak; *33* — no'xotsimon suyak; *34* — uchqirrali suyak; *35* — yarimoysimon suyak; *36* — boshchali suyak; *37* — qayiqsimon suyak; *38* — kichik trapetsiyasimon suyak; *39* — katta trapetsiyasimon suyak.

Ana shu to'rtta suyakning birinchi uchtasi o'zaro birlashib, ellips shaklida turgan bo'g'im yuzani hosil qiladi va bilak suyagiga birlashib turadi, no'xatsimon suyak faqat uch qirrali suyak bilangina qo'shiladi.

Kaft usti suyaklarining ikkinchi yoki distal qatori katta trapetsiyasimon 39, kichik trapetsiya shakldagi 38 boshchali 36 va ilmoqli 32 suyaklardan iborat. Kaft usti suyaklarning nomlari shakllarga mos keladi, ularning har qaysisida bir-biri bilan qo'shiladigan mos bo'g'im yuzalari va ba'zilarida kaft yuzalariga turtib chiqqan g'adir-budur do'mboqlari bo'ladi.

Kaft usti suyaklari bir tekis turmay orqa tomonga qabarib, ya'ni oldinga, kaft tomonga botib kirgan.

Kaft suyaklari — beshta naysimon suyaklardan tuzilan bo'lib, bosh barmoq tomonidan sanaladi.

Barmoq falangalari — kaft suyaklariga o'xshash kalta naysimon suyaklardan tuzilgan bo'lib, barmoqlarda oldinma-ketin qator joylashgan. Bosh barmoqdan boshqa to'rtta barmoqlarda uchtadan, bosh barmoqda esa faqat ikkita falanga suyagi mavjud. Kaft suyaklari bilan qo'shilib turgan asosiy falangalar proksimal yoki birinchi falanga deyiladi. Keyingi ikkinchi yoki o'rta falangalar, oxirgi falangalar uchinchi yoki tirnoq falangalar deb ataladi.

Bosh barmoqda birinchi va uchinchi falangalar bo'lib, o'rta falanga bo'lmaydi. Bundan tashqari kaft suyagi bilan birinchi barmoq falanga suyaklari bo'g'im xaltachalarining kaft sohasida ikkita sesamasimon suyakchalar bo'ladi. Bunday suyaklar kaft bilan boshqa falanga suyaklari bo'g'im xaltachalarida faqat bittadan uchrashi mumkin.

3.1.7. QO'L SUYAKLARINING BIRLASHUVI

Yelka bo'g'imi yelka suyagining boshi kurak suyagining bo'g'im churqri qo'shilishidan hosil bo'ladi. Yelka bo'g'im sharsimon bo'g'implar turkumiga kiradi va xaltasi keng (qattiq tortilmagan) bo'ladi, shu sababli juda erkin va har taraflama harakat qiladi. Yelka bo'g'imida quyidagi asosiy harakatlar sodir bo'ladi: yelka suyagining oldinga va orqaga; yelkani tanadan uzoqlashtirish va yaqinlashtirish; yelka suyagining ichkari va tashqariga (vertikal va tik — o'q atrofida) burilishi; aylanma harakatlar bajariladi.

Tirsak bo'g'imi uchta suyakning, ya'ni yelka suyagining pastki(distal) uchi bilan bilak va tirsak suyaklarining ustki(proksimal) uchlarini qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu suyaklarning har biri o'rtasidagi qo'shilish o'ziga mustaqil harakat qilish xususiyatiga ega bo'lganidan, tirsak bo'g'imi uchta alohida bo'g'imdan: yelka suyagi bilan bilak suyagi o'rtasidagi bo'g'im; yelka suyagi bilan tirsak suyagi o'rtasidagi bo'g'im; bilak suyagi bilan tirsak suyagi o'rtasidagi bo'g'implardan tashkil topgan desa bo'ladi. Tirsak bo'g'imating o'ziga xosligi shundaki, yuqorida aytib o'tilgan uchta bo'g'imning har qaysisi alohida xaltaga ega emas, balki hammasi umumiy bitta xaltaga o'ralgan. Tirsak bo'g'imida, asosan, bitta,

ya'ni ko'ndalang o'q atrofida bukilish va yozilish harakati sodir bo'ladi. Shuning uchun u bir o'qli bo'g'imlar guruhiga kiradi.

Bilak va tirsak suyaklarining ustki hamda ostki uchlari bo'g'im hosil qilib qo'shiladi. Suyaklarning pastki uchlari o'rtasida hosil bo'lgan bo'g'im-bilak suyagining maxsus kemitigi bilan tirsak suyagining boshchasi qo'shilishidan hosil bo'ladi. Suyaklarning yuqori uchlardagi bo'g'imda bilak suyagining boshchasi tirsak suyagining kemitigiga kirib turadi, pastki uchlardagi bo'g'imga esa aksincha, tirsak boshchasi bilak suyagining kemitigiga kirib turadi, shu sababli har ikki bo'g'im bir vaqtida uyg'un harakat qilish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bu ikki bo'g'imning uyg'un harakati suyaklarning o'qi atrofida aylanishi tufayli bilakni ichkariga va tashqariga buradi, ya'ni qo'l kafti old-orqa tomonga aylanadi va silindr shaklidagi bo'g'im hosil qiladi.

Bilak-kaft bo'g'imi ikki qator joylashgan kaft usti suyaklarining birinchi qatordagi uchta suyakning bo'g'im yuzalari hamda bilak suyagining uchidagi keng bo'g'im yuzasi o'rtasida hosil bo'ladi. Bu bo'g'im ellips shaklida bo'lib, egilish, bukilish, yozilish, uzoqlashtirish va yaqinlashtirish harakatlari mayjud.

Kaft suyaklarining birinchi bilan ikkinchi qatori o'rtasidagi bo'g'imga o'rta kaft usti bo'g'imi deyiladi.


Kaft usti — kaft bo'g'imi, ikkinchi qatordagi kaft usti va kaft suyaklarining proksimal uchlari o'rtasida hosil bo'ladi. Bu egarsimon bo'g'imlar guruhiga kiradi.

Kaft suyaklari bilan barmoq suyaklari o'rtasidagi bo'g'imni ellips shaklidagi bo'g'imlar turkumiga kirlitsa bo'ladi. Bu bo'g'imlar kaft suyagining distal uchidagi boshchasi bilan birinchi qatordagi barmoq suyaklarining ustki uchlari chuqurchasini qo'shilishidan hosil bo'ladi. Bu bo'g'imda harakat ikki o'q atrofida sodir bo'ladi, frontal o'q atrofida bukilish va yozilish yuz bersa, segital o'q atrofida barmoqlar bukilmagan holda bir-biriga II, IV, V barmoqlar III barmoqqa yaqinlashadi va uzoqlashadi.

Barmoq suyaklari o'rtasidagi bo'g'imlar g'altak shakldagi bo'g'imlar guruhiga kiradi. Bo'g'im II, III, IV, V barmoqlaridagi birinchi va ikkinchi falangalarini pastki g'altaksimon yuzalari bilan har uchala falangalarning ustki bo'g'im chuqurchalari o'rtasida, bosh barmoqda esa birinchi va ikkinchi falangalar o'rtasida hosil bo'ladi. Barmoq bo'g'imlarida faqat ko'ndalang o'q atrofida harakat, bukilish va yozilish sodir bo'ladi.

3.1.8. OYOQ SKELETI

Qo'l suyaklariga o'xshashi oyoq suyaklari ham ikki bo'lakka ajralgan. Bularning birinchisi oyoq kamari bo'lib, ikkala tomonda chanoq suyaklaridan tashkil topgan bo'lsa, ikkinchisi uch qismidan (3.4-rasm); son qismi — uzun son suyagidan, o'rta-boldir qismi — katta 17, kichik 25 boldir va tizza qopqog'i suyaklaridan tuzilgan va oyoq panja skeletidan tashkil topgan. Oyoq panjasining skeleti kaft oldi I, kaft II va barmoqlar III kabi uch qismidan iborat.



3.4-rasm. Oyoqning erkin turgan qismi suyaklari: a — tos suyagi, b, d — con suyagining old va orqa ko'rinishi, e, f — boldir suyaklarining old va orqa ko'rinishi.

I. Oyoq panjasining kaft oldi suyaklari. II. Kaft suyaklari. III. Barmoq suyaklari.
 1 — tos suyagining qov bilan birlashgan joyi; 2 — quymich suyagi; 3 — son suyagi birlashdigan suyak; 4 — tos suyagini qorin tomoniga qaragan qismi; 5 — son suyagining proksimal bo'yinchasi; 6 — kichik o'simta; 7 — son suyagining proksimal boshchasi; 8 — katta o'simta; 9 — g'adir-budur o'rkach; 10 — tizzaosti yuzasi; 11 — lateral o'simta; 12 — lateral katta o'simta; 13 — to'piqlararo chuqurcha; 14 — medial katta o'simta; 15 — medial o'simta; 16 — tizza qopqog'i birikadigan yuza; 17 — katta boldir suyagi; 18 — katta boldir suyagining qirrasi; 19 — mushak biriktiruvchi do'nglik; 20 — bo'g'im yuzasi; 21 — medial to'piq; 22 — to'piqlararo do'nglik; 23 — lateral to'piq; 24 — kichik boldir suyagining proksimal boshchasi; 25 — kichik boldir suyagi; 26 — tashqi to'piq; 27 — ichki to'piq; 28 — bo'g'im yuzasi; 29 — tovon suyagi; 30 — oshiq suyagi; 31 — qayiqsimon suyak; 32 — uchta ponasimon suyaklar; 33 — asosiy falangalar; 34 — o'rtal Falangalar; 35 — tirnoq falangalar; 36 — beshta kaft suyaklari; 37 — kubsimon suyak.

Tovon oldi qismi yettita g'ovak suyakdan tashkil topgan bo'lib, ularning nomi tuzilishiga monand, ya'ni oshiq 30, tovon 29, qayiqsimon 31, uchta ponasimon 32 va kubsimon 37 suyakdan iborat. Oyoq kafti — beshta kaft suyaklari 36 dan tuzilgan. Bu suyaklarning tuzilishi qo'l-kaft suyaklariga o'xshash bo'lib, ularda ham proksimal uchi yoki asosi, tanasi va distal uchi yoki boshchasi bo'ladi. Oyoq barmoqlarining falangalari qo'l barmoqlariga o'xshash tuzilgan bo'lib, bosh barmoqlardan boshqa II—V barmoqlar uchtadan falangalar 33, 34, 35 dan tuzilgan. Bosh barmog'inining falangalari esa ikkita.

3.1.9. OYOQ SUYAKLARINING BIRLASHUVLARI

Oyoq suyaklari, asosan, bo'g'imlar orqali birlashadi. Bular chanoq-son bo'g'imi, tizza bo'g'imi, oshiq-boldir bo'g'imiridir.

Chanoq-son bo'g'imi — chanoq suyagidan quymich kosasi bilan son suyagining boshi birlashuvidan vujudga keladi. Bu bo'g'imda harakat asosi uch tomonlama bo'ladi.

1. Frontal o'q atrofida son bukiladi va yoziladi.
2. Sagital o'q atrofida son uzoqlashadi va yaqinlashadi.
3. Vertikal o'q atrofida son tashqari va ichkariga bukiladi.

Bundan tashqari, sonning pastki uchi o'z doirasi atrofida aylanib kelishi ham mumkin.

Tizza bo'g'imi, odam gavdasidagi barcha bo'g'implar ichida eng katarsi va murakkab tuzilgani hisoblanadi. Tizza bo'g'imi — uchta suyak, ya'ni son suyagi, katta boldir suyagi va tizza qopqog'ining orasida hosil bo'ladi. Tizza bo'g'imining o'ziga xos xususiyati shundaki, bo'g'im ichida ikkita maxsus kesishma boylamalar, fibroz tog'aydan tuzilgan yarim halqa (menisk) lar va qopqog'i ustida qo'shimcha bo'shliq (xalta) bor. Tizza bo'g'imi tashqi tomondan juda pishiq tizimchaga o'xshash yumaloq yonlanma boylamalar vositasida ikki tomondan mustahkamlangan. Tizza bo'g'imi g'altaksimon bo'g'implar turkumiga kiradi. Unda bukilish va yozilish hamda ichkari va tashqariga buralish sodir bo'ladi.

Oshiq-boldir bo'g'imi — ikki boldir suyaklarining pastki uchlariだagi bo'g'im yuzalari bilan qo'shilishdan hosil bo'ladi. Bunda katta boldir suyagining pastki uchidagi katta bo'g'im yuzasi oshiq suyagining ustki yuzasida va boldir suyaklardagi to'piqlarning yuzlari esa oshiqning ikki yon yuzasiga to'g'ri keladi. Oshiq-boldir bo'g'imi shakli jihatidan g'altaksimon bo'g'implarga taalluqli bo'lgani uchun harakat faqat bir o'q (ko'ndalang o'q) atrofida pastga (orqaga) va yuqoriga (oldinga) bukilish sodir bo'ladi.

Oyoq panjasida quyidagi bo'g'implar va boylamalar bor:

1. Oshiq ostidagi bo'g'im — oshiq suyagining pastki tomondagi orqa bo'g'im yuzasi bilan tovon suyagining ustki old bo'g'im yuzasi qo'shilishida hosil bo'ladi. Silindrning bir bo'lagini eslatuvchi bu yuzalar bo'g'im xaltasi bilan mustaqil ravishda erkin o'ralgan, xalta esa to'rt (old, orqa va ikki yon) tomondan boylamalar bilan mustahkamlangan.

2. Oshiq, tovon, qayiqsimon suyaklar o'rtasidagi bo'g'im — tovon suyagining old tomonidagi bo'g'im yuzasi, oshiq suyagining old tomonidagi ostki bo'g'im yuzasi va boshi hamda qayiqsimon suyakning chuqur bo'g'im yuzasi qo'shilishdan hosil bo'ladi. Oshiq suyakning ostki yuzasi, uning yumaloqlangan boshidagi bo'g'im yuzasi bilan qo'shib, sharsimon yuzani hosil qiladi.

3. Kaft oldi va kaft suyaklari o'rtasida bo'g'im — uchta ponasimon va kubsimon suyaklar ustki uchlariだagi bo'g'im yuzlarining kaft suyaklari bilan qo'shilishdan hosil bo'ladi. Bu bo'g'im egarsimon bo'g'im bo'lib, harakati chegaralangan.

4. Kaft suyaklari bilan barmoq suyaklari o'rtasidagi bo'g'implar xuddi qo'l panjas singari, kaft suyaklarining distal boshchalar bilan barmoq suyaklarining ustki (proksimal) uchlariだagi chuqurchalar birlashishidan hosil bo'ladi.

Oyoqda barmoq suyaklari o'rtasidagi bo'g'implar ham xuddi qo'l dagi o'xshaydi. Hamma bo'g'implar boylamalar bilan mustahkamlangan. Umuman oyoq panjası bajaradigan vazifasi tufayli qo'l panjasidan farq qiladi. Odam qadam tashlash vaqtida gavda og'irligini yengillatish va oyoqning panjasiga ichki (medial) tomonidan qaralsa kaft suyaklarining oldingi (pastki) uchlari bilan tovon suyagining orqa do'ngi yerga qadalib, shu ikki nuqta oralig'i yerdan anchagina ko'tarilib, gumbaz holiga kiradi. Tashqi (lateral) tomondan qaraladigan bo'lsa, bunday holatni ko'rmaymiz,

chunki panjaning tashqi cheti yerga tegib turadi. Gumbazning hosil bo'lishida uzun kaft boylamini bilan oyoq tagidagi muskullarning roli juda katta. Agar shu boylam va muskullar bo'shasa oyoq gumbazi yo'qolib, yassi panja vujudga keladi, bu esa yurishni qiyinlashtiradi.

Oyoq gumbazining ikki jihatni alohida ahamiyatga molik: a) yurish vaqtida, orqada qolgan oyoqni oldinga tashlash uchun, gavdaning og'irligi yerga qadalgan oyoqqa tushib, gumbaz egiladi. So'ngra asta-sekin bo'shashib, gavdani oldinga tomon(xuddi ressor singari) itarib beradi, shu bilan yurishni yengillashtiradi; b) oyoq panjasidagi suyaklar, muskullar, paylar, teri va boshqa to'qimalarni oziqlantiradigan tomirlar hamda ularni idora qiladigan nervlarni ezilishdan saqlaydi. Ana shuning uchun ham oyoq gumbazi yassi panjalik kishilar uzoq masofaga yura olmaydilar va tez charchaydilar hamda oyoq tagida sanchiq sezadilar.

3.1.10. MUSHAKLAR SISTEMASI

Mushaklar organizm hayotida muhim o'rinni tutadi. Markaziy nerv sistemasi yuboradigan impulslar ta'sirida gavdadagi mushaklar qisqaradi. Buning natijasida odam bir joydan ikkinchi joyga ko'chadi. Mushaklar shakliga qarab uzun, qisqa, yassi bo'lishi mumkin. Uzun mushaklar aksari qo'l va oyoqda joylashgan bo'lib, urchuqsimon ko'rinishiga ega. Yassi mushaklar, odatda, gavdaning old va orqa tomonidan joylashgan. Ba'zi mushaklar bir necha joydan, bir necha bosh bilan boshlanishi mumkin. Bunday mushaklar ikki boshli va to'rt boshli bo'lishi mumkin. Mushak tolalari yo'nalishiga qarab, to'g'ri, qiyshiq, ko'ndalang va aylana bo'ladi.

Mushaklarini qisqarishiga yordam beruvchi apparatlari bo'lib, unga quyidagilar kiradi:

Paylar — har bir mushaklarning suyakka kelib birikuvchi mustahkam payi bor. Pay mushakning go'shtdor qismidan o'zining yaltiroq oq yoki sarg'ish rangi bilan ajralib turadi. Paylar cho'zishga juda chidamli, 1 mm ko'ndalang kesimiga ega bo'lgan pay 7 kg yukni cho'zilmasdan ko'tara oladi.

Fassiyalar. Mushaklarning ustidan qo'shuvchi to'qimadan iborat o'rabi turadigan pardasi *fassiya* deyiladi. Fassiya bir mushakni ikkinchi mushakdan ajratib turadi. Shuning uchun u har qaysi mushakning alohida qisqarishini ta'minlaydi.

Charm buyumlarini loyihalashda, asosan, qo'l va oyoq mushaklarini o'rganish kifoya. Shuning uchun, asosan, qo'l va oyoq mushaklar tuzilishini ko'rib chiqamiz.

a) Qo'l mushaklari

Qo'l odam gavdasining erkin harakatchan qismalaridan biridir. Qo'lning erkin harakati qo'l muskullari yordamida amalga oshiriladi. Qo'l mushaklari yelka karnari va qo'lning erkin qismi mushaklariga bo'linadi. Qo'lning erkin qismi o'z navbatida yelka, bilak va panja mushaklariga bo'linadi.

Yelka sohasida uzun mushaklar joylashgan bo'lib, yelka suyagining boshidan oxirigacha yopib turadi va old, orqa guruhlarga bo'linadi. Yelkaning old tomonida ikki boshli mushak va yelka mushagi joylashgan. Ikki boshli mushaklarning boshlari ikki yerdan boshlanib, ikki yerga birikkani uchun bu mushaklarning ayrim tizimlari qisqarganda turli ishlarni bajarishi mumkin: uzun boshi yelka suyagini gavdadan uzoqlashtiradi va bir oz ichkariga buradi; kalta boshi esa yelka suyagini old tomoniga ko'taradi, yelka gavdadan uzoqlashgan holda bo'lsa, uni gavdaga yaqinlashtirishda ishtirot etadi. Umuman yelkaning ikki boshli muskuli tirsak bo'g'imining kuchli bukuvchisidir. Yelka mushagi 4 esa tumshuqsimon mushak bo'lib, yelkani ko'taradi va gavdaga yaqinlashtiradi.

Yelkani orqa tomonida, (3.5-rasm) yelkaninig uch boshli va tirsak mushagi joylashgan. Yelkaning uch boshli va tirsak mushaklari bilakning tirsak bo'g'imini yozadi. Bilak mushaklari joylashishiga qarab uch (oldingi, orqa va lateral) guruhlarga bo'linadi.


Bilakning oldingi guruhi mushaklariga kaft va panjani bukuvchi mushaklar kirsa, orqa hamda lateral guruhga, asosan, yozuvchi mushaklar kiradi. Bilakning oldingi guruh mushaklari yuza va chuqur qatorlarda joylashgan. Kaftni bilak tomonga bukuvchi mushak yuza qavat mushak bo'lib, bilakning uzun suyaklari sohasidan ikkinchi kaft suyagi tomon o'tar ekan, mushak payi trapetsiyasimon suyakdag'i chuqur ariqchaga joylashgan. Bu mushak kaftni oldinga va bilak suyagi tomoniga bukadi.

Kaftni uzun muskuli kaft aponevrozini tarang qiladi va kaftni bukadi. Panjaning bukuvchi yuza mushak (3.5-rasm) va panjani bukuvchi chuqur mushaklarining har biri to'rttadan alohida payga aylanib II—V barmoqlarini bukadi, binobarin panjani ham bukadi.

Bosh barmoqni bukuvchi uzun mushak bosh barmoqning tirnoq fangasini bukadi.

Yelka mushagi. Bu mushak bilak orqa tomonning lateral chetida joylashgan bo'lib, yelkaning uch boshli mushagi orasida turadi va bilakning tirsak bo'g'imida bukadi. Panjani yozuvchi uzun mushagi 5 panjani orqa tomonga yozadi, bilakni bukadi. Bilakning orqa guruh mushaklari, asosan, yozuvchi mushaklar bo'lib, panjani yozuvchi, jimgiloqni yozuvchi, panjani yozuchi tirsak mushagi, bosh barmoqni yozuvchi, ko'rsatkich barmoqni yozuvchi uzun mushaklardan iborat. Qo'l panjasining orqa (dorsales-dorsal) tomonida dorsal suyakaro mushaklaridan boshqa hech qanday mushak bo'lmaydi, bu yerda kaft va panjani yozuvchi mushaklar paylarga o'tadi, xolos.

Qo'l panjasining mushaklari faqat panjaning kaft tomonida joylashgan. Kaft mushaklarini uch guruhga bo'lish mumkin. Bulardan ikkitasi bosh barmoq va jimgiloq tomonlarida joylashgan bo'lib, bilak suyagi tomonida joylashganlari bosh barmoq do'mbog'i, tirsak suyagi tomonidagilar jimgiloq do'mbog'i deb ataladi. Ikkala do'mboq oralig'i *kaft chuqurligi* deyiladi. Bosh barmoq do'mbog'i bosh barmoqni uzoqlashtiruvchi, bosh barmoqni bukuvchi, bosh barmoqni ro'baro' qiluvchi, bosh barmoqni yaqinlashtiruvchi kabi mushaklardan tashkil topgan.



3.5-rasm. Qo'lni erkin turgan qismining mushaklari. *a* — qo'lni erkin turgan qismining mushaklari: 1 — deltasimon mushak; 2 — tumshuqsimon yelka mushagi; 3 — uch bosli mushak; 4 — ichki yelka mushagi; 5 — yumaloq pronator, uzun kaft mushagi; 7 — barmoqlarni bukuvchi yuza mushak; 8 — barmoqlarni bukuvchi tirsak mushagi; 9 — qo'l kaftining bilak bukuvchisi; 10 — yelka bilak mushagi; 11 — yelkani ikki bosli mushagi. *b* — panja mushaklari: 1 — uzun supinator; 2 — ichki tirsak mushagi; 3 — barmoqlarni yuza bukuvchi mushak; 4 — tirsak suyagi; 5 — no'xotsimon suyak; 6 — kaft boylam; 7 — kichik kaft mushagi; 8 — jimjiloq; 9 — o'rta falangani yozuvchi pay; 10 — tirmoq falangasini yozuvchi pay; 11 — boylamlar; 12 — falangalar; 13 — suyaklararo mushak; 14 — bosh barmoqni bukuvchi uzun mushak; 15 — bosh barmoqni yaqinlashti ruvchi mushak; 16 — bosh barmoqni uzoqlashtiruvchi qisqa mushak; 17 — bosh barmoqni uzoqlashtiruvchi mushak; 18 — bosh barmoqni yozuvchi uzun pay; 19 — barmoqni yozuvchi qisqa pay; 20 — uzun kaft mushagi; 21 — ichki bilak mushagi; 22 — to'rburchak pronator; 23 — tashqi boylam; 24 — bosh barmoqni uzoqlashtiruvchi uzun mushak.

Jimjiloq do'mbog'i jimjiloqni uzoqlashtiruvchi, jimjiloqni bukuvchi kalta mushak, jimjiloqni ro'baro' qiluvchi mushaklardan tashkil topgan. Kaftning o'rta va orqa guruh mushaklari — suyaklararo mushaklar bo'lib, oldingi (kaft) va orqa (dorsal-dorsales) guruhga bo'linadi. Suyaklararo mushaklari kaft tomonda uchta, dorsal tomonda to'rtta bo'lib, vazifasi bir-biriga zid. Agar kaft tomondidagi suyaklararo mushaklar II—IV—V barmoqlarni o'rta barmoqqa yaqinlashtirsa, kaft orqa suyaklararo dorsal mushaklar aksincha: I—II barmoqlarni lateral, III—IV barmoqlarni medial tomonga tortadi, nati-jada barmoqlar yoziladi. Suyaklararo mushaklardan tashqari to'rtta chuvechalchangsimon mushaklar bor. Bu mushaklar uzun ingichka bo'lib, panjani

bukuvchi chuqur mushak paylarning orasida yotadi va II—V barmoqlar-ning asosiy falangasini bukadi va o'rta, tirnoq falangalarni yozadi.

b) Oyoq mushaklari

Oyoq erkin qismining mushaklari uch qismga bo'linadi.

1. Son mushaklari.
2. Boldir mushaklari.
3. Oyoq panja mushaklari.

Son suyagi hamma tomonidan mushaklar bilan qoplangan (3.6-rasm).


Bu mushaklarni uch: oldingi, medial va orqa guruhlarga bo'llish mumkin.

Oldingi guruhga sonning to'rt boshli va mashinachilar mushagi kiradi. To'rt boshli mushak boldirini yozadi, mashinachilar mushagi tizza bo'g' imida boldirmi buradi. Medial guruhga sonni ikkinchi songa yaqinlashtiruvchi mushaklar (uzun, kalta va nozik mushak) va tarqoqsimon mushaklar kiradi. Medial guruh mushaklarning hammasi bir sonni ikkinchi songa yaqinlashtiradi. Tarqoqsimon mushak sonni bir-biriga yaqinlashtiradi va bukadi. Nozik-son mushaklarga ikki

boshli, yarim pay va yarim parda mushaklar kiradi. Sonning orqa guruh mushaklari sonni yozadi, boldirmi bukadi. Bundan tashqari, ikki boshli mushak boldirini tashqariga, qolgan ikkita mushaklar esa boldirmi ichkariga buradi.

Boldir mushaklari — uch guruhga, chunonchi oldingi, lateral va orqa guruhlarga bo'linadi. Boldir mushaklari, asosan, oyoq panjasining harakatga keltirish, gavdaning tik turishini ta'minlash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Boldirning oldingi guruh mushaklariga katta boldir, II—V barmoqlarni yozuvchi uzun va bosh barmoqni yozuvchi uzun mushaklar kiradi. Katta boldir mushagi oyoq parijasini yozadi, panjaning medial chetini ko'taradi, qolganlari esa barmoqlarni yozadi.

Boldirning orqa guruh mushaklari ikkiga, yuza va chuqur qavatga bo'linadi. Yuza qavat — boldir, kambalasimon, tovon (yoki oyoq kafti)



3.6-rasm. Oyoqning erkin qismining mushaklari:

1 — dumba toji; 2 — o'rta dumba mushagi; 3 — taranglashtiruvchi mushak; 4 — sonning to'g'ri mushagi; 5 — tashqi kengaytirilgan mushak; 6 — kaft-boldir oldi mushagi; 7 — barmoqlarni bukuvchi uzun mushak; 8 — ko'ndalang boylam; 9 — tashqi to'piq; 10 — kichik boldir suyagining uzun mushagi; 11 — kambalasimon mushak; 12 — tashqi boldir mushagi; 13 — sonning ikki boshli mushagi; 14 — dumbanining katta mushagi.

mushaklaridan iborat. Boldir mushagi — son suyagining do'm bog'iga yopishadi. Boldir mushagi boldir va oyoq panjasini bukadi.

Kambalasimon mushak — kichik boldir suyagining boshchasidan, katta boldir suyagining yuqori uchini orqa yuzasidan boshlanib, mushagi pay bilan birga tovon suyagi do'm bog'iga yopishadi. Bu yapaloq baquvvat mushak bo'lib, shakli kambala balig'iga o'xshaydi va oyoq panjasini bukadi, tashqariga buradi. Tovon (yoki oyoq kafti) mushagi son suyagining yuqori uchini orqa taqim yuzasidan boshlanib, tovon suyagining do'm bog'iga yopishadi.

Tizza bukilganda bo'g'im kapsulasimon tortiladi. Chuqur qavat bilan yuza qavat orasida ularni ajratib turuvchi boldirning fassiyalari bor. Chuqur qavat uchta mushakdan tashkil topgan. Taqim mushagi, barmoqlarni bukuvchi uzun mushak bo'lib, boldirni bukadi va ichkariga buradi. Barmoqlarini bukuvchi uzun mushak — katta boldir suyagining orqa yuzasidan boshlab, II—V barmoqlar tirnoq falangalarning ostki — kafti yuzasiga yopishadi. Oyoq panjasining tirnoq falangasini bukadi, oyoq uchida yurishni ta'minlaydi.

Katta boldir mushagi — katta va kichik boldir suyagining bir-biriga yondosh chetlarining orqa yuzasidan boshlanib, II—IV kaft suyaklarga va uchala ponasimon suyakka yopishadi. Bu muskul bevosita suyaklararo pardanering ustida barmoqlar va bosh barmoqni bukuvchi uzun mushaklar orasida yotadi. Oyoq panjasining medial chetida boldir suyagining yuzasidan boshlanib, bosh barmoq ikkinchi falangasining ostki yuzasiga yopishadi.

Orqa guruh mushaklar, mushaklar ichida eng baquvvati bo'lib, tuzilishiga ko'ra qo'sh patlidir. Bu guruh mushaklar bosh barmoqni bukadi, oyoq panjasini bukilishida ishtirok etadi. Oyoq gumbazini hosil qilishda, mustahkamlashda qatnashadi. Lateral guruh mushaklar kichik boldir va katta boldir mushagi bo'lib, ularning har ikkalasi ham kichik boldir suyagining ustidan yopib turadi.

Kichik boldir uzun mushagi kichik boldir suyagining boshchasi va yuqori uchining oldingi sathidan boshlanib, birinchi ponasimon suyakka yopishadi. Mushaklarning go'shtdor qismi taxminan boldirning o'rtasiga kelganda baquvvat payga aylanadi. Bu pay lateral to'piq orasidan o'tib, panjasining kafti tomoniga boradi. Oyoq panjasining kaftidan kichik boldirning uzun mushagi lateral tomonidan medial tomoniga qarab kesib o'tadi. Oyoq panjasining lateral chetini yuqoriga, medial chetini pastiga tortadi (prnatsiyu qiladi). Kalta kichik boldir mushagi ham xuddi uzun (boldir) mushagi singari oyoq panjasining lateral chetini ko'tarib, medial chetini pastga tushiradi.

Oyoq panjasining mushaklari ham qo'l panjasining mushaklari kabi ustki yozuvchi va ostki bukuvchi guruhlarga bo'linadi. Oyoq panjasida ham bukuvchi mushaklar ko'p bo'ladi, yozuvchi mushaklar ancha kam bo'ladi. Oyoq panjasining orqa (ust) tomonida, asosan, barmoqlarni yozuvchi kalta mushaklar yotadi. Barmoqlarni yozuvchi kalta mushak tovon suyagining oldingi va lateral (yuzasidan oshiq suyagi bilan chegaradosh yeriga yaqin joyidan boshlanib) II—V barmoqlarning ust (orqa) yuzasiga yopishadi. Oyoq panjasining ustki (orqa) do'ng tomoni-

dan panjani yozuvchi uzun mushak payining ostida joylashgan bo'lib (mushak paylari), uchga bo'lingan, panjani yozuvchi uzun mushak paylari bilan birgalashib, II—V barmoqlarga qarab yo'naladi va II—V barmoqlarni yozadi.

Bosh barmoqni esa bosh barmoqni yozuvchi kalta mushak yozadi. Bu mushak tovon suyagining oldingi lateral yuzasidan boshlanib, bosh barmoq asosiy falangasining tubiga yopishadi. Oyoq panjasining kaft (ostki) tomonidagi mushaklar qo'l kaft mushaklari singari medial (bosh barmoq), lateral (jimjiloq) va o'rta guruhlarga bo'linadi.

Medial guruhga bosh barmoqni uzoqlashtiruvchi, bukuvchi, yaqinlashtiruvchi mushaklar kiradi. Bosh barmoqni uzoqlashtiruvchi mushak tovon suyagining medial o'simtasidan boshlanib, bosh barmoq birinchi falanga asosiga, sesamasimon suyakka yopishadi. Uzun patsimon mushak, oyoq panjasining medial chekka yuzasiga joylashgan va bosh barmoqni boshqa barmoqlardan uzoqlashtiradi, medial tomoniga tortadi.

Bosh barmoqni bukuvchi kalta mushak bosh barmoq asosiy falangasini bukadi. Avvalgi mushakka qaraganda kaltaroq bo'lib, qisman o'sha mushak bilan yopishib turadi. Bosh barmoqni yaqinlashtiruvchi mushak bosh barmoqni boshqa barmoqlarga yaqinlashtiradi.

Lateral guruhga — jimjiloqni uzoqlashtiruvchi, bukuvchi, kalta mushak va ro'baro' qiluvchi mushaklar kiradi. Bu guruhga kiruvchi mushaklar, asosan, oyoq panjasining ostidagi gumbazni lateral tomonini mustahkamlab turadi.

O'rta guruhga quyidagi mushaklar kiradi, II—IV barmoqlarni bukuvchi kalta mushak, oyoq kafti kvadrat mushagi, oyoq panjasining chuvalchangsimon mushaklari, suyaklararo mushaklar to'rttasi oyoq panjasining ustki (dorsal) tomonida va uchtasi (plantar) kaft tomonida joylashgan. Barmoqlarni bukuvchi kalta mushak oyoq gumbazini mustahkamlaydi va II—IV barmoqlarni bukadi. Kvadrat mushak esa barmoqlarni bukishga yordam beradi. Chuvalchangsimon mushaklar II—IV barmoqlarni bukadi va medial tomoniga tortadi. Suyaklararo mushaklar ikki guruhga bo'linadi. To'rttasi oyoq panjasining ustki (dorsal) tomonida, uchtasi kaft (plantar) tomonida joylashgan va III, IV va V barmoqlarni medial, II—III va IV barmoqlarni lateral tomoniga tortadi.

Oyoq mushaklari umumiy fassiya bilan qoplangan. Oyoq panjasining ust tomonidagi fassiya boldir fassiyasiga qaraganda yupqaroq. Oyoq panjasining ost tomonidagi fassiya esa aksincha, juda qalin. Oyoq panjasining ost tomonidagi fassiya shuncha qalinlashadiki, natijada kaft aponevroziga aylanadi. Kaft aponevrozlardan chuqur muskullarga qarab fibroz to'siqlar o'sib chiqqan. Kaft aponevrozning qalinligi turli qismda turlicha; tovon ostida 3—4 mm bo'lsa, kaft suyaklari ostida esa 1 mm ga teng. A.I. Kobzin izlanishlariga qaraganda, jismoniy mehnat bilan shug'ullanadigan odamlarda kaft aponevrozi juda rivojlangan va uning tovon suyagi ostidagi qalinligi 5,2 mm ga teng. Hamma bo'g'imlar juda mustahkam boylamalar bilan mustahkamlangan.

3.1.11. TERINING TUZILISHI VA VAZIFASI

Teri uch qavatdan iborat bo'lib, sirtida yupqa qavat — epidermis, ichki qavati anchagina qalın va u chin teri (derma) deyiladi. Uchinchi qavatida esa teri osti yog' kletchatkasi yotadi, bu yerga, asosan, yog' to'plangan bo'ladi. Teriga undagi shox tuzulma (hosil)lar — soch va tirdoqlar ham kiradi.

Epidermis epiteliy to'qimasidan hosil bo'lgan, uning sirtida bir-biriga zinch taqalgan, deyarli rangsiz tangachalar shaklidagi shoxga aylangan o'lik hujayralar bor. Ana shu tangachalar terining himoya qavatini hosil qiladi, bu qavatdan qattiq zarralar kira olmaydi va tevarak atrofidagi muhitdan suyuqlik va gazlar deyarli o'ta olmaydi. Epidermisning yuqori qatlami ostiga tirik hujayralar joylashgan. Ular bir necha qavat bo'lib yotadi. Bu hujayralarning tarkibida pigment bo'ladi. Odamlar terisini oq yoki qora-chaga bo'lishi ana shu pigmentning miqdori va tarkibiga bog'liq. Quyosh nurining ta'siri ostida teri pigmentatsiyasi kuchayadi.

Chin teri biriktiruvchi to'qimadan hosil bo'lgan, bu to'qimaning hujayralararo muddasi qayishqoq tolalardan iborat. Bunday tolalar teriga elastiklik beradi. Agar teri, masalan, qo'l panjasining orqa terisi tortib ko'rilsa, u cho'ziladi, ammo u qo'yib yuborilgan zahotiyoyq oldingi holatga qaytadi. Teri ana shu elastikligi tufayli odam tomonidan bajariladigan har qanday harakatga to'sqinlik qilmaydi. Chin teri o'z do'mboqchalari va g'o'lachalari bilan epidermisga kirib turadi. Bu terining asosiy qismidir. Bu yerda retseptorlar — yog' va ter bezlari, jun xaltachalari, qon va limfatik tomirlar bo'ladi.

Teri osti yog' kletchatkasi biriktiruvchi yog' to'qimasidan hosil bo'lgan terining eng chuqr qavatidir. Bu qavat organizmni haddan tashqari sovib ketishidan saqlaydi. Teri osti yog'i kletchatkasi tanaga tashqaridan bo'ladicidan turtilarni ma'lum darajada yumshatadi. Bunday tashqari, ularda organizmning ortiqcha yog'i to'planadi. Yog', teri va sochlarni moylab, ularni yumshatadi.

Odam tanasini qoplab turgan terining o'rtacha yuzasi $1,5 \text{ m}^2$ ga teng, qalinligi esa 1 mm dan 4 mm gacha bo'ladi. Eng yupqa teri, bu qosh osti terisi, eng qalini oyoq panjasining ostidadir.

Terida ko'p miqdorda yog' va ter bezlari mayjud. Ter bezlari chin terida joylashgan. Bu bezlarning har qaysisi puxta o'ralgan tugunchadan boshlanuvchi naydan iborat. Bunday naychaning to'g'ri qismi ter bezining chiqarish yo'li — teri sirtiga teshikcha bilan ochiladi. Ter bezlarning umumiyy soni odamda 2 mln ni tashkil etadi. Ter bezlari odam tanasida har xil joylashgan. M.F. Ivaniskiyning histologik (ilmiy) tekshirishiga qaraganda, ter bezlari, asosan, oyoq panja osti (beshta oyoq kafti) suyaklarida joylashgan. Bu yerda 1 sm^2 ga 300—350 ter bezlari to'g'ri keladi.

Oyoq panjasini ustiga, tovon ostiga, oyoq panjasining ichki va tashqi tomonlariga o'rtacha 1 sm^2 ga 200—250 ter bezlari to'g'ri keladi.

Ter tarkibining 98—99 foizi asosan suvdan hamda osh tuzi, mochevina, yog'li uchuvchi kislotalar, kerotin, yog', xolesterin va boshqa moddalaridan tashkil topgan.

Buyrak kasaliga chalinganda uning ayrim funksiyalarini teri o'z zimmasiga oladi. Terining ko'p-oz chiqishi faqat ter bezlarining joylashishiga qarab emas, balki ularning intensiv ishlashiga bog'liq.

M.F.Ivaniskiyning tadqiqotiga qaraganda, oyoq panjasiga bosim ortgan sari ter ham ko'payadi. Terining kimyoviy tarkibi har doim bir xil emas. Uning tarkibiga quruq qoldiq 0,5 foizdan 2,5 foizgacha o'zgarib turadi.

Ter tarkibiga kiradigan bakteriyalar ta'sirida ter tez parchalanib, o'zidan yoqimsiz hidli uchuvchi moddalar hosil qilib,unga ishqoriy tarkib beradi. Organizm qattiq qizib ketishi mumkin bo'lgan vaqtida odamda ter ajralish jarayoni reflektor ravishda ko'payadi. Havo harorati yuqori bo'lganda, issiq ovqat iste'mol qilinganda, og'ir jismoniy ish bajarilganda, odam qattiq qo'rqqanda yoki juda xursand bo'lganda ter chiqishi kuchayib ketadi.

Odam organizmi o'z terisi orqali bir kecha-kunduz mobaynida 0,5 litrdan 10 litrgacha ter va suv chiqarishi mumkin.

Yu.P. Zibin va G.P. Bulatovlarning ilmiy izlanishlari shuni ko'rsatadiki, germetik berkitilgan oyoq panjasini tinch holatda (o'rta jismoniy ish bajargan) o'rtacha 1,2 gr/soat dan 2,5 gr/soat gacha, og'ir jismoniy ish bajarganda 6—12 gr/soat ter chiqaradi. Ter poyabzalning ustki detallarini yemirilishiga ta'sir qiluvchi omillardan biridir.

Terning poyabzal detallariga ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ishqoriy muhit charmning kislородни yutishga, charm tarkibidagi oqsil va tanidlarni oksidlanishiga olib keladi. Ter ta'sirida poyabzalning charm detallarining bikirligi ortadi.

Teri xilma-xil vazifalarni bajaradi. Teri himoya organidir. U teri ostida yotgan to'qimalarni mexanik shikastlanishdan saqlaydi, organizmni ko'p suv yo'qotilishiga to'sqinlik qiladi, tana ichkarisiga chet moddalar hamda kasallik tug'diruvchi mikroblarni kirishiga yo'l qo'ymaydi.

Teri nafas olish vazifasini bajaradi. Uning to'qimalari orqali kislород o'tadi va modda almashinuvida ishtirok etadi. Terida ko'p qon tomirlari bor. Ularda 1 litrgacha qon mavjud. Ko'pincha teridagi qon tomirlarning 1/3 qismi ishlaydi. Ammo odam qattiq jismoniy mehnat qilganda qon tomirlarining hammasi ishga tushadi. Nihoyat, teri organizm uchun haddan tashqari muhim, tana haroratini doimiy saqlab turish vazifasini bajaradi.

Oyoq panjasining osti harorati tana haroratidan ancha past. Oyoq panjasining ustki qismining harorati oyoq panjasini osti haroratidan 1,5°C yuqori, boldirning harorati esa oyoq panjasining ustki haroratidan 3,7°C ga yuqori. Tashqi muhit ta'sirida oyoq panjasining harorati pasaysa, odam shamollash kasalliklariga chalinadi.

3.2. OYOQ ANTROPOMETRIYASI

Organizmning shakllanish va rivojlanishiga odam yashab turgan joylarni iqlim-geografik sharoiti, ijtimoiy tuzumi ham ta'sir qiladi. Bularni antropologiya fani o'rganadi.

Antropometriya — bu antropologiyaning izlanish usullaridan biri bo'lib, inson tanasining turli o'lchamlarini olishda ishlataliladi.

3.2.1. OYOQNI O'LCHASH USULLARI

Odamlar oyoqlarining tuzilishi bir xil bo'lganligi bilan ularning o'lchamlari bir-biridan juda katta farq qiladi. Ommaviy poyabzal ishlab chiqarish uchun oyoq panjasining tuzilishini o'rganish kifoya qilmay, balki iste'molchilarning oyoq panjasining o'lchamlarini ham bilish kerak.

Agar har bir iste'molchi uchun alohida poyabzal tikiladigan bo'lsa, ommaviy poyabzal ishlab chiqaradigan korxonalarini og'ir ahvolga solib qo'yilgan va bir korxonada son-sanoqsiz qoliplar ishlatalishiga to'g'ri keladigan bo'lar edi.

Ommaviy poyabzal ishlab chiqarish korxonalarida bunday ishlash imkoniyati yo'q va shunday ishlash ham shart emas.

Poyabzal korxonalar ma'lum muddat ichida zamonaviy moda yo'naliishiga qarab poyabzallar ishlab chiqaradi. Bu ishlab chiqarilgan poyabzallar o'lchamlari bilan aholining talablarini qondirishi kerak.

Oyoq panjasini ommaviy o'lhash va o'rganish natijasida, ularning shakli va o'lchamlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi. Bu muammoga bag'ishlangan juda ko'p rus tibbiyot va antropolog olimlarining ilmiy ishlari mavjud.


Aholining oyoq panjalarini ommaviy o'lhashda ishtirok etgan poyabzalchi texnologlar Yu.P. Zibin, B.P. Xoxlov, X.X. Liokumovich, K.I. Chensova, O.V. Farniyeva O.A. Haydarov (O'zbekiston aholisi uchun) va boshqalar, tibbiyot va antropolog olimlar M.A. Petrov, V.V. Bunak, P.R. Zenkevich, P.N. Bashkirov, M.V. Ignatyev, V.M. Krans va boshqalar bilan birga ilmiy tadqiqot ishlarni olib borish natijasida, poyabzal sanoatida aholiga qulay va oyoq panjasining o'lchamlariga mos keladigan poyabzal ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.

3.2.2. OYOQ PANJASI VA BOLDIRINI O'LCHASHDA ISHLATILADIGAN ASBOB HAMDA MOSLAMALAR

Oyoq panjasi va boldirini o'lhashda quyidagi asbob hamda moslamalar ishlataliladi:

a) Plantograf (3.7-a rasm), oyoq panjasining konturi va izini (plantogrammasini) olishga mo'ljallangan moslama. Bu moslama juda sodda bo'lib, asos 3 ga sharnir yordamida biriktirilgan ramka 2 dan tashkil topgan. Ramkaga to'qima(doka) materiali va polivinilxlorid plyonka 1 tortilgan bo'ladi. Bosmaxona bo'yog'ini dokaga surib, asosga oq qog'oz 4 ni qo'yib, ramka yopiladi, so'ngra o'ng oyoq panjasini plynokka ustiga qo'yib, uning konturi chizib olinadi.


b) Elektrkontaktli konturograf (3.7-b rasm) oyoq panjasi plantografga qo'yilgandan keyin uning konturini chizib olishda ishlataladigan asbob, uning uchburchak shaklidagi ishchi qismi 2 da chizish uchun igna 1 bo'ladi. Oyoq panjasiga ta'sir qiladigan bosimni nazorat qilish uchun elektr sxema bilan ta'minlangan.



3.7-rasm. Plantogramma hosil qiluvchi asbob.

Agar oyoq panjasining konturini chizayotganda konturografni normal bosimda oyoq panjasiga tekkitib, uning konturi bo'yicha yurgizilsa, birinchi lampochka 4 yonadi (3.7-d rasm), normadan ortib ketsa, ikkinchi lampochka 3 yonadi. Bu esa oyoq panjasining konturini chizishda xatoga yo'l qo'yilayotganini bildiradi.

d) Oyoq panjasini o'chaydigan asbob (3.8-rasm) Yu.P. Zibin va V.K. Makaricheva tomonidan ixtiro qilingan. Uning ramkali asosi 9 shaffof tiniq tayanch plastmassa 1 dan tashkil topgan, bu plastinkada paz 15 bo'lib, unda shtir 4 joylashadi. Shtir uzunlik bo'yicha yo'naltiruvchi 2 prujinali vtsulka 3 ga o'rnatilgan. Shtir 4 shaffof plastinkaning uzunligi bo'yicha harakat qiladi. Chizg'ichlar 14 plastinka 11 yordamida o'zarbo'lib, asosning yo'naltiruvchi 2 pazida harakat qiladi. Oyoq panjasining tovon qismi




3.8-rasm. Oyoq panjasini o'chash asbob.

ikkita yon 12 va orqa 13 plastinkaga tegib turishi kerak. Ular 7 va 8 vtulkalar yordamida stok 6 orqali plastinka 11 ga biriktirilgan. Ular o'z navbatida prujinali sozlanadigan sterjen 10 va 5 orqali plastinka 13 va signal berish sistemasi 16 ga ulangan. O'lchash sistemasi (3.8-b rasm) asos 22 ga biriktirilgan oyoq panjasining enini o'lchaydigan o'tkir uchli 23 gorizontal chizg'ich 17 dan va balandligini o'lchaydigan vertikal chizg'ich 18 dan tashkil topgan. Vertikal chizg'ich 18 ning nol nuqtasi musta 19 ning yuqori sathiga teng bo'ladi, qachonki gorizontal chizg'ich 17 ning o'tkir uchi 23 shaffof tayanch plastinkasi yuqori yuzasiga tegib tursa. Gorizontall chizg'ichning nol nuqtasi musta 20 ning yon sathi bilan teng joylashadi, qachonki uning o'tkir uchi 23 chizg'ich 14 larga parallel o'qda yotsa. Bu o'lchash sistemasi oyoq o'lchagichning uzunligi bo'yicha harakat qiladi. Oyoq panjasini oyoq o'lchagichga shunday qo'yish kerakki, shtir 4 ikkinchi va uchinchi barmoqlar orasida, tovon qismi yon va orqa plastinkalarga tegib turishi kerak. Oyoq panjasining tovon qismi plastinkalarga tegib turganda uni ezilish darajasi signal sistemasi orqali nazorat qilinadi.

e) Oyoq panjasini va boldirni balandligini o'lchaydigan o'lchash asbobi (3.8-d rasm), asos 27 ga millimetrlri shkalasi bor chizg'ichli stok 24 biriktirilgan. Bu stokga gorizontal ko'rsatkich 28, harakatlanuvchi musta 25 yordamida biriktiriladi. Undagi maxsus teshik 26 orqali, anatomik nuqtalarining balandlik o'lchamlari yozib olinadi. Quchoq o'lchamlari eni 6—7 mm bo'lgan millimetrlri tasmlarda o'lchanadi.

3.2.3. OYOQ PANJASI VA BOLDIRNI O'LCHASH UCHUN ASOSIY ANATOMIK NUQTALARINI BELGILASH

Oyoq panjasini va boldirni o'lchash uchun uning asosiy anatomik nuqtalarining o'rni belgilanishi kerak (3.9-a, b rasm). Bular tovon qismining orqa tomonidagi eng bo'rtib chiqqan joyi 1, bukilish nuqtasi 5, oyoq panjasining uzunligini o'rtasi 4, kaft suyaklarining birinchi 6 va beshinchi 3 distal boshchasining markazi, birinchi yoki ikkinchi barmoqning old nuqtasi 2, beshinchi barmoqning oxiri 9, tashqi to'piqning markazi 10, ichki to'piqning markazi 11, qayiqsimon suyakning bo'rtib chiqqan joyi 12, birinchi kaft barmoq bo'g'imining markazini eng bo'rtib chiqqan nuqtasi 8, boldirning eng rivojlangan qism 13 laridan iborat.



3.9-rasm. Oyoq panjasini (a), boldirni (b) anatomik nuqtalarini belgilash tasviri.

3.2.4. OYOQ PANJASI, BOLDIRNING UZUNLIK VA BALANDLIK O'LCHAMLARINI OLISH

Uzunlik va balandlik o'lchamlarini olish uchun o'ng oyoq panjasini yuqorida aytiganidek qo'yiladi. Odam tanasining og'irligi ikkala oyoqqa bir xil tushishi va ular orasidagi masofa 200 mm bo'lishi kerak. Shunday holatda oyoq panjasining uzunlik o'lchamlari 1 nuqtadan to 2, 3, 5, 6, 9, 10, 11 nuqtalargcha (3.10-a rasm), balandlik o'lchamlari esa tayanch tekisligidan to 1, 8, 7, 10, 11 nuqtalarigacha o'lchanadi. Boldirning balandlik o'lchamlari esa tayanch tekisligidan to 13, 14 (3.9-b rasm) nuqtalargacha o'lchanadi.

3.2.5. OYOQ PANJASINING IZI, KONTURI VA UNING EN O'LCHAMLARINI ANIQLASH

Oyoq panjasining izi va gorizontal proyeksiyasini olish uchun plantografga (3.6-a rasm) bosmaxona bo'yog'ini surtib, asosga oq qog'oz qo'yiladi va polivinilklorid plynokali ramka yopiladi.

Polivinilklorid plynokaga o'ng oyoqning panjasi qo'yiladi va elektrokontaktlik konturograf yoki bo'lmasa oddiy, uchi yaxshi ochilgan qalamni tayanch tekisligiga tik qilib, oyoq panjasining konturi chizib olinadi.


Kontur chizayotganda 3, 6 hamda barmoqlarning orasidagi nuqtalar belgilab qo'yilishi kerak (3.8-a rasm.).

Oyoq panjasining en o'lchamlari va bosh barmoqlarning og'ish burchagi plantogrammadan olinadi (3.10-rasm).

Plantogrammaga K.I. Chensova tavsiya qilgan quyidagi usul bilan ishlov beriladi. Tovon qismining o'tasi F hamda ikkinchi va uchinchi barmoqlar o'tasi orqali oyoq panjasining bo'ylama o'qi o'tkaziladi. Oyoq panjasining konturida belgilangan 3,5 nuqtalar orqali bo'ylama o'qqa tik tushiriladi va ular o'z navbatida gorizontal proyeksiyaning konturi bilan kesishguncha davom ettiriladi (*m* va *f* nuqtalar) 2-f nuqtalar orasidagi masofa ichki tutamning *Sh_{1,c}*, va 5-m nuqtalar orasidagi masofa tashqi tutamning *Sh_u* enlarini bildiradi.

Oyoq panjasini tovon qismining gorizontal proyeksiyasini eng keng joyida tovon qismining eni *Sh_b* o'lchanadi.

Oyoq panjasining gorizontal proyeksiyasi konturiga (2) nuqta orqali urinma *OB* o'tkaziladi. Bosh barmoq konturiga o'tkazilgan urinma bilan *OB* orasidagi burchak bosh barmoqning og'ish burchagi α_1 ni bildiradi.



3.10-rasm. Oyoq panjasining plantogrammasiga ishlov berish.

Agar:

$\alpha_1 \geq -10^\circ \div 10^\circ$ bo'lsa, normal holat;

$\alpha_1 \geq 10^\circ \div 15^\circ$ bo'lsa, tashqi tomonga burilgan;

$\alpha_1 \geq 16^\circ$ dan katta bo'lsa, qiyshiq bosh barmoq hisoblanadi.

Oyoq panjasini gumbazining holatini plantrogrammada yaqqol ko'rish mumkin. Oyoq panjasini gumbazining holatini belgilovchi koeffitsient (K) ni topish uchun (3.10-rasm) oyoq panjasining ichki va tashqi burchaklarga ajratuvchi, F , 16 to'g'ri chizig'i o'tkaziladi. Oyoq panjasining izini tashqi tomonga, eng bo'rtib chiqqan, nuqtalar 5' va C orqali urinma o'tkaziladi. 5' va C chizig'iga A va H nuqtalardan tik tushirib, E va H' nuqtalari topiladi. Topilgan EH' kesma oyoq panjasini izining uzunligini bildiradi.

E nuqtadan urinma EH' bo'yicha $EB = 0,46 \cdot EH'$ kesma qo'yiladi. Topilgan B nuqtadan, urinma EH' ga tik tushiriladi va kesmalar EH' hamda IG o'lchanadi. Bu yerda EH' tashqi gumbazning eni, IG izning eni. Koeffitsient K quyidagi tenglama bo'yicha topiladi:

$$K = \frac{IG}{VZ}.$$

Koeffitsient K quyidagi qiymatlari bo'yicha guruhlarga bo'linadi:

$K = 0,5$ yoki kichik bo'lsa, gumbazi ko'tarilgan;

$K = 0,51 \div 1,1$ normal;

$K = 1,11 \div 1,2$ gumbazi past;

$K = 1,21 \div 1,31$ 1-darajali yassi;

$K = 1,31 \div 1,5$ 2-darajali yassi;

$K = 1,5$ va katta bo'lsa, 3-darajali yassi oyoq panja deyiladi.


3.2.6. OYOQ PANJASI VA BOLDIRNING QUCHOQ O'LCHAMLARINI O'LCHASH

Quchoq o'lchamlari cho'zilmaydigan millimetr shkalasi bor tasma yordamida o'lchanadi. Ichki va tashqi tutamlarning quchoq o'lchamlarini o'lchanayotganda, tasmaning cheti tovon tomonga yo'nalgan bo'lib, o'z navbatida 2 va 5 nuqtalarda yotishi kerak. Oyoq panjasining o'tasini ko'ndalang perimetri o'lchanayotganda tasma 4 nuqtada yotadi. Qiyshiq quchoq o'lchami $O_{b,l}$ o'lchanayotganda tasma oyoq panjasining bukilish nuqtasi 5 va tovonnning bo'rtib chiqqan 6 nuqtasi orqali o'tishi kerak.

Boldirning quchoq o'lchamlari 0₁, 0₂, 0₃, 5, 13, 14 nuqtalar orqali 5 o'lchanadi. O'lchanayotganda tasma boldirga yopishib, boldirning shartli vertikal o'qiga tik bo'lishi kerak.

3.2.7. OYOQ PANJASI O'LCHAMLARINING TAQSIMLANISH QONUNIYATLARI

Oyoq panjasining shakli, o'lchamlari odamning jinsiga, yoshiga va yashash geografik sharoitiga bog'liq. Shuning uchun oyoq panjasini bir necha guruhga jinsi, iqlim va geografik sharoitlari bo'yicha ajratib



3.11-rasm. Oyoq panjasining uzunligi o'lcamlari bo'yicha taqsimlanishi:
 X — Uzunlik o'lchami; U — Berilgan qiymatdagi odamlar soni.

Quyidagi tekis taqsimlanish qonunu tenglamasi yordamida qurilgan egri chiziqla mos keladi:

$$Y = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-M_x)^2}{2\sigma^2}}$$

Bunda: Y — jamoadagi berilgan x qiymatga ega bo'lgan oyoq panjasining soni; σ — kvadrat chetlanish; x — oyoq panjasining uzunligi beriladigan o'zgaruvchi qiymat; M — beriladigan jamoaning oyoq panjasini o'rtacha uzunligi.

Oyoq panjasining boshqa o'lcamlari (eni, balandligi, quchoq o'lcamlari) ham shu qonuniyat bilan tekis taqsimlanadi. Shunday ekan, biror o'lcamning o'rtacha qiymati M va uning dispersiyasi σ^2 yoki kvadrat chetlanishi σ ma'lum bo'lsa, u yoki bu o'lcamning sonini hisoblab topish mumkin.

Agar $\sigma = 1$ va $\frac{(x-M)}{\sigma}$ ni t qiymat bilan almashtirilsa, yuqoridaq ifoda quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\bar{Z}_t = \frac{1}{\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{t^2}{2}}.$$

Bunda, taqsimlanish sonlari quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$Y = Z_t, h/\sigma.$$

Bunda: h metrik sistemada bir razmerdan ikkinchi razmerga o'tishdagি farq 5 mm ga teng. Bundan tashqari V.M. Ignatyevning [5] nomogrammasi yordamida taxminiy usuldan ham foydalanish mumkin.

Ikkinci qonun. Oyoq panjasining ko'ndalang kesimining o'rtacha o'lcamlari uning uzunligi bilan $y = kx + b$ ko'rinishda to'g'ri chiziqli bog'-langan.

3.12-rasmda oyoq panjasining uzunligi bilan o'rtacha quchoq o'lchami $O_{t.t.}$ orasidagi bog'lanish ko'rsatilgan, katta yoshdagi erkaklar uchun empirik bog'lanishni bildiradigan egri chiziqning tenglamasi asosida chizilgan to'g'ri chiziq bilan almashtirish mumkin:

$$O_{t.t.} = 0,6 L_{o.n.} + 94 \text{ mm.}$$

Ommaviy o'lchash natijalariga matematika yo'li bilan ishlov berilganda, oyoq panjasining eni ($Sh_{t.t.}$) bilan ($L_{o.p.}$) orasidagi o'zaro bog'lanish quyidagicha ifodalanadi:

$$Sh_{t.t.} = 0,22L_{o.p.} + 27 \text{ erkaklar uchun;}$$

$$Sh_{t.t.} = 0,24L_{o.p.} + 32 \text{ ayollar uchun;}$$

$$Sh_{t.t.} = 0,22L_{o.p.} + 27 \text{ maktab yoshdagi o'g'il va qiz bolalar uchun.}$$

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, hamma ko'ndalang o'lchamlarning o'rtacha qiymatlari, oyoq panjasining uzunligi bilan to'g'ri chiziqli tenglama yordamida bog'langan. Bu tenglamani poyabzalchilar qoliqlar va poyabzal detallarni seriyalarga ko'paytirishda qo'llashadi.

Uchinchi qonun. Oyoq panjasining hamma uzunlik o'lchamlari uning uzunligiga proporsional ravishda o'zgaradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, oyoq panjasining uzunligi va uning uzunlik o'lchamlari $L_{t.t.}$, $L_{t.t.}$ va hokazolar bir-biri bilan bo'lgan regressiya tenglamasini

$$y = kx$$

kabi proporsionallik tenglama bilan almashtirish mumkin.


Ilmiy izlanishlar natijasida quyidagi proporsionallik koeffitsientlari aniqlangan:

Tovon qismining eng bo'rtib
chiqqan nuqtasidan:

tovon qismining o'rtasigacha
tashqi to'piqning markazigacha
oyoq panjasining bukish nuqtasigacha
oyoq panjasining gumbaz nuqtasigacha
tashqi tutamgacha (t.t.)
ichki tutamgacha (i.t.)
beshinchi barmoq oxirigacha

Proporsionallik
koeffitsient, K

0,18
0,20
0,42
0,55
0,62
0,73
0,80



3.12-rasm. Oyoq panjasining uzunligi X bilan tutam qismining quchoq o'lchami U o'rtasidagi bog'lanish.

To'rrinchi qonun. Oyoq panjasining hamma ko'ndalang kesim o'lchamlari, uning eni yoki quchoq o'lchamlari va boshqa kenglik o'lchamlari bilan proporsional bog'langan.

Lekin shuni ta'kidlash kerakki, oyoq panjasining eni quchoq o'lchamlari bilan boshqa kenglik o'lchamlari kabi aniq bog'lanmagan.

Shunday bo'lsa ham texnologik maqsadda bu noaniqlikni hisobga olmay, hosil bo'lgan tenglamalardan foydalanish mumkin.

Quyida katta yoshdagi aholilar uchun tashqi kaft-barmoq bo'g'imi eni ($Sh_{\text{t.t.}}$)ga nisbatan proporsionallik koefitsienti K keltirilgan.

	Proporsionallik koefitsienti
Oyoq panjasining eni bilan:	
birinchi kaft suyagining distal boshchasining markazi bo'yicha $Sh_{\text{t.t.}}$	0,95
tovon qismining eng keng qismida	0,73
quchoq o'lchamlari:	
oyoq panjasining o'rtasi	2,58
kaft-barmoq bo'g'imi bo'yicha	3,45

3.2.8. OYOQ PANJASINI ODAM TANASINING UZUNLIGI BILAN BOG'LQLIGI

Odam panjasining uzunligi odam tanasini uzunligi bilan juda yaxshi korrelatsion bog'lanishda ekanligi ma'lum. Ommaviy o'lchamlar shuni ko'rsatadiki, oyoq panjasining uzunligi odam tanasi uzunligining 15% ni tashkil qiladi ($r = 0,75 - 0,85$). Odam tanasining uzunligi P bilan oyoq panjasining uzunligi $L_{\text{o.p}}$ orasidagi bog'lanish katta yoshdagи aholi uchun quyidagicha bo'ladi:

$$\begin{aligned} \text{Erkaklar uchun } L_{\text{o.p.}} &= 0,14P + 29 \\ \text{Ayollar uchun } L_{\text{o.p.}} &= 0,14P + 22 \end{aligned}$$

Bu ifodani soddallashtirib: oyoq panjasining uzunligi erkaklar tana uzunligi uchun 15,8 foizini (ayollar uchun esa 15,5 foizni) tashkil qiladi deb hisoblash mumkin.

3.2.9. OYOQ PANJASI BILAN QO'L PANJASINING O'LCHAMLARINI O'ZARO BOG'LANISHI

Odam qo'l panjasining mushtini quchoq o'lchami O_k bilan, oyoq panjasining uzunligi orasidagi bog'lanish ($r = 0,6$) quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$L_{\text{o.p.}} = 0,650_k + 86.$$

Oyoq panjasining uzunligi o'rtacha qiymatga ega bo'lganda, qo'l panjasining mushtini quchoq o'lchamiga teng deyish mumkin:

$$O_k = L_{\text{o.p.}}$$

Oyoq panjasining uzunligi katta bo'lganda uning har bir santimetriga nisbatan, mushtning quchoq o'lchami taxminan 3,5 mm katta, oyoq panjasining uzunligi kichik bo'lsa, har bir santimetriga 3,5 mm kichik bo'ladi. Shuningdek, mushtning quchoq o'lchami bilan oyoq panjasini kaft-barmoq quchoq o'lchamlari orasida juda yaxshi korrelatsion bog'lanish bor ($r = 0,8$).

3.3. QO'L PANJASINING ANTROPOMETRIYASI

Qo'lqoplarning razmeri va shakli, qo'l panjasining razmeri hamda shakliga monandligi qo'lqopning sifat va qulayligi kabi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

3.3.1. QO'L PANJASINING UZUNLIK O'LCHAMLARINI ANIQLASH

1. Qo'l panjasining orqa (dorsal) tomonini uzunligi D qo'l panjasining asosini o'rtaşı (C_d)dan to eng uzun (uchinchı) barmoqning oxirgi nuqtasigacha (3.12-a rasm);

2. Qo'l panjasining kaft (fleksor) tomonini uzunligi L_k — qo'l panjasining o'rtaśidan (C_k) to eng uzun barmoqning oxirigacha;

3. Kaft uzunligi I_k beshinchı barmoqning nurini davomida — qo'l panjasining asosidan to to'rtinchi va beshinchı barmoqlar orasidagi pardagacha. Bu uzunlik o'lchamlarini o'lchayotganda qo'l panjası osilib, barmoqlar esa to'g'ri turishi kerak.

4. Beshta barmoqning har birini fleksor (flexor) uzunligi (kaft tomonidan) I_1, I_2, I_3, I_4, I_5 va dorsal uzunligi (orqa tomonidan) D_1, D_2, D_3, D_4, D_5 barmoqlar orasidagi nuqtadan to barmoqlar oxirigacha.

5. Tenar (thenar) ning (bosh barmoq do'mbog'i) asosidan, kaft tomonidan qo'l panjasining asosigacha H.

6. Har bir barmoqning tirmog'i o'rtaśidan to barmoqning oxirigacha U_1, U_2, U_3, U_4, U_5 (3.12-a rasm).

7. Birinchi barmoqning oxiridan tenarning asosigacha bo'lgan masofa L_1 (3.12-b rasm).

8. Tenarning asosidan to birinchi va ikkinchi barmoqlarning orasini o'rtaśigacha.


Bu beshta o'lchamlarni olayotganda qo'l panjası stolda dorsal tomoni bilan yotgan bo'lib, birinchi barmoq ikkinchi barmoqning oldida joylashishi, ya'ni birinchi barmoq ikkinchi barmoqqa nisbatan 350 burchak ostida yotishi kerak.

9. Birinchi barmoqlar orasidagi nuqta bo'ylab o'tkazilgan yordamchi chiziqdandan to ikkinchi barmoqning radial yuzasidan o'tkazilgan o'qgacha bo'lgan masofa, C.

3.3.2. QO'L PANJASI VA BARMOQLARNING QUCHOQ O'LCHAMLARINI ANIQLASH

1. Qo'l panjasining beshinchı kaft-barmoq bo'g'imi bo'yicha quchoq o'lchami O_q (3.13-a rasm), beshinchı kaft suyagining distal boshchasi orqali, qo'l panjasining bo'ylama o'qiga tik qilib millimetrik tasma yordamida o'lchanadi.

Qo'l panjası stol ustida, barmoqlar to'g'rilangan holatda yotadi. Bosh barmoq o'lchanmaydi.



3.13-rasm. Qo'l panjasining o'lchash tasviri.

2. Birinchi barmoq tirkog'ini o'rtasi bo'yicha quchoq o'lcham O_1 (3.13-b rasm).
3. Birinchi kaft-barmoq bo'g'imi bo'yicha quchoq o'lcham O_1 .

3.3.3. QO'L PANJASINING EN O'LCHAMLARI VA BARMOQLAR QALINLIGINI ANIQLASH

1. Qo'l panjasining eni $Sh_{k.p.}$ beshinchisi kaft suyagining boshchasidan to ikkinchi barmoqning radial chetigacha bo'lgan masofa. Qo'l panjasining kaft tomoni bilan stolga qo'yilgan holda o'lchanadi.
2. Ikkinci, uchinchi, to'rtinchi, beshinchisi barmoq tirkog'larini o'rtasi bo'yicha qalinligi t_1 , t_2 , t_3 , t_4 , t_5 (3.13-b rasm). t_4 va t_5 rasmida ko'rinnmaydi.
3. Birinchi barmoqning qalinligi T_1 , birinchi barmoqlararo nuqtada.
4. Ikkinci, uchinchi, to'rtinchi, beshinchisi barmoqlarning qalinligi T_2 , T_3 , T_4 , T_5 barmoqlararo nuqta.
5. Tenarning birinchi yoyini uzunligi g_1 , d_1 (3.13-b rasm) millimetrliga tasma yordamida birinchi barmoqning «ariqchasidan» to yordamchi chiziqqacha, tenarning eng keng joyida o'lchanadi.
6. Tenarning ikkinchi yoyini uzunligi e_1 , j_1 . Tenarning uzurligini uchdan bir qismida joylashgan bo'lib, birinchi barmoqning ariqchasidan to yordamchi chiziqqacha bo'lgan masofa.

3.3.4. OLINGAN O'LCHAMLARNI O'RTA TIPIK QIYMATLAR BILAN SOLISHTIRISH

M.V. Lomonosov nomli Moskva davlat universiteti qoshidagi D.N. Anuchin nomli antropologiya ilmiy-tekshirish institutida olib borilgan qo'l panjasini ommaviy o'lchash natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'l panjasining o'lchamlarini taqsimlash va o'zaro bog'lanishi xuddi oyoq panjasining taqsimlanishi va o'zaro bog'lanishi qonunlariga mos keladi.

1. Qo'l panjasining o'lchamlarini taqsimlanishi tekis taqsimlanish qonuniga bo'ysinadi:

$$Y = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(x-M_x)^2}{2\sigma^2}}$$

2. Qo'l panjasining ko'ndalang kesimi o'rtacha o'lchamlari, uning uzunligi bilan $y = kx + b$ ko'rinishda to'g'ri chiziqli bog'langan:

$$\begin{aligned} \text{Erkaklar uchun } O_k &= 142,2 + 0,092l, \\ \text{Ayollar uchun } O_k &= 116,9 + 0,099l, \end{aligned}$$

3. Qo'l panjasining uzunlik o'lchamlari l_1, l_2, l_3, l_4, l_5 ham uning uzunligi D bilan $u = kx$ ko'rinishda proporsional bog'langan:

$$\begin{aligned} l_1 &= 0,285D; \quad l_2 = 0,35D; \quad l_3 = 0,425D; \\ l_4 &= 0,38D; \quad l_5 = 0,29D. \end{aligned}$$

4. Qo'l panjasining hamma ko'ndalang kesim o'lchamlari uning quchoq o'lchami $O_{k,p}$ bilan proporsional bog'langan. Quyida proporsionallik koefitsientlari berilgan:

Qo'l panjasining eni	0,41
Barmoqlarning qalinligi;	
barmoqlararo nuqtada	
birinchi T_1	0,08
uchinchchi T_3	0,09
barmoqlararo nuqtada quchoq o'lchamlari	
birinchi O_1	0,30
ikkinchi O_2	0,31
uchinchchi O_3	0,31
to'rtinchchi O_4	0,30
beshinchchi O_5	0,30

Qo'l panjasini fleksor (kaft) uzunligi $L_{q,p}$ va uchinchi barmoqlarning uzunligiga l_3 asoslanib, qolgan o'lchamlar tenglama yordamida topiladi va jadval to'ldiriladi, so'ngra topilgan qiymatlarni haqiqiy o'lchanigan qiymatlardan bilan solishitirib xulosa yoziladi.


Tekis taqsimlanish sonini faqat qo'l panjasining quchoq o'lchami $O_{k,p}$ uchun topiladi. Bunda erkaklarning qo'l panjalarining o'rtacha quchoq o'lchami $O_k = 214$ mm, ayollar uchun esa $O_k = 190$ mm, $O_k = 9$ mm ga teng bo'ladi.

3.4. OYOQ PANJASINING BIOMEXANIKA ASOSLARI

Oyoq panjasining bajaradigan ishi

Qolip va poyabzallarni to'g'ri konstruksiyalash hamda loyihalash uchun oyoq panjasining bajaradigan ishini statika (tinch holat)da hamda dinamika (harakat)da o'rganish zarur.

Qulay va bejirim poyabzallarni qurish oyoq panjasining shakli va uning tayanch qismi bilan to'g'ridan to'g'ri bog'langan. 3.14-a rasmdan ko'rinish



3.14-rasm. Oyoq panjasining tayanchga nisbatan bosim kartogrammasi.

barmoq bo'g'imi ostida bosim proporsional ravishda o'zgarmay (3.14-a rasm), egri chiziq bo'yicha o'zgaradi. Oyoq panjasini tutam qismining bosimini (P_{tut}) tovon qismiga tushayotgan bosimga nisbatan (P_{tovan}) proporsionallik koeffitsienti quyidagi ifodadan topiladi:


$$K = \frac{P_{\text{tut}}}{P_{\text{tovan}}}.$$

Egri chiziqdan ko'rinish turibdiki, tovon qismi 30 mm ko'tarilsa, bosim bir tekis tarqaladi, agar tovon qismi $B_n = 70$ mm ga ko'tarilsa, oyoq panjasining old qismiga tushadigan bosim 5 barobarga ortadi. Shuning uchun qulay poyabzallarning tovon qismi biroz ko'tarilgan bo'lishi shart.

Odam tanasining og'irligi natijasida oyoq panjasining uzunligi o'rtacha 2–3 mm, quchoq o'lchamlari 7–12 mm ga kattalashadi.

Yurganda oyoq panjasini tovon qismidan tumshuq qismiga dumalaydi hamda bosim bir oyoqdan ikkinchi oyoqqa tushadi. Yurish mexanizmini o'rganadigan bo'lsak, inson tanasi har qadam qo'yishdan oldin tana ozgina og'ib, ya'ni tanani muvozanatidan chiqarib, og'irlik markazini tayanch tekisligidan siljitaladi. Shu paytda boldir-panja 3 va kaft-barmoq 1 bo'g'imlari egiladi (3.15-rasm).

Xuddi shu holat tovon qismini poshna balandligiga ko'targanda ham ro'y beradi. Bunda oyoq panjasini kaft-usti 2 bo'g'imlarda ozgina egiladi.



3.15-rasm. Oyoq panjasining kaft-barmoq bo'g'imidagi shartli tebranish markazi.

turibdiki, yassi tekislikda turgan odamning og'irligi tekis tarqalmay, balki ko'proq tovon suyagi hamda birinchi va beshinchi kaft suyaklari ostiga tushadi.

Agar oyoq panjasini o'zining plantar (tag) qismiga o'xhash tekislikda tursa, u holda bosim bir tekis, tovon qismidan to kaft suyaklarining boshchalari ostigacha tarqaladi (3.14-b rasm). Shuning uchun qulay poyabzallarda patakning tovon qismini shakli oyoq panjasining tovon qismini shakliga o'xhash yoki tovon qismini shakliga yaqinroq bo'lishi kerak.

Oyoq panjasining tovon qismi ko'tarilganda bosimning tayanch tekisligiga tarqalishi o'zgaradi. Tovan qismi ko'tarilganda B_n kaft va

koeffitsienti quyidagi ifodadan topiladi:

$$K = \frac{P_{\text{tut}}}{P_{\text{tovan}}}.$$

Kaft suyaklarining egilish (tebranish) markazi ularning boshchalari markazi atrofida, tayanch tekisligidan ko'tarilgan holatda joylashadi.

Kaft suyaklarining o'lchamlari turlicha bo'lgani uchun egilish (tebranish) markazi tovon qismining orqa tomonini eng bo'rtib chiqqan joyi 4 dan turli masofalarda yotadi. Shartli ravishda tebranish markazining o'qlari, birinchi barmoq oxiri va beshinchi kaft suyaklarining boshchasi, ya'ni $0,73 L_{\text{o.n.}}$ va $0,8 L_{\text{o.n.}}$ masofada yotadi deb hisoblanadi.

Oyoq panjasini dumalashi ikkita shartli tebranish o'qiga nisbatan, ya'ni birinchi va beshinchi barmoqlarning tebranish o'qlari yordamida vujudga keladi.


Shunday qilib, oyoq panjasining o'lchamlari yurganda o'zgarar ekan. Oyoq panjasni tutam qismiga tayanib turganda o'zining eng maksimal uzunligiga ega bo'ladi, uning tayanch yuzasi 17—21 mm gacha uzayadi, tutam quchoq o'lchamlari esa 4—5 mm kattalashadi. Ikkala oyoqqa tayanib turganga nisbatan tovon qismining uzunligi 5,5 mm gacha qisqaradi, eni esa 4—6 mm ga kichrayadi, ayrim quchoq o'lchamlari esa 15 mm gacha kattalashadi.

Oyoq panjasining asosiy en va quchoq o'lchamlari ko'tarilib turganida eng kichik qiymatlarga ega bo'ladi.

Odam gavdasining og'irligi natijasida oyoq panjasining o'lchamlarini o'zgarishi oyoq gumbazining prujina xususiyati hamda kaft-barmoq bo'g'imida oyoq panjasini siqilishi va cho'zilishi, yog' qatlamlarining enini kattalashishi, ya'ni qalinligi bo'yicha siqilishi natijasida sodir bo'ladi.

Nazorat savollari

1. Antropologiya va biomexanika fani to'g'risida umumiy tushuncha bering.
2. Odam skeletining tuzilishi va vazifasi to'g'risida umumiy tushuncha bering.
3. Suyaklarning turkumlarga bo'linishi to'g'risida tushuncha bering.
4. Suyaklarning o'zarो birlashuvini izohlang.
5. Bo'g'imir turlarini aytib bering.
6. Qo'lning erkin turgan qismining skeleti haqida tushuncha bering.
7. Qo'l suyaklarining birlashuvini izohlang.
8. Oyoqning erkin turgan qismining skeletini izohlang.
9. Oyoq suyaklarining birlashuvini izohlang.
10. Mushaklar sistemasi haqida tushuncha bering.
11. Qo'lning erkin turgan qismining mushaklarini izohlang.
12. Oyoqning erkin turgan qismining mushaklarini izohlang.
13. Terining tuzilishi va vazifasi to'g'risida ma'lumot bering.
14. Antropometriya nima?
15. Oyoq panjasini o'lchashda qanday asbob va moslamalar ishlataladi?
16. Oyoq panjasini va boldir o'lchamlarini olish hamda ularga ishllov berish usullarini izohlang.
17. Oyoq panjasini o'lchamlarining asosiy taqsimlanish qonuniyatlarini izohlang.
18. Qo'l panjasining antropometriysi to'g'risida tushuncha bering.
19. Oyoq panjasining bajaradigan ishi to'g'risida tushuncha bering.
20. Oyoq panjasining bukilishi va o'lchamlarini o'zgarishi haqida tushuncha bering.



3.16-rasm. Tovon balandligiga oyoq panjasini uzunligining ta'siri.

4-bob. POYABZAL DETALLARINING ISHI

a) Ustki detallarning ishi

Poyabzal kiyganda uning detallari va ularni biriktiradigan choklari oddiy hamda murakkab, takrorlanuvchan hamda o'zgaruvchan kuchlar ta'sirida bo'ladi.

Poyabzalning sirtqi detallari oyoq panjasida joylashishi va bajaradigan ishiga qarab o'ta muhim hamda muhim detallarga bo'linadi. Birinchisiga oyoq panjasining old qismini, ikkinchisiga kaft, tovon va boldirni berkituvchi detallar kiradi.

Tumshuq poyabzalning eng chiqib turgan qismi bo'lib, u har doim o'zining shaklini, berilgan qiyofasini saqlab turishi kerak. Shu bilan birga u juda ko'p tashqi muhit ta'siriga duch keladi. Shuning uchun tumshuq o'ta chidamli, tashqi ko'rinishi chiroyli va har xil iflosliklardan yaxshi tozalanadigan materialdan tayyorlanishi kerak.

Odam yurganda poyabzalning yuzi ahamiyatli ishlarni bajaradi. Oyoq panjasи bukilganda yuzi ham bukiladi, buning natijasida sirtqi detalda, oyoq panjasining bo'yiga tik yoki unga $85^\circ \div 120^\circ$ burchak ostida qat-qat (tax) lar paydo bo'ladi. A.N.Kalitaning ilmiy tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, qo'llaniladigan materialning qalinligiga qarab taxlar yupqa va yumshoq materiallar uchun 0,5—1 mm, qalin va bikir materiallar uchun 5—10 mm (bulg'ori charm) har xil egrilik radiusiga ega bo'lar ekan.

Ko'p marotabali egilishi natijasida materiallar yirtildi. Ustki detallarning materiali, poyabzalni kiyish davomida kamida 1,5 mln. martaba egilish deformatsiyasiga chidashi kerak.

N.N. Chernikov bo'yicha sirtqi detallarida, ko'p marta egilish natijasida, materialni yirtilish o'rtacha muddatda ko'rsatilgan.

Detal	Yuzaki nuqsonlar	Yirtilishi
Betlik: xrom tuzlari bilan oshlangan; shevret;	7,5 oyda 3,5 oyda	12 oyda 7 oyda
<i>Boshliq bulg'ori charmdan</i>	—	7,5—8 oyda

Qat-qatlar (taxlar), asosan, betlik ($0,62—0,78 L_{\text{о.н.}}$ masofa)da hosil bo'ladi. Bundan tashqari ustki detallar kaft-barmoq bo'g'imi bo'y yo'nalishida 15—20 foiz siqiladi. Buning natijasida tabiiyki, qat-qat hosil bo'ladi. Qat-qatning balandligi va soni, ustki detallarni oyoq panjasiga yopishib turishiga, materialning qalinligi va boshqa omillarga bog'liq.

Agar ustki detal qanchalik oyoq panjasiga yopishib turmasa, taxlar shuncha katta va baland bo'ladi. Asosan, detallar egilganda egrilik radiusi 1 mm dan kichik bo'lsa, material qat-qat bo'yicha yirtiladi. Bundan tashqari hosil bo'lgan qat-qatlar oyoq panjasini terlashi natijasida hosil bo'lgan terni o'ziga shimadi va natijada ustki detallar yemirilishi tezlashadi.

Bulg'ori charmidan tayyorlangan boshliqlar og'ir sharoitlarda foydalani-ganligi uchun xrom tuzlari bilan oshlangan charmardan bichilgan betliklarga nisbatan tez yemiriladi.

Ust ki detallar, oyoq panjasini shakliga, poyabzalni 2—3 hafta kiyish davomida moslashadi. Shuni aytish kerakki, yaxshilab qolipa tortilgan tanavor, qolipda n tushirilgandan keyin ko'ndalang yo'nalihsda 4—5 foiz «o'tiradi» (qisqaradi).

Poyabzalning qolgan sirtqi (qo'nj, dastak va boshqa) detallariga kamroq talablar qo'yiladi va ular kamroq deformatsiyalarga uchraydi. Astarlar va oraliq astarlar ham xuddi sirtqi detallar singari, ko'p marta egilish, cho'zilish, siqilish deformatsiyalariga uchraydi. Sirtqi va ichki detallarning materialini tanlayot-ganda bir xil vazifani bajarayotgan detallarga bitta sistema deb qaraladi.


Charmdan bichilgan sirtqi detallarning mustahkamligi, gazmoldan bichilgan ichki detallarning mustahkamligidan kattaroq. Poyabzaldan foydalanganda, uning astari ko'proq oyoq panjasining tovon va barmoq qismida, ishqalanish natijasicda yemiriladi. Poyabzalning ichki detallarini ochiq qismi (yuqori ziyi, tasmalar) tez yediriladi, chunki ular oyoq panjasiga jips yopishib turadi, ayrim hollarda esa, hatto, oyoq panjasining yumshoq qismiga botib turadi. Masalan, «qayiqsimon» tuflilarning betligi. Shuning uchun astarlarning yuqori ziylari charm dan yoki sun'iy charmidan bichilishi kerak.

b) Tag detallarining bajaradigan ishi


Tag detallari poyabzalni kiyish davomida eng ko'p va turli ta'sirlarga duch keladi. Odam yurganda birinchi bo'lib poshna ostining kichik yuzasi, tayanch tekisligiga ma'lum burchak ostida tekkanda hosil bo'ladigan katta solishtirma bosim $2 \cdot 10^4$ Pa ga teng bo'lib, natijada u tez yediriladi (4.1-rasm). Shuning uchun poshna ostini tez-tez almashtirilib turishga to'g'ri keladi.

Oddiy konstruksiyadagi poyabzallarda taglik eng asosiy ishni bajaradi. Tagliklar ko'pincha ishqalanish, ko'p marotabali egilish va cho'zilish deformatsiyalariga ishlaydi. Tag detallarining konstruksiyasi va materiallarining fizik-mekanik xususiyatlari, qalinligiga va bikirligiga qarab, tagliklarni egilish radiusi 4—8 sm bo'ladi. Charm tagliklar egilganda ularning yuzasining nisbiy uzayishi 16% ni tashkil qilsa, qalin va shakllangan rezina tagliklarining ayrim qismlarida nisbiy uzayish 25% ga yetadi. Patak materiali qalinligi qancha yupqa va yumshoq bo'lsa, u shunc ha oson egiladi. Tag detallari egilganda taglik cho'ziladi, patak esa ko'ndalang yo'nalihsda qisqaradi. Ayrim pataksiz poyabzallarda taglikning ichki qatlamlari siqiladi.


Solishtirma bosim tagliklarning tashqi qatlaml arida turlichal bo'ladi va oyoq



4.1-rasm. Poshnaning tayanch tekisligiga tekkanda (a) bo'ylama, (b) ko'ndalang yo'nalihsda hosil bo'ladigan kuchlar ta'siri.



4.2-rasm. N.N. Chernikov bo'yicha taglikni yedirilish topografiyasi.



4.3-rasm.

poyabzalni kiyayotgandagi ob-havo sharoitiga hamda poyab zalga qarash (parvarishlash) ga bog'liq.

Pataklar ham xuddi tagliklarga o'xshab, siqilish va tutam qismida ko'p marta egilish deformatsiyasiga uchraydi. Bundan tashqari pataklar oyoq panjasining kaft-barmoq qismi (bo'g'im)da oyoq panjasining harakati tufayli ishqalanadi. Patakni egilish radiusi tagliknikidan kichkina bo'lib, taxminan 10—15 mm bo'ladi. Agar pataklar va to'ldirgichlar yurmshoq hamda yuqori plastik xususiyatiga ega bo'lgan materiallardan yasalsa, u holda yangi poyabzal tez kunda oyoq panjasini tag qismining shaklini oladi, ya'ni patakda oyoq panjasiga mos relyef paydo bo'ladi (4.3-rasm). Buning natijasida taglikka tusha yotgan bosim tekis tarqalib tagliklarning xizmat muddati uzayadi. SNIIKP ma'lumotlariga ko'ra poyabzalga kigiz to'ldirgich qo'yilgan bo'lsa, 91 kunda to'la (teshik hosil bo'lguncha) yediriladi.

Qo'yich (gelenka) poyabzallarda ressor vazifasini bajaradi. Unga oyoq panjasni orqali katta kuch ta'sir qiladi. Odam yurganda qo'yichlar o'zgaruvchi deformatsiyalar ta'sirida bo'ladi. Shuning uchun qo'yichlarda goh musbat, goh manfiy egish momentlari paydo bo'ladi. Yurganda qo'yichlarda hosil bo'ladigan kuchlanish turgandagiga nisbatan 2—2,5 marta ko'p, shuning uchun qo'yichlar, ko'pincha maxsus po'latlardan tayyorlanadi.

Nazorat savollari

1. Poyabzal ustki detalining ishi haqida tushuncha bering.
2. Poyabzal ustki detalining yemirilish sabablarini tushuntiring.
3. Poyabzal tag detalining ishini izohlang.
4. Poyabzal tag detalining yemirilish sabablarini nimalardan iborat?

panjasining oldi qismi tuzilishi hamda odamning yurishiga bog'liq. Ayrim hollarda solishtirma bosim 10^6 Pa dan katta bo'ladi. Odatda, u taglikning old qismida ($4\div 7 \cdot 10^5 \text{ Pa}$) va tutam qismida $2 \cdot 10^5 \text{ Pa}$ tashkil qiladi. Odam normal holatda yurganda taglikning tayanch tekisligini ishqalanayotgan yuzasi yediriladi. Tagliklarning yedirilish topografiyasi N.N. Chernikovning tadqiqotlariga ko'ra, oyoq panjasining bosimini tayanch tekislikdagi taqsimlanishiga bog'liq. Eng ko'p yedirilish kaft-barmoq bo'g'imlari va birinchi barmoq ostida kuzatiladi.

Tagliklarning yedirilish tezligi turli materiallarda turlich. Yaxlit quyma rezina tagliklar 60—80 kunda 1 mm ga yedirilsa, charm tagliklarning yedirilishi turli qatlamlarda turlich. Qalinligi 4,7 mm bo'lgan charm taglikning yuza qismi 14 kunda 1 mm yedirilsa, o'rta qismi 45 kunda, ayrim qismlari esa 68 kunda yediriladi. Tagliklarning yedirilish tezligi, poyafzalni qaysi kasb egasi kiyishiga, tayanch tekisligining holatiga (tosh yo'l, asfalt, yer), yil fasliga va

5-bob.

POYABZALNING GIGIYENIK VA FIZIK XUSUSIYATLARI

Har qanday poyabzal estetik, gigiyenik, texnik talablarga javob berishi, odamni dam olishda, mehnat qilishda, sport bilan shug'ullanishda qulay bo'lishi kerak. Oyoq panjasи va umuman odam organizmi normal faoliyat ko'rsatishi uchun poyabzal ichida maxsus (mayin) iqlim paydo qilishi shart. Bunga poyabzalning kerakli konstruksiyasini yaratish hamda materiallarni to'g'ri tanlash bilan erishiladi.

Poyabzal uchun eng yaxshi material, bu yaxshi oshlangan tabiiy charm hisoblanadi, hozirgi paytda charm mahsulotlarining tanqisligi tufayli turli sun'iy va sintetik materiallar ko'p ishlatalmoqda. Bu esa poyabzal va unga ishlataladigan materiallarning xususiyatlarini mukammal o'rganishni taqozo qiladi. Shuning uchun bu xususiyatlarini o'rganish va ularni aniqlay bilish katta ahamiyatga ega. Shuni qayd qilib o'tish kerakki, sun'iy va sintetik materiallarni tag detallarga ishlatalish poyabzallarning gigiyenik xususiyati va qulayligiga katta ta'sir qilmaydi.

Gigiyenik xususiyatlariga, asosan, ustki detallarning materiali va konstruksiyasi ta'sir qiladi. Poyabzalning konstruksiyasi, unda hosil bo'lgan statik elektr tokini o'tkaza oladigan va o'z vaqtida oyoq panjasidan chiqadigan suv, gaz, issiqlik va terlarni poyabzalning ichidan tashqariga chiqara oladigan bo'lishi va o'z navbatida tashqaridan suv, sovuq havo va issiqliknı ichiga o'tkazmasligi kerak. Poyabzal ichidagi mayin, iqlim nisbiy ko'rsatkichlarga ega, ya'ni temperaturasi 21—33°C, namligi 60 dan 73 foizgacha bo'lsa, qulay hisoblanadi. Gigiyenik xususiyatlarning eng asosiy omillari nam almashinish, nam va issiqdan himoya qilish, poyabzalning bikirligi va massasi hisoblanadi.

5.1. POYABZALNING NAM ALMASHTIRISH VA NAMDAN HIMOYA QILISH XUSUSIYATLARI

Poyabzalning nam almashtirish xususiyati oyoq panjası chiqaradigan namni o'ziga yutib, so'ngra uni tashqariga chiqara olish bilan belgilanadi. Normal meteorologik sharoitda odam terisi o'zidan suv bug'i ko'rinishida nam chiqarib turadi. Agar tashqi muhit harorati 30°C va havoning nisbiy namligi katta bo'lsa hamda qattiq jismoniy mehnat qilinganda suv bug'i bilan birga ter ham chiqadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'p hollarda poyabzal ichidagi havoning nisbiy namligi 60—75 foizdan ortmaydi, faqat

qattiq jismoniy mehnat qilganda va tashqi muhitning temperaturasi 30° C dan yuqori bo'lganda nisbiy namlik 90—95 foizga ko'tarilishi mumkin.

Agar poyabzalning ichki detallarining materiali(astari)ni nam o'tkazish xususiyati yaxshi bo'lsa, material bug' va namlarni o'ziga shimib olib, poyabzalni yechgandan keyin tashqi muhitga chiqarish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Zamonaviy poyabzallarning ustki detallarining yuzasini 42% nam va terlarni tashqariga chiqarishda ishtirok etmaydi. Nam va terlar, asosan, betlik orqali tashqariga chiqadi, bu ustki detallarning 30 foizini tashkil qiladi. Buning natijasida poyabzalning gigiyenik xususiyati yomonlashib, betliklarni eskirishi tezlashadi. Poyabzallar o'zidagi namni chiqarishi bilan birga namdan himoya qilish-xususiyatiga ham ega bo'lishi kerak. Namdan himoya qilish xususiyati, asosan, poyabzallarning tag detallari va tana-vorning sirtqi detallarini materialiga bog'liq.

Bahorgi-kuzgi va qishki mavsumlarga mo'ljallangan poyabzallarning tagliklari ko'pincha suvga tegib turadi. Shuning uchun ular sintetik va sun'iy materiallardan qilinadi, chunki ular suvni o'tkazmaydi. Ustki detallarga tag detallariga nisbatan suv kamroq tegadi va sirtqi detallarning shakli tufayli, unga tushgan suvning ko'p qismi dumalab tushib ketadi, suvning ozgina qismini material shimadi. Poyabzallarning ichiga suv detallarning materiali va detallar biriktiruvchi choklarning teshiklari orqali o'tishi mumkin. Material orqali suv o'tish tezligi materiallarning ho'llanish va suv o'tkazish xususiyatiga bog'liq. Charm detallari uchun, charmning qalinligiga, kapillarlarning soni va o'lchamlariga, tolalarni suv ta'sirida bo'kishi va ho'llanishiga bog'liq. Poyabzalning ichiga suv o'tish har doim ham uning detallarini to'la ho'l bo'lishiga bog'liq bo'lmaydi. Ko'p hollarda suv ustki detallar bilan tag detallarini biriktirishda ishlataladigan choklar orqali ham o'tadi. Bu ko'proq mixlash, vintli, mix-cho'p va ipli biriktirish usullarida uchraydi, kimiyoiy usullarning nam o'tkazmaslik xususiyatlari juda yuqori bo'ladi.

5.2. POYABZALNI ISSIQDAN HIMOYA QILISH XUSUSIYATLARI

Tashqi havo temperaturasi past bo'lganda poyabzal, asosan, muhofaza vazifasini bajaradi va badandan chiqqan issiqlikni tashqi muhitga kam o'tkazadi. Poyabzalning issiqliqni himoya qilish xususiyati deb, oyoq panjasidan chiqqan issiqlikni tashqi muhitga chiqishga to'sqinlik qilishiga aytildi.

Poyabzallarni issiqliqdan himoya qilish xususiyatiga astar va ich patak materiallarning issiqlik xususiyati katta ta'sir qiladi. Detallari g'ovakli materiallardan qilingan poyabzallarning konstruksiyasi yuqori issiqlik qarshiligidagi ega bo'ladi. Shunday ekan poyabzalning ustki va tag detallariga materiallar tanlash bilan istalgan issiqliqdan himoya qilish xususiyatiga ega bo'lgan poyabzallarni loyihalash mumkin. Poyabzallarni issiqliqdan himoya qilish xususiyatiga poyabzalning namligi katta ta'sir qiladi. Tajribalar

(L.V.Kedrov) shuni ko'rsatadiki, agar material havodan 50—60 g namni shimgan bo'lsa, poyabzalning issiqlik o'tkazishga qarshiligi 33—43 foizga kamayadi. Shunday qilib, poyabzalni loyihalayotganda ob-havo sharoitiga va yil fasliga to'g'ri keladigan; qishda o'ta sovib ketishdan, yozda o'ta qizib ketishdan saqlaydigan konstruksiyalar va materiallar tanlash kerak.

5.3. POYABZALNING BIKIRLIGI

Poyabzalni kiyib yurganda hosil bo'ladigan, oyoq panjasining turli deformatsiyalariga qarshilik ko'rsatish qobiliyati *poyabzalning bikirligi* deyiladi.

Maishiy poyabzallar oyoq panjasining shaklini yaxshi olish va oson egilishi, ya'ni egiluvchan (bukuluvchi) bo'lishi, ayrim maxsus poyabzallar esa oyoq panjasini turli jarohatlardan himoya qilish uchun o'rta bikirlikda bo'lishi kerak. Egiluvchan poyabzalni kiyish qulay bo'ladi, chunki yurganda poyabzalni egish uchun oyoq panjasi ko'p energiya sarf qilmaydi.

Poyabzalning bikirligi 3 xil bo'ladi:

1. *Egilish bikirligi* — poyabzalni ko'p marta egilishiga qarshiligi. Ko'proq yurganda va chopganda, ustki detallarga oyoq panjasi sirtining bosim kuchlari ta'siri sifatida egilish bikirligi namoyon bo'ladi.

2. *Yirtish bikirligi* — poyabzalning shaklini o'zgarishiga, uning ko'ndalang kesimlarini oyoq panjasiga (taxminan kaft-barmoq bo'g'imida) ko'rsatadigan qarshiligiga aytildi. Bu turdag'i bikirlik turganda va yurganda oyoq panjasining sirtini hamda yon yuzalarini poyabzalga ta'siri natijasida hosil bo'ladi.

3. *Tayanch bikirlik* — tag detallarini, oyoq panjasining shaklini olishga ko'rsatadigan qarshiligi hisoblanadi.

Egilish bikirligi. Poyabzalning egiluvchanligi (bukiluvchanligi) 25° ga bukish uchun ketgan kuchni (uchinch'i marta bukkanda) taglikning egilgan joyini eriga bo'lib topiladi. Egiluvchanlik juda ko'p omillarga bog'liq. Ulardan eng asosiyları tag detallarining biriktirish usullari va materiallarini xususiyatlari hisoblanadi. Poyabzal egilganda tagliklar cho'ziladi, pataklar esa qisiladi. Qattiq tag charmlarni qisilishga qarshiligi, uni cho'zilishga qarshiligiga nisbatan 10 marta kattaroq. Shuning uchun poyabzalning egiluvchanligi ko'proq patakning bor yoki yo'qligiga va uning materialini xususiyatiga bog'liq. Taglikning materialini xususiyati patakning materialini xususiyatiga qaraganda egiluvchanlikka kamroq ta'sir qiladi. Shuning uchun patakarning qalinligi va bikirligini kamaytirish maqsadida tanavorlarni qolipga yel'm yordamida tortishni qo'llashga harakat qilinmoqda, chunki tanavorni yel'm yordamida qolipga tortganda patakning qalinligi va bikirligi katta ahamiyatga ega emas.

Patakarning egiluvchanligini orttirish maqsadida, uni qalinligini kamaytirish yoki tutam qismining (55—60 mm kenglikda) qalinligini 1/3 qismi ko'ndalangiga kesib qo'yillishi yoki perforatsiya qilish ko'zda tutiladi. Poyabzalning egiluvchanligi to'ldirgichlarni, yupqa va yumshoq tagliklarni bor yoki yo'qligiga hamda ularning materiallariga bog'liq.

Yirtish bikirligi. Poyabzallarning yirtish bikirligi juda kam o'rganilgan. Ma'lumki, odam yurganda oyoq panjasining ko'ndalang o'lchamlari kattalashadi, buning natijasida poyabzalning ustki detallari o'z o'lchamlari va shaklini o'zgartirib, oyoq panjasining shaklini olishiga *yirtish bikirligi* deyiladi. Agar poyabzalning ustki detallari qalin materialdan qilinsa, oyoq panjasining shaklini olish qiyin bo'ladi, buning natijasida oyoq shikastla-nadi, teskarisi bo'lsa, poyabzal tezda o'z shaklini yo'qotadi.

Tayanch bikirligi. Tayanch bikirlik tag detallarining siqilish deformatsiyasiga qarshilik ko'rsatish xususiyati bo'lib, odam tanasining og'irligini poyabzalning tayanch tekisligiga bo'lgan bosimini tekis tarqatish qobiliyatidir. Bu bikirlik poyabzalning tag detallarining materiallari xususiyatiga bog'liq.

L.I.Molebnaya, O.V.Farniyeva, E.A.Miroshnikovalar tayanch bikirli-gini aniqlash uchun quyidagi formulani tavsiya qildilar:

$$D_0 = P/\Delta A,$$

bunda: P — yurganda poyabzalning tag detallarini ichki yuzasiga tusha-digan og'irlilik; ΔA — absolut siqilish deformatsiyasi; A — materiallar sistemasini boshlang'ish qalnligi.

Ilmiy izlanishlar natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, siqilish deformatsiyasiga, asosan, to'ldirgichning materiali katta ta'sir qilar ekan. Bu xil kuch ta'sir qilganda, to'qima va noto'qima materiallaridan qilingan to'ldirgich materiallar sistemasining siqilish deformatsiyasi, maxsus kartondan qilingan to'ldirgich materiallar sistemasining qisilish deformatsiyasidan ikki marta katta va shunga muvofiq tayanch bikirlik esa ikki marta kichik bo'ladi. Qulay poyabzal loyihalash uchun oyoq panjasini kaft suyaklarining boshchalari va bosh barmoq suyaklarining bosimini tag detallariga tekis taqsimlanishi kerak. Bunga tag detallarining materiallari, asosan, to'ldirgich va pataklarni to'g'ri tanlash bilan erishiladi.

Poyabzalning sifat ko'rsatkichli bo'lgan tayanch bikirlik hammadan ham o'sayotgan va shakllanayotgan bolalar oyoq panjasini uchun katta ahamiyatga ega. Tayanch bikirlikni kamaytirish oyoq panjasini to'g'ri shakllanishi va ish qobiliyatini bir me'yorda saqlashga yordam beradi.

Nazorat savollari

1. Poyabzalning gigiyenik xususiyatlariga ta'rif bering.
2. Poyabzalning nam almashtirish va namdan himoya qilish xususiyatlari qanday amalga oshiriladi?
3. Poyabzalni issiqdan himoya qilish xususiyatlari qanday amalga oshiriladi?
4. Poyabzalning fizik xususiyatlariga ta'rif bering.
5. Poyabzalning bikirligini aniqlash turrlariga ta'rif bering.

6-bob.

POYABZAL KONSTRUKSIYASINING TEXNIK-IQTISODIY KO'RSATKICHLARI

Poyabzalni konstruksiyasi poyabzal korxonalarining asosiy texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi, chunki uning tannarxiga, poyabzalning qiyofasi, konstruksiyasi katta ta'sir qiladi. Poyabzalning tannarxini kamaytirish yengil sanoatning asosiy vazifalaridan biri.

Poyabzalning tannarxi asosiy va yordamchi materiallarning narxi, asosiy ishchilarning ish haqi, yoqilg'i hamda yonilg'ilar narxi, amortizatsiya narxi va qo'shimcha (sex va korxona) xarajatlar kabi elementlardan tashkil topgan.

Tannarxning 76% ni asosiy va yordamchi materiallarning narxi tashkil qiladi. Shuning uchun materiallar sarfini kamaytirish, ya'ni konstruksiyasini takomillashtirishga katta e'tibor berish kerak.

6.1. POYABZALNING KONSTRUKSIYASINI MATERIAL SARF HAJMINI ANIQLASH

Agar materiallar xarajatini 1 % kamaytirilsa (SNIIKP ma'lumoti), bir yilda xrom tuzlari bilan oshlangan poyabzalning:

sirtqi detallaridan	58
astarlaridan	30
sun'iy materiallarning	
sirtqi va ichki detallaridan	29
taglik tabiiy charmlardan	30

mln. dm² miqdorda materiallarni tejash mumkin.

Materialning poyabzalga sarf bo'lish miqdori ko'p omillarga bog'liq. Ulardan eng asosiysi, poyabzalning ustki detallari oyoqni berkitish darajasi, poyabzalning razmer va to'laligi hamda detal andozalarini o'zaro joylashinishi. Ko'rindigan ziylariga ishlov berish usullari, material bilan oyoqni berkitish darajasi va unga sarf bo'lgan material miqdori, poyabzalning qiyofasi bilan belgilanadi. Quyida 4-jadval har xil qiyofadagi poyabzallarga, o'rtacha sarf bo'ladigan materiallarning qiymati keltirilgan.

4-jadval

Nº	Poyabzal qiyofasi	Berkitish darajasi	Sirtqi detallarning o'rtacha yuzasi, dm ²
1	Etiklar	2,4	41,7
2	Bot inkalar	1,0	17,4
3	Qo'njsiz botinkalar	0,8	13,9
4	Tufslilar	0,6	10,5
5	Tasmali sandallar	0,4	7,3

Eslatma. Botinkaning sirtqi detallarini yuzasi bir deb olingan.

Etiklar, botinkalar va qo'njsiz botinkalarda dastak (qo'nj) ning balandligi hamda shaklini o'zgartirish hisobiga oyoqni berkitish darajasini o'zgartirish mumkin. Lekin shuni ta'kidlash kerakki, ayrim poyabzallarning dastak yoki qo'njining balandligi davlat standarti tomonidan belgilab qo'yiladi, ayrim poyabzallarda esa modelyerning xohishiga bog'liq.

Ustki detallarning yuzasiga, patak va dastakni qalinligi ta'sir qiladi. Agar patak yoki oraliq detallarni 1 mm ga qalin qilinsa, tortish baxyasining enini 1—1,5 mm kattalashtirish kerak.

Material sarf bo'lishiga, poyabzalning razmeri, to'laligi, ko'rindigan ziylariga ishlov berish uchun qo'shimchalar, choklar va tortish baxyasi juda katta ta'sir qiladi.

5-jadvalda SNIKP ning tavsiyasiga binoan, bir razmerdan ikkinchi razmerga, bir to'lalikdan ikkinchi to'lalikka o'tishdagi detallar komplektini yuzasining o'zgarishi, taglikni biriktirish usuli, detallarning ko'rindigan qismlariga ishlov berishdagi qo'shimchalar qiymatlari keltirilgan. 5-jadvalda keltirilgan qiymatlarga asosan, detallar komplekti yuzasini o'lchamasdan, chizmasini ko'rmasdan bir xil konstruksiyadagi tanavorning, seriyadagi hamma razmerlari hamda konstruksiyasini va ko'rindigan ziylariga ishlov berish usullarini o'zgartirib, seriyadagi detallar razmerlari va komplektining yuzasini topish mumkin. Detallar komplektining yuzasi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$\Pi_{q,k} = q \cdot \Pi_{b,k} = \Sigma_n,$$

bunda: $\Pi_{q,k}$ — qidirilayotgan komplekt detallarning yuzasi (dm^2); $\Pi_{b,k}$ — berilgan konstruksiyadagi komplekt detallar yuzasi (dm^2); Σ_n — detallar komplekti soif yuzasining konstruksion alomatlariga qarab o'zgarishining algebraik yig'indisi;

$$\Sigma_n = \Pi_r + \Pi_t + \Pi_{k,a} + \Pi_{ish,ber.} + \Pi_{b,u}.$$

Π_r — bir razmerdan ikkinchi razmerga o'tishdagi detallar komplektining yuzasini o'zgarishi; Π_t — bir to'lalikdan ikkinchi to'lalikka o'tishdagi detallar komplektining yuzasini o'zgarishi; $\Pi_{k,a}$ — bir konstruksiyadan boshqa konstruksiyaga o'tishdagi (qirqilgan detallardan, yaxlit detallarga) detallar komplektining yuzasini o'zgarishi; $\Pi_{ish,ber.}$ — ko'rindigan ziyliga ishlov berish turi (bukish, kuydirishga) o'zgarganda, detallar komplektining yuzasini o'zgarishi; $\Pi_{b,u}$ — taglikning biriktirish usuli o'zgarganda detallar komplektining yuzasini o'zgarishi.

5-jadvalda keltirilgan qiymatlarga asoslanib, osonlik bilan modelning konstruksiyasini tejamli yoki tejamsizligini aniqlash mumkin. Buning uchun yangi hisoblangan model detallarini komplekt yuzasini, detallar komplektini me'yorlangan yuzasi bilan solishtiriladi.

Detallarning yuzasiga choklar soni katta ta'sir qiladi. 5-jadvalda keltirilgandek, qirqilgan dastakli konstruksiyadan yaxlit dastakkha, qirqilgan betlikdan yaxlit betlikka o'tilganda, material 1,97% dan 3,59% tejaladi, chunki detallarni tikish uchun beriladigan qo'shimchalar bo'lmaydi.

Ma'lumki, detallarning o'rtacha yuzasi kamaytirilsa, ya'ni detallarning soni orttirilsa, ishlataladigan materialdan unumli foydalaniadi. Ammo tanavorning detallarini soni ortgan sari, choklar ko'payadi, bu esa detallarni yig'ishga ko'p vaqt sarf bo'lishiga olib keladi.

5-jadval

Botinka va qo'njsiz botinka detallar komplektining yuzasini o'zgarishi (%)

Poyabzalning jinsi guruhı	Detallarning komplekt yuzalarini o'zgartiruvchi omillar					
	bir razmerdan ikkinchigacha	bir to'likidan ikkinchisigacha	tortish baxysining kengligini 1 mm'dan o'sishi	qirqilgan dastakka yaxlit dastakka o'tish	qirqilgan betikdan yaxlit betlikka o'tish	ziyini qirqishdan bukishga o'tish
Eraklar	2,9/2,9	2,5/2,5	0,9/1,15	2,8/3,5	1,8/2,3	4,7/6,0
Ayollar	3,2/3,1	2,7/2,7	0,8/1,23	2,0/2,9	1,2/1,8	4,3/6,3
Qiz bolalari	3,4/3,3	2,8/2,8	0,9/1,27	2,2/3,1	1,3/1,9	4,8/6,7
O'g'il bolalari	3,2/3,2	2,7/2,8	0,1/1,12	2,9/3,7	1,2/2,2	4,8/6,2
Maktab yoshidagi bolalar	3,4/3,4	2,8/2,9	0,9/1,23	3,0/3,8	2,1/2,8	5,1/6,7
Bolalar	3,9/4,0	3,1/3,2	0,8/1,24	2,6/3,3	1,8/2,6	5,3/7,4
Yosh bolalari	4,4/4,4	3,6/3,5	0,7/1,01	2,4/3,2	1,8/2,4	5,9/8,1
Chaqalocqlar	5,3/5,2	3,9/4,0	0,8/1,05	2,7/3,6	2,1/2,8	6,7/8,9

Eslatma. 1. Suratda botinkalar, maxrajda qo'njsiz botinkalar uchun qiymatlar keltirilgan. 2 va 4 ustundagi qiymatlarni tanavorning boshqa turlari uchun qo'llash mumkin hamda tag detallari va astarlarning yuzalarini o'zgarishi uchun qabul qilish mumkin.

Yassi materialdan tayyorlangan taglikning yuzasi, asosan, pataknинг yuzasiga , ustki va oraliq detallarning qalinligiga, taglikning ko'rinaldigan ziyining eniga, ko'rinaldigan ziyiga ishlov berishga va tag detallarning ustki detallar bilan biriktirish usuliga bog'liq.

Material sarf bo'lishiga texnologik jarayonlarni bajarish aniqligi katta ahamiyatga ega.

Material sarfiga detallarni bichayotganda, andozalar orasidagi chiqindilar, detallarning shakli, ularning o'zaro joylashishi orqali ifodalanadi. Detallar qanchalik zich joylashib, andozalar orasidagi chiqindilar kam bo'lsa, joylashinish koefitsienti shuncha ko'p bo'ladi.

Joya shinish koefitsienti quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$Y_k = \frac{M_k}{Q_k} \cdot 100\%,$$

bunda: M_k — hamma detallar komplektini sof yuzasi; Q_k — hamma detallar kirgan parallelogramm yuzasi.

Charin pojazbazzalar keng assortimentini komplekt detallar joylashinishi tahsil qilish shuni ko'rsatdiki, ustki detallarini o'rtamiyona joylashishi Y_k 90,4 dan 94,65 % gacha o'zgarib turadi.

Andozalar komplekti va parallelogrammning maydonini o'chab, quyidagi 6-jadvalga keltiriladi.

6-jadval

Detallar nomi	Komplektidagi detallar soni (n)	Yuza, dm ²				Komplektning o'rta-miyona joylashinishi (U_k , %)
		bir detalning (a)	komplektga kiruvchi detailarning (M_k)	2 detal kiruvchi parallelogrammning (q)	komplekt detallar kiruvchi parallelogrammning (Q_k)	


6.2. POYABZALNING MEHNAT SARF HAJMINI ANIQLASH

Poyabzal ishlab chiqarish sanoatida ish haqi, mahsulot tannarxining 14 % ni tashkil qilishiga qaramay, korxonaning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichiga katta ta'sir qildi. Mehnat xarajatlarni kamaytirish uchun ish unumdorligini orttirish kerak. Ish unumdorligi poyabzalning konstruksiyasiga, texnologiyasiyaga, mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasiga bog'liq. 7-jadvalda har xil turdag'i poyabzallarning ish hajmi berilgan. Keltirilgan raqamlar shuni ko'rsatadiki, ish hajmiga, ustki detallarning tag detallar bilan biriktirish usuli va taglikning materiali katta ta'sir qilar ekan.

7-jadval

Erkaklar qo'njsiz botinkasi uchun texnologik ish hajmi

Poyabzal turi	Texnologik ish hajmi, 100 jasft/soat	
	Tikish bo'limida	Yig'ish bo'limida
Yelilmama usul		
Ommaviy, taglik g'ovak rezina, poshna quyma	22,63	26,18
Ommaviy, taglik charm, poshna quyma:		
Taglik biriktirilmasdan oldin ishlov berilgan	26,24	27,45
Taglik biriktirilgandan keyin ishlov berilgan	28,24	32,94
Taglik charmsimon rezina, ishlov berilgan, poshna quyma:		
kundalik	28,24	28,88
bashang (modellik)	39,18	30,20
Rant usuli		
Taglik charm, quyma poshna:		
kundalik	24,31	54,11
bashang	33,96	64,91
Rant-yelilmama usuli		
Taglik g'ovak rezina va yupqa charm taglikdan:		
kundalik	24,31	49,41
bashang	34,89	59,57



6.1-rasm. Tikuv mashinasida buyumni igna tagiga uzatish tezligini o'zgarish diagrammasi.

Poyabzalni loyihalashda ish hajmiga ustki detallarni konstruksiyasi juda katta ta'sir ko'rsatadi. Tanavorning detallarini soni kamaygan sari, bichish va tikish sexlarining ish unumdorligi ortadi. Tanavorning detallarini soni ortgan sari, tikish sexidagi mehnat xarajatlari proporsional ravishda ortadi.

V.M. Klyuchnikovaning izlanishlari shuni ko'rsatdiki, tanavorni yig'ish uchun detallarni tikish, chetini shilish va chetini bukish uchun ketgan mashina vaqlari, detallarning uzunligiga, egriligiga va tikish pauzasiga bog'liq. *Tikish pauzasi* deb, bir yo'nalishda tikayotgan tikish mashinasini to'xtatib, biror burchakka burish uchun ketgan vaqtga aytildi.

Chokni tikish mashinasida tikayotganda, mashinaning tezligi sekin-asta oshiriladi, keyin esa maksimal tezlikda tikeladidi va nihoyat sekin-asta to'xtatiladi. To'g'ri chiziqli choklarning tikishni boshlashda va oxirida tezlik to'g'ri chiziq bo'yicha o'zgarib, boshqa qismida esa maksimal (V_{\max}) tezlikda tikeladidi (6.1-rasm).

Tikish uchun ketgan vaqt quyidagi ifodadan topiladi:

$$T = T_m + T_{o.t}. \quad (1)$$

Bunda: T_m — maksimal tezlikda (V_{\max}) tikeladigan chok; $T_{o.t}$ — tezlikni oshirish va to'xtatish uchun ketgan vaqt.

Agar tezlikni oshirish va to'xtash vaqlari bo'limganda, chok bir xil maksimal tezlikda (V_{\max}) bajarilar edi.

Tezlikni oshirish va to'xtash vaqtlarini bo'lishi V_{\max} tezlikni V_n tikish tezligiga tushiradi (V_n — nominal tikish tezligi).

Chokning uzunligi qancha qisqa bo'lsa, tezlikning kamayishi shuncha katta bo'ladi. Chokning uzunligi 30 sm dan katta bo'lsa $V_n \rightarrow V_{\max}$, T_o va $T_{o.t}$ ning vaqt shuncha kichik bo'ladi. Bu o'zgarish solishtirma ish hajmi koeffitsienti yordamida quyidagicha belgilanadi:

$$K = V_{\max} / V_n. \quad (2)$$

To'g'ri chiziqli choklar uchun solishtirma ish hajmi chokning uzunligi L ga teng bo'lsa, quyidagicha hisoblanadi:

$$T = T \frac{L}{V^r}; \quad T_{o.t} = \frac{L_{o.t}}{V^{o.r}}; \quad T_m = \frac{L_{m \max}}{V_{-max}}.$$

Bunda, (1) tenglamaga asoslanib, quyidagicha yozish mumkin:

$$L/V = L_{o.t.} / V_{o.t.} + (L - L_{o.t.}) \cdot V_{\max}.$$

(2) tenglama matematik o'zgarishlardan keyin quyidagi tenglik hosil bo'ladi:

$$K = \frac{I}{L} (V_{\max} \cdot T_{o.t.} - L_{o.t.}) + 1. \quad (3)$$

Tajriba yo'li bilan bir ishchi bajarayotgan hamma choklar uchun $T_{o.t.}$ va $L_{o.t.}$ bir xilligi aniqlangan, shuning uchun hisoblashga doimiy sonni olish mumkin. Maksimal tezlik (V_{\max}) ham ma'lum rusumdag'i mashinalar uchun doimiydir.

Xulosa qilib, bir xil ish sharoitda bir ishchi bajarganda (3) tenglamadagi qavs ichini doimiy son (a) bilan almashtirish mumkin:

$$a = V_{\max} \cdot T_{o.t.} - L_{o.t.}$$

U holda (3) tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$K = aL^{-1} + 1.$$

Tikuv mashinalarining maksimal tezligi V_{\max} , 30 sm uzunlikdagi to'g'ri choklarni tikishda aniqlanadi.

Ko'pgina tadqiqotlarga ko'ra $a = 1,95$ ga tengligi aniqlangan. Shunday qilib, uzunligi L bo'lgan to'g'ri chiziqli choklar, solishtirma ish hajmi bilan quyidagicha bog'langan.

$$K = 1,95 L^{-1} + 1.$$

Uzunligi L bo'lgan to'g'ri chiziqli chokni tikish uchun ketgan vaqt quyidagi tenglama yordamida topiladi:

$$T = \frac{LK}{V_{\max}} \cdot \varphi, \quad (4)$$

bunda: φ — tuzatish koeffitsienti, u chokning vazifasiga, qayerda va nima maqsadda ishlatilishiga bog'liq.

Ko'p hollarda tikilayotgan detallarni konturi murakkab geometrik shaklga, bir vaqtning o'zida bitta yoki bir nechta radiusga ega bo'ladi. Tikilayotgan konturning radiusi qancha kichik bo'lsa, mashinaning tezligi ham shuncha kichik bo'ladi, solishtirma ish hajmi esa katta bo'ladi.

Solishtirma ish hajmi egrilik radiusi R bilan quyidagicha bog'langan:

$$K_R = mR^{-1} + n, \quad (5)$$

bunda: m — koeffitsient, n — tenglamaning ozod soni.

Tajriba yo'li bilan m ni 1,6 ga tengligi, n esa uzunligi L bilan giperbola bog'lanishda bo'lar ekan, ya'ni $n = bL^{-1} + 1$; bunda $b = 1,95$ ga teng.

Yuqoridagi qiymatlarni (5) tenglamaga qo'yilsa quyidagi tenglama hosil bo'ladi:

$$K_R = 1,95 L^{-1} + 1,6 R^{-1} + 1.$$

Agar detalda bir nechta radius bo'lsa, u holda:

$$K_R = 1,95 L^{-1} + 1,6 (R_1^{-1} + R_2^{-1} + \dots + R_n^{-1}) + 1.$$

Tikish uchun ketgan vaqt esa (4) tenglama bilan aniqlanadi, faqat K ning o'rniga K_R qo'yiladi.

$$T_m = \frac{LK_R}{Vm} \varphi.$$

α — burchak ostida bir-biri bilan kesishgan detaldagi choklar uchun mashinani to'xtash zarurati paydo bo'ladi. Shuning uchun tikish pauzasi T_{mn} ga sarflangan vaqt quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$T_{mn} = \frac{C}{\alpha} + d.$$

Bunda: α — detalning burish burchagi;

C va d parametrlari ishchini malakasiga va tikilayotgan choklarga, poyabzallarga qo'yilgan (kundalik, bashang) talabga bog'liq.

Tajriba yo'li bilan C ning qiymati 6 dan 14,5 gacha, o'rta chasi $C \geq 10$, d — detalni ma'lum burchakka burish uchun tikuv mashinasining tepkisini ko'tarish va tushirish uchun ketgan vaqt 1,08 dan 1,45 gacha aniqlangan. $C \geq 10$ bo'lganda $d=1,2$ ga teng bo'ladi va yuqoridagi (6) tenglama quyidagicha bo'ladi:

$$T_{tp} = \frac{10}{\alpha} + 1,2.$$

Tanavorni tikish uchun ketgan umumiyligi vaqt esa

$$T_m \cdot \sum \frac{LK_R}{V_{\max}} \cdot \varphi + T_{tp}. \quad (7)$$

tenglama bilan hisoblanadi. Shunday qilib, (7) tenglama orqali nazariy yo'l bilan yangi loyihalanayotgan poyabzauning tejamkorligi aniqlanadi.

Tanavorni tikish uchun ketgan vaqtini hisoblashdan oldin, poyabzalning ustki detallarini yig'ma chizmasida har bir detallarni tikiladigan, bukiladigan va cheti shilinadigan konturlari aniqlanib, elementar uchastkalarga bo'lib olinadi. Mashinani to'xtamasdan bir yo'la tikiladigan uchastkaga elementar uchastka deyiladi. Har bir **elementar uchastkani** uzunligi L , egrilik radiuslari R_i aniqlanib, K yoki K_R va T har bir elementar uchastka uchun aniqlangandan keyin tanavorni tikish uchun ketgan umumiyligi vaqt ΣT aniqlanadi.

Detallarning chetini bukish va shilish uchun ham solishtirma ish hajmlari 6.5-jadvalda keltirilgandek topiladi.

Detallarning chetini shilish uchun ketgan vaqt quyidagi ifodadan topiladi:

$$T_{sh} = \sum \frac{LK_{sh}}{V_{max}}$$

Bunda: $V_{max} = 15,2 \text{ sm/sek.}$

8-jadval

Tanavorni tikish, detallarning chetini shilish va bukish uchun solishtirma ish hajmlarini hisoblash tenglamalari

Ishlov berish konturining turi	Solishtirma ish hajmi		
	Tikish uchun	Shilish uchun	Bukish uchun
To'g'ri chiziqli	$1,95L^{-1} + 1$	$L^{-1} + 1$	$7 L^{-1} + 1$
Egni, 1 radiusli	$1,95L^{-1} + 1,6R^{-1} + 1$	$L^{-1} + 0,5R^{-1} + 1$	$7L^{-1} + 3,8R^{-1} + 1$
Ko'p radiusli	$1,95L^{-1} + 1,6 (R^{-1}_1 + R^{-1}_2 + \dots + R^{-1}_n) + 1$	$L^{-1} + 0,5 (R^{-1}_1 + R^{-1}_2 + \dots + R^{-1}_n) + 1$	$7L^{-1} + 3,8 (R^{-1}_1 + R^{-1}_2 + \dots + R^{-1}_n) + 1$

Detallarni chetini bukish uchun ketgan vaqt quyidagicha aniqlanadi:

$$T_b = + \sum \frac{LK}{V_{max}} (D - 200) \cdot 0,007,$$

bunda: $V_{max} = 9,3 \text{ sm/sek.}$

D — ustki detallar uchun materialni qattiqligi (bikirligi). Tanavorni yig'ish uchun ketgan umumiy vaqt, tikish, shilish va bukish uchun ketgan vaqlarning yig'indisidan iborat.

$$T_M = \sum T_m + \sum T_{sh} + \sum T_b.$$

Hozirgi davrda tikish, shilish va bukish uchun solishtirma ish hajmi koefitsienti hamda mashina vaqt sarfi maxsus dasturlar yordamida EHM da hisoblanmoqda.

Nazorat savollari

1. Poyabzalning konstruksiyasini material sarf hajmi qanday aniqlanadi?
2. Poyabzalning konstruksiyasini mehnat sarf hajmi qanday aniqlanadi?
3. Mehnat sarf hajmini aniqlashda solishtirma ish hajmi koefitsienti tenglamasini keltiring.
4. Tanavorni tikish uchun ketgan umumiy vaqt sarf tenglamasini keltiring.
5. Tanavor detallarini shilish uchun ketgan umumiy vaqt sarf tenglamasini keltiring.
6. Tanavor detallarini bukish uchun ketgan umumiy vaqt sarf tenglamasini keltiring.

7-bob.
POYABZAL ICHKI SHAKLI
(QOLIP)NI LOYIHALASH

Poyabzalning eng asosiy sisfat ko'rsatkichlaridan biri, uning qulayligi, asosan oyoq panjasining o'lchamlari va shakliga muvofiq keladigan qoliplarning konstruksiyasiga bog'liq. Qoliplarning konstruksiysi, poyabzal ichki shaklini belgilash bilan birga, eng asosiy ish quroli ham hisoblanadi. Chunki poyabzalni shakllantirish, yig'ish va pardozlash kabi texnologik jarayonlar qolip yordamida bajariladi. Qolipning o'lcham va tuzilishlarini asos qilib olib, ayrim poyabzal mashinalarining ishchi organlari ham loyi-halanadi. Shuning uchun qoliplarni to'g'ri loyihalash va aniq ishlab chiqarish, qulay hamda loyiq poyabzallar ishlab chiqarishda va texnologik jara-yonini aniq bajarishda katta ahamiyatga ega.

Poyabzalning ichki shaklini, ya'ni qoliplarni loyihalash bilan ko'pgina olimlar shug'llanishgan. Yu.P.Zibin, B.P.Xoxlov, X.X.Liokumovich, K.I.Chensova, A.A.Rindich, O.V.Farniyeva, T.S.Kochetkova, V.A.Fukin, A.D.Bopeyev, V.K.Makaricheva, A.A.Haydarov va boshqalarining ilmiy izlanishlari poyabzalning qulay ichki shaklini, ya'ni qolipni loyihalashga bag'ishlangan. Qoliplarning asosiy o'lchamlari Davlat andozasi (standartida berilgan).

7.1. POYABZAL QOLIPLARINING KONSTRUKTIV TAVSIFI

Qoliplar yosh-jinsiy guruhi, maqsadi va texnologik vazifa, konstruksiysi, materiali, tovon qismining tayanch tekisligidan ko'tarilish balandligi bo'yicha bir qancha turlarga bo'linadi.

Qoliplar yosh-jinsiy guruhi bo'yicha xuddi poyabzaldagidek (1-jadvalga qarang) guruh va razmerlarga bo'linadi.

Texnologik vazifasi bo'yicha qoliplar ikki turga bo'linadi:

1. *Asosiy* (tortish) qoliplar, asosan, tanavorni shakllantirishda ishlatiladi.

2. *Yordamchi* qoliplar texnologik jarayonni bajarishda qo'llaniladi. Shuning uchun qoliplarning nomi, texnologik jarayonning nomi bilan, ya'ni pa rdozlash va dazmollash qoliplari deb ataladi. Yordamchi qoliplarga issiq vulkanizatsiya va quyish usullarining puansonlari va tayyor poyabzallarning shaklini saqlash (shon) va ta'mirlash uchun ishlatiladigan qoliplar ham kiradi.

Asosiy qoliplarning tag yuzasi, tanavorlarni qolipga tortish usullariga qarab metall plastinkali, tovon qismi, tovon va axmi qismlari metall plastinkali va metall plastinkasiz bo'lishi mumkin.

Mixli, vintli va mix-cho'pli biriktirish usullari va tanavorni qolipa mix yordamida tortganda mixning uchi plastinkaga tekkandan keyin orqasiga qayrilib, patakka kirishi uchun tortish qoliqlariga metall plastirka qo'yiladi.


Ustki detallarni tag detallari bilan biriktirishda ipli usulla r qo'llanilsa, qoliqlar metall plastinkasiz ishlab chiqariladi. Poyabzalning doppel va rantli biriktirish usullarida tanavorning tovon qismi mix yordamida qol ipga tortiladi. Shuning uchun tortish qoliqlarining tovon qismi metall plastirkali bo'ladi.

7.1.1. QOLIPLARNING KONSTRUKSIYASI

Konstruksiysi jihatidan asosiy (tortish) qoliqlar quyidagi turlarga bo'linadi: yaxlit, arralangan ponali, tutash va siljiyidigan.

Yaxlit qoliqlari asosan yengil va yozgi poyabzallarni ishlab chiqarishda ishlataladi, chunki bu poyabzallarni yaxlit qolipdan yechish juda oson. Yaxlit qoliqlarni ishlab chiqarish ham oson va sodda.

Arralangan ponali qoliqlar (7.1-a rasm) poyabzallarni tasliqi usul bilan shakllantirishda ishlataladi. Arralangan ponali qolipning tanas ida bir-biriga nisbatan 75° burchak bo'ylab yo'nalgan ikkita shtiftlar yordamida ustki ponani ushlab turadi. Shtiftlarning bittasi (yuqori qirrasidagi) prujina bilan ta'minlangan bo'lib, ponani kiygizayotganda va yechayotg anda shtiftni bosib, qolipning tanasiga berkitiladi. Bunday konstruksiyadagi qoliqlar-



7.1-rasm. Qoliqlar konstruksiysi.

ning eng asosiy kamchiligi, poyabzalni qolipdan yechayotganda ustki va tag detallari katta deformatsiyaga uchraydi. Poyabzalni qolipdan yechish uchun uning old qismi qolipda turganda, orqa qismini qolipdan siljitim kerak. Bunday siljish natijasida poyabzalning yuqori ziyi 17 % cho'ziladi, chunki qolipning quyi qismi yuqori qismidan 17 % katta.

Tutash qoliplar (7.1-b rasm) — poyabzallarni qolipdan yechayotganda hosil bo'ladijan deformatsiyalardan saqlaydi. Bunday qoliplarning tovon qismi old qismi bilan sharnir orqali birlashtirilgan. Bu bo'laklar orasi 35° yoki 55° burchak ostida qirqib qo'yiladi.

Poyabzalni qolipdan yechayotganda oldin tovon qismi chiqariladi, so'ngra osongina hech qanday deformatsiyasiz poyabzal sug'urib olinadi.

Tutash qoliplar o'z o'lchamlarini o'zgartirmasligi uchun, asosan, plastmassadan tayyorlanadi. Sharnirlarni tez ishdan chiqishi va bo'laklar tutashgan qismining bikirligining kamligi, ularning eng asosiy kamchiliklari hisoblanadi.

Siljiyidigan qoliplar — ichki usul bilan tanavorni qolipga tortishda ishlataladi. Bu usulda hajmli tanavorlar ishlatalib, qolip tanavorga kiygiziлади, so'ngra maxsus mexanizm yordamida qolipning uzunlik o'lchamlari bo'yiga $9 \div 0,5$ mm ga siljitaladi. Buning natijasida tanavor qolipning shaklini oladi.

Siljiyidigan qoliplarning uch xil konstruksiyasi bor:


1. *To'g'ri qirqilgan* — qolipning old va orqa qismi bo'yiga harakat qiladi (7.1-d rasm);

2. *Yoysimon qirqilgan* — qolipning old qismini yoysimon sirpanib harakat qilishi natijasida orqa qismi bo'yiga siljiydi (7.1-e, h rasm);

3. *Yoysimon qirqilgan* — qolipning orqa qismini yoysimon sirpanib harakat qilishi natijasida old qismi bo'yiga siljiydi (7.1-f, k rasm).

Yordamchi qoliplar konstruksiyasi jihatidan asosiy qoliplardan shakli va o'lchamlari bilan farq qiladi.

Pardozlash qoliplarning o'lchamlari (7.2-a rasm) shu razmerga mos keladigan tortish qoliplarining o'lchamlaridan: tag yuzasining uzunligi 5—



7.2-rasm. Yordamchi qoliplar:
a — pardozlash, b — dazmollah, d — shon.

10 mm, yon sirtining uzunligi 3 mm, tag yuzasi tovon qismining eni — 5 mm, qolgan qismida 1 mm, quchoq o'lchamlari 5—8 mm kichik bo'ladi.


Dazmollash qoliplari — tayyor poyabzalning tag yuzini mexanik usulda dazmollashda ishlataladi (7.2-*b* rasm). Ular metall plastinkalar bilan mustahkamlangan bo'ladi. Dazmollash qoliplarining o'lchamlari ham asosiy qoliplarning o'lchamlaridan; uzunligi bo'yicha 13—14 mm, tag yuzasi tovon qismining eni 8—10 mm, tutam qismi 1 mm, tutam qismining quchoq o'lchami 10 mm ga kichik bo'ladi. Dazmollash qoliplarining ko'tarilish qismi qisqartirilib, yuqori maydonchasi uzaytirilgan bo'ladi.

Ta'mirlash qoliplari yoki *shonlar* (7.2-rasm). Tayyor poyabzalning shaklini saqlash va ta'mirlash uchun maxsus konstruksiyadagi qoliplar ishlataladi. Ular ichi bo'sh old qismi (1), metall prujina (2) dan va tovon tayanchi (3) dan iborat. Bunday qoliplarning turli konstruksiyalari bor. Fransiyada sintetik materialdan ichi bo'sh qoliplar ishlab chiqilgan bo'lib, ularning ichi havo bilan to'ldirilganda poyabzalning shaklini oladi.

7.1.2. QOLIPLARNI ISHLAB CHIQARISHDA ISHLATILADIGAN MATERIALLAR

Asosiy qoliplar ko'pincha yog'ochdan tayyorlanib, asosan, eman, buk va grab kabi qattiq daraxtlar ishlataladi. Tanqis bo'lgan yog'ochlarni iqtisod qilish maqsadida hozir ko'proq turli rusumdag'i, katta mustahkamlikka ega bo'lgan polietilen (plastmassa) qoliplar ishlab chiqarilmoqda. Polietilen qoliplarning afzalligi shundaki, eskirgan (modadan qolgan, yorilgan) qoliplarni qayta quyib, ishlatsa bo'ladi. Ma'lumki, polietilen qoliplarning massasi katta bo'lib, bu esa ularning asosiy kamchiligi hisoblanadi. Shuning uchun, qoliplarni ishlab chiqarishda polietilenlarga maxsus (g'ovak hosil qiluvchi) moddalarni qo'shib, ularning fizik-mexanik xususiyatlarini, mustahkamligini, texnologik xususiyatlarini o'zgartirmagan holda massasi yengillashtiriladi.

Plastmassa qoliplar (7.3-rasm) yaxlit quyilgan, armirlangan, ichi bo'sh bo'lishi mumkin. Yaxlit quyilgan, armirlangan (orasiga yog'och va boshqa



7.3-rasm. Plastmassa qoliplar:
a — armirlangan, b — ichi bo'sh, d — g'ovak qobiqli.

yengil material qo'yilgan) qoliplar quyish usuli bilan ishlab chiqariladi, ichi bo'shlari esa havo yordamida shakllantiriladi.

Siljiyidigan qoliplar yog'ochdan, old yoki orqa qismi sirpanib siljiyidigan qoliplar yengil qorishmali po'latlardan ishlab chiqariladi.

7.1.3. QOLIPLARNING TOVON QISMINI KO'TARILISH BALANDLIGI

Qoliplar tovon qismining tayanch tekisligidan ko'tarilish balandligi bo'yicha h_p bir necha guruhg'a bo'linadi:

Poshna balandligi h_p (mm)

Poshnasiz poyabzallar uchun	0
Past poshnali	5, 10, 15, 20, 25
O'rta poshnali	30 — 40
Baland poshnali	50 — 60
O'ta baland poshnali	60 dan yuqori

7.1.4. QOLIPNING INDEKSI


Har bir qolipda fasonni belgilovchi 5—6 raqamdan iborat indekslar bo'ladi. Birinchi raqam — qoliplarning yosh-jinsiy guruhini; ikkinchi raqam — qiyofasini; uchinchi raqam — tovon qismini ko'tarilish balandligini; to'rtinchi raqam — tumshuq qismining fasonini; beshinchisi va oltinchilari — qoliplarning indeksidagi tartib raqamlar bilan belgilanadi. Agar qolip bashang poyabzal uchun mo'ljallangan bo'lsa M harfi bilan, keksa odamlar uchun bo'lsa Π harfi bilan to'ldiriladi. Indeksni qanday tuzish kerakligi 9-jadvalda keltirilgan.

Masalan, qolipning indeksi 91223 bo'lsa, u holda:

- 9 — erkaklar poyabzali;
- 1 — yopiq poyabzallar (tufli, qo'njsiz botinka);
- 2 — past poshnali 15—20 mm;
- 2 — qolipning o'rta shaklidagi tumshuq qismi;

3 — tasdiqlangan modelning tartib nomeri deb ta'riflanadi.

Indeks tuzishda to'rtinchi raqam to'g'risida shuni ta'kidlab o'tish kerakki, qolip tumshuq qismining shakli, K koefitsienti bilan ifodalanib, ΣP qo'shimcha, qolipning izini Lop qismidagi B kengligining nisbatiga teng, ya'ni $K = \Sigma P / B$ (7.4-rasm). Agar hosil bo'lgan $K = 0,25$ bo'lsa, qolipning tumshuq qismi keng; $K = 0,251 — 0,549$ bo'lsa, o'rta; $K > 0,550$ bo'lsa, tor hisoblanadi.



7.4-rasm. Qolipni tumshuq qismining shaklini aniqlash tasviri.

7.2. QOLIP LOYIHALASHNING UMUMIY ASOSLARI

Qolipning geometrik qyofasi juda murakkab, noqonuniy egri chiziq va tekisliklardan iborat shaklga ega. Uni loyihalash va chizmada tasvirlash uchun muhandis grafika hamda amaliy geometriya usullaridan foydalananadi. Shuning uchun qolipni grafik ravishda uch tekislikda hosil bo'lgan to'g'ri burchakli koordinatalar sistemasida (7.5-rasm), ya'ni: I-orizontal; II-bo'ylama vertikal, tag yuzasining shartli o'qi bo'yicha, III ko'ndalang-vertikal, I va II tekisliklarga perpendikular holda tasvirlanadi. Qolipni loyihalashda I tekislik negiz (bazis) tekisligi bo'lib, u O va O' nuqtalari orqali o'tadi. O nuqta qolipning tovon qismining iz o'qida, O' esa uni tumshuq qismining davlat standartida belgilangan qo'shimcha P_{\min} nuqtasida joylashgan. Bu tekislik poyabzal qolipini P_{mod} , ya'ni bezak qo'shimchasini hisobga olmaydi va qolipning tovon qismini har xil balandligini loyihalashda, uning ko'ndalang kesimlarini solishtirish imkonini beradi.


9-jadval

Poyabzal qoliplarini indekslash sistemasi

Indeks shifri	Indeks raqamlari			
	birinchi	ikkinchi	uchinchchi	to'rtinchi
	Yosh-jinsiy guruh va qolipning razmerlari	Poyabzallarning turi	Tovon qismining ko'tarilish balandligi	Tumshuq qismining shakli
0	Chaqaloqlar 1 guruh 95–125	—	Poshnasiz	
1	Chaqaloqlar 2 guruh 105–135	Yopiq poyabzallar (botinka, qo'njsiz botinka, sandalet)	Past 5–10	Keng
2	Yosh bolalar 140–170	Yengil poyabzallar (sandallar, xonada, dam olishda kiyiladigan)	Past 15–20	O'rta
3	Bolalar 175–195	Yozgi ochiq poyabzallar (ochiq tumshuqli, tovon qismli tuflisi)	O'rta 30–35	Tor
4	Maktab yoshidagi qiz bolalar	Issiq, kalta qo'njli etik	O'rta 40–45	
5	Qiz bolalar	Etiklar, qayiqsimon tuflisi	Baland 50–55	
6	Maktab yoshidagi o'g'il bolalar	Bulg'ori charmili etik va kalta qo'njli etik	Baland 60–65	
7	O'g'il bolalar 230–280	Xrom tuzlari bilan oschlangan charm etik	O'ta baland 70–75	
8	Ayollar 215–275	Sport turlari uchun poyabzal	O'ta baland 80–85	
9	Erkaklar 245–305	Maxsus poyabzal	O'ta baland 90–95	

Eslatma. Indeksdagi 5–6 raqamlar shu turdag'i qoliplarni tasdiqlangan modelining tartib nomerini bildiradi.

Qolipning proyeksiya va yuza kesimlarini radius-grafik usul bilan loyihalash qolipni grafik ravishda tasvirlashni osonlashtiradi. Qolipni loyihalashda EHM ishlatish, ya'ni uning shaklini, yuzasini murakkab chiziqlarini EHM xotirasida shakllantirish va loyihalash ishlarini avtomatlashtrish imkonini beradi. Qolipning chizmalarini chizishda o'rta tipik oyoq panjalarini o'lchamlari asos qilib olinadi. Oyoq panjasining fazoviy shaklidan qolipa o'tishda, oyoq panjsi yurish mobaynida o'lchamlarini o'zgarishi, estetik va texnologik talablar hisobga olinadi. Ommaviy ishlab chiqarish uchun poyabzal qoliplarini loyihalash, asosan, qolipning tag yuzasini (patakni), uning gabarit o'lchamlarini, bo'ylama-vertikal va gorizontal proyeksiyalarini grafik ravishda tasvirlashdan iborat bo'lib, shu chizmalar va o'lchamlarga asoslanib yog'ochdan etalon qolip modellashtiriladi.



7.5-rasm. Qolipni grafik tasvirlash.

Poyabzal turiga va poshna balandligiga qarab qolipning asosiy o'lchamlarini o'zgarishi Davlat standartida keltirilib, u quyidagilardan iborat: patakning kengligi yozgi ochiq poyabzallar uchun $0,68 L_{o.p.}$ kesimida 1 mm ga va $0,18 L_{o.p.}$ kesimida 2 mm ga kengaytiriladi; issiq botinka va etiklar uchun $0,55 L_{o.p.}$ kesimidagi quchoq o'lchamlari tegishli ravishda 10 va 15 mm ga oshiriladi; sandaletlar uchun shu kesimdagagi quchoq o'lchami 5 mm ga oshiriladi. Poshna balandligi 30—40 mm poyabzallar uchun mo'ljallangan qoliplarning patak kengligini $0,68 L_{o.p.}$ va $0,18 L_{o.p.}$ kesimlarida 2 mm ga; 50—60 mm balandligi uchun $0,68 L_{o.p.}$ da 4 mm ga va $0,18 L_{o.p.}$ da esa 3 mm ga; 70—80 mm balandligi uchun $0,68 L_{o.p.}$ da 5 mm va $0,18 L_{o.p.}$ da 4 mm ga qisqartiriladi. Tumshuq qismining balandligi h_n yozgi ochiq poyabzal uchun mo'ljallangan qoliplarda 2 mm ga orttiriladi, erkaklar yozgi poyabzali uchun esa 2 mm ga kamaytiriladi.

Qolipning bo'ylama-vertikal kesimini tovon konturi erkaklar issiq poyabzal, yopiq poyabzallar qolipa nisbatan 5 mm qo'yma bilan quriladi, ya'ni gulchin balandligi nuqtasidan boshlab tashqariga silliq ravishda qayriladi; qolgan guruqlar uchun bu qayrilish 2,5 mm ni tashkil qiladi. Shu bilan birgalikda qolipning tovon qismining balandligi ham oshiriladi.

7.4. QOLIPLARNI (UNIFIKATSIYALASH) BIR SHAKLGA KELTIRISH

Unifikatsiyalash asosida poyabzallarni yosh-jinsiy guruhi, qiyofasi va qoliplarning tovon qismini ko'tarilish balandligi jihatdan qolipning aniq tasnifi yotadi.

Poyabzal keng assortimentini quyma detallar (bikir dastak, qo'ygich, yarim patak, taglik va poshnalar) bilan ta'minlash uchun qolipning tanasi $0,5L_{\text{o.p.}}$ kesimigacha izi va bo'ylama-vertikal profili esa — $0,62L_{\text{o.p.}}$ kesimigacha unifikatsiyalashtiriladi. Shu maqsadda qolipni uchta yonmaydon to'laliklari ham unifikatsiyalashgan o'rta to'lalikda tayyorlanadi. Qoliplarni unifikatsiyalash qolip xo'jaligini va korxonalardagi press-formalar sonini sezilarli qisqartirishda va poyabzal korxonalarini avtomatlashtirish imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. Poyabzalning ichki shakli (qolip) to'g'risida umumiy tushuncha bering.
2. Poyabzal qolipining texnologik vazifalarini ta'riflang.
3. Poyabzal qolipining konstruksiyasi bo'yicha bo'linishini izohlang.
4. Poyabzal qoliplari uchun ishlatalidigan materiallar haqida aytib bering.
5. Poyabzal qolipining indeksi nimalarni ifodalaydi?
6. Poyabzal qoliplarini loyihalashda, u koordinata o'qlariga qanday joylashtiriladi?
7. Qolipning asosiy o'lchamlari oyoq panjasining o'lchamlaridan qanday farqlanadi?
8. Qoliplarni unifikatsiyalash qanday amalga oshiriladi?

8-bob. CHARM BUYUMLARINI LOYIHALASH

8.1. POYABZALNING USTKI DETALLARINI LOYIHALASHNI UMUMIY ASOSLARI

Poyabzal sanoatida yangi nusxadagi poyabzalning modelini yaratish deb, eskit yordamida biror modelning chizmasini chizib, so'ngra detallarni bichish uchun andazalarni tayyorlashga aytildi.


Bichilgan detallarni o'zaro tikish va ularga ishlov berish natijasida yangi o'ylangan konstruksiyadagi poyabzal paydo bo'ladi. Poyabzallarni ustki detallarini loyihalashni grafik usulini birinchi bo'lib venalik etikdo'z (Avstriya) Robert Knyoffsel 1876-yilda yaratdi.

Bu usulda poyabzalni loyihalaganda oyoq panjasi yoki qolipning o'lchamlari asos qilib olinadi. Bu o'lchanigan qiymatlar yordamchi chiziqlar ko'rinishida, ~~ma'lum~~ burchak va qonuniyatlar yordamida chizmaga chiziladi (8.1-rasm). Shuni qayd etib o'tish kerakki, bu hosil bo'lgan burchaklar va o'lchamlar, Robert Knyoffselning uzoq yillik tajribasiga asosan olingen bo'lib, turli razmerdagi poyabzallar uchun turlicha edi.

Hosil bo'lgan konturning ichiga modelning detallari chiziladi, so'ngra tortish baxyasining eni qo'shiladi. Chizmaga asosan ishchi, ya'ni tikish uchun va ko'rindigan ziylariga ishlov berish uchun qo'shimchalar berilgan andazalar tayyorlanadi.

Grafik usulda poyabzallarni loyihalashda aniq qolipning shakli, o'lchamlari hisobga olinmaydi, shuning uchun uning detallarini bir necha marta tayyorlab, tuzatishlar kiritiladi. Bu esa ko'p vaqt va material sarf bo'lishiga sabab bo'ldi.

Keyinchalik poyabzal tayyorlaydigan kichik-kichik ustaxonalar birlashib, katta korxonalar tashkil topgani natijasida, poyabzallarni loyihalashni yangi usullari paydo bo'lishiga ehtiyoj tug'ildi.




8.1-rasm. Grafik usuli bo'yicha qo'njsiz botinkanining tanavorini qurish.

XIX asrning to'qsoninchi yillariga kelib Keller (Olmoniya) qolip shaklini, tuzilishini hisobga oladigan yangi usulni yaratdi. Uning asosini qoliplarning yon va tag sirtlaridan olingan shartli nusxalar tashkil qiladi. Nusxa loyihalanayotgan poyabzalning shakli, qiyofasi, qolipning shaklini to'laroq aks ettira boshladi. Bu yangi usul **nusxalash** usuli deb ataladi.

Qolipning shartli nusxasini Knyoffelning yordamchi chiziqlariga joylab **grafik-nusxalash** usuli yaratildi. Bu usul Keller-Knyoffel usuli ham deyiladi. Grafik-nusxalash usuli rivojlantirilib, Trafers nusxalarni koordinata o'qlariga joylashtirmay, barcha chizmalarни nusxani o'zida bajardi. Grafik-nusxalash usuli to'la mukammal loyihalash usuli bo'lmasa ham, poyabzallarni loyihalashda oldinga qo'yilgan birinchi qadam edi. Bu usul ishlab chiqarish tajribalariga asoslanib takomillashtirildi va unga tuzatishlar kritildi. Bu usul hozirgi paytda ham ayrim davlatlar (Bolgariya, Vengriya, Olmoniya, Italiya va boshqalar)da keng qo'llanilmoqda.

1935-yilga kelib rus olimi Yu.P. Zibin qolipning shartli nusxasiga, oyoq panjasining anatomik nuqtalarini belgilovchi bazis (asosiy) chiziqlar o'tkazishni taklif qildi (8.2-rasm). Bazis chiziqlarining koefitsientlari, aholining oyoq panjasini ommaviy o'lchash natijasida olingan qiymatlar bo'lib, aniq ilmiy asosga egadir.

Poyabzal loyihalashning nazariy asoslarini yaratishda rus olimi Yu.P. Zibinning xizmatlari juda katta. B.X.Xoxlov, F.V.Peshikov, X.X.Liokumovich, V.X.Liokumovich va boshqalar grafik-nusxalash usulidan foydalanib, barcha turdag'i poyabzallarning loyihasini yaratishdi. A.M.Simis, V.G.Sterlin, A.A.Yeremin va A.X.Petrosyanlar tikib-yelimlash usulidagi poyabzallarni loyihalashga katta e'tibor berdilar. Bu sohada E.A.Dubinskiyning ishlari ham e'tiborga loyiq, u qoliplarni loyihalash, poyabzallarning modelini va gradir mashinasining kinematikasini yaratishda katta ilmiy izlanishlar qildi.



8.2-rasm. Yu.P. Zibin usuli bo'yicha o'rta nusxaga bazis chiziqlarini o'tkazish.

Qolipning shartli nusxalarini olishni aniq usullari Yu.P. Zibin rahbarligida T.V. Kazlova, V.L. Rayatskas, E.A. Dubinskiy, G.I. Roslik, V.P. Apanasenko, L.A. Tonkovidlar tomonidan yaratildi.

XX asrnинг 60-yillariga kelib Moskva yengil sanoat texnologiyasi instituti(MTILP)ning charm buyumlar texnologiyasi kafedrasida Yu.P.Zibin rahbarligida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida, poyabzallarning modelini loyihalashni, ya'ni tanavorning ustki detallarini deformatsion xususiyatlarni hisobga oluvchi bikir qobiq usuli yaratildi. Quyida poyabzallarni loyihalashning zamonaviy usullari keltirilgan.

8.2. POYABZAL TANAVORINI LOYIHALASH USULLARI

Hozirgi paytda respublikamizda va barcha hamdo'stlik davlatlarida eng ko'p tarqalgan usullar quyidagilar: grafik-nusxalash usuli, bikir qobiq usuli va Italyancha usul. Ammo ayrim malakali modelyrlar hozir ham ustki detallarning loyihalashda nusxalash usulidan foydalanadilar.

8.2.1. NUSXALASH USULI

Nusxalash usuli bo'yicha poyabzal tanavorini loyihalash poyabzalning modeli, eskitiga, asosan, qolipning yon sirtiga chizib olinib, so'ngra «xitoy» qog'oz (kalka) yoki boshqa birorta shaffof materiallar yordamida ishchi chizmasisiz, detallar ko'chirib olinadi. Bu usulda qolipning yon sirtlariga yordamchi va bazis chiziqlari, ya'ni oyoq panjasining asosiy anomatik nuqtalarini belgilovchi chiziqlar o'tkazilmaydi. Katta tajribaga ega malakali modelyerlarga bu usulni qo'llashlari mumkin.

Nusxalash usuli asosan, tasmali-sandallar va ochiq tipdag'i poyabzalarni loyihalashda qo'llaniladi.

Modelyer loyihalanadigan poyabzalning eskitini tanlagandan keyin, o'z tajribasiga va malakasiga asosan, qolipning yon sirtlariga modelni chizadi. So'ngra detalning taxminiy shakli va o'lchamidagi «xitoy» qog'ozini qolipa rezina yelimi yordamida yopishtirib, modelning barcha detallari ko'chirib olinadi. So'ngra poyabzalning modelini nusxasi tushirilgan «xitoy» qog'ozni yupqa qog'ozga yopishtirib, uni bir necha bor qolipa qo'yib ko'rib, kerak bo'lsa tuzatishlar kiritadi. Olingan nusxalar keyinchalik detallarning andaza asosi bo'lib xizmat qiladi, ya'ni ular yordamida ishchi (bichish) va yig'ish andazalari tayyorlanadi.

Yig'ma model — bu o'zaro tikilgan (yig'ilgan) ustki detallarning yoyilgan ko'rinishidir. Yig'ma modelni qolipa kiygizib yana bir bor aniqligi tekshirib ko'rilib, kerak bo'lsa yana tuzatishlar kiritiladi.

Nusxalash usulining afzalliklari shundan iboratki, qimmatbaho materiallar talab qilmaydi hamda assimetrik detallarga ega bo'lgan modallarni loyihalashning yaqqol timsoli bo'lib xizmat qiladi.

Modelyerning yuqori malakali bo'lishi, detallar nusxasining olishni murakkabligi va bu usulni baland dastakli poyabzallarni loyihalashda

qo'llab bo'imasligi, bu usulning kamchiligi hisoblanadi. Bundan tashqari oyoq panjasining anatomik nuqtalari chama lab belgilanadi, bu esa poyabzallarni loyihalashda xatoliklarga olib keladi. Qolipga bir necha marta rasm chizilishi natijasida, u ishdan tez chiqadi.

8.2.2. GRAFIK-NUSXALASH USULI

Grafik-nusxalash usulida, oldin qolipning yon sirtlaridan nusxa olib, qolipning o'rtacha nusxasi topiladi, so'ngra grafik usulda poyabzalning modelini detallari chiziladi. Chizmani chizayotganda oyoq panjasining anatomik va fiziologik tuzilishi, tayyor poyabzalning detallarini davlat standarti bo'yicha asosiy o'lchamlari hisobga olinadi hamda modelyer (konstruktur)ning malakasi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Poyabzalning eskizini tanlab olgandan keyin, modelyer tegishli qolip yon sirtlaridan o'rtacha nusxani (QO'N) birorta aniq va qulay usulda olib, uni koordinata o'qlariga joylab, oyoq panjasini anatomik nuqtalarining holatini belgilovchi bazis chiziqlarini o'tkazadi. So'ngra davlat standartining talabiga asosan, tayyor poyabzalning nazorat chiziqlari o'tkaziladi.

Bazis va yordamchi chiziqlarni o'tkazgandan keyin qabul qilingan qo'llanmaga asosan turli qiyofadagi poyabzallarni chizmasi chiziladi:

- a) qolipni o'lchamlari va tuzilishi;
- b) oyoq panjasining anatomik va fiziologik tuzilishi;
- d) poyabzal korxonalarida ishlab chiqarilayotgan turli konstruksiya-dagi poyabzallarni loyihalash amaliy tajribalari hamda modelyerini malakasi hisobga olinishi grafik-nusxalash usulining afzalliklari hisoblanadi.

Grafik-nusxalash usulini o'rganish juda oson bo'lib, turli konstruksiya-dagi poyabzallarning loyihalash nazariy bilimlarini mustaqil o'rganib, tezda nazariy bilimlariga ijodiy yondashgan holda ularni amalda qo'llash mumkin.

Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, eskizda chizilgan, hajmi chiziqlarni yassi chizmada chizish qiyin bo'lib, ayrim hollarda badiiy o'ylangan fikrdan chetlashishlar yuz beradi.

8.2.3. BIKIR QOBIQ USULIDA LOYIHALASH

Bikir qobiq usulida poyabzallarni loyihalash bir nechta bosqichda amalga oshiriladi:

- a) bikir qobiqni «kiygizilgan» qolipda hosil qilish;
- b) ustki detallarni badiiy maketi (chizmasi)ni yaratish;
- d) maketedan shartli nusxalarni olish;
- e) yassi detallarning konturini chizish.


Bu usulda qolip yon sirtining nusxasini olish uchun tanlangan qolipga, ichki va oraliq detallar xuddi tayyor poyabzaldagidek kiygilanadi. Barcha detallarning qalinliklari davlat standarti talabiga mos bo'lishi kerak. So'ngra

«kiyigizilgan» qolipni Moskva yengil sanoat texnologiyasi instituti olimlari tomonidan yaratilgan maxsus vakuum apparatga qo'yib termoplastik plyonka yordamida yoki qolipga material tortib, unga maxsus yelim surtib bikir qobiq hosil qilinadi.

Bikir qobiqqa modelning rasmini chizish uchun unga oyoq panjasining anatomiq nuqtalarini bildiruvchi yordamchi chiziqlar o'tkaziladi. So'ngra Davlat standartiga, asosan, detallarning asosiy o'lchamlari belgilab olinadi va bikir qobiqqa eskiziga mos ravishda poyabzalning rasmi chiziladi.

Bikir qobiq usulida poyabzallarning loyihalayotganda ularning ustki detallarida ishlatalidigan barcha materiallar haqida to'la ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Chunki har bir yangi konstruksiyadagi poyabzallar uchun materiallar sistemasini umumiy cho'zilishi, mustahkamlit chegarasi loyihalayotgan modelning konkret detallarining deformatsiyasi hisoblab topilishi kerak.

Bikir qobiq usuli bilan poyabzalning ikkita maketi tayyorlanadi va ular badiiy kengashga taqdim etiladi. Badiiy kengash modelni tasdiqlagandan keyin, birinchi mакет badiiy kengashda saqlanadi, yassi detallar aniq loyihalanganini va tayyor poyabzal to'g'ri ishlab chiqarilganini tekshirish uchun, ikkinchisini tanavorni fazoviyligiga qarab qirqib, tekislikka yoyiladi va tanavorni qolipga tortganda hosil bo'ladigan deformatsiyalarni hisobga olgan holda, yassi shakldagi detallarning andozalari tayyorlanadi (8.3-rasm).



8.3-rasm. Bikir qobiq yordamida qolipdan nusxa olish.

Bikir qobiq usuli, ko'proq yuqori mexanizatsiyalashgan potoklar, avtomat liniyalarda ishlab chiqariladigan poyabzallar uchun qo'llaniladi.

Bu usulning afzalliklari quyidagilar: yangi modelni tuzilishi, estetik, texnologik va iste'mol xususiyatlari haqida bikir qobiqqa chizilgan rasmni ko'rib tasavvur hosil qilish mumkin. Bundan tashqari oyoq panjasining tuzilishi va fiziologiyasini, Davlat standarti va texnologik normativlari asosida, detallarning qalinliklari hamda deformatsiyalarini hisobga olgan holda poyabzallarning modellari loyihalanadi.

Hozirgi paytda poyabzallarning zamonaviy, avtomatlashtirilgan loyihalash usuli (ALS) yaratildi.

Zamonaviy elektron hisoblash mashinalari yordamida turli konstruksiya-dagi poyabzallarning ustki detallarini matematik modelini yaratib, EHM ning maxsus grafik qurilmasi yordamida, detallarning chizmasini olish mumkin.

EM yordamida barcha turdag'i poyabzallarning ustki detallarini loyihalash mumkin. Bu esa yangi modellarni loyihalash va ishlab chiqarishga tatbiq qilishda, modelyerlarning, konstrukturlarning, loyihalovchi-larning ish unumdorligini oshiradi.

8.3. BIKIR QOBIQ USULIDA POYABZAL TANAVORI DEFORMATSIYASINI HISOBBLASH

Bikir qobiq yordamida «kiyintirilgan» qolipdan shartli yoyilmasi olinib, ularga taalluqli korrektirovka va o'zgartirishlar kiritilgandan keyin poyabzal tanavorini deformatsiyasi hisoblanadi. Tanavor Yu.P.Zibin, D.I.Anoxin, V.S.Skaternoy, M.P.Kupriyanovlarni tadqiqotlari asosida aniqlangan.

Tanavorni bo'ylama deformatsiyasi $\epsilon, (\%)$ quyidagi tenglama bilan aniqlanadi:

$$\epsilon = EA_c Q_{\text{don}}^{0,5},$$

bunda: ϵ — tanavorni qolipa shakllantirish paytida uning nisbiy cho'ziluv-chanalik miqdori (%); E — tanavorning qiyofasi va konstruksiyasini hisobga oluvchi koefitsient va u o'z navbatida $E=E_1 E_2 E_3 E_4$ lardan iborat; E_1 — har xil konstruksiya-dagi tanavorlarning nisbiy deformatsiyasini koefitsienti (qo'yma dastakli qo'njsiz botinka uchun $E_1=1,18$; «qayiqsimon» tuflilar uchun $E_1=1,3$); E_2 — tanavorni tekistikka yoyganda uning qanotlarini yoyilish burchaklarini hisobga oluvchi koefitsient ($\alpha = 10^\circ$ bo'lsa, $E_2=0,9$; $\alpha = 160$ bo'lsa, $E_2=1$; $\alpha = 21^\circ$ bo'lsa $E_2=1,1$); E_3 — tanavorni ustki ziyini qolipa yopishib turishi uchun beriladigan qisqartirish miqdori (a , mm) ni hisobga oluvchi koefitsient ($a=0,8$ mm bo'lsa $E_3=0,3$; $a = 5$ mm bo'lsa $E_3=0,33$; $a=10$ mm bo'lsa $E_3 = 0,36$); E_4 — tanavorni geodezik chiziq bo'ylab haqiqiy uzunligini hisobga oluvchi tuzatish koefitsienti ($E_4=0,9$); A_c — tanavor detallariga kiruvchi, parallel va ketma-ket ulangan materiallar sistemasining cho'zilishini hisobga oluvchi koefitsient; Q_{don} — tanavorni shakllantirish uchun joiz bo'lgan kuchlanish (H).


Sistemaning cho'zilish koefitsienti A_c , tanavorda berilgan materiallarni cho'zilishiga bog'liq bo'lib, namuna modelning uzayish diagrammasidan olinadi. Buning miqdorini aniqlash uchun shunday materiallar namunasini tayyorlash kerakki, unda moyabzalidagi hamma ustki detallarni va berilgan konstruksiyadagi tanavorning biriktirish usullarini taqlid qilsin. Buning uchun shartli yoyilmada geodezik chiziq AB bo'ylab ustki detallar uzunligi aniqlanadi (8.4-rasm).

Poyabzalning ustki detallarini materialidan kengligi 50 mm va uzunligi l_b , l_c , chok uchun beriladigan qo'shimchasi bilan namunalar kesib olinadi. Bu detallarning chetlariga, PT-250 mashinasining qisqichlariga mustahkamlash uchun yana 20 mm dan qo'shimcha beriladi (8.4-a rasm).

Ichki va oraliq materiallardan ham xuddi shunday namuna detallar kesib olinadi. Ularning ham eni 50 mm, uzunligi esa chizma bo'yicha aniqlanadi. Agar astar va oraliq astarlar to'qima materialdan bo'lsa, ular tanda iplariga nisbatan $15-20^\circ$ burchak ostida kesib olinadi.

Materiallar namunasini parallel yoki ketma-ket usul bilan tikuv mashinasida biriktiriladi va namuna-model hosil bo'ladi.

Bu namuna-modelni dinamometrda yarimgrab usuli bilan sinaladi va 100 mm/min tezlikda uzayish diagrammasi (8.4-b rasm) yozib olinadi.



8.4-rasm. Tanavor yuzasini deformatsiya miqdoriga o'zgartirish.

Diagrammadan 100H ga teng kuchlanish holatida namunaning absolut cho'zilish miqdori ΔL_1 aniqlanadi.

A_c son jihatidan 100H kuchlanishdagi nisbiy cho'ziluvchanligiga teng bo'lgani uchun uning miqdori quyidagi tenglamadan topiladi:

$$A_s = \frac{L_1}{L_3} \cdot 100.$$

Bunda: L_3 — tanavorning (namuna-modelni) uzunligi.

Shakllanish paytida hech bir material yirtilib ketmasligi uchun Q_{dop} ni yirtish paytidagi kuchlanish P_{yirt} dan 1,5 marta kichik (mustahkamlik zaxirasi) olinadi, ya'ni $Q_{\text{yirt}} = \frac{P_{\text{yirt}}}{100}$; $Q_{\text{dop}} = \frac{Q_{\text{yirt}}}{1,5}$ yoki $Q_{\text{dop}}^{0,5} = \sqrt{Q_{\text{yirt}} / (15 \cdot 10)}$ tenglamalari bilan aniqlanadi. E , A_c , Q_{dop} miqdorlari aniqlangandan keyin yuqoridagi tenglama asosida bo'ylama deformatsiya miqdori aniqlanadi. Bu miqdor tanavorni shakkantirishda bo'ladigan deformatsiyani, yoyilmani maydoniga o'zgartirishlar kiritishga imkon beradi. Tanavorning uzunligi bo'yicha deformatsiyalar teng taqsimlanmagani uchun, har bir detal uchun nisbiy o'zgaruvchanlik (deformatsiya) aniqlanadi. Qo'yma dastakni qo'njsiz botinkalar betligi uchun ε_c va dastak uchun ε_b o'zaro bog'lanishi quyidagi cha aniqlanadi: betlik bilan dastak chokiga astarni choki tushmasa $\varepsilon_c = 1,54 \varepsilon$, betlik bilan dastak chokiga astar ham qo'shib tikilsa $\varepsilon_c = 1,8 \varepsilon$ ga teng bo'ladi; dastak uchun esa $\varepsilon_b = (0,6-0,7)\varepsilon$ ga teng. «Qayiqsimon» tuflilar uchun $\varepsilon_c = 1,3 \varepsilon$, $\varepsilon_b = 0,8 \varepsilon$ ga teng bo'ladi. Agar «qayiqsimon» tuflida betlik va dastak kesilmagan bo'lsa, geodezik chiziq bo'ylab IV bazis chizig'igacha betlik va qolgani dastakka shartli ravishda bo'linadi. Betlik S_c va dastak S_b uchun absolut deformatsiya esa,

$$S_c = \varepsilon_c \cdot l_c / 100; \quad S_b = \varepsilon_b \cdot l_b / 100$$

tenglamalari bilan aniqlanadi va natijada betlikning tumshuq qismida S_c miqdoriga kamaytirib, ilgarigi kontur (1) chiziq bilan tekis biriktiriladi (8.4-*b* rasm). Dastakning tovon qismida S_b miqdorga qisqartirib tovon konturiga ekvidastal ravishda tuzatish kiritiladi. Keyin tortilish baxyasi uchun hamma perimetri bo'ylab bir xil quyidagi normativ bo'yicha qo'shimcha (2 chiziq) beriladi.

Yelimli usul uchun tortilish baxyasi	$15 \pm 0,5 \text{ mm}$
Rant usuli uchun tortilish baxyasi	$14 \pm 0,5 \text{ mm}$
Doppel usuli uchun tortilish baxyasi	$12 \pm 0,5 \text{ mm}$

Ichki va oraliq detallarining loyihalash ustki detallarini konturiga, asosan, umumiy uslub bo'yicha bajariladi.

8.4. GRAFIK-NUSXALASH USULIDA POYABZAL USTKI DETALLARINI LOYIHALASH ASOSLARI

Grafik-nusxalash usulida poyabzallarning ustki detallarini loyihalash quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Poyabzalning eskizini chizish.
2. Qolipning o'rtacha nusxasini olish.
3. Qolipning o'rtacha nusxasini koordinata o'qlariga joylashtirish, bazis va yordamichi chiziqlarni chizish.

4. Poyabzal ustki detallarining o'chamlarini hisoblash.

5. Ustki detallarni yig'ish, ko'rindigan ziylariga ishlov berish.

6. Poyabzalning ichki detallari (astarlari)ni loyihalash.


7. Oralig detallarni loyihalash.

Modelning eskizini (8.5-rasm) yaratishda zammonaviy modaning yo'naliishi va Respublika poyabzal modalari uyining tavsisi hisobga olinadi. Eskizda poyabzalning qiyofasi, detallarni tuzilishi, shakli, choklarining soni, ishlataladigan materiallarning rangi va nomi ko'rsatilishi kerak.


8.4.1. QOLIPNING YON SIRTINING SHARTLI NUSXASINI OLİSH USULLARI

Hozirgi vaqtida qolipning yon sirtining nusxasini turlicha olish mumkin. Ammo bitta qolipdan turli usul bilan olingen andozalarining shakli, o'chamlari bir-biridan farq qiladi, chunki uning uzunligiga, qolipning o'chamlariga turli tuzatishlar kiritiladi. Poyabzal qoliplari juda murakkab fazoviy shaklga ega, uni oddiy matematik bog'lanish bilan ifoda qilib bo'lmaydi. Shuning uchun sirtini chizmachilik geometriyasining metodikasi asosida yoyib bo'lmaydi. Bunday sirtlarni *yoyilmaydigan sirt (yuza)lar* deyiladi.


Yoyilmaydigan sirtlardan olinadigan shartli nusxalarni umumiy asoslari quyidagicha (8.6-rasm): asosning radiusi R , yuqori aylanasining radiusi $r = R/2$ va yon sirtining uzunligi $l = 1,05 R$. Kesilgan yarim sferani ko'rib chiqamiz. Bu yarim sferani plastik material bilan tortib, qoplab, unga sfera shakli beriladi. U o'z shaklini yarim sferadan yechgan dan keyin ham saqlab turishi kerak. Bu hisosil bo'lgan yarim sfera shaklidagi bikir qobilqni tekislikka yoyish uchun uni turli yo'naliishda chuqur qilib kesish kerak. Lekin uning bir qismida kesilmagan joy goldirilishi shart.



8.5-rasm. Bitta model yordamida unifikatsiyalashgan qator eskizini chizish.



8.6-rasm. Kesilgan yarim sferaning asosiy o'chamlari.



8.7-rasm. Yarim sferani kesilgan joyini joylashishi (chapda) va ulardan hosil bo'lgan yoyilmalar shakli (o'ngda).

Misol uchun, kesilmagan joyni yuqori qismida (8.7-a rasm) qoldirib, yarim sferani tekislikka yoysa, 8.7-b rasm ko'rinishidagi shakl paydo bo'ladi. Agar shu ko'rinishdagi shaklda detal qirqib olib tikilsa, berilgan yarim sfera yon sirtning shakli paydo bo'ladi.

Agar kesilmagan (tayanch) joyi quyi qirrasida (8.7-d rasm) bo'lsa, unda 8.7-e rasmdagi ko'rinishda shakl hosil bo'ladi.

Kesilmagan qismi yarim sferani o'ttasida joylashsa (8.7-f rasm), yarim halqa (8.7-g rasm) ko'rinishda shakl hosil bo'ladi. Shunday qilib, tayanch joyi yarim sferaning quyi asosiga yaqin joylashsa, uni tekislikka yoygandagi shakli to'g'ri to'rtburchakka yaqinlashib boradi. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yassi andazalarning shakli, qattiq qobiqning kesishi ni yo'nalishga va tayanch joyi (kesilmagan qismi)ni o'rniga bog'liq. Poyabzalning tumshuq qismining shakli, yarim sferaning chorak qismi shakliga o'xshaydi.

Qolipni yon sirtlarining nusxasini olishni quyidagi: soddalashtirilgan, bikir qobiq, Italyancha usullari mavjud.

1. Soddalashtirilgan usul. Bu usul bir nechta ko'rinishda, ammo asosi bir xil bo'lib, qog'oz andaza yordamida nusxa olinadi. V.P.Apanasenko, L.A.Tonkovid, G.I.Roslik, E.A.Dubinskij usullari bir-biridan faqat aniqligi bilan farq qiladi. Yuqorida keltirilgan mualliflarning usullari ko'p vaqt talab qiladi, shuning uchun juda kam qo'llaniladi. Faqat

soddalashtirilgan usul eng ko'p tarqalgan hisoblanadi. Qanday usul qo'llanilishidan qat'i nazar qoliplarni:

- yon sirtlarining nusxasini olishga tayyorlash;
- qog'oz yoki futor yordamida andazani tayyorlash;
- qolip yon sirtlarining nusxasini olish;
- qolipning o'rtacha nusxasini olish kabi bosqichlarda bajariladi.


a) Qolipni yon sirtlarining nusxasini olishga tayyorlash

Nusxasi olinadigan qolipni asosiy o'lchamlari davlat standartiga to'g'ri kelishi tekshiriladi, unga yon sirtlarini tashqi va ichki tomonlarga ajratuvchi chegara chiziqlari o'tkaziladi.

Agar qolipning tag qismida metall plastinka bo'lmasa, u holda shu qolip uchun tasdiqlangan pataknинг shabloni yordamida, axmi qismining ichki tomonini, ya'ni yon sirti bilan tag qismining chegara chizig'i chizib olinadi.

Chegara chiziqlari tovon qismida V_k , V_s , V_b va B (8.8-b rasm), yuqori qirrasi va tumshuq tutam qismida V_g , S_j , N_v va N_s nuqtalari orqali o'tadi (8.8-g rasm).

V_k nuqta tovon qismining tagini o'rtasi, N_v nuqta tumshuq qismini o'rtasi, V_s esa tovon qismining eng bo'rtib chiqqan joyining o'rtasi hisoblanib, $V_k V_s = 1/3 V_k B$ ga teng (8.8-d, f rasm).



8.8-rasm. Qolipning yon sirtlarining nusxasini olishga tayyorlash.

V_b nuqta qo'njsiz botinkalarining balandligini qiymati jadvaldan olinib, orqa konturning egri chizig'i bo'yicha belgilanadi. V_g nuqta yuqori qirrasining o'rtasi bo'lib, tovon qismining eng bo'rtib chiqqan joyidan 0,55 L_{op} masofada joylashadi. Shu nuqta orqali qolipning quchoq o'lchami o'lchanadi. S' nuqta yuqori qirrasining tugash qismida joylashadi.

Bunda $SS' = 0,5 (SP_{tt}^l - SP_{it}^l)$ bo'lib, P_{tt}^l va P_{it}^l nuqtalari P_{tt} va P_{it} nuqtalar proyeksiyasi hisoblanadi.

Belgilangan nuqtalarni maxsus andaza yoki ingichka egiluvchan chizg'ich yordamida tutashtirib, qolipni chegara chiziqlari o'tkaziladi (8.8-d rasm).

b) Qog'oz andazani tayyorlash


Soddalashtirilgan usulda qolip yon sirtlarining nusxasini olish uchun qolipning ichki tomoni bilan, ikki qavat yupqa yoki xito y qog'ozga, qolipning tag tomonini tik qilib qo'ygan holda, uning konturi chizib olinadi. Hosil bo'lgan konturga butun perimetri bo'yicha 25–30 mm qo'shimcha berilib (8.9-a rasm), qirqib olinadi. Qirqib olingan qog'oz andazani tumshuq va tovon qismi narsimon, qolgan qismlari konturga nisbatan tik: eni 8–10 mm, chuqurligi 15–50 mm masofada kesiladi (8.8-b rasm).

Qolipni nusxa oladigan konturining egriligi qancha murakkab bo'lsa, qog'oz andazanining yaproqlarini eni shuncha kichik va chuqur bo'lishi kerak.

d) Qolip yon sirtlarining nusxasini olish

Ikki qavat qilib kesilgan qog'oz andazalarni ajratib olib (8.9-d rasm), navbatma-navbat yon sirtlariga, rezina yelim yordamida yopishtilradi. Qog'oz andazanining yaproqchalarini g'ijimlamay tekislab, bir-biriga chiqarmay, qolipning chegara chiziqlari qog'ozga o'tkaziladi. Ammo tumshuq va tovon qismida yaproqchalar bir-birining ustiga chiqadi, axmi qismida esa ular orasi ochiq bo'ladi. Buning natijasida qolipning aniq nusxasini olish imkonи bo'lmaydi, shuning uchun uni **shartli nusxa** deyiladi.

Qog'oz andazaga qolipdagi hamma chegara chiziqlarini belgilab bo'lgandan keyin, unga tovon qismining eng yuqori nuqtasi B va tumshuq qismining eng bo'rtib chiqqan nuqtasi N belgilanadi. Keyinchalik



8.9-rasm. Qolipning yon sirti shartli nusxasini olish uchun andaza tayyorlash.

qolipning o'rtacha nusxasini olish uchun qog'oz andazani ehtiyyotlik bilan qolipning yon sirtidan ko'chirib, qalinqoq toza qog'ozga yopishtiriladi. Yon sirtining konturiga tuzatish kiritib (yaproqchalarini tekislab), kesib olinadi. Unga qolipning fasoni, razmeri, to'laligi va yon (tashqi yoki ichki) sirtining nomi yoziladi.


8.4.2. QOLIPNING O'RTA NUSXASINI OЛИSH

Qolipning tashqi va ichki yon sirtlaridan olingan nusxa bir-biridan shakli hamda o'lchamlari bilan farq qiladi.

Poyabzalni loyihalash qulay bo'lishi uchun qolipning o'rtacha nusxasi (QO'N) dan foydalaniladi. Qolipning o'rtacha nusxasini olish uchun, yon sirtlaridan olingan birlini oq qog'ozga ingichka (yordamchi) chiziq bilan chizib olinadi, so'ngra ikkinchi nusxani shunday qo'yish kerakki, ikkala yon sirtlarning B va N_v nuqtalari bir joyda yotishi shart (8.10-a rasm). Shu holatda yon sirtni konturi yordamchi chiziq bilan chizib olinadi. Hosil bo'lgan ikkita kontur orasidagi masofani teng ikkiga bo'lib, qalin (asosiy) chiziq yordamida qolipning o'rtacha nusxasining konturi chizib olinadi, tumshuq-tutam va qisman axmi qismidan tashqari. Agar shu qismda ichki va tashqi yon sirtlarning konturi orasidagi farq 3 mm dan katta bo'lsa, ikkala kontur qoldiriladi, kichik bo'lsa, o'rtacha chiziq o'tkaziladi (8.10-rasm).

Soddalashtirilgan usulni qo'llash juda oson va arzon bo'lib, ko'p qimmatbaho materiallar hamda asboblar ta lab qilmaydi. Qolipning o'rtacha nusxasiga qolip fasoni F , razmeri N , to'laligi W , tovon qismining balandligi h_p va qolipning o'rtacha nusxasini uzunligi $L_{QO'N}$ yozib qo'yiladi.

Qolip o'rtacha nusxasining uzunligini topish uchun, uni orqa konturining balandligini $1/3$ qismi (V_v nuqta) belgilanadi. V_v nuqta bilan tumshuq qismining nuqtasi N_s tutashtirilib, uning uzunligi o'lchanadi (L qo'n).



8.10-rasm. Qolipni o'rtacha nusxasini olish.

8.4.3. QOLIPNING O'RTACHA NUSXASINI KOORDINATA O'QLARIGA JOYLASHTIRISH, BAZIS VA YORDAMCHI CHIZIQLARNI CHIZISH

Chizmachilik qog'ozining chap past burchagida koordinata o'qlari XOY o'tqaziladi. O nuqtadan OY o'qida B_1^l nuqtasi belgilanadi. ($OB_1^l = h_p + 5$ mm); bunda h_p — qolipning poshna qismi balandligi mm da, 5 mm esa ustki detallarning qalilnigi (8.11-a rasm).

Qolipning o'rtacha nusxasini B^l nuqtasiga o'rnatib, tutam qismini eng chiqib turgan nuqtasiga OX koordinata o'qini urinma qilib, qolip o'rtacha nusxasining uch qismini belgilab olinadi (H^l nuqta).

B_1^l nuqtada qolipning nusxasini ushlab turib, tumshuq qismi soat mili bo'yicha buriladi, to QO'N ning ichki tutam chizig'iga OX o'qi urinma bo'lib o'tgungacha va o'rtacha nusxaning uch qismini belgilab olinadi (N^1_s). N^1_s va N^1_l nuqtalarini birlashtirib o'rta nuqtasi (N_s) belgilanadi. N_s nuqtasiga QO'N uch qismini o'matib, uning konturi yordamchi chiziq bilan chizildi.

Qolipning o'rtacha nusxasini yordamchi chiziq yordamida chizgandan keyin yangi koordinata o'qi ($X^lO_1Y^l$) o'tkaziladi. Yangi koordinata o'qini o'tkazish uchun: V_1^l nuqtadan, OX o'qiga $V_1^lP_s = 0,62 L_{qo'n}$ radiusa yoy chizib P_s nuqta aniqlanadi. B_1^l va P_s nuqtalar orqali yangi X_1 o'qi o'tqaziladi. O_1Y^l o'qi esa V_1^lX ga tik va o'z navbatida qolipning o'rtacha nusxasining orqa qismini eng bo'rtib chiqqan nuqtasiga urinma bo'lib o'tadi. Bu yangi $X^lO_1Y^l$ o'qi poshnating balandligini hisobga oluvchi o'q bo'ladi.


QO'N ni tovon qismining bo'rtib chiqqan nuqtasidan asosiy (bazis) chiziqlarigacha bo'lgan masofa $X^l = \alpha L_{qo'n}$ tenglamasi yordamida hisoblanadi. Oyoq panjasining anatomik nuqtalarini va (a) koeffitsientini bildiruvchi quyidagi asosiy bazis chiziqlar mavjud.

Anatomik nuqtalar	Asosiy chiziq	Koeffitsient (α)
Ichki to'piq markazi	I	0,23
Oyoqning bukilish nuqtasi	II	0,41
Oyoq panjasining o'rtasi	III	0,48
Birinchi kaft suyagining distal boshchasining markazi	IV	0,68
Beshinchi barmoq oxiri	V	0,78

Asosiy chiziqlarini QO'N ga maxsus seluloidli andaza yordamida chizildi. Selluloidli andazani qalilnigi 1,2 mm bo'lib, uni V.Peshikov ixtiro qilgan. Bu andaza burchakli (1) va harakatchan (2) chizg'ichdan tashkil topgan bo'lib, gorizontal yo'nalishda harakat qiladi (8.11-b rasm).

Gorizontal yo'nalishdagi chizg'ichda 0,5 mm aniqlikda shkala bor. Harakatchan vertikal chizg'ichda Nonius bo'lib, u gorizontal yo'nalishdagi shkalani 0,5 mm aniqlikda belgilashga imkon beradi.

Bazis chiziqlarni o'tkazish uchun $X^lO_1Y^l$ koordinat o'qining O_1 nuqtasiga andazaning O_1 nuqtasi qo'yiladi, gorizontal chizg'ich esa O_1X^l o'qida yotishi shart (8.11-d rasm).



8.11-rasm. Qolipning o'rtacha nusxasini koordinata o'qlariga joylashtirish, bazis va yordamchi chiziqlarni chizish.

Shu sharoitda asosiy bazis chiziqlarini masofasi aniqlanib, vertikal harakatlanuvchi chizg'ich yordamida chiziladi. Agar maxsus selluloidli andaza bo'lmasa, oddiy uchburchakli chizg'ich yordamida asosiy bazis chiziqlari o'tkaziladi. Keyin QO'N ga katta va kichik yordamchi nazorat chiziqlari o'tkaziladi. Katta yordamchi chiziq V_3G , gulchinning balandligi V_3

$$O_1V_3 = 0,15N_{\text{mm}} + 12,5 \text{ mm.}$$

va V bazis chizig'ining masofasini o'rtasi G nuqta orqali o'tadi (8.11-e rasm). G' va G'' nuqtalari $QO'N$ bilan V bazis chizig'ining uchrashgan nuqtalari. Kichik yordamchi V_bD chiziq V_b nuqtadan

$$O_1V_b = 0,15N_{\text{mm}} + 25,5 \text{ mm} \text{ balandlikda.}$$

V_3G chizig'iga parallel holda, II -bazis chizig'i bilan uchrashguncha o'tkaziladi. II -bazis chizig'i bilan katta yordamchi chiziqlarning (V_gG) uchrashgan nuqtasini D' deb belgilab, V_b nuqtasi bilan tutashtiriladi va V_bD' chizig'ining I bazis chizig'i bilan kesishgan nuqtasini D'' deb belgilanadi. $D'D''$ va V_gP_p chiziqlarini teng ikkiga bo'lib, $D_1E' \geq D''E'$, va $V_gE \geq EP_p$, EE' nuqtalari tutashtiriladi.

Nazorat SK va LK chiziqlari bo'lib, SK chiziq qo'yma dastakli qo'njsiz botinka va botinkalarda mustahkamlik chokini joylashish chegarasini bildiradi, LK nazorat chizig'i bo'lsa, «Loafer» turidagi poyabzallarda betlikni tikish chegarasini bildiradi.

8.4.4. POYABZALLAR USTKI DETALLARINING ASOSIY O'LCHAMLARINI HISOBBLASH

Poyabzallarning asosiy o'lchamlari qo'njsiz botinka, tufli, botinka, sandaletlarning dastagini balandligi, etik, kalta qo'njli etiklarning qo'njini balandligi, gulchinni, qattiq dastakning balandligi, botinkalarning dastagini, etik va kalta qo'njli etiklarning qo'njini eni, qattiq dastakning qanotlarini va tumshuq ostini uzunligi, tortish baxyasining eni hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan o'lchamlarning ayrimlari Davlat standarti tomonidan belgilab qo'yiladi (10-jadval). Ustki detallarni loyihalashda kerak bo'ladigan ayrim o'lchamlar esa antropometriya qonunlari asosida hisoblanadi.

1948-yilda B.M.Xoxlov va uning shogirdi F.V.Peshikov tomonidan shtixmasli sistemada, keyinchalik (11-jadval) metrik sistemada poyabzallarning ustki detallarining o'lchamlarini aniqlaydigan tenglamalar yaratildi.

Qo'njsiz botinka, yopiq tufli va sandaletlarning dastagini balandligi quyidagi tenglama yordamida aniqlanadi:

$$V_k V_p = 0,15 N_m + C.$$

Bunda C ozod son bo'lib, Davlat standartiga asosan, turli yosh-jinsiy guruhlar uchun har xil.

Qayiqsimon va tovon qismi ochiq tuflilar uchun dastakning balandligi, poyabzal oyoq panjasiga yaxshi yopishib turishi uchun qo'njsiz botinkalardan 3 va 5-6 mm baland bo'ladi.

$$V_k V_t = V_k V_p + 3 \text{ mm}; \quad V_k V_{t.o.} = V_k V_p + 5 - 6 \text{ mm}.$$

Bunda: V_t — «qayiqsimon» tuflilarning dastak balandligi, $V_{t.o.}$ — tovon qismi ochiq tuflining dastak balandligi.

10-jadval

**Davlat standarti tomonidan belgilab qo'yilgan poyabzalning
balandlik o'lchamlari, mm da**

Poyabzalning jinsiy guruhni	O'rta rismeni	Botinkani	Qo'njsiz botinkani	Etikni		Kalta qo'njli etikni	Bikir dastakni	
				charmdan	charm + to'qimadan		Botinka, qo'njsiz botinka, tufli	etik
Erkaklar	270	126	66	410	440	180	48	57
Ayollar	240	156	61	345	—	180	44	44
O'g'il bolalar	240	117	61	195	—	160	44	—
Qiz bolalar	235	143	61	190	—	160	44	—
Maktab yoshidagi o'g'il bolalar	215	110	57	170	—	140	42	—
Qiz bolalar	215	135	57	170	—	140	42	—
Maktab yoshigacha bolalar	185	118	49	170	—	—	42	—
Chaqaloqlar	135	94	43	120	—	—	30	—

Tikma (yumshoq) patakli qo'njsiz botinkalar va tuflilarning dastagini balandligi $4 \div 5$ mm ga kichik bo'ladi:

$$V_k V_p(\text{tikma}) = V_k V_p - (4 \div 5).$$

Burda V_p — tikma patakli qo'njsiz botinka va tuflining dastak balandligi.

Poyabzallarning balandligi, faqat tasdiqlangan nusxasiga asosan, iste'molchilarining talabiga ko'ra o'zgarishi ruxsat etiladi. Tumshuq ostining uzunligi, tayyor poyabzalning tumshuq qismini $2/3$ bo'lagini tashkil etadi, ya'ni kundalik poyabzallarda $L_{t.o.} = 0,2L_{qo'n}$, bashang poyabzallarda $L_{t.o.} = 0,15L_{qo'n}$ teng bo'ladi.

11-jadval

Poyabzallarning ustki detallarini balandlik o'chamlari metrik sistemada, (mm)

Poyabzalning jinsiy guruhi	O'rta razmeri	To'ralig'i	Dastakning V_b		Qattiq dastakning, $V_{q,d}$	Botinka dastagini yuqori qism kengligi, Sh_d
			Botinka	Qo'njsiz botinka, туфли, сандали		
Chaqalocqilar I guruhi	110	3	0,3N+55	—	—	0,4N+2W+20
II guruhi	135	3	0,3N+53	0,15N+23	0,15N+9	0,4N+2W+18
Maktab yoshigacha bolalar	185	3	0,3N+62	0,15N+21	0,15N+9	0,4N+2W+17
Maktab yoshidagi qiz bolalar	215	3	0,4N+49	0,15N+25	0,15N+8	0,4N+2W+13
Maktab yoshidagi o'g'il bolalar	215	4	0,3N+45	0,15N+25	0,15N+9	0,4N+2W+16
Qiz bolalar	235	3	0,4N+49	0,15N+25	0,15N+9	0,4N+2W+14
O'g'il bolalar	240	4	0,3N+45	0,15N+25	0,15N+9	0,4N+2W+9
Ayollar	240	4	0,4N+60	0,15N+25	0,15N+8	0,4N+2W+24
Erkaklar	270	4	0,3N+45	0,15N+25	0,15N+8	0,4N+2W+11

Eslatma: N — poyabzal; W — poyabzal to'ralig'i.

Qattiq dastakning qanotlari uzunligi poyabzalning konstruksiyasiga, vazifasiga va poshnaning balandligiga bog'liq bo'ladi.

Quyida turli poyabzallar uchun qattiq dastak qanotlarining uzunligini, qolipning o'rtacha nusxasini uzunligiga nisbatan koefitsientlari berilgan.

Poyabzal poshnasing balandligi	qattiq dastakning qanotlar uzunligini koefitsienti
Baland poshna	0,48—0,55 $L_{qo'n}$
O'rta poshna	0,44—0,45 $L_{qo'n}$
Past poshna	0,41—0,42 $L_{qo'n}$
Astarsiz poyabzallarda	0,30—0,35 $L_{qo'n}$

Tortish baxyasining eni, tanavorni qolipga tortish usuliga, sirtqi detallarni materialiga va taglikni ustki detallar bilan biriktirish usuliga bog'liq. Turli konstruksiyadagi poyabzallarning tortish baxyasini eni 12-jadvalda keltirilgan.

**Xrom tuzlari bilan oshlangan charmdan qilingan
detallar uchun tortish baxyasining eni**

Poyabzalning turi	Biriktirish usuli	Tortish baxyasining qiymati (mm)					
		Tumshuq qismida		Tutam qismida	Axmi qismida	Tovon qismida	
uzunligi	eni					u zunligi	eni
Botinka va qo'njsiz botinka	Rant	15—16	15—16	16—17	18—20	15—16	15—16
Botinka va qo'njsiz botinka	Yelimlash, quyish	16—17	15—16	17—18	20—22	15	15—17
Qayiqsimon tuqli	Yelimlash	12—13	14—15	15—16	21—23	15	15—17
Ochiq tuqli	Yelimlash	—	17—18	18—20	20—21	—	—
Botinka va qo'njsiz botinka	Doppel	13—14	14—15	15—17	17—18	15	15—17
Sandal	Sandal	5	6—7	8—9	9—10	10	10

**8.4.5. TANAVORNI YIG'ISH VA KO'RINADIGAN ZIYLARIGA ISHLOV
BERISH UCHUN QO'SHIMCHALARINI HISOBЛАSHI**

Detallarni yig'ish uchun qo'shimchalar ularni tikiladigan joylariga, choklarning konstruksiyasiga, materialning turiga, bajaradigan vazifasiga, choklarni soniga qarab beriladi. Poyabzallarning ustki detallarini yig'ishda juda ko'p hollarda qo'yma chok ishlatalidi.

Qo'yma chok uchun beriladigan qo'shimchani, choklarning soni, detalning ziyidan chokgacha va baxya qatorlar orasidagi masofani, perforatsiyaning shakli hamda diametri, shilingan joygacha bo'lgan masofalar, shilingan joyning eni qo'shilib topiladi.

Quyida poyabzal sanoatida ishlataladigan choklar uchun belgilangan me'yoriy qo'shimchalar qiymati keltirilgan.

Masofalar (mm)

Qo'yma chok uchun:

Detalning chetidan birinchi baxya qatorigacha:

charm materiallari uchun $0,8 \div -1,0$

sun'iy charmilar uchun $1,5 \div 2,0$

Baxya qatorlar orasidagi:

perforatsiyasiz $1,0 \div 4,0$

diametri d bo'lgan perforatsiyali $d + 1,6$

Oxirgi baxya qatordan quyi detalning

shilingan joyigacha $0,8 \div 1,0$

Shilingan joyning eni $3,0 \div 4,0$

Biriktirma chok uchun $1,0 \div 2,0$

Ag'darma chok uchun $4,0 \div 5,0$

Barcha poyabzallarning sirtqi va ichki detallarni ko'rindigan ziylari, poyabzalning konstruksiyasiga, vazifasiga, materialiga qarab, quyidagi usullarning biri bilan ishlov berilishi kerak: qayirish (bukish), kuydirish, hoshiya tikish va hokazolar.

Bashang poyabzallarni tashqi ko‘rinishi bejirim bo‘lishi uchun ularning sirtqi detallarini ko‘rinadigan ziyi ko‘pincha bukiladi. Ba‘zan iste’molchilar bilan kelishilgan holda bashang poyabzallarni sirtqi detallarining (lak, shevro, zamsha va oq rangli charmlardan tashqari) ko‘rinadigan ziylarini kuydirish yoki hoshiya tikish va ayrim murakkab konstruksiyadagi poyabzallarda esa ochiq qirqimli bo‘lishi mumkin.

Noto‘qima tolali asosga ega bo‘lgan sun’iy charm va lakdan, sintetik charmidan bichilgan detallarning ko‘rinadigan ziylari ochiq qirqimli, bo‘yalgan yoki bo‘lmasa yuqori chastotali toklar bilan kuydirilgan ham bo‘lishi mumkin.

Sun’iy charmidan, sun’iy lakdan, sun’iy zamshadan, to‘qima materiallardan bichilgan detallarning yuqori va old konturlari qayrilgan (yopiq qirqimli), mag‘iz yoki tasma tikilgan hamda ag‘darma chok yordamida tikilgan bo‘lishi kerak.

Astarlarni ko‘rinadigan ziylari qirqilgan (ochiq qirqimli), qayrilgan, ag‘darilgan, hoshiya (tasma) tikilgan bo‘lishi va sirtqi detallarning ziyanan chiqib turmasligi lozim.

Barcha turdag‘i poyabzallarning charm astarlarini ko‘rinadigan ziyi ochiq qirqimli loyihalanishi mumkin.

Quyida ustki detallarni konturiga beriladigan qo‘sishchalarini qiymati (mm) keltirilgan.

Qayirish (bukish) uchun	3,5—4,0
Kuydirish uchun	0,5
Bo‘yash uchun	0
Ag‘darma chok uchun	4,5—5,0
Qirqilib ketish uchun	2,0

8.4.6. POYABZALNING ICHKI DETAL (ASTAR)LARINI LOYIHALASH ASOSLARI

Astar ni qurish uchun tanavorning sirtqi detallarini konturi (grunt-model) asos qilib olinadi.

Dastakning charm astarini qurishda: uchta narsaga e’tibor berish kerak:


1) charm astarlarni (tashqi va ichki dastakning) bir-biri bilan o‘zaro birlashtirishiga;

2) charm astarlarni, dastakni yuqori ziyiga birlashtirayotganda qo‘llaniladigan choklarga va dastakni ko‘rinadigan ziyiga ishlov berish usullariga;

3) charm astarning sirtqi detallari bilan birlashtirishda qo‘llaniladigan, parallel yoki ketma-ket usucli qo‘llanishiga alohida e’tibor berish kerak va ularning ta’rifi quyida keltirilgan.

Charm astarlarni bir-biri bilan birlashtirish

Charm astarlarni (tashqi va ichki dastaklarning) bir-biri bilan birlashtirishni uch usuli bor.



8.12-rasm. Poyabzalning ichki detallarini loyihalash.

Birinchi usul. Ikkala (ichki va tashqi) charm astarining uzunligi bir xil bo'lib (8.12-a rasm), orqa qismida tikiladigan chok bo'lmaydi, ular bir-birini ustiga chiqib turadi va rasmida ko'rsatilganidek quriladi, ya'ni astarni dastakning yuqori ziyi konturiga nisbatan chapga 7 mm qo'shib, tovon qismini tortish baxyasi konturidan 3 mm qisqartirilib chiziladi.

Ikkinci usul. Ikkala (ichki va tashqi) charm astarning uzunligi bir xil bo'lib, orqa tovon chizig'i bo'ylab, biriktirma chok orqali tikiladi (8.12-b rasm). Astar sirtqi detalni konturiga nisbatan orqa tovon chizig'ineng eng bo'rtib chiqqan joyida va quyi qismida, bikir dastak hamda oraliq astar qalinligini hisobga olish uchun 7 mm ga qisqartiriladi.


Uchinchi usul. Charm astar ikkita, uzunligi har xil bo'lgan, detallardan tashkil topgan bo'lib, o'zaro qo'yma chok orqali tikiladi, chok orqa bukilish chizig'idan 55 mm masofada joylashadi (8.12-d rasm). V_b V_p chizig'i astarni (uzun tomonini) bukish chizig'i deyiladi. Ayrim hollarda charm astar uch bo'lakdan iborat bo'lishi mumkin (8.12-e rasm). Ikkita yon qismi, ichki va tomonda bo'ladi.

Astar bilan dastakni yuqori ziy bo'yicha birlashtirish

Astar bilan dastakni yuqori ziy bo'yicha birlashtirish, ziy choklarini qo'llanilishiga qarab, bir necha usullari bor. Ziy choklari poyabzal detal chetlarini titilib ketishidan saqlaydi va ko'rindigan ziylarini bezashda ishlataladi. Ziy choklar buklama chok, mag'iz chok va ag'darma choklardan iborat.

Yuqorida ko'rsatilgan choklarning qaysi birini ishlatalishiga qarab quyidagi usullari qo'llaniladi:

1. Astar ham, dastak ham ochiq qirqimli. Buning uchun ikkala detalni teskarri tomoni bilan bir-biriga qo'yib, detailarni ziyanidan 0,8—1 mm masofada baxya qator yuritiladi (8.13-a rasm).



8.13-rasm.

2. Sirtqi detal yopiq qirqimli (bukilgan), astar esa ochiq qirqimli. Ikkala detal teskari tomoni bilan qo'yib ziy chok bilan tikiladi (8.13-b rasm).


3. Sirtqi detal ham, astar ham bukilib (qaytarilib) ziy choki bilan tikiladi (8.13-d rasm).

4. Sirtqi detalgaga mag'iz parchasi qo'yib astar bilan birga mag'iz choc yordamida tikiladi yoki bo'lmasa maxsus tasma yordamida, tasma chetini bukmay turib, tasma milkidan 1–1,5 mm oraliqda baxyqa qator yuritilib tikiladi (8.13-e rasm).

5. Sirtqi detal va astarni mag'iz parchasi yoki maxsus tasma bilan qoplab mag'iz choc yordamida tikiladi (8.13-f rasm).

6. Ag'darma choc yordamida sirtqi detallar va astar tikiladi. Buning uchun asosiy detallarning o'ngini ichkariga qaratib qo'yib, biriktirma choc yuritiladi, keyin chocni yorib dazmollab yoki dazmollamay, detalni o'ngiga ag'darib baxyqa qator yuritiladi (8.13-g rasm). Baxyqa qatormi yuritish sirtqi detalni qalinligiga bog'liq, agar u qalin bo'lsa biriktirma chocdan pastda, yuqqa bo'lsa yuqorida joylashgan bo'ladi (8.13-h, i rasm).

Charm astarni sirtqi detallar bilan biriktirishda quyidagi usullar qo'llaniladi.



8.14-rasm.

Parallel usulda sirtqi (qo'yma dastakli qo'njsiz botinka, botinka va hokazo) detallarni o'zaro tikayotganda ustki detal (betlik + dastak) lar va astar (charm + to'qima) lar bir yo'la tikib yuboriladi (8.14-a rasm).

Ketma-ket usulda esa charm astar, to'qima astari bilan; dastak, betlik bilan alohida-alohida tikib olinadi. (8.14-b rasm).

Yuqorida keltirilgan usullarga asoslanib, barcha turdag'i poyabzallarning astarlarini loyihalash mumkin.

8.4.7. ORALIQ DETALLARNI LOYIHALASH

Oraliq detallarning shakli, o'lchamlari sirtqi detallarning shakli, o'lchamlariga bog'liq. Shuning uchun sirtqi detallarning konturini alohida-alohida chizib olib, unga nisbatan kichikroq loyihalanadi. Oraliq detallarni qurayotganda quyidagi talablarga qat'iy rioya qilish kerak:

1. Tayyor poyabzallarda oraliq detallarni qirralari bilinmasligi kerak.
2. Oraliq detallar tikilayotganda ular chokga va tortish baxyasiga tushishi shart. Agar tushmasa, u o'z mazmunini yo'qotadi.

Oraliq (astarlarni) detallarning quyi konturini, tortish baxyasiga parallel yoki to'g'ri chiziq holda chizish mumkin.

Nazorat savollar

1. Poyabzal tanavorini modellashtirish tarixi haqida aytib bering.
2. Poyabzal tanavorini modellashtirishda nusxalash, grafik-nusxalash usuli qanday amalga oshiriladi?
3. Bikir qobiq usuli bo'yicha loyihalash bosqichlarini keltiring.
4. Bikir qobiq usulida poyabzal tanavorining deformatsiyasi qanday aniqlanadi?
5. Materiallar sistemasining cho'zilishini hisobga oluvchi koefitsient A , qanday hisoblanadi?
6. Tanavorini qiyofasi va konstruksiyasini hisobga oluvchi koefitsient E qanday aniqlanadi?
7. Grafik-nusxalash usulida tanavorni modellashtirish bosqichlarini keltiring va izohlang.
8. Qolip yon sirtlarining shartli nusxasini olish usullarini keltiring va izohlang.
9. Qolip yon sirtlarining shartli nusxasini koordinata o'qlariga qanday joylashtiriladi?
10. Bazis, ya'ni asosiy chiziqlar nimani ifodalaydi va qanday aniqlanadi?
11. Dastak va gulchinning balandliklari qaysi tenglama bilan aniqlanadi?
12. Tanavorini yig'ish va ko'rindigan ziylariga ishlov berish uchun qo'shimchalarni hisoblang.
13. Poyabzal ichki detal (astar) larini modellashtirish usullarini keltiring.
14. Astarni sirtqi detallar bilan biriktirish usullarini keltiring.

9-bo'b. QO'NJSIZ BOTINKALARING USTKI DETALLARINI LOYIHALASH

Qo'njsiz botinkalarining ustki detallari yaxlit yoki qirqilgan detallardan tashkil topishi mumkin.

Ko'p hollarda yuqori va old ziyi bukilgan, qolgan ko'rindigan ziylari bo'yalgan bo'ladi. Dastaklarning orqa qismi biriktirma chok bilan tikilgan yoki tutashtirma chok bilan tikib, orqa tashqi tasma bilan mustahkamlangan bo'ladi.

Qo'njsiz botinkalarining tanavori yuqorida keltirilgan (parallel yoki ketma-ket) usullardan birini qo'llab yig'iladi.


Qo'njsiz botinkalarining vazifasi, konstruksiyasi, ustki detallarining materialiga qarab, ularni yig'ish va ko'rindigan ziylariga ishlov berish usullari tanlanadi.

Quyida qo'yma dastakli, qo'yma betlikli, rezinkali, «Loafer» turidagi qo'njsiz botinkalarining sirtqi, ichki, oraliq detallarini loyihalash usullari keltirilgan.

9.1. QO'YMA DASTAKLI QO'NJSIZ BOTINKALARINI LOYIHALASH

9.1.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Poyabzalning ustki detallarini qurish, yuqorida aytilganidek QO'Nni koordinata o'qlariga joylab, hamma bazis va yordamchi nazorat chiziqlarini (8.11-rasm) o'tkazgandan keyin poyabzal orqa qismini qurishdan boshlanadi (9.1-rasm). Poyabzalning orqa qismini qurish uchun



9.1-rasm. Quyida qo'yma dastakli qo'njsiz botinkani sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

B_k' , B_b' , B_d' nuqtalarni belgilab olish kerak. V_k' — nuqtasigan chapga 2—2,5 mm (B_k'' nuqtasi) va B_b — nuqtasidan 2—1,5 mm (B_b'), B_b nuqtadan B_d chizig'ini $B_b Bb' = 0,33 Bb E$ qiymatida qisqartirib, V_b' nuqtasi qo'yiladi. B_d' , B_b' , B_k'' , B_d' nuqtalari lekala yordamida tutashtiriladi va tortish baxyasining eni qo'shiladi. Dastakning yuqori ziyi (kanti) D' va E nuqtadan EE' chiziqlari orqali o'tadi.

Burchak $BdE'E$ ixtiyoriy radius yordamida tekis tutashtiriladi. Shunda $E'E''$ 10—20 mm masofaga teng bo'lishi kerak. E — nuqtasida QO'Nning konturiga nisbatan 1—2 mm pastroqda, unga parallel holda, U nuqtasigacha to'g'ri chiziq o'tkaziladi.

E ' EU burchak ixtiyoriy radius orqali tekis tutashtiriladi. EU masofa ixtiyoriy bo'lib, istalgan qiyamatga ega bo'lishi mumkin. Bu asosan modelga va poyabzalni eskizda yaratilgan ko'rinishiga bog'liq. Dastakning old konturiga ham xuddi yuqorida aytiganidek, eskizda chizilgandek o'tkazilishi va Λ , Λ' nuqtasi orqali o'tishi shart. Λ' nuqtasi L' nuqtasidan 10—12 mm pastroqda joylashgan. Λ nuqtasini topish uchun betlikning bukish chizig'ini o'tkazib olish kerak. Buning uchun oldin mustahkamlit chokining o'rni belgilab olinadi, yana KC yordamchi chizig'ida

$$C_b' = 0,35 \text{ KC}; C_b = 0,5 \text{ KC}$$

tenglamalari yordamida b va b' nuqtalari topiladi, bb' masofasining istalgan joyida (ko'pincha o'rtasida) Λ nuqtasi yotadi, u dastak chokining mustahkamlit o'rmini bildiradi. Qolip nusxasidagi tumshuq qismining eng bo'rtib chiqqan nuqtasidan H_6 3—4 mm pastida b nuqtasi belgilanadi, keyin chizmada to'g'ri burchakli uchburchakli chizg'ich shunday joylashtiriladiki, bitta kateti Λ nuqtasida, ikkinchi kateti esa b nuqtasidan to'g'ri burchakni cho'qqisi esa QO'N da (b_1) yotishi kerak. Shu holda b , b_1 nuqtalari tutashtiriladi va b nuqtasidan o'ngga, b_1 nuqtasidan chapga davom ettiriladi. Bu hosil bo'lgan to'g'ri chiziq betlikning bukish chizig'i deyiladi. L nuqtasidan bukish chizig'iga parallel holda $LL'=12—15$ mm chiziq chiziladi. Sun'iy va sintetik materiallardan qilingan tanavorlar uchun bukish chizig'i H_b' va b_1 nuqtalari orqali o'tadi. Betlikning bukish chizig'ini o'tkazgandan keyin dastakning konturini qurish davom ettiriladi. Λ' nuqtasidan $B_3 J$ nazorat chizig'iga parallel qilib to'g'ri chiziq chiziladi. Bu to'g'ri chiziqlini III bazis chizig'i bilan kesishgan nuqtasidan chapga 3—5 mm davom etti-rib M nuqtasi topiladi. QO'N konturining II va III bazis chiziqlari orasidagi masofasini teng ikkiga bo'lib, M' nuqtasi belgilanadi. M va M' nuqtalari to'g'ri chiziq orqali tutashtiriladi. J' M M' burchagini bissektrisasi topilib radius orqali tutashtiriladi. Dastakning old konturini chizishda, asosan detallarni bichayotganda ularni o'zaro yaxshi joylanishi, chiqindining kamayishi va umuman poyabzalning ko'rinishi go'zal bo'lishiga e'tibor berish kerak.

Buning uchun dastakning yuqori ziyini qolipning o'rtacha nusxasi bilan kesishgan joyini U deb, undan chapga bukish chizig'i bo'yicha 8—10 mm qo'yiladi va U nuqtasi topiladi.

Betlikning tumshuq qismini $C' H_2 H_1$ bo'lagini kalkaga chizib olib, H_2 nuqtasini U nuqtasiga qo'yib, betlikning bukish chizig'ida esa, kalkanining $C' H_2$ bukish chizig'i yotgan holda $H_2 H_1$ konturini ingichka chiziq ($U' H_3$) bilan chizib olinadi. Dastakning $J'' MM'$ konturiga tikish uchun (8–10 mm) qo'shi mcha berilib, betlikning qanoti J nuqtasigacha chiziladi. Tilchanli chizish uchun betlikning bukish chizig'i dastakning yuqori ziysi bilan kesishgan nuqtasidan J chapga 5–6 mm (J' nuqta) qo'yib, J' nuqtasidan bukish chizig'iga tik tushiriladi va tilcha enining yarim qiymati qo'yiladi (S nuqta).

Tilchaning eni ko'p hollarda 48 mm ga teng bo'ladi, tilcha asosan oyoq panjas i shikastlanmasligi uchun blochkaning ostini berkitib turishi shart.


J nuqtasida 1,5–2,5 mm radiusli doira chiziladi. Nazorat chizig'i KS esa J nuqtada shu doiraga urinma bo'lishi kerak. S nuqtasidan shu doiraga urinma qilib to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Burchak $J'' S J$ yoy yordamida tekis tutashtiriladi. JS to'g'ri chizig'ida J nuqtani belgilab olib J, U chizig'iga parallel qilib 6 mm masofada tilchaning old konturi chiziladi. Qolipning o'rtacha nusxasini tovon axmi va tashqi tutam qismi konturlariga nisbatan tortish baxyasining eni qiymati qo'yilib a, g, d, e, j, z, i nuqtalari lekala yordamida tekis tutashtiriladi. Tortish baxyasining eni poyabzalning biriktirish usuliga va detallarning materialiga qarab 12-jadvaldan olinadi.

9.1.2. ICHKI DETALLARINI LOYIHALASH

Poyabzalning ichki detallarini qurish uchun sirtqi detallarning konturi asos qilib olinadi, ya'ni oq qog'ozga yordamchi chiziqlar orqali sirtqi detallarning konturi (grunt-model) chizib olinadi (9.2-rasm).

Charm astarning yuqori va old konturlari AJ_1 , qismi dastakning yuqori va old konturiga nisbatan 2 mm yuqorida, unga parallel holda chiziladi. Charm astarning va dastakning bunday joylashinishi, ishchiga tikayotganda qulaylik tug'diradi. Ishchi tikib bo'lgandan keyin, yoki bo'limasa tikish bilan bir vaqtida astarning ortiqchasi qirqib tashlanadi. $B_d^1 A$ bo'lagida 12–14 mm uzunlikda esa astarning konturi, dastakning konturidan 1 mm pastda yotadi. Tanavorini tikayotganda ishchi astarni dastakning yuqori ziyyidan 2 mm yuqori qo'yib tikadi, shunday qilganda astarning tovon qismi g'ijimlanib qolmaydi. Astarning J_1 nuqtasidan past konturi esa detallarni parallel (8.14-rasm) yoki ketma-ket usulda yig'ishga bog'liq. Birinchi parallel usulda yig'iladigan (9.2-b rasm) poyabzalda astarning konturini J_1 nuqtagacha chizgandan keyin, J_1 nuqtadan pastga 6 mm davom ettiriladi (J_2 , nuqta). J_2 nuqtasidan mustahkamligich JJ_1 chokiga teng va parallel qilib to'g'ri chiziq o'tkaziladi (J_3 , nuqta). J_3 nuqtasidan J_2 , J_1 chizig'iga tik J_3 , J chizig'i o'tkaziladi. J_3 nuqtasidan chapga 1–1,5 mm masofani qo'yib J_5 nuqta topiladi.

J_5 nuqtasidan o'tkazilgan vertikal chiziqni dastakning konturidan 4–6 mm pastga davom ettirib J_4 nuqta topiladi (J_5 , J_4 chizig'i). Astarni bichayotganda J_5 , J chizig'i bo'yicha qirqib qo'yiladi. Bu qirqim orqa uzelni, old uzelga tikayotganda tanavorini yig'ishni osonlashtiradi.



9.2-rasm. Quyida qo'yma dastakli qo'njsiz botinkani ichki detallarini loyihalash tasviri.

Birinchi parallel usulda yig'iladigan (9.2-b rasm) poyabzalda astarning konturini Π_1 nuqtagacha chizgandan keyin, ketma-ket usulda yig'ishga bog'liq, dastakning konturiga 4—6 mm qo'shimcha berib, unga parallel qilib chiziladi. Charm astarni tortish baxyasi esa dastakning tortish baxyasidan 5—7 mm qisqartirilib $B_p B'_p$ chizig'i chiziladi (yelirmash usulida), mixlash usuli uchun bu masofa 2—3 mm ga teng. Charm astarning orqa konturini qurishda esa yuqorida ko'rsatilgan (8.12-rasm) uch xil usuldan biri qo'llaniladi. Charm astarni qurishda birinchi (parallel) usuldan biri qo'llanilganda, betlik uchun to'qima astarni qanotlari $B_s B'_s \Pi$, betlikning qanotlarini konturiga mos keladi. Π nuqtadan Π_3 nuqtasigacha esa 9.2-rasmida ko'rsatilgandek chiziladi.

To'qimachilik astarinibukish chizig'i betlikning bukish chizig'i bilan bir xil bo'ladi. Tortish baxyasi esa betlikning tortish baxyasidan 5—7 mm qisqa bo'ladi. Ketma-ket usulda charm astarni yuqori ziyi (9.2-a rasm) bo'yicha Π_1 nuqtagacha chizib, undan 6—7 mm davom ettililadi (Π_2 nuqtasi). Π_2 nuqtadan $\Pi_2 \Pi_3 = 4—5$ mm chiziq o'tkaziladi. $\Pi_2 \Pi_3$ chizig'i $\Pi \Pi_2$ ni davomida yotadi. Charm astarni tortish baxyasida ($B_p B'_p$) uzunligi

75—100 mm ga teng bo'lishi kerak, ya'ni qattiq dastakning qanotlarini berkitishi shart.


Charm astarni J_3 , B_1 qismi ixtiyoriy quriladi, unda detallarni o'zaro joylashishi hisobga olinadi. Charm astarni bichayotganda $\text{J}\text{J}_2\text{J}_3$ chizig'i bo'yicha qirqib qo'yiladi.

Tilchaning charm astari, tilchani $\text{J}'\text{S}\text{J}$ konturiga nisbatan 2 mm katta bo'ladi (J_1S_1 , JJ_4). J_3J_2 chizig'i esa betlikning bukish chizig'iga tik bo'lishi kerak.

Charm astarning ($\text{B}'\text{J}_4\text{J}_3\text{J}_2$) (dastakni, tilchani) konturiga nisbatan choc kengligida parallel holda, betlikning to'qima astarini $\text{B}_1\text{B}_2\text{B}'\text{B}_3$ konturi chiziladi. Betlik to'qima astarining bukish chizig'i L_3H_p , betlikning bukish chizig'iga mos tushadi. Astarning tortish baxyasini konturi esa sirtqi detalning tortish baxyasidan 5—7 mm qisqa bo'ladi.

9.1.3. ORALIQ DETALLARNI LOYIHALASH

Oraliq detallarni loyihalash uchun sirtqi detallar alohida-alohida chizib olinadi. Qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarda dastak, betlik va blochka ostilarning — oraliq astarları bo'ladi. Oraliq detallarning shakli, sirtqi detallarning shakliga va o'lchamiga bog'liq. Oraliq detallar umumiy uslubdagi talablarga muvofiq, 9.3-rasmda ko'rsatilgandek loyihalanadi.




9.3-rasm. Quyida qo'yma dastakli qo'njsiz botinkani oraliq detallarini loyihalash tasviri.

9.2. QO'YMA BETLIKLI QO'NJSIZ BOTINKALARINI LOYIHALASH

Qo'yma betlikli qo'njsiz botinkalar betlik, dastak, tilcha, ichki astarning tovon qismi, blochka osti, to'qima astari, betlik va dastak oraliq astarları kabi detallardan iborat.

Qolipning o'rtacha nusxasini, koordinata o'qlariga joylashtirish, bazis va yordamchi chiziqlarni o'tkazish, poyabzal tovon qismining B_1b_2 , yuqori ziyni D' , E , tortish baxyasining B_1H_2 konturlarini loyihalash xuddi qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarni loyihalash uslubiga o'xshash bajariladi.



9.4-rasm. Qo'yma betlikli qo'njsiz botinkani sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

9.2.1. BETLIKNI LOYIHALASH


Betlikning bukish chizig'i o'tkaziladi. Buning uchun qolipning o'rtacha nusxasi QO'N bilan IV bazis chizig'i kesishgan C nuqtasidan (9.4-rasm) 3–4 mm chapga qo'yib C_1 nuqtasi topiladi. Keyin qolipning o'rtacha nusxasini tumshuq qismidan eng bo'rtib chiqqan C_1H_b nuqtasi topiladi. Bukish chizig'i CH_b yoki C_1H_b nuqtalari orqali o'tadi. Betlikning o'ymasini chizish uchun C_1 nuqtasidan C_1H_b chizig'iga tik o'tkazib, nazorat chizig'i (KK_1) bilan kesishguncha (A nuqtasi) davom ettiriladi va IG va GT chizig'i o'tkaziladi. Burchak S_1AR_1 ni bissektrissasi bo'ylab 21 mm qo'yiladi va hosil bo'lgan nuqtadan $r = 16$ mm radius bilan tekis tutashtiriladi.

Keyin AP_1T burchagining bissektrissasi bo'ylab 59 mm qo'yiladi va radiusi $R = 48$ mm bo'lgan yoy bilan tutashtiriladi.

Betlik qanotining uzunligi, o'ymasi, konstruksiyasi jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Ular eskizga muvofiq, detallarning o'zaro joylashishini hisobga olgan holda loyihalanadi. Bitta betlikning qanoti, ikkinchi betlikning o'ymasiga kirib turadigan bo'lsa, materialning sarf foizi oshadi, ya'ni chiqindilar kamayadi.

9.2.2. DASTAKNI LOYIHALASH

Yuqorida aytildanidek, dastak D' dan E nuqtasigacha, xuddi qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarning dastagidek quriladi. E nuqtasini to'g'ri joylashtirishga katta e'tibor berish kerak. Bu nuqta II va III bazis chiziqlarining o'rtasida, yoki QO'N konturida chap tomoniga eng ko'pi bilan II va III bazis chiziqlari orasidagi masofani 1/3 qismigacha ko'tarish



9.5-rasm. Qo'yma betlikli qo'njsiz botinkani ichki detallarini loyihalash tasviri.

mumkin. Past chegarasi esa III bazis chizig'igacha bo'lishi mumkin. *E* va *C*, nuqtalari to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi va burchak *EC*, *Y* bissektrissasi 14 mm bo'lgan radiusi 11 mm li yoy bilan tutashtiriladi.

Dastakning old konturiga *Cj* betlik o'ymasini markaziga tikishi uchun beriladigan qo'shimcha 2–3 mm ga, qolgan qismiga nisbatan ko'proq bo'ladi. Bu masofa betlikni tikmasdan turib dastakning ichki va tashqi tomonini ham o'zaro tikish uchun beriladi. Qolgan konturi esa betlikning konturiga nisbatan parallel holda 6–8 mm kenglikda chiziladi.

Betlik dastakga tikilish paytida ular oraliq iga mustahkamlagich qo'yib tikilishi kerak. Orqa tashqi tasma 9.4-*b* rasm, tilcha 9.4-*d* rasmlarda ko'rsatilganday qurildi.

9.2.3. ASTARLARNI LOYIHALASH

Astarni loyihalash 9.5-rasmida keltirilgan *a* yoki *b* ko'rinishda bo'lishi mumkin. Blochka ostining eni, hamma jinsdagi guruhlar uchun 18 mm dan kichik bo'lmasligi kerak, faqat bolalar va yosh bolalarning qo'njsiz botinkalarida 15 mm ga teng.

Betlikning to'qima astari ikki bo'lakdan iborat bo'lib, *C* nuqtasida 6 mm qo'shimcha beriladi va bukish chizig'i bo'yicha qo'yma chok bilan tikiladi. Qolgan detallarini qurish, ya'ni oraliq astarlar qo'yma dastakli moyabzalda keltirilgan uslubga asosan quriladi.

9.3. REZINKASI YON TOMONIDA JOYLASHGAN QO'NJSIZ BOTINKALARNING USTKI DETALLARINI LOYIHALASH

Poyabzal yon tomonda joylashgan rezinka yordamida oyoq panjasiga yopishib turadi. Poyabzalni kiyish va yechish paytida hamda oyoq panjasini bukilganida (odam yurganda) rezinka cho'ziladi.

Tayyor moyabzalda rezinka o'z vazifasini bajarishi uchun qolipga tanavorni tortayotganda u cho'zilmasligi kerak. Shuning uchun tanavor-

ni yig'ayotganda, rezinkaning yuqori ziyiga 10—12 mm tasma qo'yib, dastak bilan qo'shib tikiladi yoki dastak va tilcha ostiga charm astar yaxlit qilinadi, keyinchalik tayyor poyabzalda u qirqib tashlanadi.

Rezinkali qo'njsiz botinkalarni (9.6-a rasm) kiyish, tanavorni qolipga tortish va qolipdan yechish paytlarida qulay bo'lishi uchun rezinkaning joyini va uning o'lchamlarini to'g'ri aniqlash, bu turdag'i poyabzallarni loyihalashni o'ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi.

9.3.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH


Yon tomonda rezinka joylashgan qo'njsiz botinka modelini loyihalash uchun qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarni loyihalash uslubi asos qilib olinadi. Qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarni loyihalashdan faqat betlikning yuqori qismi — tilchani va rezinkani qurish bilan farq qiladi (9.6-b rasm).

Qolipning o'rtacha nusxasini koordinata o'qlariga joylab, bazis va yordamchi chiziqlari o'tkazilgandan keyin, nazorat chizig'i $K\mathcal{T}$ o'tkaziladi. Nazorat chizig'i $K\mathcal{T}$ yassi turdag'i tanavorlarda (Loafer turidagi, maxsus moslamalarsiz va boshqa tuflilar), betlikning chuqurlashish nuqtasini I , yuqori chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Tayyor poyabzalni kiyish qulay bo'lishi uchun G nuqta, nazorat chizig'i $K\mathcal{T}$ ni bb' kesmasi orasida loyihalanishi kerak.

$$Kb^1 = 0,35 \ K\mathcal{T}; \ Kb = 0,5 \ K\mathcal{T}.$$

I va b'' nuqtalarini aniqlab olgandan keyin to'g'ri burchakli uchburchak yordamida betlikni bukish chizig'inинг holati va C nuqta aniqlanadi. B nuqtadan pastga 2—3 mm (BB'_q 2—3 mm) qo'yib B_1 nuqta topiladi. B va C nuqtalar tutashtirilib, yordamchi chiziq o'tkaziladi, bu chiziq tayyor



9.6-rasm. Rezinkasi yon tomonida joylashgan qo'njsiz botinkani sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

poyabzalda, betlikni ko'tarilgan holatini bildiradi. B_1 nuqtadan yordamchi B, C chiziqga tik tushirib, unda 30 mm masofani qo'yib, B, D betlik tilchasining enini yarmi topiladi, D, Γ va E nuqtalari tutashtirilsa, tilchali betlikning konturini $B'D\Gamma$ birinchi holati (9.6-d rasm) hosil bo'ladi.

Betlikning qanoti, ularning o'zaro yaxshi joylashishini va qolipga yaxshi tortilishini hisobga olgan holda, eskizga muvofiq loyihalanadi.

Dastakning konturini loyihalash uchun, B^l nuqtadan B, a^l chizig'iiga nisbatan 120—130° burchakda yordamchi chiziq o'tkaziladi. Shu yordamchi chiziqqa parallel qilib D nuqtadan $D^l D$ chizig'i, rezinkaning yuqori ziyini holatini belgilovchi chiziq chiziladi. Rezinkaning uzunligi, oyoq panjasini kaft-barmoq bo'g'imida bukilgandagi o'lchamlarining o'zgarishini hisobga olgan holda, hisoblab topiladi. Oyoq panjasining shartli bukilish o'qi IV bazis chizig'ida yotadi va P nuqta bilan belgilanadi ($PK = 1/3 KK$).

Poyabzalni kiyish paytida tovonning eng bo'rtib chiqqan nuqtasi H_b , dastakning H_p nuqtasiga tegib turadi (9.6-a rasm). Bu vaqtda oyoq panjasni shartli bukish o'qida P bukilgan va betlik tilchasining o'lchamlari, rezinkaning uzayishi hisobiga $B^l B^{l1}$ kattalashgan bo'ladi. $B^l B^{l1}$ va $B^l PH_b$ burchaklarini o'lchaganda, ular o'zaro teng va 10° dan bo'ladi. $B^l PB^{l1} = \alpha$ deb belgilanadi. Burchak α poyabzalni oyoqqa kiyish va yechish paytida betlikning tilchasini dastakka nisbatan cho'zilish qiymatini bildiradi. Shu paytida $B_1 B_2$, burchak orasidagi eng kalta masofa bo'ladi (B^l nuqtadan burchakning ikkinchi tomoniga tik tushirib V^l nuqta topiladi).

Rezinkaning cho'zilishi 50—70% ni tashkil etishini bilgan holda, uning o'rtaligi 60% deb qabul qilinadi. Agar rezinkaning maksimal cho'zilishini ($B^l B^{l1}$) 60% ga teng desak, unda rezinkaning uzunligi quyidagi ifodadan topiladi:

$$L_{rez} = B^l B^{l1} 100 / 60.$$

D nuqtadan $D^l D$ chizig'ida $L_{rez} = AD$ masofani qo'yib, A nuqta topiladi. Rezinkaning yuqori chizig'i, AD chizig'idan 1—2 mm pastda loyihalanadi. Rezinka quyi qismining uzunligi $\Gamma\Gamma$, poyabzalning tashqi ko'rinishi va eskizga muvofiq aniqlanadi. Dastakning yuqori ziyi A nuqtagacha B, a^l chizig'i bo'yicha loyihalanadi.

Sirtqi detallarning asosiy konturlarini chizib tortish baxyasining eni va tikish uchun qo'shimchalar berilgandan keyin, yaxlit betlik quriladi.

Betlikning yuqori konturining (tilchasini) $CB^l D\Gamma$ «Xitoy» qog'oz (kalka)ga chizib olib, qirqilgan andazani Γ nuqtada ushlab turib, betlikni bukish chizig'i bo'yicha shunday buriladiki, B^l nuqta d holatni, D nuqta esa d' holatni egallasin (9.6-d rasm). Tilchani burgandan keyin yaxlit betlikning uzunligi CC' qiymat qancha katta bo'lsa, betlik qolip shaklini olishi shuncha qiyin bo'ladi.


Murakkab figurali tilchalarni bukish uchun «Xitoy» qog'oz (kalka)-dan qilingan andazani ikki tomondan, tayanch qismi 2—3 mm qilib qirqiladi (9.6-e, f rasm). Qirqilgan andaza C va Γ nuqtalarida ushlab

turiladi. Betlikning chuqurlashish nuqtasini T tanlanayotganda quyidagilar hisobga olinishi kerak: yaxlit betlik tilchasining eni ST chizig'i qancha kichik bo'lsa, qolipning shaklini shuncha yaxshi va oson oladi; yaxlit betlikning konturi G nuqtasida o'tkir burchakli bo'lmasligi kerak, aks holda tanavorni qolipa tortayotganda yirtilib ketadi.

Rezinkali qo'njsiz botinkalarining barcha detallari, betlikning birinchi holatiga nisbatan loyihalanadi. Betlikni bichish esa tilchani burgandan keyingi hosil bo'lgan konturi bo'yicha bajariladi.

9.3.2. ICHKI DETALLARNI LOYIHALASH

Astarlarni loyihalash uchun betlikni tilchasi dastlabki holatda bo'lgan, sirtqi detallarning konturi asos qilib olinadi. Astarlarni loyihalash (9.7-a rasm) tilchaning charm astarini bukish chizig'i $B'T$ ni chizishdan boshlanadi. T nuqta $B'C$ chizig'ini davomida yotishi va betlikning bukish chizig'idan T nuqtagacha bo'lgan masofa 3 mm dan katta bo'lmasligi kerak. Charm astarining old konturini to'qima astariga tikilishining qulayligini va charm materiallarini kamroq sarf qilishni mo'ljallagan holda loyihalanadi. Charm astar betlik bilan rezinkani tikish chokiga 3–4 mm kirib turishi kerak. Tikish uchun qo'shimcha uu_1 chizig'i bo'yicha 5–6 mm ni tashkil qiladi. To'qima astarining bukish chizig'i TT' ni, detallarning qalinligini, astarlarning deformatsiyasini hisobga olgan holda loyihalash kerak. Shuning uchun u, betlikning bukish chizig'idan $H'T'= 5–6$ mm pastda loyihalanadi.



9.7-rasm. Rezinkasi yon tomonida joylashgan qo'njsiz botinkani ichki detallarini loyihalash tasviri.

To'qima astarining tortish baxyasi sirtqi detallarning konturiga nisbatan 2–3 mm qo'shimcha bilan, yoki bo'lmasa to'qima astari, tortish baxyasi bo'yicha betlikka tikilsa, 6–8 mm ga qisqa qilib loyihalanadi.

Dastakning charm astarining tovon qismi, umumiy uslubda keltirilgan usullardan birini qo'llab (8.12-rasm) loyihalanadi.

9.4. «LOAFER» TURIDAGI QO'NJSIZ BOTINKALARNI LOYIHALASH

«Loafer» so'zi fransuzcha bo'lib, ishbilarmon, tadbirdor (odam) ma'nosini bildiradi. Ishbilarmon, tadbirdor odamlarga mo'ljallangan poyabzal kiyish uchun ko'p vaqtini olmasligi kerak. Shuning uchun betlikning

tilini ko'rinaradigan qismi ostida yashirin rezinka joylashgan bo'ladi. Yurganda rezinka cho'zilishi, lekin betlik ostidan ko'rinnasligi kerak.


Betlik dastakka butun perimetri bilan emas, $E\Gamma$ chizig'i bo'yicha mustahkamlik choki $\Gamma\Gamma_2$ ga tikiladi (9.8-rasm). Natijada betlikning o'rtaligining qismi dastakka nisbatan ko'proq cho'zilish xususiyatiga ega bo'ladi. Xuddi yon tomonida joylashgan rezinkali qo'njsiz botinkalar singari, «Loafer» konstruksiya-sidagi poyabzallarni, dastakning yuqori ziyini cho'zilishi hisobiga oyoqqa kiyish va yechish mumkin. Bunday konstruksiya-dagi poyabzallarning astarini ochiq yoki sirtqi detal bilan tikiladigan qilib loyihalash mumkin, bu esa uning o'lchamlariga va sirtqi detallarning qiyofasiga ta'sir qiladi.

Tikilgan astarli qo'njsiz botinkalarni yig'ishga, ochiq astarlikka nisbatan mehnat kam sarf bo'ladi, ammo istalgan konstruksiya-dagi sirtqi detallarni loyihalash bo'lmaydi. Sirtqi detallari: yaxlit betlikdan, dastaklardan, rezinkadan va enli orqa tashqi tasmadan iborat bo'lgan, betlik bilan dastakning yuqori ziyi bukilgan, orqa tasma va betlikning qanonlarining ko'rinaradigan ziyi bo'lgan, ochiq astarli tanavorni yig'ish quyidagicha bo'ladi. Bunda dastakning sirtqi detallarini o'zaro tikib (orqa tashqi tasma+dastaklar) dastakning uzeli, astarlar (dastakni charm astarları+betlikni to'qima astari) ni o'zaro tikib astarning boylamni hosil qilinadi. So'ngra bu ikki boylamni (dastak + astarlar) o'zaro yuqori ziyi bo'yicha tikib olgandan keyin, betlikning boylamini (betlikka tilchaning charm astari tikilgan holda), dastakning boylamiga qo'yib, ochiq astarni qayirib turib, qo'yma chok yordamida va $\Gamma\Gamma_2$ chizig'i bo'yicha mustahkamlik choki tikiladi. Oxirgi navbatda tilchaning charm astari, dastakning $\Delta\Delta_3$ chizig'i bo'ylab qo'shimcha chok yordamida tikiladi. Bu chok betlik bilan astar orasidagi bo'shliqni yo'qotish uchun qilinadi.

9.4.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

«Loafer» turidagi poyabzallarning sirtqi detallarini loyihalashda qo'yma dastakli va yon tomonida joylashgan rezinkali qo'njsiz botinkalarni qurish uslubidan foydalaniлади. Koordinata o'qlarini, bazis va yordamchi chiziqlarni o'tkazib, chizmada figurali betlikning yuqori qismining shakli BE qolipning o'rtacha nusxasida aniqlanadi (9.8-a, b rasm). B , B_2 , Γ va E nuqtalar orqali tayyor poyabzalda oyoq panjasiga yaxshi yopishib turishi uchun betlikning birinchi holati loyihalanadi.

B' nuqtadan qolip o'rtacha nusxasining IV va V bazis chiziqlari orasida konturidan 4 mm yuqorida yotgan A' nuqtasi ($AA'=4$ mm) orqali $B'H'$ chizig'i o'tkaziladi, (9.8-a, b rasm) $AA'=4$ mm dan katta bo'lmashligi kerak. Keyin QO'N ning tumshuq qismini K nuqtasiga nisbatan $B'H'$ chizig'i urinma bo'lguncha (soat mili bo'yicha) buriladi. Betlikning tortish baxyasining kengligi, o'rta nusxaning ikkinchi (burilgan) holatiga nisbatan loyihalanadi. Betlikning bukish chizig'ini bunday holati, uning tortish baxyasining perimetri qisqartirilib, tanavorning yuqori qismida ortiqcha material hosil qiladi va uni qolipga o'rashish xususiyatini pasaytiradi.



9.8-rasm. «Loafer» turidagi qo'njsiz botinkani sirtqi detallarini loyiha lash tasviri.

Shu kamchilikni yo'qotish uchun betlikning qanotiga tuzatish kiritish, ya'ni uni yuzasiga $E_2'E'$ qo'shimcha berilishi kerak, $E_2'E = 5-12$ mm ga teng bo'ladi. Dastak uchun tikish qo'shimcha $\Gamma'E_1$ chizig'i bo'yicha loyihalanadi, betlik esa ΓE_2 konturi bo'yicha bichiladi.

Betlikni dastakka tikayotganda, ularning tortish baxyasi bir tekis tutash chiziq bo'yicha yotmaydi. Betlikni, yon tomonida joylashgan rezinkali qo'njsiz botinkalarning betligini qurishga o'xshatib, (9.8-b rasm) ya'ni to'g'ri burchakli uchburchak yordamida betlikni yuqori qismini, bukish chizig'iga nisbatan (soat miliga nisbatan teskari) burib loyihalash murkin. Bunday loyihalaganda AA' masofa kattalashib, betlikning ko'ndalang o'lchamlariga FF' chizig'i bo'yicha tuzatish kiritish (9.8-d rasm), yoki bo'limasa tortish baxyasining tutam kaft qismining kengligini o'zgartirish kerak.

Dastakning yuqori ziysi va rezinkaning uzunligini hisoblash xuddi oldingi modellarga o'xshash, faqat detalning qalinligini hisobga olish uchun e nuqtadan 2-3 mm masofada, e' nuqta yotadi ($ee' = 2-3$ mm). Dastakning old konturi ($E'\Gamma_1K$) 9.8-a, b rasmida ko'rsatilgandek loyihalariadi. Dastakni oyoq panjasining gumbaziga yopib turadigan qismi, qo'yma chok yordamida tikiladi va uning bir tomoniga 6 mm qo'shimcha d^d' beriladi (9.8-d rasm). Mustahkamlik choki $\Gamma\Gamma_1$ bo'yicha, dastakni betlikka tikish uchun 14-15


mm qo'shimcha bilan loyihalanadi. Keng tashqi orqa tasmani loyihalana-yotganda yuqori qismida $B_p^1 B_p^{11}$ va past qismida $B_k^1 B_k^{11}$ 9.8-*b* rasmida ko'rsatilgandek tuzatishlar kiritiladi. Poyabzalning orqa qismini keng orqa tashqi tasmasiz ham loyihalash mumkin. Astar bilan sirtqi detalni *ET* gacha bir yo'la tikadigan konstruksiyadagi poyabzallarning dastagini old konturi 9.8-*d* rasmida ko'rsatilgandek loyihalanadi.

9.4.2. ICHKI DETALLARINI LOYIHALASH

«Loafer» turidagi qo'njsiz botinkalarning ichki detallarini loyihalashda, sirtqi detallarni chizmasi asos qilib olinadi. Astarlarni loyihalash, ularni sirtqi detallar bilan biriktirishni parallel (9.9-*d* rasm) yoki ketma-ket (9.9-*a* rasm) usulda yig'ishga bog'liq.

Charm astarlar umumiy uslubga asosan loyihalanadi.

Birinchi variantda (9.9-*a* rasm), ya'ni ketma-ket usulda loyihalashda, charm astarni tovon qismida, o'rta chizig'iga nisbatan 2–3 mm qo'shimcha berib, qo'yma choc, dastakni old qismida yelimli choc *d'* *T* yoki qo'yma choc (9.9-*b* rasm) yordamida biriktiriladi. Charm astarning old qismini o'zaro biriktirganda qalin bo'lib ketmasligi uchun, tashqi dastakni konturidan, to'qima astarini qo'shimchasini (8 mm) hisobga olgan holda, kengroq qilib *d''* *T* masofada loyihalanadi. Charm astarlarni old qismida o'zaro biriktiradigan chocni, tashqi dastak tomoniga o'tkazish kerak (9.9-



9.9-rasm.

b rasm). Betlikning to'qima astarini bukish chizig'i $T\ T^1$, betlikning bukish chizig'ini, tumshuq qismidan 5—6 mm ($H^1T = 5 + 6$), T nuqta esa 3 mm pastda loyihalanadi. Shunday qilganda tayyor poyabzalning astari g'ijimlanib qolmaydi. Betlikning to'qima astari, uning konturiga tumshuq-tutam qismida 3 mm, axmi qismida (K nuqtada) charm astarga nisbatan 2 mm qo'shimcha bilan loyihalanadi (9.9-*a* rasm). Tilchaning charm astarini, dastakni charm astariga $2 \frac{1}{2}$ mm va mustahkamlik chokining I nuqtasida $3 \frac{1}{2}$ mm (9.9-*a* rasm) qo'shimcha berib loyihałash kerak, chunki tilchaning charm astari qo'yma chok yordamida, d^1I_3 chizig'i bo'yicha tikiladi.

Ikkinci variantda, ya'ni parallel usulda, sirtqi detallarni o'zaro tikayotganda (betlik + dastak), astarlar (charm astar + to'qima astari) bilan bir yo'la tikib yuboriladi (9.9-*d* rasm). Betlikning to'qima astariga, tilchaning charm astarini tikib (yoki yelimlab), betlikka yelim yordamida biriktiriladi. Betlikning to'qima astarini, yuqori qismi, tilchaning charm astariga nisbatan 15—20 mm qo'shimcha bilan, tortish baxyasi bo'yicha esa 5—7 mm qisqa qilib loyihalanadi.

Tilchaning charm astari xuddi oldingi variantdagidek loyihalanadi, faqat uu^1 perimetri u nuqtada 1—2 mm qisqartiriladi, bu esa tilchada g'ijim paydo bo'lishining oldini oladi. Astarlarni loyihałashning boshqa variantlari ham bo'lishi mumkin (9.9-*e* rasm).

Nazorat savollari

1. Qo'njsiz botinkalar ustki detallarining konstruksion tavsifini izohlang.
2. Qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalar sirtqi detallarining loyihasini tasvirlang.
3. Qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalar ichki detallarining loyihasini tasvirlang.
4. Qo'njsiz botinkalar oraliq detallarining loyihasini tasvirlang.
5. Rezinkasi yon tomonda joylashgan qo'njsiz botinkalarni sirtqi, ichki, oraliq detallarining loyihasini tasvirlang.
6. «Loafer» turidagi qo'njsiz botinkalarni sirtqi, ichki, oraliq detallarining loyihasini tasvirlang.

10-bob.


«QAYIQSIMON» TUFLILARNI LOYIHALASH

«Qayiqsimon» tuflilarda dastakning yuqori ziyi bilan betlikning o'ymasi bir chiziqda yotgan bo'lib, yuqori ziy va bikir dastakning qanotlarini cho'zilishi hisobiga oyoq panjasida turadi. Betlikning o'ymasini shakli va yuqori ziyi modaning yo'naliishiga, poshnaning balandligiga, poyabzalning vazifasiga, texnologik jarayoniga, ustki detallarning materialiga va ko'rinaldigan ziyiga ishlov berish usuliga qarab o'zgaradi.

Yuqorida aytilganlarga asosan, «qayiqsimon» tuflilarning betliklarini o'ymasi uch xil; oval (a), aylana (b), kare (d) shaklida bo'ladi. (10.1-rasm)

Betlikning o'ymasini shakli va yuqori ziyi shunday loyihalanishi kerakki, poyabzalni kiyganda oyoq panjasida qulaylik yaratilishi, yurganda oyoq panjasiga zikh yopishib turishi, oyoq panjasining sirt qismini shikastlantirmasligi va barmoqlar ochilib qolmasligi kerak.

Betlikning o'ymasi chuqur (oyoq panjasini sirti ko'proq ochiq) va yuza bo'lishi mumkin. Betlikning o'ymasi bilan poshnaning balandligi orasida o'zaro bog'lanish bor. Shu qonuniyatni hisobga olib, oyoq panjasining tutam qismining egilish va yozilish miqdori poyabzal poshnasining balandligi bilan ifodalanadi. Masalan, past poshnalik poyabzallarda oyoq panjasini egilish miqdori yuqori bo'lsa, baland poshnalik poyabzalda esa minimumgacha kamayadi. Baland poshnali «qayiqsimon» tuflilarni chuqur yoki yuza o'yimali betlik, to'g'ri yoki figurali yuqori ziyli qilinganda ham, oyoq parjasiga bir xil yopishib turishi kerak.




*10.1-rasm. «Qayiqsimon» tuflari betliklarining shakli va poshna balandligiga nisbatan qanotlarini holati:
a — past va o'rtal; b — baland; c — o'ta baland poshnalar uchun.*

Baland va o'rta baland poshnali poyabzallarning yuqori ziyi, axmi qismida assimetrik, ichki tomonini tashqi tomoniga nisbatan oyoq panjasining ichki tomonidagi tabiiy gumbaz ostini berkitish uchun; past poshnali tuflilarda esa betlikni o'ymasini o'rtacha chuqrilikda, tashqi va ichki dastakning yuqori ziyini simmetrik qilib loyihalash mumkin. Shunday loyihalanganda tuqli oyoq panjasiga yopishib, tanavorni qolipga tortganda, materiallarning bir xil cho'zilishiga erishiladi.

10.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

«Qayiqsimon» tuflilarni loyihalashda QO'N (qolipning o'rtacha nuxsasi)ni koordinata o'qlariga joylash, bazis va yordamchi chiziqlarni chizish, tortish baxyasining kengligini qo'yish, detallarni o'zarobiriktirish uchun beriladigan qo'shimchalar va ko'rindigan ziyiga ishlov berish umumiylashtirish uslubga asosan bajariladi.

«Qayiqsimon» tuflilarni dastagining orqa konturini (10.2-a rasm) chizish uchun QO'Nni orqa konturidan o'ng tomonga $B_b B'_b = 3,5-5 \text{ mm}$



10.2-rasm. «Qayiqsimon» tuflilarning sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

va B'_b , B'_k nuqtalardan chapga $B'_b = 1-1,5$ mm, $B'_k B''_k = 2$ mm masofalar qo'yiladi. Topilgan B'_d , B'_b , B''_k nuqtalari tekis tutashtiriladi.

«Qayiqsimon» tuflilarni loyihalashda betlikning bukish chizig'ini o'tkazish katta ahamiyatga ega. Bukish chizig'ini o'tkazish uchun dastakning qanotlarini yozilish masofasini yarmini aniqlash kerak. Bu masofa poyabzalning poshnasini balandligiga h_n bog'liq va quyidagicha aniqlanadi:

$$B'_b B''_b = 0,5 (60 - h_n) \text{ mm}$$

V_b konturi QO'N ning tovon konturi bo'yicha $B'_b B''_b$ masofa qo'yiladi. Shundan so'ng betlikning markazi C nuqtasi topiladi. C nuqta $C_1 C_2$ kesmaning ixtiyor joyida bo'lishi mumkin. C_1 nuqta C nuqtadan 10 mm chapda, S_2 esa 18 mm o'ngda, qolipning o'rtacha nusxasini konturi bo'yicha joylanadi. Betlikni o'ymasi poshnaning balandligi va moda yo'nali shiga bog'liq. Poshna qancha baland bo'lsa, shuncha betlikning o'ymasi ochiqroq bo'lib, O_1 nuqtasi C_2 nuqtasiga yaqinroq joylashadi. Agar poshnaning balandligi $h_n = 20-25$ mm bo'lsa, C_1 nuqtasi C_1 nuqtiga yaqinroq yoki C_1 nuqtada yotadi. B''_b va C_1 nuqtalarini to'g'ri chiziq bilan tutashtirib, betlikni bukish chizig'i o'tkaziladi va H_c nuqtasidan tortish baxyasini kengligida davom ettiriladi.

Betlikni yuqori, tashqi va ichki ziyini to'g'ri chizish uchun nazorat K_1 , K_2 , Π_1 va Π_2 nuqtalari topiladi. Buning uchun $KK_1 = 0,4$ KK^1 , $KK_2 = 0,55$ KK^1 , $PP_1 = 0,45$ $\Pi\Pi_c$, $\Pi\Pi_2 = 0,6$ $\Pi\Pi_c$ kesmalar qo'yiladi.

$$\begin{aligned} \Pi\Pi_1 &= 0,45 \Pi\Pi_c \\ \Pi\Pi_2 &= 0,6 \Pi\Pi_c \end{aligned}$$

K_1 va Π_1 nuqtalari betlikni tashqi tomonini yuqori ziyini (chetini) past chegarasi, K_2 va Π_2 nuqtalar esa, betlikni ichki tomonini yuqori chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Agar betlikning o'ymasi yuza bo'lsa, betlikning tashqi va ichki tomonlarining yuqori ziylari simmetrik qilib, teskarisi bo'lsa yuqori ziylari assimetrik qilib quriladi.

«Qayiqsimon» tuflilarni bichayotganda material kam chiqitga chiqish uchun betlikning ichki tomoni(qanoti)ni qirqib qo'yish tavsija qilinadi (10.2-*b* rasm), chunki yaxlit bo'lganda ko'p material sarf bo'ladi. Bunday qilganda tanavor ikki sirtqi detaldan tashkil topadi: betlik va dastakdan. Ayrim hollarda betlikni tashqi va ichki tomonidan qirqib qo'yiladi (10.2-*d* rasm).

Dastakni qirqish chizig'ini joylashishi asosan, betlikning o'ymasini shakliga bog'liq bo'lib, 2 xil yo'l bilan aniqlanadi.

Loyihalangan sirtqi detalni konturini (bukish va tortish baxyasi kengligi bilan) qalin qog'ozga chizib, andoza qirqib olinadi va betlikning chizig'i HC_1 (10.2-*b* rasm) o'tkaziladi. Oq qog'ozga to'g'ri chiziq chizib olinadi, andazani bukish chizig'i HC_1 ni to'g'ri chiziqa qo'yib, andazaning konturi chizib olinadi. Andazani 180° burib, qog'ozga chizganda shunday joylashtirish kerakki, uning qanoti qog'ozga chizilgan betlikning o'ymasiga kirib turishi va ularning orasida, iloji boricha kam chiqit hosil bo'lishi kerak.

Bukish chiziqlari HC^1 va H^1C^1 o'zaro parallel holatda andazani konturi chizib olinadi (2-holat). Betlikning ichki tomonidagi qirqish chizig'i, 2 holatdagi andazalarning yuqori ziylarini kesishgan joyi a va b nuqtalar orqali o'tadi. B nuqtani yuqori ziylarining kesishgan nuqtasi v dan (1-holat) 7—6 mm masofada joylashadi. Shunday qilib, 2 ta detal, abv $HDEC^1a'$ betlik nuqtalar orasida, dastak abb^1D_bEa nuqtalar orasida hosil bo'ladi.

Agar dastakni tashqi va ichki tomonidan hosil qilish kerak bo'lsa, 2-usul qo'llaniladi (10.2-*d* rasm). Sirtqi detalning andazasiga betlikni bukish chizig'i HC_1 va $\Pi_c\Pi_c^1$ ni panja-kaft qismining tashqi va ichki nuqtalarini tutashtiruvchi to'g'ri chiziq o'tkaziladi. Oq qog'ozga andazaning konturi (2) qalin tutash chiziq bilan chiziladi va andazadan betlikni bukish NS^2 va P^1_s chiziqlari o'tkaziladi. Andazaning tumshuq qismini oq qog'ozdagи betlikning o'ymasiga (2) shunday joylashtirish kerakki, HC^1 va H^1C^1 o'zaro parallel va 2 holatdagi andazalarning kesishgan nuqtalari a va a' , $\Pi_c\Pi_c^1$ chizig'iga iloji boricha yaqinroq joylashishi kerak.

Betlikni qirqish chizig'i a va a' nuqtalaridan tovon tomoniga $ab = a'b^1 = 6—7$ mm surilgan bo'lishi kerak, chunki betlik bilan dastakni tikadigan choc oyoq panjasining ko'p yechiladigan qismiga tushmasligi kerak.


Poyabzal eskiziga asosan, b va b^1 nuqtalaridan $b\varepsilon$ va $b^1\varepsilon^1$ chiziqlari o'tkaziladi (10.1-*b* rasm). Detallarni o'zaro yaxshi joylashishi uchun betlikning tumshuq qismida (3) va qanotining burchagini ε va ε^1 nuqtalari rasmda ko'rsatilgandek, qirqib qo'yish kerak. Bu nuqtalar, asosan, tortilish baxyasida bo'lgani uchun poyabzal sifatiga ta'sir qilmaydi.

Detallarni qirqilgan joyida tikishga qo'shimcha berilishi kerak. Asosiy detallarni chizmasidan foydalanib, qo'shimcha sirtqi detallarni tasvirlash mumkin.

10.2. ICHKI DETAL (CHARM VA TO'QIMA ASTAR)LARINI LOYIHALASH

Ichki detallarni loyihalashda poyabzalni sirtqi detallarini konturi asos qilib olinadi. «Qayiqsimon» tuflilarni ichki detali, ya'ni astari ikkita detaldan tashkil topgan (10.3-*a* rasm): tovon-axmi qismida, charm astar 1, o'zining old konturi bilan betlikni yuqori ziyini ostida ham joylashgan va to'qima astari 4 betlikning ostida bo'ladi. Astarsiz poyabzallarni ichki detallariga (10.3-*b* rasm), qattiq dastakka cho'ntak 2, tovon-axmi qismini va yuqori ziyini mustahkamlash uchun jiyak 3 loyihalanadi.

Astarni loyihalashda kerak bo'ladigan qiymatlar 10.3-rasmda keltirilgan. Charm astarni tovon-axmi qismini va yuqori ziyini loyihalash xuddi qo'njsiz botinkalarni charm astarini loyihalashga o'xshash.



10.3-rasm. «Qayiqsimon» tufilarning ichki detallarini loyihalash tasviri.

Charm astarni old qismini eni 18 mm ga teng bo'ladi va a_1, a_2 chizig'i bo'yicha biriktirma yoki qo'yma chok yordamida tikiladi. To'qima astarni loyihalash, qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarning to'qima astarlarini loyihalashga o'xshash.

Nazorat savollari

1. «Qayiqsimon» tuflilar ustki detallarining konstruksion tavsifini izohlang.
 2. «Qayiqsimon» tuflilar sirtqi detallarining loyihasini tasvirlang.
 3. «Qayiqsimon» tuflilar sirtqi detallarining loyihasini tasvirlang.

11-bob.

BOTINKANING USTKI DETALLARINI LOYIHALASH

Botinkalar ustki detallari yaxlit yoki qirqilgan detallardan tashkil topgan bo‘ladi. Botinka tanavori yuqorida (8.14-rasm) keltirilgan (parallel yoki ketma-ket) usullardan foydalanib yig‘iladi.

Ko‘p hollarda dastakning yuqori va old ziyi bukilgan yoki yuqori qismi ag‘darma chok bilan old ziyi bukilgan, boshqa ko‘rinadigan ziylari bukilgan yoki bo‘yalgan bo‘lishi mumkin. Dastakning orqa qismi biriktirma yoki tutashtirma chok bilan biriktiriladi. Shuni ta‘kidlab o‘tish kerakki, tutashtirma chok ishlatalganda, bu chok orqa tashqi tasma bilan mustahkamlangan bo‘lishi shart.

Botinkalar vazifasi, konstruksiyasi, ustki detallarini materialiga qarab, ularni yig‘ish va ko‘rinadigan ziylariga ishlov berish usulla ri tanlanadi.

Quyida qo‘yma betlikli, qo‘yma dastakli va rezinkali botinkalarni sirtqi, ichki va oraliq detallarini loyihalash keltirilgan.

11.1. QO‘YMA BETLIKLI BOTINKALARING USTKI DETALLARINI LOYIHALASH

Qo‘yma betlikli botinkalar eng xarakterli ustki detallari bor konstruksiyadagi poyabzallar turiga kiradi. Bu turdagiligi poyabzallarning ustki detalini loyihalash uslubidan, boshqa turdagiligi va qiyofadagi poyabzallarning ustki detallarni qurishda foydalaniлади. Detallar o‘zaro yaxshi joylanishi, bichayotganda chiqiti kam bo‘lishi hamda tanavorni yig‘ayotganda texnologik jarayon oson o‘tishi kerak.

Detallar qolipga tortilganda yaxshi tortilishi va ularga berilgan shaklini tayyor poyabzalda saqlab turishi hamda detallarning o‘lchami hamda shakli oyoq panjasining anatomik tuzilishiga mos kelishi kerak. Sirtqi detallarni loyihalayotganda oyoq panjasining ishi va fiziologiyasi ichki detallarning qalinligi hamda ularning deformatsiyasi hisobga olinishi shart.

Loyihalanayotgan model qo‘yma betlik qirqma detallardan tashkil topgan yelimlash usulidagi botinka bo‘lib, uning bir justi, asosan, 16 ta sirtqi, 12 ta ichki va 12 ta oraliq detallardan tashkil topgan.

Sirtqi detallar tumshuq 1, qirqma betlik 2, dastak 3, tilcha 4, gulchin 5, orqa tashqi tasma 6, mustahkamlagich 7 lardan iborat (11.1-a rasm).

Ichki detallar asosan (11.2-rasm) asosiy to‘qima astar (1), blochka osti (2), jiyak (3), ichki orqa tasma (4) lardan iborat.

Oraliq detallar esa (11.3-rasm) tumshuq va betlikni 2, dastak 3 va gulchini 6 oraliq astarlari, blochka osti 4, oraliq ilmoq osti 5, yondor 8, qattiq dastak 7 va tumshuq osti 9 lardan tashkil topgan.

Sirtqi detallar, ichki detallar bilan ko'rinaligan ziyi bo'yicha buklama, mag'iz va ag'darma choklar yordamida tikilishi mumkin. Hamma sirtqi detallar ikki qator chok bilan, tumshuq esa qirqma betlikka uch qator chokda tikiladi. Baxyaqatorlar orasida 1–2 mm li perforatsiya bo'lishi mumkin. Betlikni dastakka tikayotganda mustahkamlagich 7 qo'yib (11.1-a rasm) biriktiriladi.

Dastak va gulchinlarni orqa konturlari tutashtirma chok bilan tikilib, orqa tashqi tasma bilan mustahkamlanadi. Poyabzal oyoq panjasiga bog'ichlar orqali besh just blochka va to'rt just ilmoqlar yordamida mahkamlanadi.


11.1.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Sirtqi detallarini loyihalashda QO'N dan foydalilanildi. QO'N ni koordinata o'qlariga joylash, bazis va yordamchi chiziqlarni o'tkazish umumiylashtiriladi. Botinkalar qurishda eng xarakterli nuqtalardan biri, bu tashqi to'piqning o'rnini aniqlash, buning uchun I bazis chizig'ini QO'N bilan kesishgan V nuqtasidan I bazis chizig'i bo'yicha $VM = 0,21 L_{\text{o.p.}}$ masofani qo'yib, MB_k^1 nuqtalarini to'q'ri chiziq bilan tutashtirilib B nuqtasigacha davom ettiriladi, $B_k^1 B$ chizig'ini ikkiga bo'lib B^1 nuqtasi topiladi. B^1 nuqtasidan OX o'qiga tik tushirib, dastakning balandligi $B_b^1 B_b^1 = 0,3 \text{ Nm} + 45 \text{ qo'yiladi}$, dastak enini chizish $B_b^1 - B_b^1$ chizig'iga $83-86^\circ$ burchak ostida o'tkaziladi, chunki tanavorni qolipa tortganda dastakning old qismi pastga siljib tayyor poyabzaldaqidek, tayanch tekisligiga parallel bo'lib qoladi (11.1-b rasm).

Dastakning eni $III'IV' = 0,4N_m + 2W + 11$ tenglamasi yordamida topiladi. Tovon tomoniga $V_b^1 Sh = 0,54 III'IV'$, old tomoniga $B_b^1 III' = 0,46 III'IV'$ masofalarni qo'yib, III va IV nuqtalari aniqlanadi. Shundan keyin dastakning tovon chizig'i $B_k^1 B_k^1 B_z^1$ aniqlanadi, buning uchun $R_k^1 B_k^1 = 2 - 2,5 - 3 \text{ mm}$ va $B_z^1 B_z^1 = 2 \text{ mm}$ ga teng qiymat qo'yib chiqiladi.

Dastakning orqa konturini yuqori qismini qurishda (11.1-c rasm) yordamchi III'B² chiziqnini o'tkazib, uning o'rtasi (Z nuqta) dan tik chizig'i chiziladi. So'ng 3–4 mm qo'yib Z nuqta topiladi va u Vz nuqtasi bilan tutashtirilib, 3'B², yordamchi chizig'i o'tkaziladi. Uni ikkiga bo'lib I nuqta, I nuqtasidan o'ngga 1,5 mm qo'yib I nuqta topiladi.

Dastakning orqa konturi III'3' II' B¹ H¹ B¹ nuqtalari orqali oyoqning anatomik tuzilishini hisobga olgan holda o'tkaziladi. Dastakning old konturini chizish uchun III' nuqtasida III' chizig'iga tik o'tkaziladi va qolipni I nuqtasidan QO'N ga urinma z¹ chizig'i o'tkazilib, S nuqtasigacha davom ettiriladi. III' z¹ z burchak bissektrisasiiga 52 mm qo'yilib, radiusi 46 mm bo'lgan yoy bilan III' va z¹ chiziqlari tekis tutashtiriladi (11.1-b, e rasm).



11.1-rasm. Qo'yma betlikli botinkalarning ichki detallarni loyihalash tasviri.

Betlikni qurish uchun C nuqtani va betlikni bukish chizig'ini aniqlab olish kerak. Poyabzalni kiyish davomidagi qulayligi, qolipdan chiqayotganda o'z shaklini yo'qotmasligi, C nuqtasini joylashishiga bog'liq, u IV bazis chizig'i bilan qolipning o'rta nusxasini yuqori konturi kesishgan K nuqtada joylashadi, lekin tanavorni qolipga tortganda cho'zi lishini hisobga olib, K nuqtadan 4 mm chapga qo'yib C topiladi (11.1-d ras m). Betlikning bukish chizig'i C va b nuqtalari orqali o'tadi va $bb' = 0 \div 2$ mm ga teng

(11.1-*d*, *e* rasm). Betlikni konturi tanlab olingen eskizga, asosan, detallarni bichganda qanotlari bir-biriga kirib turadigan, o'zaro yaxshi joylashadi-gan qilib loyihalanishi kerak (11.1-*j* rasm). *C* nuqtadan bukish chizig'iga tik chiziq tushiriladi (11.1-*d* rasm) va nazorat chizig'i B_3 a bilan kesishguncha davom ettiriladi (Φ''), Φ'' nuqtasidan nazorat chizig'i bo'yicha yoki bo'lmasa ozgina yuqoridan, yoki pastrog'idan Φ'' Φ'' chizig'i o'tkaziladi. Betlikning konturini qolgan qismi yuqorida aytiganidek eskizga asosan quriladi. Burchaklar C Φ'' Φ' , 14—16 mm va burchak Φ' E' E esa, 10—11 mm radiusli yoy yordamida tekis tutashtiriladi.

Tumshuq va gulchinni loyihalash. Tumshuq yaxlit betlikni uch qismi bo'lib, *V* bazis chizig'igacha bo'lgan qismini tashkil qiladi. Tanavorni qolipga tortayotganda tumshuq katta deformatsiyaga uchraydi. Shuning uchun uning yuqori konturini to'g'ri chiziq bo'yicha emas, balki radiusi $R = 240 \div 300$ mm bo'lgan yoy orqali chiziladi (11.1-*g* rasm). Tayyor moyabzalda u deformatsiya hisobiga to'g'ri chiziqqa aylanadi. Materialning qalinligi qancha kam bo'lsa, u shuncha cho'ziluvchan, radiusi ($R = 240$ mm) kichik bo'ladi. Qalin bo'lsa, radiusi katta ($R = 300$ mm) bo'ladi.

Gulchin dastakning bir qismi bo'lib, yordamchi nazorat chizig'i B_3 a bo'ylab va orqa B_3 nuqtasidan yuqoriga 2 mm qo'yib B_k^{11} nazorat chizig'i bilan tutashtirib chiziladi (11.1-*h* rasm).

Sirtqi detallarni tashqi va ichki konturlarini chizib bo'lgandan keyin, ularga tikish, ko'rindigan ziylariga ishlov berish hamda tortish baxyasi uchun qo'shimchalar beriladi.

Tilchani loyihalash. Tilcha oyoq panjasini blochkalar ta'siridan saqlaydi. Tilchaning eni blochkalarning markazi bilan dastakning old konturi orasidagi masofa va blochkalarning diametriga bog'liq, tilchaning eni yuqori qismida 44—50 mm, past qismida 22—25 mm bo'ladi (11.1-*k* rasm). Uzunligi dastakning yuqori ziyidan chiqmasligi yoki ayrim konstruksiyalarda 3—4 chiqib turishi mumkin.

Orqa tashqi tasmani loyihalash. Orqa tashqi tasma tutashtirma chok bilan biriktirilganda dastakni mustahkamligini oshirish uchun ishlataladi. U eng yuqori qismida 10 mm, pastki qismida 20 mm ga teng, uzunligi esa dastakning orqa konturining uzunligiga bukish uchun qo'shimcha berib topiladi (11.1-*f* rasm).

Charm mustahkamlagich (11.1-*a* rasm) (7) qo'yma betlikli botinka-ning tanavorini yig'ayotganda ishlataladi. U doira, oval yoki to'rtburchak shaklida, eni yoki diametri 15—20 mm bo'ladi.

11.1.2. ASTARNI LOYIHALASH


Astarni loyihalash uchun sirtqi (11.1-*d* rasm) detallarning konturi asos qilib olinadi.

Astarlarni loyihalash blochka ostidan boshlanadi (11.2-*a* rasm), chunki uning 2 o'chamlari boshqa detalning o'chamlariga bog'liq emas. Blochka ostining old konturi dastakning konturiga 2 mm qo'shimcha qo'shib

chiziladi, eni $18 \div 20$ mm bo'lishi mumkin. 2 mm qo'shimcha dastakni tikib olgandan keyin qirqib tashlanadi, ayrim maxsus tikish mashinalari bir vaqtning o'zida ham tikadi, ham ortiqchasini qirqib tashlaydi.

Jiyak 3 eni $16 \div 17$ mm li charm tasmadan iborat bo'lib, to'qima materialdan tayyorlangan astarlarning cheti titilib ketmasligi va yuqori ziyni mustahkamligini oshirish uchun qo'yildi. Jiyakning yuqori konturi, blochka ostining konturi bilan bir xil bo'ladi. Bukish chizig'i dastakning orqa konturi (III nuqta) dan 2 mm kalta bo'ladi. Qo'yma betlikli botinkalarning to'qima astarining, boshqa konstruksiyalardagi astarlardan farqi ular bukish chizig'i $T T'$ bo'yicha bir-biri bilan qo'yma chok orqali tikiladi. Tanavorni to'g'ri yig'ish uchun to'qima astarining o'rta $T T'$ chizig'ini aniq loyihalash kerak. T nuqtasi C nuqtasidan Cb chizig'i bo'yicha $3 \div 4$ mm, pastda yotadi (11.2-d, e rasm). Astarning perimetri tumshuq qismida detallarning qalinligini, cho'zilishini hisobga olgan holda $H' T' = 3 \div 4$ mm ga qisqaradi.

Astarning tumshuq va panja-kaft qismida tortish baxyasi betlikning konturiga nisbatan 2 mm qo'shimcha bilan ($T T'' = 2 \div 3$ mm) axmi qismida betlikning konturi bilan bir xil, tovon qismida orqa ichki tasmaning konturiga nisbatan 2 mm qo'shimcha bilan chiziladi (11.2-d rasm). To'qima astari orqa ichki tasma, blochka osti va jiyaklar bilan qo'yma chok yordamida tikiladi. Shuning uchun ularning konturiga nisbatan 8 mm qo'shimcha berib to'qima astarini loyihalash tugallanadi. Orqa ichki tasmaning bukish chizig'i va dastakning (11.2-a rasm) orqa konturi orasidagi masofa $H_b' H_b'' = 10 \div 11$ mm va $3' 3''$ nuqtalariga $2 \div 3$ mm (11.2-f, f' rasm) ga teng masofa qo'yildi. Detallarning qalinligi katta bo'lsa, $3' 3'' = 4 \div 5$ mm bo'ladi. Agar orqa ichki tasmaning bukish chizig'i jiyakning bukish chizig'iga to'g'ri kelmasa, unda to'qima astarga tuzatish kiritiladi. Orqa ichki tasmaning eni yoyilganda yuqori qismi kamida 20 mm, tag qismi 40 mm bo'lishi kerak. Orqa ichki tasmaning konturi sirtqi detalning konturidan $3 \div 4$ mm kalta bo'ladi.



11.2-rasm. Qo'yma betlikli botinkalarning sirtqi detallarni loyihalash tasviri.

11.1.3. ORALIQ DETALLARNI LOYIHALASH


Qo'yma betlikli botinka tanavorini oraliq detallari 11.3-rasmda keltirilgan.

Oraliq astarlarining qirralari tayyor poyabzalda bilinmasligi kerak. Oraliq astarlar, detallarni biriktiruvchi choklar orasida hamda tortish baxyasiga tushishi shart, tushmasa detallar qolipga tortilayotganda yirtilib yoki cho'zilib ketishi mumkin. Oraliq astarlarini loyihalashda sirtqi detallarning konturidan foydalaniladi. Rasmida keltirilgan qiymatlarga asosan barcha oraliq detallar quriladi. Ustki detallarning qalinligi betlik va dastakda 0,8mm dan qalin bo'lsa, yaxlit charm astar va tabiiy mo'ynali astar ishlataliganda, Davlat standart talabiga binoan oraliq astar qo'yilmaydi. Sirtqi detallar shabronдан, xrom tuzlar bilan oshlangan echki terisidan, shevretdan, upuqadan bichilganda, ularning qalinligidan qat'i nazar, oraliq astarlar ishlatalishi shart.

Oraliq blochka osti sirtqi detallarni qalinlashtirmaslik uchun bukilgan ziylariga tushmasligi kerak. Bu detal dastakning old konturidan 3—4 mm, yuqori konturidan 7—9 mm kichik qilib quriladi. Betlikni tikiladigan konturiga nisbatan esa chokning mustahkamligini oshirish uchun 6—8 mm qo'shimcha beriladi. Oraliq blochka ostining eni blochkaning diametriga va dastakning ziyidan, blochkaning markazigacha bo'lgan masofaga bog'liq. Blochkalarning markazi, dastakning yuqori va old ziyidan $10 \div 12$ mm, betlikning tikiladigan chizig'igacha $8 \div 10$ mm, blochkalarning o'zaro markazlari orasidagi masofa botinkalarda $10 \div 12$ mm (etiklarda $18 \div 20$ mm), oraliq blochka ostining yuqori konturi oval shaklida, past konturi esa to'g'ri burchak shaklida bo'ladi.

Yondor 8 poyabzalning panja-kaft qismini shakl saqlash qobiliyatini oshirish uchun qo'llaniladi.

Yondorlar, asosan, to'qima materiallardan, bumazey-kord, diagonal, tik-sarjadan tayyorlanadi. Ularning eni $25 \div 30$ mm ga teng, tortish baxyasidan $6 \div 7$ mm kichik qilib loyihalanadi. Uzunligi bikir dastaklarning



11.3-rasm. Qo'yma betlikli botinkalarning oraliq detallarni loyihalash tasviri.

qanotini $15+20$ mm berkitishi va tumshuq qismida V bazis chizig'igacha bo'lishi shart.

Sirtqi detallari qalın va oraliq astari bumazey-kord, mo'yna va yaxlit charm astarli poyabzallarda yondorlar ishlatalmasa ham bo'ladi.

11.2. QO'YMA DASTAKLI BOTINKALARINI LOYIHALASH

11.2.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Qo'yma dastakli botinkalarini loyihalash qo'yma betlikli botinkalarining qurish uslubiga o'xshash, qolipni o'rtacha nusxasini koordinata o'qlariga joylab bazis va yordamchi chiziqlar o'tkaziladi (11.4-rasm).

Qo'yma dastakli botinkalar, sirtqi detallarining tashqi konturlarini ko'rinaridigan ziylariga ishlov berish, ichki detallarining soni va o'zarobiriktiresh qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalar kabi, orqa uzel bilan old uzel bir vaqtida parallel usulda tikiladi, ya'ni bir vaqtning o'zida to'rt qatlam materiallar majmuyi tikiladi.

Xuddi oldingi modelni yig'gandek qo'yma dastakli botinkalarni yig'ish ham shartli ravishda uch bosqichga bo'linadi:

- a) dastak boylamini yig'ish;
- b) betlik boylamini yig'ish;
- c) orqa boylamni old boylamiga o'zarobiriktiresh.


Qo'yma dastakli botinkaning sirtqi detallarini loyihalash, qo'yma betlikli botinkaning sirtqi detallarini loyihalashdan quyidagicha farq qiladi.

Dastakning orqa konturining chizganda beriladigan qo'shimcha, qo'yma betlikli botinkaga nisbatan ko'proq, ya'ni:

$$H_b H_b' = 3-4 \text{ mm}, B_3 B_3' = 3-5 \text{ mm}, B_k B_k'' = 3,5 \text{ mm}$$

Dastakning eni B_b' nuqtadan teng ikkiga bo'lib qo'yiladi, ya'ni:

$$B_b III = B_b III'.$$



11.4-rasm. Qo'yma dastakli botinkalarning sirtqi detallarni loyihalash tasviri.

Issiq astarli poyabzallar uchun mustahkamlik choki «b» nuqtasiga yaqinroq joyga o'rnatiladi.

Dastakning old konturi xuddi qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarning old konturiga o'xshab quriladi (11.4-rasm).

11.2.2. ASTARINI LOYIHALASH

Qo'yma dastakli botinkalarning ichki detallarini qurish ham (11.5-rasm) xuddi qo'yma betlikli botinkalarini ichki detallarini qurishga o'xshash, faqat blochka osti va to'qima astaridagi qiytiq bilan farq qiladi. Bu qiytiqlar betlik boylamini dastakning sirtqi detali bilan astar orasiga kiygizish uchun kerak bo'ladi.

Qiytiq, qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarning charm astaridagidek, bir nechta ko'rinishida bo'ladi (11.5-a, b rasm).


Betlikning to'qima astari, tilcha tikeladigan konturiga nisbatan 3—4 mm qo'shimcha bilan, betlikni qanotlariga nisbatan esa 2 mm qisqartirilib yoki ayrim hollarda 2—3 mm qo'shimcha bilan loyihalanadi. Betlikning astari tortish baxyasi bo'yicha, qalin va g'ijimlanib qolmasligi uchun betlikning konturidan 5—6 mm qisqa qilib loyihalanadi. Bunday loyihalanganda, tanavorni qolipa tortish jarayonlarini aniq bajarish uchun, betlikni tortish baxyasi bilan astarning tortish baxyasini, tumshuq va tutam qismi tikilishi kerak.

Agar astar bilan betlikning tortish baxyalarini tutam qismida bir xil qilib, tumshuq qismida 2—3 mm qo'shimcha berilib loyihalanansa, ularni tikish shart emas.

11.3. ERKAKLAR REZINKALI BOTINKALARINI LOYIHALASH

11.3.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Rezinkali botinkalarning sirtqi detallarini loyihalashda, qo'yma betlikli botinkalarning sirtqi detallarini loyihalash uslubiga asosan bajariladi. Ammo rezinkali botinkaning yon tomonida bo'lishi ayrim qo'shimchalar kiritishni





11.5-rasm. Qo'yma dastakli botinkalarning ichki detailarni loyihalash tasviri.

talab qiladi. Dastakning balandligi 150 mm ga, eni esa 130 mm gacha katashtiriladi. Dastakning balandligi M nuqtadan tushirilgan tık chizig'ida va B_b nuqtadan $B_b B'_b = 150$ mm masofada qo'yiladi. Betlik va dastakni qurish xuddi qo'yma betlikli botinkani loyihalash (11.6-a rasm) kabi bajariladi.

Rezinkaning o'rni, o'lchamlari, poyabzalning tashqi qiyofasini belgilaydi. Shuning uchun uning eni va balandligi hisoblab topiladi.

Poyabzal oyoqqa kiyilayotganda oyoq panjası tutam qismida bukildi. Oyoq panjasining tovon qismi surilib, poyabzalning to'la kiyib bo'lguncha dastakning ko'ndalang o'lchamlari, rezinkani cho'zilishi hisobiga o'zgaradi. Dastakning eni 130 mm bo'lganda, bu qiymat



11.6-rasm. Rezinkali botinkalarining sirtqi detallarni (a) va ichki detallarini (b) loyihahash tasviri.

poyabzalni kiyayotgandan ancha katta, ya'ni 180 mm bo'lishi kerak. Erkaklar oyoq panjasining tovon va bukilish nuqtalari bo'ylab o'tkazilgan perimetrni, oyoq panjasasi osilib turgandagiga nisbatan 4–5 % ga kamayishi hisobga olinsa, bu qiymat 171 mm ga teng bo'ladi, ya'ni 41 mm ga dastakning loyiha enidan ko'p bo'ladi. Rezinkanining uzunligini hisobga olish uchun uning cho'zilishini 60 % deb olinsa, 41 mm ga dastakning enini uzayishi quyidagi tenglama yordamida hisoblanadi.

$$L_p = 41 \cdot 100 / 60 = 68,3 \text{ mm}$$

Rezinkanining uzunligi 68 mm bo'lsa, botinkani kiyayotganda dastakning yuqori qismi, rezinkani cho'zilishi hisobiga, 171 mm ga teng bo'ladi. Rezinkanining yuqori konturi, dastakning yuqori konturi *|||||* dan 2–2,5 mm ga qisqaroq chiziladi. Rezinkani dastak bilan tikish uchun 10 mm qo'shimcha beriladi.

11.3.2. ASTARLARINI LOYIHALASH

Dastakni tovon qismida qo'yma chok yordamida biriktiriladigan charm astar, detallarning qalinligini, cho'zilishini hisobga olgan holda loyiha lanadi. Ularni o'zaro tikish uchun orqa o'rta chizig'i *a*, *b* bo'yicha 2,5–3 mm qo'shimcha beriladi (11.6-*b* rasm).

Jiyalk 1 dastakning old qismini rezinka bilan konturiga nisbatan 4 mm va *WW* chizig'i bo'ylab 1–1,5 mm qo'shimcha bilan loyihalanadi.

Nazorat savollari

1. Botinkalar ustki detallarining konstruksion tavsifini izohlang.
2. Qo'yma betlikli botinkalarни sirtqi, ichki, oraliq detallari loyihasini tasvirlang.
3. Qo'yma dastakli botinkalarни sirtqi, ichki, oraliq detallari loyihasini tasvirlang.
4. Erkaklar rezinkali botinkalarining sirtqi, ichki, oraliq detallari loyihasini tasvirlang.

12-bob.

ETIK VA KALTA QO'NJLI ETIKLARNI LOYIHALASH

Etiklarning ustki detallarini loyihalashda, oyoqning ommaviy o'lchan-gan o'lchov qiymatlari, qolipning nusxasi va loyihalanayotgan poyabzalning konstruksiyasi asos qilib olinadi.

Etiklarning konstruksion belgilari va ishlataladigan materiallari. Konstruktiv fazilatlari shundan iboratki, detallarning eng katta qismi qo'njiga to'g'ri keladi, u oyoqning boldir qismini berkitib, tanavorni qolipga tortishda ishtirok etmaydi. Shuning uchun qo'njning o'lchamlari, boldirning o'lchamlarini va ichki detallarning qalinligini hisobga olib, oyqni yurganda bajaradigan ishi va zamonaviy modaning yo'nali shiga bog'liq.

Etiklarning ustki detallarini quyi qismi qolipning razmeri va shakliga, detallarning qalinligi hamda qolipga tortilayotgandagi deformatsiyaga bog'liq.

Etiklarning asosiy konstruksiyalari, oyoqda ushlab turishga mo'ljallangan moslamalarsiz, chaqmoq-zanjirlik, maxsus bog'ichli, oyqning boldir qismiga yopishib turuvchi sun'iy, yuqori elastik materiallardan tayyorlangan etiklar hisoblanadi.

Yarim etiklar — botinkaning bir turi bo'lib, ularning dastaklari botinkaga nisbatan balandroq bo'ladi, qo'yma dastakli va qo'yma betlik hamda yopiq va yarim yopiq klapanli bo'lishi mumkin.

O'z navbatida etiklar, detallarning konstruksiyasi va tiki lishiga qarab, biriktirma betlikni, oval qistirmali, qo'yma betlikli, qo'yma dastakli bo'ladi.

Qishki etiklar issiq, bahorgi-kuzgilar esa yupqa astarli loyihalanishi mumkin.

Qo'njning yuqori ziysi bo'yicha jiyakli, mo'ynali, tasmali, ag'darma chokli, buklama chokli, mag'iz chokli bo'lishi mumkin.

Ustki detallar uchun quyidagi materiallar ishlataladi. Xron tuzlari bilan oshlangan (qo'l bola buzoq, yarim tana, novvos, sigir tana va toy, toycha) charmalar, bulg'ori charm, kirza va boshqalar.

Ayollar etiklari va yarim etiklari xrom tuzlari bilan oshlangan shabron, velyur kabi yuqori elastiklik charmalar, sun'iy va to'qima materiallardan tayyorlanadi. Bolalar etiklari, asosan, tabiiy charm va bolalar issiq etigi uchun esa noto'qima materiallar ishlatalishi mumkin.

Qishqi etiklar va yarim etiklarning astarlariga tabiiy hamda sun'iy mo'ynalar, bir yoki ikki tomoni tukli ip matolar ishlataladi.

Bahorgi-kuzgi etik va yarim etiklarning astariga chiyduxoba, trikotajli porolon, shotlandka va boshqa materiallar kiradi, ayrim hollarda tabiiy

charm ishlatalishi mumkin. Hamma etik va yarim etiklarning tovon qismida ichki orqa tasma yoki dastak qo'yish uchun cho'ntak charmdan bo'lishi kerak, charm astarli etiklar bundan mustasno.

«Chaqmoq zanjirli» ayollar etiklarida sirtqi detallarning materiali yoki astarli charmdan klapan loyihalanadi.


12.1. ETIK VA KALTA QO'NJLI ETIKLARNING USTKI DETALLARINI LOYIHALASH ASOSLARI

Odamlarning boldirlarini ommaviy o'lhash natijalariga, asosan, boldirning o'rtacha nusxasining andazasi ($BO'N$) quriladi. Hamma jinsiy guruuhlar uchun boldirning o'rtacha nusxasini qurish uslubi bir xil bo'lib, ularning o'lchamlari 13, 14-jadvallarda keltirilgan. Boldirining o'rtacha nusxasi ($BO'N$) va qolipning o'rtacha nusxasi ($QO'N$)ga va jadvallarda ko'rsatilgan o'lchamlarga asosan, poyabzal modalar uyida etik va yarim etiklar uchun ko'p uchraydigan (tipik) konstruksiyalari ishlab chiqilgan.


Boldirning o'rtacha nusxasining andozasini qurish

Hamma jinsiy guruuhlar uchun boldirning o'rtacha nusxasini qurish uslubi bir xil. Misol uchun ayollarning razmeri 240, to'laligi 5 bo'lgan etiklari uchun boldirni o'rtacha nusxasining andozasi (BHN) ni ko'rib chiqamiz (12.1-rasm). Boldirning o'rtacha nusxasini qurish uchun X_2X_3 gorizontal chizig'ida O_2 nuqtasini belgilab, X_2X_3 chizig'iga nisbatan O_2Y_2 tik chizig'i o'tkaziladi.

$X_2X_3 = 115\text{mm}$, $O_2Y_2 = 400 \text{ mm}$ ga teng. O_2U_2 vertikal chizig'ida h_1 , h_2 , h_3 , h_4 , h_5 nuqtalarini monand ravishda 67, 97, 230, 300 va 380 mm masofada O_2 nuqtadan qo'yiladi. Topilgan nuqtalardan $84-86^\circ$ burchak ostida yordamchi chiziqlar o'tkaziladi. Tovon va tumshuq tomoniga 13-jadvalda ko'rsatilgan boldirni o'rtacha nusxasining o'lchamlari qo'yib chiqiladi, X_2a va X_3b nuqtalari to'g'ri chiziq bilan tutashtiriladi. Qolgan T , D , E , J , Sh va Z , I , F , A , Sh' a , g , d , e , f , m va b , t , u , k , i , s nuqtalar lekala yoki F.E. Peshikovning andazasi yordamida tutashtiriladi.



12.1-rasm. Boldirni o'rtacha nusxasining andozasini qurish.



12.2-rasm. Boldiri va qolipning
o'rtacha nusxalarini koordinata
o'qlariga joylashtirish tasviri.

ustida yotishi, andazaning X_2X_3 chizig'i esa V nuqtadan o'tishi kerak. Mana shu holatda BO'N konturi va yordamchi chiziqlari chizmaga chizib olinadi.

Boldirning o'rtacha nusxasi yordamida etiklarni loyihalash asoslari

Etiklarni qo'njini loyihalashda, oyoq boldirini qoplab turgan detallarni qalinligi (BO'N ning ikkala tomonida), moddaning yo'nalishi, oyoq panjasining bermalol harakat qilishi uchun qo'shimcha va qo'nj boldirni erkin qoplashini hisobga olinishi kerak.

Etikning pastki qismi, botinkaning qurish uslubi bo'yicha loyihalanadi. Faqat $B_k B$ va boldirning eng tor ko'ndalang kesimi t_g ga qo'shimcha beriladi. Oyoq panjasining bermalol harakatlari va yurganda qulaylik yaratish uchun astarning qalinligi hisobga olinmagan holda ayollar etigini loyihalashdagi asosiy o'lchamlar me'yori bo'yicha qiymatlari 15-jadvalda keltirilgan.

Ishlatilayotgan ichki detallarini materialga qarab, konkret modelni loyihalayotganda bu qiymatlarga qo'shimcha qo'shiladi.

Etik va yarim etiklarning balandligi Davlat andozalari tomonidan belgilanib, 10-jadvalga asoslangan holda qo'yiladi.

Konstruktur (modelyer) yangi assortiment loyihalayotganda qo'njning balandligini, modaning yo'nalishini, iqtisodiy omillarni, ish hajmini

14-jadvalda ($N = 240$; $W = 5$ uchun) boldir nusxasining har xil to'lalik o'lchamlari berilgan va bu jadvaldan ko'rinish turibdiki, to'laliklar orasidagi farq 6 mm ga teng.

Boldirning o'rtacha nusxasi qalinoq qog'ozdan, kartondan yoki selluloiddan qirqib olinadi. Andazaga bigiz yordamida hamma chiziqlari o'tkazilib, harf va sonlar yozib qo'yiladi.

Qolipning o'rtacha nusxasi (QO'N)ning tag tomonidagi konturini I bazis chizig'i bilan kesishgan V nuqtasidan, $VM=0,21 \cdot L_{o.p.}$ masofani qo'yib, M nuqtasi topiladi, B_k va M nuqtalari orqali to QO'N bilan kesishguncha, to'g'ri chiziq chiziladi. B_k nuqtasidan 15-jadvalda ko'rsatilgan masofani qo'yib, B nuqta topiladi. $B_k B$ to'g'ri chizig'ini ikkiga bo'lib, M' nuqtadan OX o'qiga tik (V_1V_2) tushiriladi (12.2-rasm).

BO'N chizmaga shunday qo'yiladiki, andazaning O_2Y_2 chizig'i V_1V_2 chizig'ini

14-jadvalda ($N = 240$; $W = 5$ uchun) boldir nusxasining har xil to'lalik o'lchamlari berilgan va bu jadvaldan ko'rinish turibdiki, to'laliklar orasidagi farq 6 mm ga teng.

Qolipning o'rtacha nusxasi (QO'N)ning tag tomonidagi konturini I bazis chizig'i bilan kesishgan V nuqtasidan, $VM=0,21 \cdot L_{o.p.}$ masofani qo'yib, M nuqtasi topiladi, B_k va M nuqtalari orqali to QO'N bilan kesishguncha, to'g'ri chiziq chiziladi. B_k nuqtasidan 15-jadvalda ko'rsatilgan masofani qo'yib, B nuqta topiladi. $B_k B$ to'g'ri chizig'ini ikkiga bo'lib, M' nuqtadan OX o'qiga tik (V_1V_2) tushiriladi (12.2-rasm).

BO'N chizmaga shunday qo'yiladiki, andazaning O_2Y_2 chizig'i V_1V_2 chizig'i ni

14-jadvalda ($N = 240$; $W = 5$ uchun) boldir nusxasining har xil to'lalik o'lchamlari berilgan va bu jadvaldan ko'rinish turibdiki, to'laliklar orasidagi farq 6 mm ga teng.

hisobga olish kerak. Masalan, tayyor mahsulotning narxi qo'nj balandligiga qarab qo'yiladi. Qo'njning balandligi $210 \div 250$ mm ga teng bo'lgan etiklar bir xil narxda, shunga o'xhash $251 \div 300$ mm, $301 \div 350$ mm, 351 mm va balandrog'i monand ravishda o'zgarib boradi. Shuning uchun yangi modelni loyihalayotganda qo'njning balandligi oshgan sari, ko'p material surʼi bo'sladi va tannarxi ortadi.

12.2. CHAQMOQ ZANJIRSIZ ETIK VA KALTA QO'NJLI ETIKLAR MODELINI LOYIHALASH

Chaqmoq zanjirli va chaqmoq zanjirsiz etiklarni loyihalash bir xil va o'xhash, yuqorida keltirilgan uslub yordamida boldirning o'rtacha nusxasiga asoslangan holda bajariladi.

Boldirning o'rtacha nusxasi yordamida va usiz loyihalangan etiklarning qo'njini o'lchamlarini tekshirish uchun: $V_1 V_3$ — etik qo'njini oldingi chizig'i va V_N oyoqni etikka o'tish joyi (12.2-rasm), chiziqlarini o'tkazish kerak. $V_1 V_3$ chizig'i V nuqtadan OX o'qiga tik, V_N chizig'i esa $V_1 V_3$ chizig'iga 700 burchak ostida o'tkaziladi.

12.1-jadval

Boldirning o'rtacha nusxasi (BHN) ni har xil jinsiy guruhlar uchun o'lchamlari

O'rta razmer	Jinsiy guruh	BO'Nning o'rtacha parametri	Boldirning o'rta nusxasi (BO'N)ning o'lchamlari, mm da						
			ab	TZ	DI	EF	JA	ShSh	$X_2 X_3$
155	2	Balandligi	46	88	148	188	223	227	-
		Eni	94	76	95	114	122	120	94
		Tovon tomoniga	37	33	52	76	72	72	62
		Uch tomoniga	52	42	43	48	50	48	32
185	3	Balandligi	52	98	164	207	245	307	-
		Eni	105	88	107	126	134	132	105
		Tovon tomoniga	42	38	57	73	79	77	78
		Uch tomoniga	63	50	50	53	55	54	27
215	4	Balandligi	60	109	181	228	270	338	-
		Eni	116	100	119	139	147	140	116
		Tovon tomoniga	48	45	64	80	87	82	78
		Uch tomoniga	68	55	55	59	60	58	38
240	8	Balandligi	67	97	230	300	380	400	-
		Eni	124	116	157	182	172	169	115
		Tovon tomoniga	59	59	96	116	112	110	102
		Uch tomoniga	65	59	61	66	60	59	13
270	9	Balandligi	70	140	260	328	390	-	-
		Eni	133	122	168	194	191	-	127
		Tovon tomoniga	63	62	102	125	124	-	100
		Uch tomoniga	70	60	66	69	67	-	27

Boldirning har xil to'laliklar o'ichamlari (8-guruh uchun)

Boldirning to'laligi	BO'Nning eni bo'yicha o'ichamlari (N=240; W=5)					
	ab	gt	du	ek	fi	ms
Tor	118	110	151	175	167	163
O'rta	124	116	157	181	173	169
Keng	130	122	163	187	169	175


Chaqmoq zanjirsiz (hamma jinsiy guruhdagi) etiklarni loyihalashdagi eng asosiy shartlardan biri $V_k V$ chizig'ini oyoqni etikka o'tish joyi N_v ga taxminan teng bo'lishidir.

Etikni kiyish davomida qulay bo'lishi uchun ko'pincha $NN''v$, masofasi $B_k B$ dan, astarning qalinligini hisobga olib, 3—5 mm ga katta bo'ladi.

12.2.1. «KAZACHOK» TURIDAGI ETIKLARNI USTKI DETALLARINING LOYIHALASH

To'g'ri qo'njli etiklar, boldirning eng tor qismida, mayda-mayda g'ijimlar hosil bo'lgani uchun bunday konstruksiyadagi etiklarni «Kazachok» deyishadi.

Sirtqi detallarni loyihalash. Bunday konstruksiyadagi etiklar, boldir va qolipning o'rtacha nusxalariga asosan, umumiy uslubga binoan quriladi (12.1, 12.2-rasm va 15-jadval). «Kazachok» turidagi etiklarning loyihalash tasviri



12.3-rasm. «Kazachok» turidagi etiklarning sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

12.3-a rasmida ketirilgan. V_1V_2 chizig'ini qolipning o'rtacha nusxasining pastki konturi bilan kesishgan nuqta B dan yuqoriga qo'njining balandligi qo'yilib B_s nuqta va oxirgi nuqtadan $84-86^\circ$ burchak ostida to'g'ri chiziq fi o'tkaziladi.

Boldirning o'rtacha nusxasiga 15-jadvalda berilgan qiymatlari qo'yilib, qo'njining oldi konturi i' , k' , a' , b' va orqa konturi f , e' , d' , g' , B'_3 , B'_k nuqtalari orgali F.V.Peshikov andazasiga binoan o'tkaziladi.

«Kazachok» turidagi etiklarning qurishda ahamiyatli joyi shundaki (tayyor poyabza qo'njining past qismidagi g'ijimlarni hisobga olish uchun) boldirni o'rtacha nusxasidagi, *ek* chizig'i 40 mm yuqoriga, ya'ni $e''k''$ gacha ko'tarish kerak (12.3-b rasm).

Qolipni o'rtacha nusxasining III va IV bazis chiziqlari orasidagi yuqori konturini teng ikkiga bo'lib, T nuqta topiladi $CT=CK/2$ va $b''T$ nuqtalari lekala yordamida tekis tutashdirilib, qolipning o'rtacha nusxasini yuqori konturi bilan davom ettiriladi.

Tortish baxyasining kengligi tovon va axmi qismini ikkinchi konturidan, ya'ni patak va oraliq detallar qalinligini hisobga olgan holda; kaft, tutam va tumshuq qismida esa qolipning o'rtacha nusxasiga nisbatan qo'yiladi.

Qo'njining yuqori ziyi, boldirni tuzilishiga qarab tashqi tomoni, ichki tomoniga qaraganda 10—12 mm yuqorida va tashqi tomonida a , e , a' qiytiq bo'lishi kerak va uni eni aa' nuqtalar orasidagi masofa 13—14 mm ga teng, uzunligi esa *ek* chizig'igacha, ya'ni boldirni eng bo'rtib chiqqan joyigacha keladi.

Tashqi tomonining yuqori ziyi (konturi)ni chizish uchun (*it* chizig'ining o'rtasi b nuqtadan yuqoriga) 6—7 mm b' va pastga (4—5 mm) b_2 nuqtalari qo'yiladi. f , b' , i va f , b_2 , i nuqtalari birlashiirilib, qo'njini yuqori ziyining tashqi va ichki tomoni chiziladi.

15-jadval

Ayollar etiklarining BO'N va QO'N asosida loyihalashdagi me'yoriy qiymatlar

Poshna balandligi	Chaqmoq zanjirsiz etiklarda					Chaqmoq zanjirli etiklarda			
	20	40	60	80	100	20	40	60	80
Belgililar									
B_kB	168	166	164	162	165	168	166	164	162
BB'	10—12	9—10	8—9	5—6	2	5—6	4—5	3	1—2
B_kB_k	1—2	1—2	1—2	1—2	1—2	1—2	1—2	1—2	1—2
B_3B_3	2—3	2—3	2—3	2—3	2—3	2—3	2—3	2—3	2—3
gg'	16—17	15—16	15—16	15—16	15—16	7—10	7—10	7—10	8—10
dd'	5—6	5—6	2	4—5	4	2—3	2—3	2	0—1
ee'	0—1	0—1	2—3	1—4	0—1	0—1	0—1	0—1	4
ff'	7—8	7	7	7	7	7—8	7—8	7—8	5
ii'	3	2	2	2	2—3	4—5	4—5	4—5	4
kk	1—2	1—2	1—2	1—2	2	0—1	0—1	0—1	0—1
uu	7—8	8	8—9	9—10	10	3—4	3—4	3—4	3—4
tt'	—	—	—	—	20	—	—	13—15	11—12
B_cB_c'	335	385	400	400	433	—	—	—	—

Yaxlit qo'nj va boshlig'i bo'lgan etiklarni qurishda old va orqa tomonlari bo'yicha tikiladigan etiklarning konturidan foydalansa bo'ladi.

Yaxlit boshliqli etiklarni qurayotganda eskizga, asosan, modaning yo'nalishiga qarab va detallari bichilayotganda kam chiqitli harnda qolipga tortganda shaklini yaxshi saqlashiga e'tibor berish kerak. Yaxlit boshliqni loyihalayotganda *C* nuqtani konstruktor o'zini ijodiy fikri va zamonaviy modaga asosan belgilaydi (12.3-*a*, *d* rasm).

Bunday yaxlit boshliqlar W—40 AN rusumli «Shyon» firmasining maxsus mashinasida, qo'nja tikishdan oldin qolipda shakllantiriladi va quyidagi bosqichlarda loyihalanadi:

1. Birinchi navbatga boshliqning konturi, bukish chizig'isiz chizib olinadi (12.2-*d* rasm);

2. Yarim boshliq holida qirqib olinadi *C₁H₁2*";

3. *CH* orasidagi masofa to'g'ri chiziq va egri chiziqlari bo'yicha o'lchab, ularning orasidagi farq Δl topiladi;

4. *C* va *H* nuqtalaridan *OO'* o'qi bo'yicha $CC' = 1/2 \Delta l + (5 \div 6)$ va $HH' = 1/2 \Delta l + (5 \div 6)$ kesmalar qo'yildi, chunki boshliqni maxsus dastgohda qoliplanganda *OO'* chizig'i bo'yicha betlik 9—11 mm ga kichrayadi;

5. Boshliqni uzunligi bukish chizig'i bo'yicha 8—10 mm masofada teng bo'laklarga bo'linadi. Hosil bo'lgan nuqtalardan bukish chizig'iga (*OO'*) tik o'tkaziladi va tik chiziqning betlikni yuqori konturi bilan kesishgan 2', 3', 4' va past konturi bilan 2", 3", 4" va hokazo nuqtalari belgilanadi;

6. Har bir tik 2, 3, 4 va hokazo nuqtalardan 2'-2", 3'-3", 4'-4" kesmalar qo'yildi va hosil bo'lgan (2", 3", 4") nuqtalar teksis tutashtiriladi;

7. Boshliq tikishda, oldin maxsus dastgohda shakllangan, tashqi va ichki tomonlarining konturi assimetrik bo'lganligi uchun, betlikni bichish perimetriga taxminan 4 mm qo'shimcha beriladi (II kontur);

8. Qoliplangandan keyin boshliqning I konturidan ortiqchasi qirqib tashlanadi.

Sirtqi detallar qurib bo'lganidan keyin tortish baxyasining kengligi, tag detallarini tanavor bilan biriktirish usuliga qarab qo'yildi.


Ichki detallarini loyihalash. Astarni loyihalash uchun (12.4-*a* rasm) sirtqi detallarni (ingichka tutash chiziq) tikish va ziylariga ishlov berish qo'shimchalarsiz, konturidan foydalilanadi. Chaqmoq zanjirsiz etiklarning astarini tumshuq, panja-kaft qismini shakli, sirtqi detallari shakliga bog'liq.

Agar etikning qo'nji ikki (tashqi va ichki) detaldan tashkil topib, old va orqa konturi bo'ylab tikiladigan bo'lsa, astarlar ham xuddi shunday ikki detaldan va orqa ichki tasmali bo'ladi.

Astar konturini qurishda (qalin tutash chiziq) kerak bo'ladigan qiymatlar, sirtqi detallarga nisbatan (ingichka chiziq) 12.4-rasmida keltirilgan.

Astarning hamma detallarini qurib bo'lgandan keyin, tikish va ko'rinaligan ziylariga ishlov berishga qo'shimchalar beriladi.

Astar junli, tukli ip mato yoki repsdan bo'lsa, old va orqa tomonlarini biriktirma choc bilan tikish uchun 5—7 mm, trikotajli porolon uchun 3 mm,



12.4-rasm. Chaqmoq zanjirsiz etiklarning ichki detallarini loyihalash tasviri.

qo'yma chokka 6–8 mm, ag'darma chokka 1,5–2 mm qo'shimchalar beriladi (12.3-*b* rasm). Orqa ichki tasma ikki detaldan *rd* (12.4-*a* rasm) yoki bukilish chizig'i *de* bo'lgan yaxlit detaldan (12.4-*e* rasm) iborat bo'lishi mumkin.

Yaxlit orqa ichki tasma baland *ed* yoki past gd bo'lishi mumkin. Qanday bo'lishidan qat'iy nazar, orqa ichki tasma, oyoq panjasining eng ko'p ishqalanadigan tovon qismini berkitib turishi kerak.


12.3. CHAQMOQ ZANJIRLI ETIKLARNI LOYIHALASH

12.3.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Chaqmoq zanjirli etiklar har xil materiallardan, hamma yosh-jinsiy guruhlar uchun ishlab chiqarilishi mumkin. Chaqmoq zanjirni bo'lishi etikning oyoqqa kiyilishini osonlashtiradi, lekin ish hajmini va poyabzalning tarinaxxini oshiradi. Shuning uchun oyoqqa yopishib turadigan etiklarda qina chaqmoq zanjirni qo'llash kerak. Chaqmoq zanjirni qo'njning ich yon tomoniga yoki oldiga tikish mumkin.

Chaqmoq zanjirli etiklarni loyihalash yuqorida keltirilgan umumiy uslub asosida, xuddi chaqmoq zanjirsiz etiklarni loyihalashga o'xshash. Hamma kerakli o'lcham qiymatlari 13, 14, 15-jadvallarida keltirilgan. Asosiy farqi chaqmoq zanjirni tikish joyini aniqlash.

Qo'njning ichki tomonidan joylashgan chaqmoq zanjirli etikni loyihalash 12.5-rasmida ko'rsatilgan. Chaqmoq zanijni yaxshi ishlashi va joylashishi



12.5-rasm. Chaqmoq zanjirli etiklarning sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

uchun, I va IV bazis chiziqlarini qolip-nusxasi bilan kesishgan yuqori C va quiyi V nuqtalari orqali, CV nazorat chizig'i o'tkaziladi. Bu chiziq chaqmoq zanjirni quiyi chegarasi bo'lib xizmat qiladi.

Chaqmoq zanjirni eng qulay joylashishi, bu CV nazorat chizig'i o'rtasi bo'lib, ($Vb' = 0,4\ CV$, $Vb = 0,5\ KB$) bb' kesmasidir.

Chaqmoq zanjirning yuqori qismi qo'njning o'rtaida joylashgan yoki tovon tomoniga surilgan, chaqmoq zanjirning yo'nalishi to'g'ri yoki ozgina egri chiziqli bo'lishi mumkin.


Qo'njning ichki detalida qirqim loyihalanadi. Qirqim egri chaqmoq zanjirning ishchi qismini eni (8 mm) dan kattaroq, ya'ni 10 mm bo'lishi kerak. Chaqmoq zanjir qo'njning old qismida loyihafansa, belgilangan qo'njning old konturiga 5 mm masofadan parallel chiziq chiziladi va betlikning C nuqtasida radius orqali tekis tutashtiriladi.

12.3.2. ASTARNI LOYIHALASH

Chaqmoq zanjirli etik astarini loyihalash chaqmoq zanjirsiz etik astarini loyihalashga o'xshash. Ulardan chaqmoq zanjir ostiga qo'yiladigan klapanni va to'qima materialidan qilingan astarining qirqimini qurish bilan farq qiladi.

Klapan va qirqimning o'lchamlari chaqmoq zanjirning ishchi qismini o'lchamiga, astarning materialiga va ularni tikilishiga bog'liq.

12.6-rasmida klapan, to'qima materialidan qilingan astar bilan yaxlit loyihalangan. Bunday koristruksiyadagi klapan, to'qima materialni cheti titilib ketmaydigan yoki ziyiga tesma tikilgan bo'lsa qo'llaniladi. Keltirilgan usul qo'llanilganda tanavorni yig'ish ancha



12.6-rasm. Chaqmoq zanjirli etiklarning astarini loyihalash tasviri.


qiyinlashadi. Chunki astari ikki qismdan iborat bo'lib, bir-biri bilan tutashtirma yoki qo'yma chok bilan $W\text{-}W$ chizig'i bo'yicha tikiladi. Tovon tomonidan astar WW chizig'i bo'yicha klapanni qaytarib turib, chaqmoq zanjirni ustki detallari va astarning ikkinchi qismi bilan tikiladi.

Eng oddiy usullardan biri chaqmoq zanjir ostiga kengroq jiyak tikish, jiyakning eni 30 mm. Chaqmoq zanjirning uzunligi bo'yicha tanavorni yig'ishni oxirida qirqim qilinadi. Klapanlarning qurishni hamma hollarida ham, chaqmoq zanjirni tikayotganda (yuqoriga va pastga harakatlanganda) to'qima astari xalaqit bermasligi kerak. Shuning uchun to'qima astar chaqmoq-zanjirni tikish chizig'idan 2 mm chetraqda bo'lish kerak.

12.4. AYOLLARNING KALTA QO'NJLI VA MAKTAB YOSHIIDAGI BOLALAR ETIKLARINI LOYIHALASH

Ayollarning yarim etiklari xuddi etiklardek loyihalanadi. Qo'njning balandligi Davlat standarti tomonidan belgilanadi. Qo'njning eni, konstruktiv yechimi va 15-jadvalda keltirilgan qiymatlarga asosan 12.5-rasmda ko'rsatilganidek loyihalanadi.

Maktab yoshidagi bolalar uchun chaqmoq-zanjiri oldida joylashgan (yoki bog'ichli) etiklarni loyihalash 12.7-rasmida keltirilgan.



12.7-rasm. Maktab yoshidagi bolalarning chaqmoq zanjiri oldida joylashgan etigini loyihalash tasviri.

12.5. ERKAKLARNING CHAQMOQ ZANJIRSIZ ETIKLARINI LOYIHALASH

12.5.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Erkaklarning etik va yarim etiklari, etikni BO'N va QO'N yordamidagi umumiy qurish uslubiga, chaqmoq zanjirsiz, chaqmoq zanjirli, bog'ichli, etik va yarim etiklarning 16-jadvalda keltirilgan (me'yoriy) qiymatlariga asosan loyihalanadi. Sirtqi detallarni qurayotganda B_k va B' nuqtalari jadvaldagi me'yoriy qiymatlar astarning material qalilligini hisobga olgan holda o'zgarishi kerak.

Qo'njning yuqori konturini tashqi va ichki tomonlari bir-biridan 4–6 mm ga farq qiladi. Erkaklar etigining qo'nji oyoqni boldiriga yopishib turmaydi, shuning uchun qo'njni bir to'lalikda ishlab chiqarsa bo'ladi.

Boshliq ko'proq tilchali loyihalanadi, lekin uni istalgan konstruksiyada, eskizga muvofiq o'zgartirish mumkin (12.8-rasm).

Tilchali boshliqlarni loyiha layotganda betlikni chuqurlashish nuqtasi G va betlikning nuqtasi C ni to'g'ri burchakli uchburchak qoidasiga asosan «Loafer» tipidagi qo'njsiz botinkalarga o'xshash topiladi.


16-jadval

**F.E.Peshikov usuli bo'yicha etik va yarim etiklarni
qurishdagi normativ qiymatlar**

12.6-rasmdagi shartli belgilari	Chaqmoq zanjirsiz etiklar	Chaqmoq zanjirli etiklar	Bog'ichli yarimetklar
$B_k B$	185	185	185
BB'	12–13	5	3
$B_k B_k'$	2–3	2–3	2–3
$B_3 B_3'$	3–4	34	2–3
gg'	22–24	14–15	8–10
dd'	7–8	—	—
ee'	0–2	—	—
kk'	3–5	—	—
uu'	10–12	—	—
tt'	22–24	13–14	8–10
$B_c B_c'$	350	215	205

Eslatma. Etikning qo'nj balandligi kamida 215 mm, yarim etiklarniki 180 mm dan kam bo'lmasligi shart.

G nuqta (tilchani formasi) eskizga qarab aniqlanadi va KL , KL^1 chiziqlarida yoki ularning orasida joylashishi mumkin. Betlikni bukish chizig'i, G nuqta aniqlangandan keyin to'g'ri burchakli uchburchak qoidasiga asosan C va b nuqtalarini tutashtirilib topiladi. Bukish chizig'i



12.8-rasm. Erkaklarni chaqmoq zanjirsiz etiklarini sirtqi detallarini loyihalanash tasviri.

K nuqtasidan 4—5 mm dan ko'proq masofada bo'lishi mumkin emas. Yaxlit tilchali betlikni bichish uchun oldin tilchaning konturini kalkaga ko'chirib olib, qirqiladi va ikkinchi tomonini xuddi rezinali qo'njsiz botinkalarning tilchasiga o'xshatib qurib tuzatish kiritiladi. Agar tilchaning uzunligi *CC'* 20 mm dan katta bo'lmasa, tuzatishsiz loyihalanadi. Bukiш chizig'i esa xuddi qo'yma betlikli botinkalarga o'xhab quriladi.

12.5.2. ICHKI DETALLARINI LOYIHALASH


Erkaklar etigi va kalta qo'njli etiklarining astarlarini qurish xuddi ayollarning chaqmoq zanjirsiz etik astarini qurishga o'xshash.

12.6. ERKAKLARNI BIRIKTIRMA BOSHLIQLI, CHARM DAN ISHLANGAN ETIKLARINING USTKI DETALLARINI LOYIHALASH

12.6.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Erkaklar etigida poyabzal old tomonining ko'p qismini egallagani uchun betlik boshliq, tilcha esa bo'yincha deyiladi.

Bu konstruksiyadagi etiklarda boshliq qo'nj bilan biriktirma choc yordamida tikiladi, boshliqning bo'yinchasini o'lchamlari va tuzilishi qo'njning boshliqqa tikiladigan chiziq bo'yicha bo'lgan qirqimga to'la mos kelishi kerak.



12.9-rasm. Erkaklarni birikturma boshliqliq charm etik sirti detallarini loyihalash tasviri.

Erkaklar etigini loyihalashni BO'Nsiz, nazorat chiziqlar $B_k B$, $B_1 B_3$, $V_1 V_2$, BH''_v , ek (12.9-rasm) yordamida bajariladi. Boshliq bo'yinchasini qurish uchun $B_1 B_3$ chizig'ida, B nuqtadan 24 mm masofani yuqoriga qo'yib A nuqta topiladi, ABC nuqtalari tekis tutashtiriladi. Bo'yinchani yoyganda uning eni 22 mm dan kichik bo'lmasligi kerak. Bunda qo'njning boshliqqa tikiladigan chizig'idagi qirqimi, b nuqtada birikturma choc uchun beriladigan 1,5-2 mm qo'shimcha hisobga olinishi kerak (12.9-b rasm).

Shuning uchun bo'yincha tovon tomonga 2 mm surilib $B_1 B_3$ chizig'i bo'yicha loyihalanadi. $BB'' = 5-6$ mm dagi B' nuqtada bo'yinchaning eni 11-12 mm bo'lishi kerak. B dan B'' gacha masofa esa 5-6 mm ga teng.

Boshliqning qanoti esa, etikning balandligi qo'yiladigan chiziq $B_1 B_2$ gacha boradi. Buning uchun B_c nuqtasidan B_3 a (nazorat chizig'iga) tik 2 o'tkaziladi, $B_3 b_3 B$ burchagi bisektrissasidan 17 mm masofani qo'yib, $r = 30$ mm radiusda boshliqning chuqirlashish konturi chiziladi. Detallarning o'zaro yaxshi joylashishi uchun, qanotning burchagi birikturma boshliqni loyihalayotganda, 2 nuqtadan 4-5 mm pastda joylashishi kerak ($2-2^1 = 4 \div 5$ mm).

Boshliqning bukish chizig'i CH'' uchburchak qoidasiga asosan b va B nuqtalari orqali o'tadi, shunda K nuqtadan bukish chizig'igacha bo'lgan masofa $3 \div 4$ mm dan ortmasligi kerak, keyinchalik boshliqning tortish baxyasiga tumshuq qismida tuzatish kiritilishi shart.

Tortish baxyasining kengligi, ikkinchi tuzatish kiritilgan konturga nisbatan qo'yiladi.

Boshliq va bo'yinchaga tuzatish kiritilgandan keyin qo'njga boshliqning qanotlarini tikadigan chizig'i bo'yicha tuzatish kiritish kerak. Uning yuzasi $1-2^1-1^1$ uchburchak yuzasiga, tanavorning axmi qismi qolipga yaxshi tortilishi va shaklini ushlashi uchun kattalashtirilishi kerak va bu $1-1^1 = 5+6$ mm ($12.9-a$ rasm). Qo'njga boshliqning qanotini tikish uchun yangi (1^1-2) tuzatish kiritilgan, bo'yinchaga bilan esa oldingi konturiga asosan qo'shimcha beriladi.

Qo'njning orqa konturi chaqmoq zanjirsiz etiklarning kiyish qulayligiga asosan loyihalanadi. Qo'njning B'' nuqtasida katta egilish hosil bo'ladi, yurganda oyoq panjasining tovon qismini sirpanishiga xalaqit beradi.

Qo'njning BH'' v eni quyidagicha topiladi:


$$BH''_v = B'_k B + 4 \div 5 \text{ mm}$$

Etiklarning qo'njini eni old konturi $B_1 B_3$ ga nisbatan eng keng joyida $ek = 195$ mm, yuqori qismida $ShSh' = 192$ mm qo'yiladi.

12.6.2. ICHKI DETALLARINI LOYIHALASH

Biriktirma boshliqli etiklarning ichki detallari (qo'nj va boshliqlar) charm astaridan tashkil topgan bo'ladi (12.10-rasm). Qo'njning sirtqi detalni orqa konturi bo'yicha mag'izli biriktirma, astari esa biriktirma chok bilan tikiladi. Tanavorni yig'ishni osonlashtirish uchun qo'njning astari $55'$ va $33'$ chiziqlari bo'yicha qirqib qo'yiladi ($Ab' = 10$ mm), qo'njning konturidan tayyor poyabzalning ichida astar g'ijimlanib qolmasligi uchun detal va choklar qalinligicha kichik qilinadi.

Boshliqning astari uning bo'yinchasini konturidan $7-8$ mm, qanotlaridan $8-10$ mm qo'shimcha bilan loyihalanadi. Boshliqning astari, bukish chizig'idan $1,5$ mm, tortish baxyasidan $2-3$ mm kichik bo'ladi.



12.10-rasm. Erkaklarni biriktirma boshliqli charm etik astarini loyihalash tasviri.

Nazorat savollari

1. Etik va kalta qo'njli etik detallarini konstruksion tavsifini izohlang.
2. Boldir o'rtacha nusxasining andazasini quring.
3. Boldirming o'rtacha nusxasi yordamida etiklarning sirtqi, ichki, oraliq detallarining loyihasini tasvirlang.

13-bob. **SANDALETLARNI LOYIHALASH**

Sandaletlar — yozgi poyabzal, ustki detallari konstruksiyasi jihatidan qo'nsiz botinkalar yoki tuflilarga o'xshash bo'lib, turli shakl va o'lchamdagи teshikchalari (perforatsiyasi) bo'ladi. Sandaletlarning tovon qismida qattiq dastak va charm astar bo'lishi shart, tumshuq qismi esa ishlataladigan materiallarga va modelyerning qo'ygan maqsadiga bog'liq.

Qo'yma dastakli sandaletlarni ko'pincha xrom tuzlari bilan oshlan-gan, qalin materiallardan, betlikni esa astarsiz, teshikcha (perforasiya) lar bilan loyihalanadi. Tasmali va bo'ylama tasmali sandaletlarning betligi charm astarli yoki astarsiz qilib loyihalanadi. Betlik perforatsiyali, tumshuq qismi ochiq, alohida detallarga bo'lingan yoki yaxlit bo'lishi mumkin.

Tasmali sandaletlar oyoq panjasiga to'qa yordamida mahkamlanadi. To'qa dastakning tashqi tomoniga to'qa tasmasi yordamida tikiladi. Bo'ylama tasma turli shaklda, tasmani o'tkazish uchun halqali yoki qirqimli bo'lishi mumkin. Dastakning yuqori ziyi va tasma cheti bukiladi, qolgan ko'rinaldigan ziylar esa qirqiladi.

Doppel usulidagi sandaletlarning tovon qismi yelim yoki mix yordamida patakka biriktiriladi, tortish baxyasining perimetrini qolgan qismida sirtqi detallar tashqariga qayrilib, bezak ranti orgali (poshnagacha) taglikka tikiladi. Astar esa butun perimetri bo'yicha qolipga tortilib, patakka biriktiriladi. Bunday texnologiyada sirtqi detalning tortish baxyasi, axmi qismida tortish baxyasini qayrib taglikka tikish uchun $u' = 11 \text{ mm}$ qirqib qo'yilishi shart (13.1-a rasm).

Doppel usulidagi sandaletlarning yana bir o'ziga xos xususiyati shuki, agar charm astar, betlik bilan dastakni tikayotganda *EG* chizig'i bo'yicha biriktirilsa, uning charm astari ham axmi qismida chok chizig'i bo'yicha qirqib qo'yiladi.

Dastaklar orqa konturi (chizig'i) bo'yicha tutashtirma chok yordamida tikilib, orqa tashqi tasma yordamida mustahkamlanadi. Dastakni tashqi tomoniga to'qa, to'qa tasmasi yordamida esa ichki tomoniga tasma tikiladi.

Loyihalanayotgan sandaletlar tanavorini yig'ishda betlik boylamiga to'qa boylami tikib olinib, betlik boylarmiga kiygizib, bir yo'la betlikni yuqori ziyi bilan tikiladi.

Shu jarayonni bajarayotganda halqaning ikkinchi choki tikiladi, ammoga astarning axmi qismining qirqib qo'yilgan joyi chokka tushmaydi.

13.1. DOPPEL USULIDAGI SANDALETLARNI LOYIHALASH

13.1.1. SIRTQI DETALLARINI LOYIHALASH

Sandaletlarning sirtqi detallarini loyihalash uchun qolipni o'rtaliga nusxasi, umumiyl uslubda ko'rsatilgandek koordinata o'qlariga joylab, bazis va yordamchi chiziqlar o'tkaziladi (13.1-rasm).


Dastakni orqa konturi, yuqori ziyi va betlikni bukilish chizig'i, aynan qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarga o'xshash quriladi. Doppel usulini yelimlash usulidan farqi shuki, tortish baxyasining eni kichikroq bo'ladi.

Oyoq panjasining sirti ochiqroq bo'lishi uchun betlikni o'ymasini eng chuqur G nuqtasi, nazorat chizig'i KL da yoki tumshuq tomonga siljigan bo'ladi. Bu holatda betlikni qolipga tortish va uning shaklini olish osonlashadi.

Tasmaning o'qini yo'naliishi, B'_a chizig'iga nisbatan $120-130^\circ$ da loyihalanadi (13.1-a rasm). Ingichka va uzunroq tasmalar I va III bazis chiziqlari qolipning o'rtaliga nusxasini quyi V va yuqori P konturi bilan kesishgan nuqtalarini tutashtiruvchi VP chizig'iga parallel qilib o'tqaziladi. Tasma va to'qa tasmasi, to'qanining ichki o'lchamlariga asosan loyihalanadi. Tasma to'qaga oson taqilishi uchun uning eni, to'qani ishchi enidan Sh , (13.1-b rasm) 1-2 mm kichik bo'lishi kerak.

Tasmani bukilish chizig'i BB' (13.1-a rasm) qolipni o'rtacha nusxasining ko'tarilish qismini, tasma bilan kesishgan nuqtasi B' orqali o'tqazilgan normal bo'yicha tasmani, bo'ylama tasmani qalinliklarini hamda tanavorini ko'ndalang kesimi bo'yicha deformatsiyasini hisobga olgan holda loyihalanadi.

Tasma va to'qa tasmasining dastak bilan biriktiriladigan qismini loyihalashida, detallarni o'zaro joylashishini va qo'llaniladigan chokni



13.1-rasm. Doppel usulidagi sandaletlarning sirtqi detallarini loyihalash tasviri.

kosntruksiyasi hisobga olinishi kerak. Tasmaning eni Sh butun uzunligi bo'yicha bir xil bo'lishi shart.

O_p nuqta dastakning yuqori konturi bilan tasmani kesishigan nuqtasi bo'lib, B_p a chizig'idan 6–8 mm dan ortiq bo'lmasligi kerak. Tasmani kesish chizig'i, uning yo'naliishiga tik bo'ladi. To'qanining ishchi qismi (13.1-b rasm) o'q l_1 , ishchi ilgak 2 va aylanuvchi silindrlardan tashkil topgan. Aylanuvchi silindr (valik) tasmani to'qaga taqishni osonlashtiradi. To'qa tasmani uzunligi l_6 (13.1-a rasm), to'qanining old qismini uzunligi l_5 ga va tikish usullarini hisobga olgan holda quyidagicha aniqlanadi:

$$\begin{aligned} l_6 &= l_5 + (2 \div 4) \text{ mm}; \\ l_8 &= 2l_6 + 2 (8 \div 10) \text{ mm} \end{aligned}$$

Bunda: l_6 — to'qa tasmasini kesish chig'izi (yoki tikish chizig'i) dan bukilish chizig'igacha; l_5 — to'qanining old qismini uzunligi; l_8 — to'qa tasmasining umumiy uzunligi; $(2 \div 4)$ mm — materiallarni qalinligi va bukilishiga beriladigan tuzatish; $(8 \div 10)$ mm — to'qa tasmasi va tasmani dastakka tikish uchun beriladigan qo'shimcha.

Tasmani kesish, bukilish chizig'i va to'qani joylashish markazi aniqlangandan keyin uning uzunligi L_{tas} quyidagicha aniqlanadi:

$$L_{tas} = l_1 + l_2 + l_3 + (8 \div 10) \text{ mm}$$

Bunda: l_1 — tasmani chizig'idan bukilish chizig'igacha bo'lgan masoфа; l_2 — bukilish chizig'idan to'qanining markazigacha bo'lgan masoфа; l_3 — tasmaning erkin qismi, tayyor poyabzalni oyoq panjasiga mahkamlaganda uzunligini sozlash uchun ($l_3 = 25 \div 30$ mm).

Betlikning bukilish chizig'i davomida bo'ylama tasma loyihalanadi. Uning eni tayyor poyabzalning tashqi qiyofasi (eskizi) ga, uzunligi esa konstruksiyasiga asosan aniqlanadi.

Bo'ylama tasmada halqa (petlya) bo'lsa, u holda bukilish chizig'inинг $A'A''$ joyi aniqlanishi kerak (13.1-b rasm). Bunda, tanavorni qolipga tortganda bo'ylama tasmaning va halqaning tumshuq tormoniga siljishi hisobga olinishi kerak. Shuning uchun bo'ylama tasma (halqa)ning bukilish chizig'i, A qolipning o'rta nusxasini, nazorat nuqtasi C dan B nuqtasigacha bo'lgan (13.1-a rasm) masofadan $5 \div 6$ mm uzunroq, ya'ni $AC = BC + (5 \div 6)$ mm, yoki $AB = 5 \div 6$ mm bo'lishi shart.

Yassi betlikni qurish uchun AC chizig'i betlikni bukilish chizig'iga o'tkaziladi, bunda $AC = A'C$ ga teng bo'lishi kerak.

Bo'ylama tasmadagi halqaga tasma kiygiziladi, shuning uchun halqaning uzunligi $A'D$, detallarni qalinligini hisobga olgan holda va tasmani o'tkazishni osonlashtirish uchun 4–6 mm kattaroq loyihalanadi (13.1-b rasm).

$$A'D = Sh + (4 \div 6) \text{ mm}$$

Bo'ylama tasma bilan betlikni kesish chizig'i (biriktiriladigan joyi) aniqlangandan keyin, bo'ylama tasmaning umumiy uzunligi $L_{b.t.}$ aniqlanadi:

$$L_{b.t.} = 2A'D + O'D + 2(8 \div 10) \text{ mm}$$

Bunda: $A'D=A'D'$ — halqaning bukilish chizig'idan uning tikelidagan chizig'igacha bo'lgan masofa; $O'D$ — halqaning tikish chizig'idan bo'ylama tasmaning betlik bilan kesishgan chizig'igacha bo'lgan masofa; $8 \div 10$ mm — tikish uchun berilgan qo'shimcha, halqa uchun $D'D'$ va bo'ylama tasma uchun $O'O'$.


Dastakni axmi qismidagi balandligi tayyor poyabzalning tashqi qiyofasi (eskizi) bo'yicha aniqlanadi. Tortish baxyasining eni 18-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlarga asosan loyihalanadi.

Dastakni tortish baxyasi uu' chizig'i bo'ylab qirqib qo'yilish kerak ($uu'=11$ mm), B_ku masofa esa poshnanig uzunligiga teng.

13.1.2. ICHKI DETALLARINI LOYIHALASH

Sandaletning ichki detallari dastakni charm astari va betikni charm astaridan iborat bo'lib, charm astarni qurish umumiy uslub (8.13-rasm)ga asosan loyihalanadi (13.2-a rasm). Faqat dastakni charm astarini old konturining o'ymasini chuqurligi 12 mm (13.2-b rasm) bo'lishi kerak, shakli esa turlicha bo'lishi mumkin.

Halqa ostiga charm astar loyihalanmaydi, chunki betlikni charm astari 3—4 mm chiqib, halqa chocini berkitib turadi. Tasmani charm astarining kesish chizig'i, tanavorni yig'ish usuliga qarab loyihalanadi (13.2-b rasm).




13.2. YELIMLAMA USULIDAGI OCHIQ SANDALETLARNING SIRTQI VA ICHKI DETALLARINI LOYIHALASH

Ochiq sandaletlarning konstruksiyasi doppel usulidagi sandaletlarning konstruksiyasiga o'xshash. Ularning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar: axmi va tumshuq qismining ochiq bo'lishi hamda bo'ylama tasmaning alohida konstruksiyaga ega bo'lishidir (13.3-a rasm).

Dastak va bo'ylama tasmaning qirqilgan A''D' qismini aniqlash xuddi yuqorida keltirilgandek bajariladi. Betlikni konturi tayyor poyabzalning tashqi qiyofasi (eskiz) bo'yicha aniqlanadi. Betlik bilan bo'ylama tasmalarning o'zaro tikilish holati nazorat chizig'i KL bilan belgilanadi. Erkaklarning ochiq sandaletlarini tumshuq qismi faqat yon tomonidan ochiq qilib loyihalanadi. Tortish baxyasining eni yelimlash usuli uchun 12-jadvalda ko'rsatilgan qiymatlarga asosan loyihalanadi.

Astarni loyihalanishi o'ziga xos belgilardan biri, bikir dastakning cho'ntagini qurib bo'lib, uning tovon qismida bukilish chizig'ini o'tkazishdir. Qolgan konturi esa rasmda ko'rsatilgandek quriladi (13.3-b rasm).



13.3-rasm. Yelimlama usul bilan sandaletlarni a) sirtqi
va b) ichki detallarini loyihalanish tasviri.

Nazorat savollari

1. Sandaletlar detallarining konstruksion tafsifini izohlang.
2. Doppel usulidagi sandaletlarning sirtqi, ichki, oraliq detallari loyihasini tasvirlang.
3. Yelimlama usulidagi sandaletlarning sirtqi, ichki, oraliq detallari loyihasini tasvirlang.

14-bob.

POYABZALNING TAG DETALLARINI LOYIHALASH

Tag detallarini loyihalash ikki guruhga bo'linadi. Yassi shakldagi tag detaillar (charm, rezina, plastmassa va hokazo materiallardan), ikkinchisi shakllantirilgan, yaxlit qo'yma, yarim qo'yma va qo'yma usulda tayyorlangan detaillar.

Tag detailarining konstruksiyasi, shakli, o'lcham (razmer)lari poyabzal ko'rinishiga, konstruksiyasiga, yosh-jinsiy guruhiga, poshna balandligiga, tag detailarini birlashtirish usuliga hamda taglikga ishlov berilishiga bog'liq. Lekin ikkala guruhdagi tag detailarini qurishda ham qolipning tag qismining nusxasi asos qilib olinadi. Shuning uchun qolipning tag qismidan nusxa olishni bilish shart.

Qolipning tag qismini yupqa qog'ozga qo'yib, uni qog'ozga nisbatan tik qilib konturi chizib olinadi. Shu konturga 8—10 mm qo'shimcha berib, yangi hosil bo'lgan kontur orqali qirqib olinadi va har 10—15 mm masofada 15—20 mm chuqurlikda yaproqchalar kesiladi.


Shu kesilgan qog'ozni qolipning tag qismiga yelim yordamida yopishtilirib, qolipning qirralari (konturi) qalam yordamida qog'ozga ko'chiriladi. Keyin qog'ozni ko'chirib olib, qalinroq qog'ozga yelimalb yangi hosil bo'lgan kontur orqali qirqib olinadi, unga qolipning razmeri N, to'laligi W, tag qismining uzunligi L_n yozib qo'yiladi.

Asosiy patakni loyihalashda shu olingan qolipning tag qismi nusxasidan foydalaniлади. Poyabzalning tag detailarini loyihalash, ustki detailarni loyihalashга nisbatan oson va bir-biriga o'xshashdir. Tag detailarini tuzilishi: o'lchamlari, shakli, poyabzalning konstruksiyasiga, ko'rinishiga, yosh-jinsiy guruhiga bog'liqidir. Hamma tag detailarini qurish uchun qolipning tag nusxasi (patak) asos qilib olinadi. Shuning uchun birinchi navbatda asosiy patak loyihalanadi.

14.1. ASOSIY PATAKNI LOYIHALASH

Asosiy patakni qurishda qolipning tag qismining nusxasidan foydalaniлади. Yaqin yillargacha qolipning tag qismini nusxasi asosiy patakning konturi deb yuritilib, uni qolipga biriktirgandan keyin tovon qismi ziyi bo'yicha shilib tashlanar edi.

Hozirgi paytda patakni konturi qolipning tag qismini konturiga nisbatan Y miqdorga qisqartirish ko'zda tutilmoqda. Bunday qilinganda, birinchidan



14.1-rasm. Asosiy patakni qurish tasviri.

bir texnologik (patakning tovon qismini shilish) jarayoni qisqaradi va ikkinchidan material iqtisod qilinadi.

Shunday qilib, ustki detallarni tekis qolipga tortish uchun patakning konturi qisqartirilishi kerak. Bu quyidagicha topiladi:

$$Y_1 = t_{\text{pat}} \cdot \operatorname{tg} \alpha.$$

Bunda: Y_1 — qisqartirilish qiymati; t_{pat} — davlat standart bo'yicha patakning qalinligi; α — qolipning yon qismiga o'tkazilgan urinma kk va qolipning tag qismiga o'tqazilgan tik CC orasidagi burchak (14.1-rasm).

α burchak qolipning har xil kesimlarda turlich bo'lib, A.A.Afanasyevning tavsiyasiga binoan quyidagi qiymatlarga ega:

	gradus
Tovon qismining orqa tomonida	20—25
Tovon qismining yon tomonlarida	8—23
Ichki axmi qismida	40—50
Tashqi axmi qismida	7—25
Tashqi tutam qismida	0—15
Ichki tutam qismida	0—15

Patak uzunligini qisqartirish quyidagi tenglama yordamida topiladi:

$$D_{\text{pat}} = D_k - t_{\text{pat}} \cdot \operatorname{tg} \alpha.$$


Bunda: D_{pat} — patakning uzunligi; D_k — qolip tag qismini uzunligi.

14.2. TAGLIKNI LOYIHALASH ASOSLARI

Taglikni loyihalashda patakning konturi asos qilib olinadi. Patakning konturi ingichka yordamchi chiziq bilan chizib olinib (14.2-rasm), unga ustki detallarning qalinligi, qadolatni (tag charmni ko'rindigan) eni va ishllov berish uchun qo'shimcha qiymati qo'shiladi (14.2-a rasm).

$$\Sigma \Pi = \Pi_i + r + f,$$

bunda: $\Sigma \Pi$ — patak konturiga qo'shiladigan qo'shimcha qiymatning eni; Π_i — davlat standart bo'yicha tanavor detallarining qalinligi; r — tayyor poyabzaldagi qadolat (taglikni ko'rindigan qismi)ning eni. SNIIKP



14.2-rasm. Yassi taglikni qurish tasviri.

tavsiyasiga binoan 17-jadvaldan olinadi; f — taglikga ishlov berish uchun qo'shiladigan qiymat.

Bu o'z navbatida $f = f_{\min} + f_{qo,sh}$ ga teng, ya'ni, f_{\min} — ishlov berish uchun minimal qiymat $f_{\min} = 0,5 \div 1,5$ mm; $f_{qo,sh}$ — taglikni tanavorga birkirishda va ishlov berishda vujudga keladigan xatolarni hisobga oluvchi qo'shimcha qiymat $f_{qo,sh} = 0,5 \div 4$ mm.

Tanavorning detallarini qalinligi Π_t , quyidagi tenglama bilan hisoblanadi:

$$\Pi_t = \Sigma T_t \cdot K_c$$

Bunda: ΣT_t — tayyor poyabzalidagi tanavor materiallarini qalinligi (Davlat standarti bo'yicha); K_c — zichlanish koeffitsienti (ya'ni, qolipa poyabzalni tortganda material cho'zilib zichlanadi).

A.A. Afanasyevning tavsiyasiga binoan, K_c ning o'rtacha qiymati $0,75 \div 0,9$; SNIIKPni tavsiyasiga binoan tumshuq qismida $K_c = 0,5$, tovon qismida $K_c = 0,7$ va axmi qismida $K_c = 0,5$. Bu qiymatlar tajriba yo'li bilan topilgan.

Quyidagi misolda erkaklar poyabzalida tovon qismining orqa choki bo'ylab tanavor detallarining qalinligini hisobga oladigan qo'shimcha qiymat (P_t) ni hisobi keltirilgan.

Qalinligi davlat standarti bo'yicha, mm da

Orqa tashqi tasma (charmdan)	0,8
Ustki dastak (charmdan)	0,7
Oraliq astar (gazmol)	0,4
Qattiq dastak (charm, karton)	2,2
Charm astar	0,6
Jami	$\Sigma T_t = 4,7$.

SNIIKPning tavsiyasiga binoan $K_c = 0,7$ bo'lsa, unda

$$\Sigma \Pi_t = \Sigma T_t K_c = 4,7 \cdot 0,7 = 3,29 \text{ mm} \sim 3 \text{ mm};$$

Tayor poyabzalda taglikning ochiq qirg'og'ini kenglik me'yori r, mm da

Biniktirish usulli	Poyabzalni yosh-jinsiy guruhi	Taglik xomashyosi	Eng bo'trib chiqqan qismida	Tumshuq-futam qismi (0,73L)	Axmi qismi (0,41L)	Tovon qismi (0,18L)
1	2	3	4	5	6	7
Rantli (tovongacha)	Erkaklar va o'gil bolalar	G'ovak rezina, charm	6,5±0,5	2,0±0,5	6,5±0,5	7,5±0,5
	Ayollar va qiz bolalar	-- --	5,0±0,5	1,5±0,5	5,0±0,5	6,0±0,5
Rantli (ayjanma)	Erkaklar va o'gil bolalar	-- --	6,5±0,5	5,0±0,5	6,5±0,5	7,5±0,5
	Ayollar va qiz bolalar	-- --	5,0±0,5	4,5±0,5	5,0±0,5	6,0±0,5
Yelimi	Erkaklar va o'gil bolalar	G'ovak rezina	2,5±0,5	1,5±0,5	2,5±0,5	2,5±0,5
	Ayollar va qiz bolalar	-- --	1,0±0,5	1,0±0,5	1,0±0,5	1,0±0,5
	Ayollar	Quyma rezina	1,5±0,5	-	1,5±0,5	-
	Ayollar, qiz bolalar va makktab yoshdagilar	Charm	2,0±0,5	1,5±0,5	2,0±0,5	2,0±0,5
Vintli va mixli	Erkaklar va o'gil bolalar	Charm	4,5±0,5	2,0±0,5	4,5±0,5	2,5±0,5
Ayollar, qiz bolalar va makktab yoshdagilar			4,0±0,5	1,5±0,5	4,0±0,5	2,5±0,5
Doppel	Yosh bolalar	Charm	6,5±0,5	4,0±0,5	6,5±0,5	6,5±0,5
"Parko 1"	Yosh bolalar	Charm	5,0±0,5	4,0±0,5	5,0±0,5	5,5±0,5
"Parko 2"	Yosh bolalar	Charm	5,0±0,5	2,0±0,5	5,0±0,5	5,0±0,5

Bunda $\Sigma\pi_i$ aniqlangandan keyin 17-jadvaldan $r = 1,5$ mm olinadi va f tanlanadi: $f_{min} = 1,5$; $f_{qo'sh} = 2,5$ mm.

$$\Sigma\pi = \pi_i + r + f_{min} + f_{qo'sh} = 3 + 1,5 + 1,5 + 2,5 + 8,5 \text{ mm.}$$

Oldindan ishlov berilgan tagliklar uchun $f_{qo'sh}$ hisobga olinmaydi.

Taglikni qurish uchun beriladigan qiymatlar patakning tovon, tumshuq, axmi, tutam qismlari uchun alohida hisoblanadi, chunki bu qismlarda detallarning soni va qalinligi har xildir. Bu qismlarning aniq joylarini oyoq panjasining uzunligiga nisbatan aniqlanadi, ya'ni tovon — $0,4 L_{o.p.}$; axmi — $0,4-0,6 L_{o.p.}$; tutam — $0,6-0,8 L_{o.p.}$ va tumshuq — $0,8-1,0 L_{o.p.}$ qismlari uchun $\Sigma\pi$ alohida hisoblanadi.

Shunday qilib, patakning konturini chizib, o'q chizig'i o'tkazilgandan va tovon, axmi, tutam, tumshuq qismlarini belgilab olingandan keyin, har bir qismi uchun alohida hisoblab chiqilgan $\Sigma\pi$ ni belgilab, lekala yordamida tekis tutashtiriladi (14.2-b rasm).

Tilchalik taglikni loyihalashda taglikni axmi, tutam va tumshuq qismlari yuqorida keltirilganday loyihalanadi. Tilcha esa poshnaning frontal konturiga eng kami 12 mm qurib turishi kerak.


Poshnaning uzunligi quyidagicha aniqlanadi:

$$D_p = 1/4 D_i + (10 \div 15) \text{ mm.}$$


Bunda D_i — taglik uzunligi.

O'rta va baland poshnali poyabzallar uchun krokulli tagliklarni qurish esa tovon qismidan tashqari, xuddi yuqorida keltirilgan kabi loyihalanadi. Krokullik tagliklarni qurish uchun poshnaning frontal chizig'ini olib, unga shu chiziqdan boshlab, poshnaning frontal yuzasidan olingan nusxasini qo'yib, konturi chiziladi (14.3-rasm). Krokullik taglikni tovon qismida poshnaning frontal tomonini nusxasiga nisbatan (eni bo'yicha) $3 \div 3,5$ mm va uzunligi bo'yicha $5 \div 7$ mm qo'shimcha qo'yiladi.

Ponasimon poshnali tagliklarni qurishda poshnaning frontal chizig'i topilib, unga poshnaning tag tomonini nusxasi qo'yilib chizib olinadi. Poshnaning nusxasi asosiy patakning tovon qismidan chiqib turishi kerak. Shunday holda poshnaning nusxasini konturiga $3,5 \div 4$ mm qo'shimcha beriladi (14.4-rasm).



14.3-rasm. Tilchalik taglikni qurish.



14.4-rasm. Ponasimon taglikni qurish.

Taglikning qolgan qismi yuqorida keltirilgan uslub bo'yicha quriladi. Yupqa taglik va yumshoq tagliklarni loyihalash yassi taglikni konturi bo'yicha bajariladi.

Tashqi va ichki kapak, taglikni tumshuq hamda tutam qismidagi konturi bo'yicha 1–2 mm qo'shimcha berilib quriladi, uzunligi tutam (panja-kaft) chizig'iga parallel holda 30–40 mm tovon qismi tomoniga o'tib turadi.


14.3. POSHNALARNI LOYIHALASH

Past poshnali moyabzallarga «poshna ostini» qurish. Bu detalni qurishda tag charm tovon qismining konturi asos qilib olinadi. Lekin taglik o'ng va chap oyoq uchun alohida bo'lib, tovon qismi assimetrikdir.

Poshna, poshna osti detallari esa o'ng va chap oyoq uchun bir xil, ya'ni simmetrik bo'ladi. Shuning uchun taglikning uzunligini 1/4 bo'lagiga 10–15 mm qo'shib, poshna osti detalini uzunligi topiladi (14.5-rasm).

$$L_p = \frac{D_t}{4} + 10 \div 15 \text{ mm}$$

masofani tovon tomonidan o'q chizig'iga qo'yib nuqta belgilab olinadi. Bu nuqtadan o'q chizig'iga tik tushirilib, taglikni tovon qismi qirqib olinadi va tik chizig'i bo'ylab ikki qavat qilib bukiladi. Uni bukkanda poshna ostining tashqi va ichki tomonini konturi bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Konturlarning o'rtasida yangi bir chiziq o'tkazib, simmetrik kontur bo'ylab qirqib olinadi. Keyin qirqib olingan andoza tagiga (qog'ozning bukilgan chizig'i, poshna ostining o'qida yotgan) ikki qavat bukilgan qog'oz qo'yib qirqib olinadi. Bukilgan chiziq, poshna ostining o'q chizig'ida yotishi shart. Hosil bo'lgan kontur buklangan chiziq bo'ylab yoyilish natijasida simmetrik poshna osti vujudga keladi (14.5-b rasm).



14.5-rasm. Poshna ostini loyihalash.

Poshna ostining old qismi sirkul yordamida tutashtiriladi. Buning uchun uning enini qiymatiga teng radius orqali o'q chizig'ida radius markazi topiladi va shu nuqta orqali yoy chiziladi.

O'rta va baland poshnali moyabzallar uchun, poshna osti detallarini qurishda poshnaning tag qismini konturidan foydalilaniladi. Bunda krokulli taglik va qoplamaning qalinligi hisobga olingan konturga 2 mm qo'shimcha beriladi.

Past poshnali moyabzallar uchun fliklarni qurishda poshna osti konturi asos qilib olinadi, va unga 0,5–1 mm qo'shimcha beriladi. Fliklar 2–3 qavatdan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

O'rtalikdagi poshnali poyabzallar uchun fliklarni qurish, poshnaning lyapis qismini va poshna ostining konturini chizib olib, bir xil nuqtalarini birlashtirib, teng bo'laklarga bo'linadi. Bo'laklarning soni fliklarning soniga teng bo'ladi. Bejlilab olingan nuqtalar orqali fliklarni konturi alohida-alohida chizib olinadi.

Yig'ma poshnalarining jiyagini qurishda past poshnali poyabzallar uchun poshna ostining konturi, o'rtalikdagi poshnali poyabzallar uchun taglikga tegib turadigan flikni konturi asos qilib olinadi. Poshna jiyagining ichki konturi esa tashqi konturga ekvidistal qilib, quyidagi o'lchamda chiziladi:


Jiyakning eni

Erkaklar poyabzali uchun	18—20 mm
Ayollar va maktab yoshidagi bolalar poyabzali uchun	17—19 mm
Maktab yoshigacha bo'lgan bolalar poyabzali uchun	16—18 mm
Bolalar va yosh bolalar poyabzali uchun	15—16 mm

14.4. QO'YGICH VA TO'LDIRGICH (GELENKA VA PROSTILKA)LARNI QURISH

Qo'ygich va to'ldirgichlarni qurish uchun asosiy patakni konturiga tortish baxyasining eni, yelimlama va mix tortish usullarida (14.6-*b* rasm) yoki rantli patak labining ichki konturi (14.6-*a* rasm) asos qilib olinadi. Qo'ygich va to'ldirgichni qurish uchun asosiy patakni konturi chizilib, unga tutam (panja-kaft) chizig'i chiziladi. Qo'ygichning old chizig'i tutam chizig'iga 8—10 mm yetmaydi, to'ldirgichning old qismi esa qo'ygichning old qismini 8—10 mm berkitib (yopib) turadi.

Tortish baxyasining konturi bilan to'ldirgich va qo'ygichning orasi 1,5—2 mm bo'lish kerak.



14.6-rasm. Qo'ygich va to'ldirgichlarni qurish.





14.5. ICH PATAK, YARIM ICH PATAK VA TOVON OSTI ICH PATAKLARINI QURISH

Ich patakni qurish uchun asosiy patakning konturi asos qilib olinadi. Ich patakning tumshuq qismi asosiy patakning konturidan 2—3 mm qisqartirilib, axmi qismining ichki konturiga 3—4 mm, tashqi konturiga 2,5—3 mm, tovon qismida esa 1,5—2 mm qo'shimcha berilishi kerak. Yozgi ochiq va tasmali poyabzallar uchun ham ichki patak yuqorida ko'rsatilgandek quriladi, faqat ichki patakning tumshuq va tovon qismidagi konturi asosiy patakning shu qismlardagi konturiga mos kelishi kerak.

Yarim patak va tovon osti ich pataklari ham xuddi ich patakga o'xshab quriladi, faqat yarim ich patakning old konturi tutam chizig'ida yotadi. Tovon osti ich patakning uzunligi esa $1/4 L_p + 10$ mm ga teng bo'ladi. Bu detallarning old konturi tekis, figurali yoki boshqa istalgan shaklda bo'lishi mumkin.

14.6. BIKIR DASTAKLARNI LOYIHALASH

Bikir dastaklarning tuzilishi, o'lchamlari, birinchi navbatda poyabzalni ko'rinishiga va poshna balandligiga bog'liq. Poshna qancha baland bo'lsa,



14.7-rasm. Bikir dastaklarni loyihalash.

bikir dastakning qanotlarini uzunligi shuncha uzun bo'ladi. Bikir dastak balandligi esa $V_d = 0,15 N + (8 \div 9) \text{mm}$ kabi tenglama yordamida topiladi.

Bikir dastakni qurish uchun qolipning o'rtaligining nusxasi yuqorida ko'rsatilgandek koordinata o'qlariga joylab, bazis va nazorat chiziqlarini chizgandan keyin, balandligini qolipning o'rtaligining nusxasini orqa konturiga qo'yib V_d nuqtasi belgilab olinadi. V_d nuqtadan nazorat chizig'iga parallel chiziq o'tkaziladi. Agar poyabzal past poshnali bo'lsa, unda bikir dastakning qanotlarini uzunligi I bazis chizig'igacha (14.7-a rasm), o'rtaligining poshnali poyabzallar uchun II—III bazis chiziqlarini o'rtasigacha (14.7-b rasm), baland poshnali poyabzallar uchun III bazis chizig'igacha (14.7-d rasm) bo'ladi. Oq'ir poyabzallar, ya'ni etiklar uchun bikir dastak 14.7-e rasmida keltirilgandek quriladi.

Tortish baxyasi uchun beriladigan qo'shimcha qiymat esa taglikning biriktirish usullariga qarab quyidagicha bo'ladi.

Tortish baxyasining eni, mm da

Yelimlama usul	$15,0 \pm 0,5$
Qadolatli (rant)usul	$14,0 \pm 0,5$
Mix, sandal va tikish usullar	$13,5 \pm 0,5$
Doppel usuli	$12,0 \pm 0,5$
«Parko» usuli	$5,0 \pm 0,5$

14.7. TUMSHUQ OSTINI QURISH

Tumshuq ostini qurish uchun V bazis chizig'idan betlikni kontur nusxasi qirqib olinib, shu konturga nisbatan tortish baxyasi bo'yicha 3—4 mm ga, yon tomonlari esa 4—5 mm qisqartirilib chiziladi. Tumshuq ostining V bazis chizig'iga yo'nalgan tomonining konturi har xil shaklda (tekis, yoy simon va hokazo) bo'lishi mumkin. Bunda faqat detallarni o'zaro joylashishi va xomashyo kam sarf bo'lishi hisobga olinishi kerak.

Nazorat savollari

1. Poyabzalning tag detallari to'g'risida umumiy ta'rif bering.
2. Asosiy patak haqida aytib bering.
3. Taglik qanday loyihalanadi?
4. Poshnalar qanday loyihalanadi?
5. Qo'yich va to'ldirgichlar qanday loyihalanadi?
6. Bikir dastaklarni loyihalash usullarini ta'riflang.
7. Tumshuq osti qanday loyihalanadi?

15-bob.
CHARM-ATTORLIK
BUYUMLARINI LOYIHALASH


15.1. XALTALARINI LOYIHALASH ASOSLARI

Charm-attorlik buyumlarini loyihalash jarayoni buyum eskizini barpo etish, eskitni badiiy kengashda tasdiqlash, mahsulotni nazorat chizmasi va detallar ishchi chizmasini tayyorlash, namuna hamda tajriba partiyasini ishlab chiqarish, texnik hujjatlarni tuzish va mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishga joriy etish kabi asosiy bosqichlardan iborat.

Rassom, mahsulotning silueti, proporsiyasi va uning alohida detallarining chizmalarini ishlash uchun ularning asosiy razmerlarini aniqlagan holda, kerakli sonda ishchi proyeksiyalarini ko'rsatib, eskitga ishlov beradi. Ishchi proyeksiyalarning soni mahsulotni konstruksiyasiga, ya'ni murakkabligiga bog'liq. Qoidaga binoan, modelyer-konstruktur mahsulotning kerakli o'lchamlarini aniqlab olishi uchun uni ikki proyeksiyada (old va yon tomonidan) tasvirlashi kifoya. Ikki devorcha va tubdan iborat xaltalar uchun esa tubini ham o'lchamlarini ko'rsatish maqsadida uch proyeksiyada tasvirlanadi. Oddiy konstruksiyadagi buyumlar faqat izometriyada berilishi mumkin. Kichik va o'rta o'lchamli mahsulotning ishchi proyeksiyalarini asl kattaligida, katta o'lchamdag'i mahsulotlar esa masshtabga asosan, kichiklashtirilib beriliadi.

Mahsulotning asosiy konstruktiv o'lchamlari; uzunligi D , kengligi K va balandligi B hisoblanadi. Agar buyum trapetsiya shaklida bo'lsa, uning balandligi, uzunligi va kengligi tepe hamda past qismi bo'yicha ko'rsatiladi. Undan tashqari, tubiga nisbatan devorchanasi og'ish burchagi β va devorchaning yon chiziq og'ish burchagi γ belgilab qo'yiladi. Kerak bo'lgan joylarda chizmada radiuslar qo'yilib, tekis chiziq bilan tutashtiriladi. Agar rassom mahsulotning asosiy o'lchamlaridan tashqari, ba'zi detallarga qo'shimcha o'lcham qo'yish maqsadga muvosiq deb hisoblasa, unda ishchi proyeksiyalarida shu razmerlar ham ko'rsatilishi kerak. Eskiz tasdiqlangandan keyin modelyer-konstruktur nazorat va ishchi chizmalarini ishlab chiqaradi. Nazorat chizma texnologik jarayonlar uchun beriladigan qo'shimchalarsiz va ishchi chizma esa qo'shimchalari bilan beriladi.

Charm-attorlik buyumlar assortimentini kengaytirish, sifatini yaxshilash va ishlab chiqarishni ko'paytirish kabi vazifalarni yechish ormillaridan biri uning detallarini unifikatsiyalashtirish hisoblanadi. Charm-attorlik buyumlarining korpusi, bog'lam va detallari hamda furnituralarni unifikatsiyalash mumkin (15.1-rasm).



15.1-rasm. Unifikatsiyalashgan ramka qulfi (a) va korpusli (b) ayollar xaltalari.

Detal va bezaklarni unifikatsiyalash mahsulotning iqtisodiy samaradorligig a katta ta'sir ko'rsatadi. Charm-attorlik buyumlari konstruksiyalari jihatida n juda ko'p (400 nomdan iborat) turlarga bo'linadi. Bu turlarning hammasini ko'rib chiqish imkoniyati yo'q. Shuning uchun charm-attorlik buyumlarini katta guruhlari bo'lgan xalta va qo'lqoplarning loyihalash asosiy vaziyatlari ko'rib chiqiladi.

Xaltani tanasi (korpusi) ikki devorcha va botandan iborat bo'lsa, uni loyihalash uchun devorchalarning ustki ($D_{d,u}$), pastki qismlari ($D_{d,p}$) ni hamda burchaklari radius (R) lari kerak bo'ladi (15.2-a rasm).


Botanni konturini chizish uchun uning uzunligi L_b ni texnologik ishlovi uchun beriladigan qo'shimchani hisobga olgan holda aniqlanadi. Misol uchun, $A'B_1B_2C_1C_2D'$ ning perimetri $AB_1B_2C_2C_1D$ ning uzunligi ga nisbatan katta, chunki B_1B_2 , B_1B_2 dan va C_2C_1 , C_2C_1 dan katta (15.2-a, b rasm).

Shurnday qilib,

$$L_b = 2 [AB_1 + 0,018 (R + \Pi) \cdot d + B_2M] \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Bota nning o'rta qismidagi kengligi MM_1 , ishchi proyeksiyada berilgan xaltani tubini kengligiga teng bo'lish kerak. Botanini kengligi AA_1 va DD_1 ustki qismida tubni kengligiga teng yoki kichik va katta (15.2-b, d, e rasm) bo'lishi mumkin. Birinchi va ikkinchi hollarda AA_1 va DD_1 rassom tomonidan berilgan bo'ladi, d holda esa xaltaning og'zini ochilishi inobatga olinib, maxsus yo'l bilan hisoblanadi.

Botarning konturini qurish O_1 nuqtadan boshlanadi. Bu nuqtadan tepa va pastga $O_1A = O_1A' = 0,5 AA_1$ masofa qo'yiladi. OM va OM_1 masofalar $0,5MM_1$ ga teng. Hosil bo'lgan M va M_1 nuqtalardan gorizontal o'qga



5.2-rasm. Tanasi ikki devorcha va botandan iborat xaltaning chizmasi:

a — devorcha; b — bir xil kenglikdagi botan;
d — ustki qismi keng botan; e — ustki qismi tor botan.


parallel chiziqlar chiziladi. A va A_1 , nuqtalardan xaltaning devorchalarini uzunligi AB_1 va DC_1 ga teng radius R_1 da, M va M_1 nuqtalaridan chiqqan parallel chiziqda B_1 , B_1' belgi qo'yildi. Oxirgi nuqtalardan $B_1B_2 = B_1'B_2' = 0,018 (R + \Pi) \cdot \alpha$ masofa belgilanadi. B_2M va $B_2'M_1$ kesmalar, devorchanini tubidagi kenglikni yarmiga teng bo'ladi. Botanning ikkinchi yarmi ham yuqorida keltirilgan singari chiziladi.

Charm-attorlik buyumlarning ustini yoyilish usuliga asosan, korpusning asosiy detallari va spetsifik (o'ziga xos) detallarini qurish xususiyatlari.

Ramkasi qulflar yordamida yopiladigan xaltalar. Bunday mahsulotlar ag'darma yoki noag'darma usullar bilan tayyorlanadi. Korpuslari yuqorida keltirilgan uslublar assosida quriladi. Lekin ramkali qulfga tiqiladigan detallardan ustki qismning o'cham hamda shakli, qulfnini o'cham va shakllaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi (15.3-a, b rasm).

Mahsulotning detallarini loyihalashda ramkali qulfnini:

- qulfnining tashqi yon qirralari orasidagi uzunligi, D_1 ;
- ramkaning tepe qirrasidan, oshiq-moshiq markazigacha balandligi, B_1 ;
- qulfnining ichki qirrasini egrilik radiusi, R ;
- ramkaning tashqi qirralari orasidagi kengligi, III_1 ;
- ramkaning kengligi, III_2 ;
- ramkaning yon tomon balandligi, H ;
- qulfnining material balandligi, λ ;
- detalning ustki qirg'og'ini, qulf tirqishiga taqiladiga n chuqurligi b kabi o'chamlarini bilish kerak (15.2-a, b rasm).



15.3-rasm. Ramkali quiflarni va unga joylashgan detallarni qurish tasviri.

Mahsulotning devorchasi ustki qismi uzunligini ramkali quifni uzunligiga asoslanib olinadi. Buning uchun quifni konturi qog'ozga tushiriladi (15.3-b rasm). Agar material quifni tirkishiga pastdan tiqilsa, ramkali quif yoy markazi O aniqlanadi. O nuqtadan r radiusi bilan aylana chiziladi. $r = R - \Delta$, bunda Δ — quifni burchagi qiyiq va devorchani tiqish quayligini beruvchi, quif va detal oraliq'idagi masoфа.

Δ — materiallar qalinligiga qarab 2—5 mm ga teng deb qabul qilingan. Gorizontal chiziqqa α burchak ostida radius r ga urinma o'tkazilib, BN nuqtalari hosil bo'ladi. α burchak ishchi proyeksiyalarda ko'rsatilgan bo'lishi kerak. N nuqta devorchani tepe uzunligini chegaralovchi nuqta hisoblanadi.

Agar material qulfnii tirkishiga ustidan tiqilsa (5.3-e rasm), devorchaning uzunligi qulfnii gorizontal qismi uzunligiga teng bo'ladi. Devorcha usti qismining balandligi NN_1 materialni qulfga tiqish joyiga bog'liq.

Agar pastdan bo'lsa, devorchanini balandligi qulfdagi tirkish balandligi (δ) ga, tepe tomonidan esa ($H + \delta$) ga teng bo'ladi. Qiyiqni yoki botanni qulfga kirgiziladigan qismidagi o'lchami, qulfnii B_3 ga va qulfnii yoyilish burchagi φ ga bog'liq (5.3-a rasm). Qulfnning yoyilish burchagi φ qancha kichik bo'lsa, qiyiq ustki qismining kengligi va maydoni shuncha kam bo'ladi. Lekin φ burchagi uncha katta bo'lmasganda, materialni, ayniqsa oshiq-moshiq qismida qulf tirkishiga joylashtirish qiyinlashadi. Tayyor buyumdan foydalanish paytida bu joylarda katta kuchlanishlar paydo bo'ladi va materialni yirtilishiga yoki tirkishdan chiqib ketishga olib keladi. Shuning uchun φ burchagi 120° kam bo'lmasligi kerak. Ramkali qulfnii ustki qismiga material joylashtirilganda $\varphi = 180^\circ$ bo'lsa, qiyiq ustki qismining kengligi $NN_1 = 2(B_3 - H)$ va $NN_1 = N^*N_1^* = H$ ga teng bo'ladi. Qiyiq yoki botanni qulfga biriktiriladigan $EN_1NN_1N_1E^1$ qismining balandligi AN_1 va materialni tirkishda mustahkam joylashishi uchun berilgan 4–5 mm qo'shimchalar yig'in-disidan iborat bo'ladi (15.3-e rasm). Agar $\varphi < 180^\circ$ bo'lsa qiyiqni yoki botanni kengligi $NN_1 = 2(B_3 - H) \sin(\varphi/2)$ ga teng bo'ladi. Detalni quisga joylashtiriladigan qism konturini chizish uchun N nuqtadan (15.3-f rasm) (qulfnii gorizontal chizig'idan) oshiq-moshiqni markazigacha bo'lgan radius bilan gorizontal o'qqa belgi qo'yiladi (O_1 nuqta) va O_1N chizig'i o'tkazilib, O_1N gacha davom ettiriladi.

$$NN_1 = N^*N_1^* = H$$

N_1 va N^* nuqtalardan $R_1 = AN_1 + (4-5 \text{ mm})$ va O_1 nuqtadan $R_2 = B_3$ radiuslari bilan belgilari qo'yiladi. Radiuslarni kesishgan joylarida E va E^1 nuqtalari hosil bo'ladi. Agar material qulfga tepe qismidan qo'yilsa, qiyiqni kengligi $NN_1 = 2(OB + 0,018 \alpha R)$ va balandligi H ga teng bo'ladi.

15.2. CHARM QO'LQOPLARNI LOYIHALASH

Qo'lqopni modellashtirishdagi asosiy ko'rsatmalar. Charm qo'lqoplar qo'l panjasiga qiyinchiliksiz kiyilishi, yopishib turishi va harakatlarini cheklamaydigan bo'lishi kerak. Shuning uchun qo'lqop andozalarini loyihalashda qo'l panjasining o'lchamlaridan tashqari, qo'lqop charmlarini xossalari ham hisobga olinadi. Qo'l panjasining o'lchamlari yuqori (3-bob)da keltirilgan kabi, barmoqlari tik holda olinadi. Qo'lqop materiallari nisbiy cho'ziluvchanligi 45 dan 70 % gacha bo'lgan charmlardan tayyorlanadi. Shu ko'rsatkichdagi charmlar 45 dan 50 % gacha, 51 dan 60 % gacha, 60 % dan ko'p cho'ziluvchanligi bo'lgan uch guruhgaga bo'linadi. Bu guruhlardagi charmidan tayyorlangan qo'lqop andozalariga o'ziga xos o'zgartirishlar kiritiladi (18-jadval).

Qo'lqop detallarining andozasini qurishda qo'l o'Ichamlariga
nisbatan kiritiladigan o'zgartirishlar

Charmning cho'ziluvchanligi (%)	Andozaning o'Ichamlarini o'zgarishi (mm)	
	uzunlik bo'yicha	kenglik bo'yicha
45–50	15	5
51–60	20	0
60 dan ko'p	25	-5

Har xil korxonalarda turli mutaxassislar tomonidan tayyorlangan qo'lqop andozalarini xilma-xil bo'lib, loyihalash usullari bir-biridan farq qilgan va andozarning kenglik va uzunlik o'Ichamlari taqqoslab bo'lmaydigan darajada o'zgarib ketgan. Keltirilgan uslubda hamma tajribalar umumlashtirilgan holda umumiyy ko'rsatmalar berilgan. Bu uslubda loyihalash uchun qo'l panjasini 20 dan ortiq o'Ichamlari olinadi. Panjani quchoq o'Ichami O_k va andozani kengligi Sh_1 o'rtaсидаги nisbat $Sh_1 = K \cdot O_k$ kabi tenglama bilan ifodaланади, bunda K qo'l panjasining bukkanda quchoq o'Ichamini oshish koeffitsienti.

Koeffitsient $K = 1 - (\Delta Q_k / O_k)$ tenglama bo'yicha aniqlanadi.

Bunda: ΔQ_k — panjani bukkanda o'zgarishi; erkaklar uchun 15,5 mm, ayollar uchun 12,2 mm.

Kastuni bukkanda uning uzunligi D_k oshgani sababli kaft ro'molchasini uzunligi D_p ham uzaytiriladi:

$$D_p = D_k \cdot K_1,$$


bunda: D_p — kaft ro'molchasining uzunligi; D_k — qo'l kaftining uzunligi; K_1 — qo'l kaftining bukilish koeffitsienti.

Detallarini biriktirilishiga qarab (choklar uchun) qo'lpoqlarga quyidagi qo'shimchalar beriladi: kaft ro'molchalarini tikishda; to'g'ri baxy, yarim ag'darma va halqa qaviq usullari uchun 1,0—1,5 mm, dent va ag'darma usulida — 1,5 mm.

Bosh barmoq ro'molchasini loyihalashda ikki qator qo'yma chok uchun 5 mm qo'shimcha beriladi. Chokni bajarilish qulayligini oshirish uchun bosh barmoq ro'molchasining pastki qismida 10 mm oshirilishi mumkin. Bosh barmoq ro'molchasi qirg'oqlarini tikish uchun 1,5 mm qo'shimcha beriladi.

Kaft ro'molchasini qurish. Kaft ro'molchasi qurish uchun andoza o'Ichamlariga o'zgartirishlar kiritgan holda, panjaning kaft tomoni bo'yicha uzunligi D_p^k beshinchi kaft suyak boshchasing markazi bo'yicha quchoq o'Ichami O_k , ikkinchi I_2 , uchinchi I_3 , to'rtinchi I_4 , beshinchi I_5 barmoqlarni fleksor uzunligi, beshinchi barmoq davomida kaft uzunligi I_6 kabi panja o'Ichamlari dastlabki ma'lumotlar sifatida olinadi.

Qog'ozga I—I tik chizig'i chiziladi (15.4-rasm) va unda ixtiyoriy A nuqta qo'yilib panjani kaft tomoni uzunligi D_p^k belgilanadi va B nuqta hosil bo'ladi. A va V nuqtalardan I—I chizig'iga tik chiziqlar II-II va III-III o'tkaziladi. Shu chiziqlar bo'ylab o'ng va chap tomoniga $O_k/2$ ga teng masofalar qo'yiladi. Hosil bo'lgan B va B_1 , G va G_1 nuqtalar to'g'ri chiziqlar bilan tutashtiriladi. BG chizig'i uchinchi barmoqni cho'qqisi, B_1G_1 esa panjani asosi hisoblanadi.



15.4-rasm. Kaft ro'molchasini qurish tasviri.

A nuqtadan I—I chizig'i bo'ylab l_3 miqdor qo'yiladi va O nuqta hosil bo'ladi. I—I chizig'iga tik ravishda O nuqtadan BB_1 va GG_1 chizig'i bilan tutashguncha IV—IV chizig'i o'tkaziladi va O_1 , O_2 nuqtalar bilan belgilanadi. Hosil bo'lgan O_1O_2 chizig'i kaft ro'molchasini ikkinchi, uchinchini va to'rtinchi barmoqlarni kaft tomonini asosi hisoblanadi. O nuqtadan o'ng va chap tomonga 4 mm ga teng masofa qo'yiladi (D va D_1 nuqtalar). Bu miqdor hamma razmerdagi qo'lqoplar uchun doimiy bo'lib, ikkinchi barmoq kengligini oshiradi, chunki bu joyga mil tikilmaydi. DO_1 va D_1O_2 masofani tering ikkiga bo'lib, uchinchini va to'rtinchi barmoqlar oraliq'idagi kesim E va E_1 nuqtalari belgilanadi.

Ikkinci va uchinchi barmoqlar oraliq'i J hamda J_1 nuqtalar bilan ifodalanib, DE va D_1E_1 ning o'rtesi hisoblanadi. EO_1 va E_1O_2 bo'laklarini ikkiga bo'lib 3 va 3_1 nuqtalar topiladi. 3 nuqtadan chapga va 3_1 nuqtadan o'ngga beshinchi barmoqning kengligini oshirish uchun 1 mm dan qo'shimcha beriladi. Chunki beshinchi barmoqning ham bir tomonida mil bo'lmaydi. Hosil bo'lgan K va K_1 nuqtalardan to'rtinchi va beshinchi barmoqlar oraliq'i o'tadi.

Beshinchi barmoqning asosini aniqlash uchun G_1 nuqtadan G_1G chizig'i bo'ylab l_4' miqdor qo'yiladi va II nuqta hosil bo'ladi. Undan O_1O_2 ga parallel $B-B$ chizig'i o'tkaziladi. Bu chiziq kaft tomonida beshinchi barmoq, orqa tomonidan esa ikkinchi, uchinchi va to'rtinchi barmoqlar asosi hisoblanadi. Beshinchi barmoqni orqa tomondagisi asosi $\Pi_1\Pi_2 = 12$ mm masofada joylashgan.

$O_1 O_2$ chizig'idan har bir barmoq uchun simmetrik o'q hh' , bb' , dd' , ss' , $h_1 h_1'$, $b_1 b_1'$, $d_1 d_1'$, $s_1 s_1'$ lari o'tkaziladi. Hosil bo'lgan h^1 , d^1 , s^1 nuqtalardan simmetrik o'q bo'ylab L_2^1 , L_4^1 , L_5^1 masofalar qo'yiladi va a , r , d kaft tomonida, a^1 , r^1 , d^1 orqa tomonida barmoqlar cho'qqilari topiladi. h^1 , d^1 , s^1 nuqtalardan simmetrik o'q bo'ylab L_2^1 , L_4^1 , L_5^1 masofalar qo'yiladi va a , r , d kaft tomonida, a_1 , r_1 , d_1 , orqa tomonida barmoqlar cho'qqilari topiladi. $a_1 a_1$, $b_1 b_1$, $e_1 e_1$, $d_1 d_1$ nuqtalardan chizmadagi barmoqlar kengligi Sh^1 ni yarimi pastga qo'yiladi va a_2 , a_2^1 , b_2 , b_2^1 , e_2 , e_2^1 , d_2 , d_2^1 nuqtalardan $R = 0,5 Sh^1$ radius bilan barmoqlarni ustki konturi bo'lmish yarim doira chiziladi (15.3-b rasm).

Yarim doirani pastki nuqtalari M_A va N_A nuqta bilan tutashtirilgandan keyin a_2 nuqtadan M_1 va N_1 chizig'iga tik tushiriladi. Chiziqlar kesishgan nuqtalar M_1 va N_1 davom ettirilib M_2 va N_2 nuqtalar hosil bo'ladi. $M_1 M_2$ va $N_1 N_2$ kesmalarning o'rtasida M_3 va N_3 nuqtalar bo'lib, a_2 nuqtadan radiusi $r = a_2 M_3 = a_2 N_3$ ga teng bo'lgan, M_3 , a_3 , N_3 qismlari bo'ylab yoy chiziladi va M_3 bilan M , N_3 bilan N nuqtalari tekis chiziq bilan birlashtiriladi.


Qo'lqopni qadama yon qismi III—III chizig'idan pastda moda yo'naliishiga asosan joylashtiriladi.

Bosh barmoq ro'molchasini qurish. Bosh barmoq ro'molchasini qurishda andoza o'lchamlari, material cho'ziluvchanligi hisobga olgan holda: bosh barmoq tenar asosidan barmoq oxirigacha L_1 ; bosh barmoqni fleksor uzunligi l_1 ; birinchi kaft suyagini boshchasi darajasidagi quchoq o'lchami O_1 ; birinchi $g_1 d_1$ va ikkinchi $s_1 j_1$ tenar yoylari, barmoq oxiridan tirnoq o'rtafigacha U_1 ; tirnoq o'rta bo'ylab O_n quchoq o'lchamlari dastlabki ma'lumotlar sifatida olinadi (3.12-rasm).

XX o'qida ixtiyoriy D nuqta olinib, undan L masofa qo'yilib, D_1 hosil qilinadi (15.5-a rasm). D nuqtadan YY o'qi o'tkaziladi. D nuqtadan $D_1 = l_1$ teng masofa qo'yilib va P nuqta belgilanadi. PD_1 masofani teng uch bo'lakka bo'lib G va U nuqtalari aniqlanadi. DD_1 o'qida $P_1 G$ va U nuqtalardan perpendikular chizilib,

$$PP_n = PP_b = 0,5 O_1; \quad GG_n = GG_b = 0,5 g, d; \\ UU_n = UU_b = 0,5 e, j$$

masofalar qo'yiladi va radiusi $r = 0,5 g, d$ bilan, U_n , D_1 , U_b nuqtalar yoy bilan, qolgan $U_n P_n$ va $U_b P_b$ nuqtalar to'g'ri chiziqlar bilan tutashtiriladi.



Agar chizma to'g'ri bajarilayotgan bo'lsa, yuqoridagi chiziqlar G_a va G_b nuqtalardan o'tadi. D nuqtadan pastga $DK = U_1$ masofa qo'yildi. K nuqtadan XX o'qiga tik o'tkazib, unda

$$KK_1^1 = K_1^1 K_b = KK_2^1 = K_2 K_b = 0,5O_n$$

masofalar belgilanadi.

K_1^1 va K_2^1 dan tik chiqarib, YY o'qi bilan kesishgan joyda K_1 va K_2 nuqtalar olinadi. K_1^1 va K_2^1 nuqtalaridan quyidagi radiusi bilan yoy chiziladi.

$$r_1 = 0,25O_n$$

Qo'lqop yurakchasi qurish. Yurakcha deb, panja ro'molchasinini kaft tomonida joylashgan, bosh barmoq ro'molchani o'matish uchun chizilgan o'ymagga aytildi (15.4-d rasm). Yurakchani konturini chizishda, K_d va K_{sh} koefitsientlarini hisobga olgan holda: birinchi va ikkinchi barmoqlararo nuqtalar oralig'i L^1 ; tenar asosi va barmoqlararo pardacha oralig'i L_1^1 ; yordamchi chiziq va ikkinchi barmoq o'qi oralig'i C kabi masofalar aniqlanadi.

O^1 nuqtadan pastga AV chizig'i bo'ylab $OH = L^1$ va hosil bo'lgan H nuqtadan $HH^1 = L_1^1$ masofalar qo'yildi. C^1 masofa HH^1 ga parallel qilib $H_1 H_2$ va $P_1^1 H_4$ chiziqlar o'tkaziladi. Oxirgi masofa $1/8 Sh_p$ ga teng. Bu yerda Sh_p — ro'molcha kengligi. $H^1 H_4$ va $P_1^1 H$ chiziqlari HH^1 ga tik. H_1^2 , H_1^3 va H_4^1 nuqtalar $r = 0,5H_2 H_4$ radiusli yoy bilan biriktiladi. H_1^1 nuqtadan 15.4-a rasmida keltirilgan $P_1^1 P_2^1$ masofa pastga qo'yildi va P_2^1 nuqta belgilanadi. Oxirgi nuqta R_1^1 va N_1 bilan tutashtiriladi. Ikkinchi barmoq o'rtasidan o'tgan o'q pastga HR_1^1 chizig'igacha davom ettiriladi va ρ_1 radius bilan yoy chiziladi. Yoyni ikkinchi barmoq simmetrik chizig'i bilan kesishgan nuqtasi R_2^{11} deb belgilaldi.

Qo'lqop milini qurish. Odatda, qo'lqop milini andozasi seriyadagi eng katta uchinchi barmoq o'lchamlari asosida quriladi va bu andoza hamma barmoqlar hamda razmerlar uchun ishlataladi. Chunki har bir razmer uchun tayyorlash juda ko'p kesgichlar tayyorlash va detallarni komplektlashdagi qiyinchiliklar kabi xarajatlarga olib keladi.

Qo'lqop mili (strelka)ning konturini chizish uchun uchinchi barmoqni fleksor uzunligi l_3 va tirmoq o'rtasi darajasidagi qalinligi t_3 va uchinchi barmoq asosini qalinligi T_3 kabi o'lchamlarni bilish kerak. Shu o'lchamlarga asoslanib 15.5-d rasmida keltirilganday chiziladi. Qo'lqop mili har bir qo'lqop uchun oltitadan bichiladi.

Nazorat savollari

1. Charm-attorlik buyumlari to'g'risida umumiy ta'rif bering.
2. Xaltalar qanday loyihalanadi?
3. Charm qo'lqoplarni modellashtirishda asosiy ko'rsatmalarini keltiring.
4. Kaft ro'molchasi qanday quriladi?
5. Bosh barmoq ro'molchasi va qo'lqop mili qanday quriladi?

16-bob.
POYABZAL DETALLARINI
SERIYAGA KO'PAYTIRISH

16.1. SERIYAGA KO'PAYTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Poyabzallarning yangi modeli, asosan, har yosh-jinsiy guruhning o'rta razmeri uchun loyihalanadi. Ma'lumki, ommaviy poyabzal ishlab chiqarishda, poyabzallar turli razmerda va to'lalikda ishlab chiqariladi. Bir xil fasondagi, qolip hamda poyabzalni va uning detallarini turli razmer va to'lalikdagagi qatoriga seriya deyiladi. Qolip, poyabzal va uni andozaalar seriyasini ishlab chiqish usuli, seriyalarga ko'paytirish yoki seriyalarga gradatsiya qilish deyiladi.

Gradatsiya (gradatio) so'zi lotinchadan olingan bo'lib, sekin-asta bir bosqichdan ikkinchi bosqichga o'tishni bildiradi.

Aholini qulay va loyiq poyabzalga bo'lgan talabini qondirish uchun qolip, poyabzal hamda uni detallarining seriyasini ishlab chiqayotganda, antropometriya natijalari va undan kelib chiqadigan qonuniyatlar asos qilib olinadi.

Absolut va nisbiy orttirmalar haqida tushuncha

Ma'lumki, qolip yoki poyabzalni uzunlik o'lchami va to'laligi o'zgarganda, uning qolgan o'lchamlari ham o'zgaradi.

Antropometriya bo'limidan, uzunlik bo'yicha oyoq panjasining barcha o'lchamlari, uning umumiyligiga proporsional o'zgaradi, ya'ni quyidagi nisbatda bo'ladi (16.1-rasm):

$$K = L_i / L_{\text{mal}} \text{ yoki } N_i / N_{\text{mal}} = a_i / a_{\text{mal}} = l_i / l_{\text{mal}}.$$

Andoza, detal va qoliplarni asosiy o'lchamlarini razmerdan razmerga o'tishdagi o'zgaruvchanligi *absolut orttirma* deyiladi.

Agar uzunlik bo'yicha bir razmerdan ikkinchi razmerga o'tayotgandagi absolut orttirma ΔN deb belgilansa, yoki Δa va Δl lar qolipni va poyabzalni xohlagan uzunliklari bo'yicha orttirmalari bo'lsa, u holda qidirilayotgan katta razmerdagi detalning uzunligi N_i , a_i va L_i lar quyidagicha topiladi:

$$N_i = N_{\text{mal}} + \Delta N; \quad a_i = a_{\text{mal}} + \Delta a; \quad L_i = L_{\text{mal}} + \Delta L.$$

Bunda: N_{mal} — ma'lum poyabzalning razmeri; a_{mal} va L_{mal} — ma'lum poyabzalning boshqa uzunlik o'lchamlari.

Poyabzal uchun, uzunlik bo'yicha absolut orttirma $\Delta N = 5 \text{ mm}$, unda qolipni va poyabzalni uzunlik bo'yicha o'lchamlarining nisbiy orttirmasi bir xil bo'ladi, ya'ni $\gamma = 5/N_{\text{mal}} = \Delta a/a_{\text{mal}} = \Delta L/L_{\text{mal}}$ va hokazo. Shunday qilib, uzunlik bo'yicha nisbiy orttirma, poyabzalni (qolipni) N_{mal} razmeriga bog'liq ekan. Qidirilayotgan detalni razmeri, ma'lum detalning razmeridan n nomer farq qilsa, ya'ni $N_i - N_{\text{mal}} = n$ bo'lsa, nisbiy orttirma ny ko'rinishda bo'ladi.

Loyihalanayotgan razmerdagi poyabzal detal-larini uzunlik o'lchamlari absolut orttirmasi, nisbiy orttirmaga almashtirish va ba'zi o'zgartirishlar natijasida quyidagi tenglamalar hosil bo'ladi:

$$N_i = N_{\text{mal}} (1 \pm ny); \\ a_i = a_{\text{mal}} (1 \pm ny); \\ L_i = L_{\text{mal}} (1 \pm ny).$$

Bunda: $n = N_i - N_{\text{mal}}$ qidirilayotgan va ma'lum razmerlar orasidagi farq.

Bu tenglamalarda $1 + ny = K_u$ uzunlik bo'yicha proporsionallik koefitsiyenti deb belgilasak, yuqoridagi tenglamalar quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

$$N_i = N_{\text{mal}} \cdot K_u; \quad a_i = a_{\text{mal}} \cdot K_u; \\ L_i = L_{\text{mal}} \cdot K_u.$$


Ko'ndalang kesim o'lchamlari Sh_{mal} , h_{mal} , C_{mal} va boshqalardan, birorta en o'lchamlari (masalan: Sh_{mal} — oyoq panjasining eni) o'zgar-sa, boshqa o'lchamlar unga proporsional ravishda o'zgaradi.

Lekin ko'ndalang kesimlar bo'yicha nisbiy orttirma β , uzunlik bo'yicha nisbiy orttirma γ ga nisbatan antropologiya qonuniyatlariga asosan kichik bo'ladi. Shuning uchun K_u va K_e lar turlicha, ya'ni $K_u > K_e$ deb hisoblanadi. Natijada qoliplarni ko'ndalang kesim o'lchamlarining nisbiy orttimalari quyidagicha topiladi:

$$\beta = 3/O_{\text{mal}}; \quad \Delta Sh/Sh_{\text{mal}} = \Delta O/O_{\text{mal}}.$$

Bunda: O_{mal} — ma'lum qolipni tutam qismidagi perimetri (quchoq o'lchami).

Ko'ndalang kesim va balandlik h o'lchamlarini topish uchun quyidagi tenglamalardan foydalilanildi:



16. I-rasm. Poyabzal detaillari va qoliplarni bo'yylama (a) va ko'ndalang (b) yo'naliishlardagi gradatsiyasi.

nisbatan antropologiya qonuniyatlariga asosan kichik bo'ladi. Shuning uchun K_u va K_e lar turlicha, ya'ni $K_u > K_e$ deb hisoblanadi. Natijada qoliplarni ko'ndalang kesim o'lchamlarining nisbiy orttimalari quyidagicha topiladi:

$$\beta = 3/O_{\text{mal}}; \quad \Delta Sh/Sh_{\text{mal}} = \Delta O/O_{\text{mal}}.$$

Bunda: O_{mal} — ma'lum qolipni tutam qismidagi perimetri (quchoq o'lchami).

Ko'ndalang kesim va balandlik h o'lchamlarini topish uchun quyidagi tenglamalardan foydalilanildi:

$$\begin{aligned} O_i &= O_{\text{mal}} (1 \pm n\beta), \\ Sh_i &= Sh_{\text{mal}} (1 \pm n\beta), \\ C_i &= C_{\text{mal}} (1 \pm n\beta), \\ h_i &= h_{\text{mal}} (1 \pm n\beta). \end{aligned}$$

Bu tenglamalarda, agar katta detal o'lchami topilish kerak bo'lsa (+) ishorasi, kichik detal bo'lsa (-) ishorasi qo'llaniladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amalda bu qonunlarga to'la amal qilinmaydi, chunki poshnali poyabzal kaft-barmoq bo'g'imida birmuncha egilib turadi (16.2-rasm). Tutam qismidagi egilishni hisobga olish uchun qolipni oyoq panjasining kaft-barmoq bo'g'imi gacha (1—2 yo'nalish) uzunlik bo'yicha nisbiy orttirma γ yordamida, keyin (2—3 yo'nalish) γ va β yordamida uzunligi aniqlanishi kerak.


Am alda bunday qilinmaydi, bu esa kichik xatoga olib keladi, bu xato qolipni pardozlayotganda tuzatib yuboriladi va uzunlik (1—2—3) bo'yicha absolut orttirma 5 mm ga teng deb qabul qilinaveradi.

Xuddi shu narsani qolipning balandlik o'lchamlari uchun ham aytish mumkin, ya'ni ko'ndalang kesim o'lchamlari 5—4 yo'nalishda emas, 4—5! yo'nalishi bo'yicha o'zgaradi.


Buning natijasida ko'ndalang kesim o'lchamlari bo'yicha kichkina xatoga yo'l qo'yiladi, bu xato qolip ishlab chiqarishda hisobga olinmaydi.

Ayrim yassi detallarni seriyaga ko'paytirganda ham xuddi yuqoridagi kamchi liklarga yo'l qo'yiladi. Shunday qilib, gulchin va tumshuqning andozasida bo'ylama o'qi, tayyor poyabzalning goh bo'ylama, gohida ko'ndalang (balandlik) yo'nalishdagi o'qiga mos keladi. Shuning uchun detalni γ va β yordamida o'zgartirish kerak. Yassi gulchin orqa choc atrofida, bo'y yo'nalishida β , old qismida — γ yordamida o'zgarish kerak (16.2-a rasm). Shuningdek, grunt-modelning bo'y o'lchamlari old (tumshuq qismida) va orqa tornonda β bo'yicha, o'rta qismida esa γ bo'yicha o'zgaradi.

Seriyalarga gradatsiya qilganda, sirtqi detallarning hamma razmerlariда tortish baxyasi, choclar va detal chetini bukish uchun berilgan qo'shimchalar o'zgarmaydi. Shunday qilib, seriyadagi detallarning faqat sof yuzasi hech qanday qo'shimchalarsiz gradatsiya qilinishi kerak (16.3-



16.2-rasm. Qolipning iz 1—2—3 chizig'i
va ko'ndalang 4—5 qismlarining asosiy yo'nalishidan og'ishi.



16.3-rasm. Seriyaga ko'paytirishda gradatsiya yo'naliishiqa
(a) va qo'shimchalarga (b) bog'liq xususiyatlar.

b rasm). Chunki beriladigan qo'shimchalar poyabzal razmeridan qat'i nazar o'zgaruvchanlikdan mustasno.

Yuqorida aytilgan xatolarni hisobga olib, tuzatishlar kiritilmasligi nimalarga olib kelishini misolda ko'rib chiqamiz.

Razmeri $N = 270$, to'laligi $W = 6$ bo'lgan erkaklar poyabzali tumshug'ining andozasini uzunligi (16.3-*b* rasm) $l_{sof} = 120$ mm, tortish baxyasinining eni 14 mm, bukish uchun berilgan qo'shimcha **4** mm deylik.

Tumshuqning qo'shimchalarsiz uzunligi $l_{qosh} = 102$ mm. Qo'shimchalarsiz yuza, teng uch (I-III) bo'lakka bo'linadi va I bo'lak γ yordamida $\gamma = 5 / 270 = 0,0185$;

III bo'lak β yordamida $\beta = 3 / 254 = 0,0118$; II bo'lak esa $(\gamma + \beta) / 2$ yordamida $(\gamma + \beta) / 2 = (0,0185 + 0,0118) / 2 = 0,0151$.

Demak, tumshuqning qo'shimchalarsiz uzunligi o'rtacha nisbiy ortirma λ yordamida seriyalarga ko'paytirish kerak:

$$\lambda = (0,0185 + 0,0118 + 0,0151) / 3 = 0,0151.$$

300 razmerdagi, ya'ni olti razmerga katta ($n = 6$), poyabzalning tumshuq uzunligi qo'shimchalarsiz quyidagi qiymatga ega bo'ladi.

$$C_{300} = C_{270} (1 + 6\lambda) = 102 (1 + 0,0906) = 111,2 \text{ mm.}$$

Qo'shimchalar bilan tumshuqning uzunligi

$$C_{300} = 111,2 + 14 + 4 = 129,2 \text{ mm.}$$

Agar tumshuqning uzunligini hisoblayotganda λ yordamida emas (ya'ni turli bo'lakda turli nisbiy orttirma bo'yicha emas), faqat γ yordamida, qo'shimchalar bilan uning uzunligi aniqlansa:

$C_{300} = 120 (1 + 6 \cdot 0,0185) = 133,2$ mm,
ya'ni 4mm ga katta bo'ladi, bu mutlaqo noto'g'ri.

16.2. SERIYAGA KO'PAYTIRISH USULLARI

Hozirgi paytda detallarni seriyaga ko'paytirishning grafoanalitik va mexanik usullari mavjud. Andozalar seriyasini asosiy hisoblarini EVM yordamida va «Atlas» tipidagi grafopostroitel bilan EVM birlashtirilgan blok yordamida seriyaga ko'paytirish ustida ish olib borilmoqda.

Poyabzallarning ustki va tag detallari, qoliplarni seriyaga ko'paytirish quyidagi grafoanalitik usullari bor.

1. Yerevan poyabzal modellar uyi (YEDMO) usuli.

2. B.P.Xoxlov va A.A.Yeryomin usuli.

Bu usullar turli turdag'i tanavor va tag detallarini ko'paytirishda qo'llaniladi. Ulardan birinchisi ikkinchisiga nisbatan soddaroq va kamroq vaqt talab qiladi, shuning uchun Yerevan poyabzal modellar uyi usuli ko'proq qo'llaniladi.

Qaysi usul qo'llanishidan qat'i nazar, grunt-modelni, ustki detallarini seriyalarga ko'paytirishda:

1) grunt-model va tag detallarining o'rta razmerini tayyorlash;

2) grunt-model va tag detallariga uzunlik hamda en chiziqlarini chizish;

3) absolut orttirma qiymatlarini, eng katta va kichik razmerdagi grunt-model va detallarning uzunligini aniqlash;

4) eng katta va kichik razmerdagi grunt-model hamda tag detallarini qurish;

5) grunt-modelning ustki va tag detallarning seriyasini qurish;

6) grunt-model va tag detallarining seriyasini andozalarini olish;

7) bir nusxada ustki detallarning andozasini barcha qo'shimchalar bilan birga tayyorlash;

8) olingan seriyadagi andozalarini tartibga keltirish kabi bosqichlar bajarilishi kerak.

Hozirgi paytda mexanik usulni gradatsiya qilishda yuqori ish unumdorligi bilan grafoanalitik usulini siqib chiqarmoqda.

16.2.1. YEREVAN POYABZAL MODELLAR UYI (YEDMO) USULI

Bu usulda poyabzal yassi andozalarining o'lchamlari qolipning asosiy o'lchamlari bilan proporsional bog'lanishi asos qilib olingan.

Serianing chetki razmerlaridagi (eng katta va kichik) grunt-modellar uzunligi quyidagi tenglama yordamida hisoblab topiladi:

$$L_{\text{gr}} = L_{\text{gr mal}} \pm L_{\text{qo'n}} \cdot n.$$

Bunda: L_{gr} — eng katta yoki kichik razmerdagi grunt-modelning uzunligi; $L_{\text{gr mal}}$ — ma'lum (o'rta razmerdagi) grunt-modelning uzunligi; $L_{\text{qo'n}}$ — QO'Nni uzunlik bo'yicha absolut orttirma, metrik sistemada.

$$\Delta L_{qo'n} = 5 + (L_{qo'n} - L_1) \beta; \quad 5 < \Delta L_{qo'n} < 6.$$

Bunda: n — seriyadagi razmerler soni.

Eng chet razmerdagagi grunt-modelni grafik ravishda qurish uchun grunt-modelning ko'ndalang kesim o'lchamlarini qolipning $0,72/0,68 L_{op}$, ko'ndalang kesimi o'lchamlari bilan proporsional bog'lanishini asos qilib olib, gradir uchburchak quriladi. $O_{tot} = O_{0,72/0,68} L_{op}$. Davlat standartidan olinadi.

Gradir uchburchakni qurish. Yerevan moyabzal modellar uyi usulida gradir uchburchak, to'g'ri burchakli uchburchak qilib ($16.4-a$ rasm) quriladi. Buning uchun OX o'qi bo'yicha Oa masofa qo'yiladi. Bu masofa o'rta razmerdagagi qolipning $0,72/0,68 L_{op}$ ko'ndalang kesimini quchoq o'lchamining yarim qiymati $0,5 O_{tot}$ ga teng. a nuqtadan eng katta rasmerdagagi qolipning quchoq o'lchamining yarim qiymati $0,5 O_{tot}$ ga teng radius bilan OY o'qiga yoy chiziladi (b nuqta).

Eng kichik razmerdagagi grunt-model uchun uchburchak qurilayotgan bo'lsa, OX o'qiga eng kichik razmerdagagi qolipning $0,5 O_{tot}$ ga teng masofa qo'yiladi va o'rta razmerdagagi (ma'lum) qolipning $0,5 O_{tot}$ ga teng radius bilan OU o'qida yoy chiziladi.


Chetki razmerdagagi grunt-modelni qurish. O'rta razmerdagagi (ma'lum) grunt-modelni koordinata o'qlariga shunday joylashtirish kerakki, betlikning bukish chizig'i, OX o'qida yotishi, tovon qismining eng bo'rtib chiqqan H_b nuqtasi, OY o'qiga tegib turishi kerak ($16.4-b$ rasm).

O'rta razmerdagagi (ma'lum) grunt-modelni xarakterli va qo'shimcha (H_b ; 1; 2; 3 va hokazo) nuqtalaridan OX o'qiga tik tushiriladi (yoki chiqariladi) va NB chizig'i bilan kesishguncha davom ettiriladi. H nuqtadan ($OH = L_{gr mal}$) eng katta razmerdagagi grunt-modelning uzunligiga teng radiusda, OY o'qida yoy chizib, B nuqta topiladi. Topilgan H va B nuqtalar tutashtirilib, HB chizig'i o'tkaziladi.

Detallarning radiuslari qancha ko'p bo'lsa, shuncha ko'p qo'shimcha nuqta (1; 2; 3; 01; 02; 03 va hokazo)lar belgilanadi. Grunt-modelning eng kichik razmeri quriladigan bo'lsa, OX o'qida qidirilayotgan, ya'ni eng kichik razmerdagagi grunt-modelni uzunligi $OH = L_{gr kichik}$ va HB chizig'ida $HB = L_{gr mal}$ masofalar qo'yiladi.

$1^{11}, 2^{11}, 3^{11}$ va hokazo nuqtalardan HB chizig'iga tik chiziqlar o'tkaziladi va ularda sirkul va gradir uchburchak yordamida, chetki razmerdagagi grunt-modelning ko'ndalang o'lchamlariga teng kesmalarni belgilab olinadi. Buning uchun har bir belgilangan (1; 2; 3 va hokazo $16.4-b$ rasm) nuqtadan OX o'qigacha bo'lgan masofani o'lchab ($1.1^1, H_b O; 2.2^1$ va hokazo), gradir uchburchakda a nuqtadan aO chizig'i bo'yicha yoy chizib, $1_{11}, 2_{11}, 3_{11}$ va hokazo ($16.4-a$ rasm) nuqtalar belgilab olinadi.

Hosil bo'lgan $1_{11}, 2_{11}$ va hokazo nuqtalardan aO o'qiga tik chiqarib, ab chizig'i bilan kesishguncha davom ettiriladi ($1_{11}; 2_{11}$ va hokazo). Uchburchakning gipotenuzasi ab da topilgan kesmaning uzunligini ($a1_{11}; a2_{11}$ va hokazo) sirkul yordamida, o'ziga xos HB chizig'ida o'tkazilgan



16.4-rasm. YEDMO usuli bilan seriya hosil qiliш tasviri.

тик chizig'iga H_b^1 ; 2^{11} ; 02^1 ; c^{111} ; 3^{111} va hokazo nuqtalar ko'chiriladi. Topilgan nuqtalarni lekala yoki o'rta razmerdag'i andoza yordamida tekis tutashtirib, eng chetki razmerdag'i grunt-modelni konturi chiziladi.

Eng chet razmerdag'i grunt-modelning andozasini detallarga bo'lib, bo'luvchi uchburchak yordami bilan grafik usulda grunt-model va ustki detallarning seriyasini qurish mumkin.

Grunt-modellarning seriyasini qurish. Ma'lum va hosil qilingan chetki razmerdag'i grunt-modellarning andozalarida $H_b H$ chizig'i va shu masofani o'tasidan EE' chizig'i o'tkaziladi (16.4-d rasm). Grunt-modellarning andozasini qurilishini tekshirib ko'rish uchun, andozalarni navbatma-navbat 64° li burchakka (16.4-g rasm) shunday joylash kerakki, H_b va H nuqtalar ABC burchakning tomonlariga tegib turishi, EE' chizig'i esa AVS burchakning bissektrisasi(VD)da yotishi kerak. Agar bu shart bajarilmasa, burchak ABC ni to'g'ri qurilganligi tekshirib ko'riliadi. Buning uchun AVS uchburchagini asosi AS ni, bissektrisa BD ga nisbatan to'g'ri burchakda o'tkazish kerak, agar AD va CD tomonlari bir-biriga teng bo'llmasa, burchak ABC ga tuzatish kiritiladi.

Chetki razmerdag'i grunt-modelni to'g'ri qurilganligini tekshirish uchun burchakning B nuqtasi bilan ma'lum grunt-modelning xarakterli nuqtalarini (b_b , c boshqalar) birlashtirib, nazorat chiziq(nur)lari o'tkaziladi. Agar chetki razmerdag'i grunt-modelni o'xhash nuqtalari nazorat chiziqlarida yotsa, u holda oldingi chizmada chetki razmerding grunt-modeli to'g'ri chizilgan bo'ladi. Ikkita chetki razmerdag'i grunt-modellar yordamida butun seriyadagi grunt-modellarni qurish uchun ularning orasidagi masofani razmerlar soni n ga maxsus o'chagich yoki uchburchak yordamida bo'lish kerak (16.4-f, e rasm).

Bo'luvchi uchburchakni qurish. (16.4-f rasm). Uchburchakning asosi ab, har qanday bo'linishi kerak bo'lgan kesmadan katta bo'lishi shart. Uchburchakning balandligi asosidan 1,5 barobar katta olinadi. Uchburchakning assosini n ta bo'laklarga bo'lib, uchi bilan tutashtiriladi. Bo'luvchi uchburchakdan foydalanish oson bo'lishi uchun uni mm li qog'ozda bajargan ma'qul.

Ma'lum va chetki razmerdag'i grunt-modellarning orasidagi nazorat va qo'shimcha nurlarda joylashgan kesmalar n ta bo'lakka bo'linadi (16.4-f rasm). Bo'luvchi uchburchakni navbatma-navbat bo'linishi kerak bo'lgan kesmalarga shunday qo'yiladiki, uning asosini birona parallel chizig'i, kesmaga mos kelsin. 16.4-h rasmida ma'lum grunt-modelning B_1 nuqtasi bilan chetki razmerdag'i V_1 nuqtasi orasidagi kesmani, bo'luvchi uchburchak yordamida (240 dan, to 260 razmergacha) $n = 4$ bo'lakka bo'lish chizmaga bigiz yordamida o'tkaziladi. To'g'ri chiziqlarni proporsional teng bo'laklarga bo'lish uchun uchburchakdan tashqari, bo'luvchi o'chagich va sirkuldan ham foydalanish mumkin (16.4-e rasm).


Har bir razmerning topilgan nuqtalarini chetki yoki o'rta razmerdag'i grunt-modelning andozasi yordamida tutashtirib, grunt-modelni seriyasi chizib olinadi. Grunt-modellarni detallarga ajratganda, ularning tikish va

ishlov berish uchun qo'shimchalari bo'lmaydi. Detallar andozasining seriyasi tekshirgandan keyin ularga tikish, tortish baxyasi va ko'rinaligan ziylariga ishlov berishga qo'shimchalar beriladi.

16.2.2. B.P.XOXLOV VA A.A.YERYOMIN USULI

Ma'lum razmerdagи grunt-model bo'lsa, grafoanalitik usulida serianing ikki chetki (katta va kichik) razmerdagи grunt-model quriladi. Ma'lum (o'rtalig'i) razmerdagи grunt-modelni koordinata o'qlariga shunday joylashtirish kerakki, uning OH uzunlig'i OX o'qida yotishi (15.5-a rasm) shart. Grunt-modelning uzunligini bir nechta teng bo'laklarga proporsional bo'ladigan sirkul yoki qo'shimcha HD ($H'D'$) chiziqlar yordamida qoldiqsiz bo'linadi. Teng bo'lak soni qancha ko'p bo'lsa, gradatsiya shuncha aniq bo'ladi. Belgilangan nuqtalar orqali OX va $O'X'$ o'qlariga tikk chiziqlar o'tkaziladi va o'rtalig'i (ma'lum) ham chetki razmerdagи grunt-modellarning nuqtalari bir xil tartibda belgilanadi.

Ko'ndalang o'lchamlarini qurish uchun gradir uchburchakdan foydalilanadi (15.5-d rasm), ammo bu uchburchak Yerevan poyabzal modellar uyi tavsiya qilgan gradir uchburchakdan biroz farq qiladi. Ikkala gradir uchburchakning nazariy asosi bir xil bo'lib, detallarning ko'ndalang o'lchamlarini qolipning asosiy ko'ndalang kesim o'lchami bo'lgan $0,72/0,68 L_{op}$ dagi (0_{tutam}) quchoq o'lchami bilan proporsional bog'lanishi asos qilib olingan. Quyida teng yonli gradir uchburchakni qurish berilgan. Teng yonli ABV uchburchakni asosi AV , ma'lum razmerdagи (o'rtalig'i) qolipning tutam qismini quchoq o'lchamini ($0,5 \cdot O_{tut}$) yarmiga teng, balandligi BE esa asosidan 1,5 barobar katta. So'ngra A nuqtadan chetki razmerlardagi qoliplarni (katta va kichik) quchoq o'lchamlarining yarmini ($0,5 \cdot O_{tut\ katta}$ va $0,5 \cdot O_{tut\ kichik}$) qo'yib D va G nuqtalari belgilanadi. D va G nuqtalari B



16.5-rasm. Hajmli va fazoviy tanavorlarni chetki razmerlarini qurish tasviri.

nuqta bilan tutashtiriladi. *BD* eng katta razmerdagi va *BG* eng kichik razmerdagi qolipning en o'lchamlarini topishda ishlataladi.

Agar topilayotgan detalning ba'zi ko'ndalang o'lchamlari *AV* dan katta bo'lsa, uchburchakning tomonlarini pastga (masalan, *ab* chizig'igacha) davom ettiriladi. Gradirlayotganda (16.5-a rasm) o'lchagich yoki sirkul yordamida ma'lum razmerdagi grunt-modelning masofalarini o'lchab ($1-1''$, $2-2''$, $3-3''$ va hokazo), detalning konturidan to *OX* o'qigacha, keyin gradir uchburchakning *BA* va *BV* tomonlari orasidagi gorizontal chiziqlardan shu o'lchangan masofaga ($1-1''$, $2-2''$, ...) tengini topib, shu chiziq bo'yicha to *BD* chizig'igacha (katta chetki razmer uchun) uzaytirib yoki bo'lmasa *BG* chizig'igacha (kichik chetki razmer uchun) qisqartirib olingan masofalar, qurilayotgan grunt-modelning o'ziga mos chizig'iga *OX* o'qidan 1^1-1^{11} , 2^1-2^{11} va hokazo masofalar qo'yiladi (16.5-b rasm).

Eng xarakterli nuqtalarning hammasi ham o'tkazilgan tik chiziqlarda yotmaganligi 16.5-rasmda ko'rinish turibdi. Ularning uzunligining to'g'ri topilganini quyidagi formula yordamida tekshirib ko'rish mumkin:

$$L_i = L_{\text{mal}} \left(1 \pm \frac{\Delta L_{\text{qo'sh}}}{{L}_{\text{qo'sh}}} n \right).$$

Masalan: eng ichki razmerdagi grunt-modelning b^1 nuqtasigacha

$$O^1 b^1 = Ob \left(1 \pm \frac{\Delta L_{\text{qo'sh}}}{{L}_{\text{qo'sh}}} n \right).$$

g^1 nuqtasigacha

$$O^1 g^1 = Og \left(1 \pm \frac{\Delta L_{\text{qo'sh}}}{{L}_{\text{qo'sh}}} n \right).$$

Eng chetki razmerdagi grunt-modelni qurgandan keyin qolgan razmerdagi grunt-modellar YEDMO usulidagi kabi (16.4-j rasm) quriladi.

16.2.3. MEXANIK USULDA SERIYALARGA KO'PAYTIRISH (GRADIRLASH)

Hozirgi paytda detallarni gradirlashning mexanik usuli maxsus mashinalarda amalga oshiriladi. O'zbekistonda va hamdo'stlik davlatlarda bu maqsad uchun ASG-3 va Olmoniyada ishlab chiqarilgan «Albeko-24» rusumli gradir mashinalar ishlataladi.

ASG-3 gradir mashinasi jismning uzunligi va eni bo'yicha gradirlash plantograflarga ega bo'lib, bu mashinaning bir boshining tezligi ikkinchisiga nisbatan tezlashtiradigan yoki sekinlashtiriladigan mexanizmlardan iborat. Gradir mashina gradirlanayotgan detalning o'lchamlarini yuqorida keltilrilgan qonuniyatlar asosida o'zgartiradi.

ASG-3 gradir mashinasi kinematik sxemasi va asosiy ishchi organlari (16.6-rasm) model stoli (4), nusxa oluvchi karetka (5), qirquvchi karetka (14), uzunlik va eni bo'yicha 2 ta pantografdan tashkil topgan.

Har bir pantograf richaglar sistemasidan tashkil topgan, ularning eng asosiylari «tyaga-9» va «mayatnik-17» bo'lib, ular A nuqtada qisqich 10 bilan birkiritilgan. Gradirovka qilinadigan andoza (1) o'lchamlarini o'zgartirish uchun en va uzunlik pantograflarida, tyagalar 9(9') bilan mayatniklar 17(17') orasidagi α burchakni o'zgartirish kerak. Burchak a qancha katta bo'lsa, $z(z')$ masofa ham shuncha katta bo'ladi, buning natijasida qirqadigan karetka ham katta masofa bosadi. $Y = X + \Delta X$ ($Y = X' + \Delta X'$). Agar $\alpha = 0$ va $z = 0$ bo'lsa, $X = Y$ bo'ladi, ya'ni detal o'z o'lchamlarini o'zgartirmaydi.

Pantograflarni ishlashini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ularning kinematik tasviri detallarning o'lchamlarini bir-biriga tik yo'nalishda aniq proporsional o'zgartirish imkonini beradi. Buning uchun tyaga 9 ning asosiy shkalasini gradatsiya soniga sozlab, kerakli bo'lgan orttirmaga erishiladi.

Seriyalardagi detal qo'shimchalarining qiymatini o'zgartirmay saqlash uchun mayatnik 17(17') larga mahkamlangan korrektor 16(16')dan foydala niladi. Korrektorda harakatlanadigan shayba 18 da shkala va harakatsiz disk 19 da limba bo'ladi (16.6-b rasm). Strelkaning yo'nalishida harakatlanadigan shayba 18 ni shkalasidagi raqamni harakatsiz diskdagi 19 limba bilan moslanadi. Buning natijasida (tortish baxysining eni, chok eni va hokazo) qo'shimchalarining o'lchamlari, seriyadagi barcha razmerlar uchun doimiy qoladi.

Orqa tashqi tasmalar, gumbaz usti tasmalar kabi ayrim detallarning eni barcha razmerlar uchun bir xil bo'lish kerak. Bunday detallarni seriyaga ko'paytirish, polzun δ ni plita 6 dagi shkalasini O ga qo'yib, mahkamlanadi. Agar detallarni katta razmerlar tomoniga gradirlash kerak bo'lsa, polzun δ ni, plita 6 dagi (+) ishora tomoniga, kichik razmerlar kerak bo'lsa (-), ishora tomoniga burib mahkamlanadi.


ASG-3 mashinasi turli diametrdagi chizish shtiftlari bilan ta'minlangan bo'ladi.

Qurish sonini hisoblash va andozalarni mexanik usulda gradirlashga tayyorlash. Detallarni mexanik usulda gradirlash bir necha bosqichda bajariladi:

- 1) grunt-model va tag detallarning o'rta razmerini tayyorlash;
- 2) grunt-model va tag detallarga uzunlik hamda en chiziqlarini chizish;
- 3) uzunlik va eni bo'yicha absolut orttirma qiymatlari hamda mashinaning gradirlash sonini hisoblash;
- 4) seriyadagi hamma detallarni karton va hamma qo'shimchalar bilan qog'ozdan ikki nusxada olish;
- 5) seriyadagi andozalarni tartibga keltirish.

Andozalarni model stoliga o'rnatish uchun ularni konturiga mos bo'lgan yupqa metall yoki plastmassa plastinkaga yelimlab ishlov beriladigan konturlari belgilanib, tuzatish kerak bo'lgan qiymatlar yozib qo'yiladi. Andozalarda (grunt-modelni, patakni va hokazo) bo'yи va eniga parallel qilib o'q chiziqlari o'tkaziladi (16.6-a rasm) hamda qo'shimchalar

16.6-rasm. Gradilr mashinalarining kinematik tasviri.



uchun tuzatish kiritiladi (16.7-*b* rasm) va model stoliga boltslar yordamida o'rnatish uchun teshikchalar qilinadi.

Barcha andozalarni gradirlashga tayyor qilingandan keyin uzunlik va en pantograflari uchun alohida-alohida grunt-modelning yoki patakning uzunligi va eni bo'yicha gradirlash sonlari U_{uz} va U_{en} hisoblanadi. Ular quyidagi tenglamalar yordamida aniqlanadi:

$$\begin{aligned} \text{uzunlik bo'yicha } U_{uz} &= (L_{gr} + d_{sh})/\Delta L; \\ \text{eni bo'yicha } U_{en} &= (Sh_{gr} + d_{sh})/\Delta Sh. \end{aligned}$$

Burida: L_{gr} — tortish baxyasi bilan grunt-modelning uzunligi; Sh_{gr} — grunt-modelning tortish baxyasi bilan eni; d_{sh} — chizish shriftining diametri (ko'pincha $d_{sh} \geq 2$ mm); ΔL — qolipning yon sirtini uzunlik bo'yicha absolut orttirmasi, $\Delta L = 5 + (L - L_1)\beta$; L_1 — qolipning tag yuzasini uzunligi; ΔSh — qolipning yon sirtini eni bo'yicha absolut orttirmasi,


$$\Delta Sh = \Delta O_{tot} \cdot Sh/\Delta O_{TOT}; \quad \Delta O = 3 \text{ mm.}$$

Tenglamadan ko'rinish turibdiki, gradirlash sonini hisoblash uchun grunt-model uzunligiga tortish baxyasining eni ham qo'shilib o'lchanadi, absolut orttirma esa qolipning yon sirti uchun hisoblanadi. Bu bilan kichik xatoga yo'l qo'yilsa ham tortish baxyasining eni seriyadagi barcha andozalar uchun o'zgarmay qolishiga erishiladi.

Gradir mashinaning model stoli 4 (16.7-*a* rasm) tomonlariga lotin harflari bilan N — shimal, S — janub, W — g'arb, O — sharq deb belgilangan. Xuddi shu harflar pantograflarning korrektorlarida ham qo'yilgan; uzunlik bo'yicha N va S , eni bo'yicha W va O (16.6-*b* rasm). Misol uchun qo'njsiz botinkalarni dastaginiñ balandligini davlat standartiga muvofiq qoldirish kerak bo'lsa, tortish baxyasining eniga B_k bo'yicha en pantografining korrektori yordamida tuzatish kiritish kerak. Buning uchun harakatlanuvchi shaybadagi shkala 18 da (16.6-*b* rasm) tortish baxyasining eniga teng qiymatni (15 mm) topib milni W yo'nalishida 15 bo'limga burib, ko'rsatgich 20 ga moslanadi. Tuzatish kiritilishi kerak bo'lgan yo'nalishni andozaning model stolidagi tomonlariga nisbatan tanlanadi.

Gradir mashinada ishlash. Barcha tayyorgarlik ishlarini bajargandan keyin, chizish-shtifti 3 (16.3-*a* rasm) ishchi holatga keltiriladi va chap qo'l bilan motorni tilab, puanson 11 ni ishchi holatiga tushiriladi. O'ng qo'l bilan nusxa oluvchi karetka 5 ni tanlangan ishchi holatiga keltirib, andozaga chizish-shtiftini tekkizib, soat mili bo'yicha chizish karetkasi aylantiriladi.

Konturi bo'yicha qirqishdan oldin detalning o'rtasida bo'lgan barcha teshiklar qirqiladi. Shunday tartibda gradirlashni bajarganda karton siljib ketmaydi, chizish-shtiftini almashtirish va korrektorni ma'lum qiymatga sozlash oson bo'ladi. Chizish-shtifti tuzatish kerak bo'lgan joyga kelganda, mashinani to'xtamasdan chap qo'l bilan korrektorning shaybasi ma'lum raqamga sozlanadi va yana chizish karetkasini aylantirish davom ettiriladi.



16.7-rasm. Grund-model detallariga o'q chiziqlarini chizish
va ularni model stoliga joylashtirish.

Agar andozani konturi bo'yicha chizish karetkasini aylantirayotganda andoza-ning o'lchamini ma'lum qo'shimchaga (tikishga, bukishga va hokazo) kat-talashtirish kerak bo'lsa, shtift almashtiriladi.

Masalan: bukish uchun qo'shimcha 4 mm bo'lsa, diametri 2 mm li shtift; 6 mm bo'lsa, 3 mm li shtiftga almashtiriladi.

Detallarni gradirlayotganda juda ehtiyyot bo'lish kerak, chunki har bir ortiqcha harakat va qirqilayotgan detalning konturini buzilishiga sabab bo'ladi.

Agar model stolida bir nechta detal joylashgan bo'lsa, unda detallarni gradirlash o'ng tomonda joylashgan detaldan boshlanadi. Orqa tashqi tasmalar va gumbaz usti tasmalarni gradirlayotganda ularning enini model stoliga bo'ylama o'qi bo'yicha joylash, ya'ni uzunlik pantografining polzuni 8 ni nul shkalaga to'g'rilab mahkamlash kerak.

Hamma detallarni gradirlagandan keyin, tekislikka, razmerlarning o'sib borish tartibida qo'yib tekshiriladi. Ular uzunligi va eni bo'yicha o'ziga xos bir xil ottirmaga kattalashgan bo'lishi kerak, aks holda xatoga yo'l qo'yilgan bo'ladi.

Barcha andozalarga modelning nomeri, fasoni, razmeri, ko'rindigan ziyyiga ishlov berish usuli yozib qo'yiladi. Agar chetlari tekis bo'limsa, pichoq yordamida tekislash va andozalarning chetiga lak surib qo'yish kerak.

Nazorat savollari

1. Detallarni seriyaga ko'paytirishda absolut va nisbiy orttirmalar qanday aniqlanadi?
2. Seriyaga ko'paytirish usullarini ta'riflang.
3. Yerçvan povabzal modellari usulining mohiyati nimadan iborat?
4. B.P. Xoxlov va A.A. Yeryomin usulining mohiyatini aytib bering.
5. Mexanik usulda seriyaga ko'paytirish mashinalarning ishlash prinsipini izohlang.

17-bob. POYABZAL VA QO'LQOPLARNI RAZMER ASSORTIMENTI

Poyabzal va qoliplarni ratsional hamda to'g'ri loyihalanganiga qaramay, ular aholi orasida noto'g'ri taqsimlanishi, xalq talabini qondirmsligi mumkin. Shuning uchun mahsulotni ommaviy ishlab chiqarishda poyabzal va qo'lqoplarini nafaqat oyoq va qo'l o'lchamlariga monand qilib tayyorlash, balki mahsulotni har bir tipo-razmerini ma'lum miqdorda, ya'ni berilgan hudud uchun kerakli miqdor(razmer assortimenti)da ishlab chiqarilishi kerak. Bir to'p mahsulotni razmeri bo'yicha foiz hisobidagi nisbati — *razmer assortimenti* deyiladi. Poyabzal va qo'lpoqlar razmer assortimentini hisoblash asosiga oyoq hamda qo'l panjalarining turkumlash, ya'ni o'lchamlardan guruhlar va guruhchalar tuzish kerak.

17.1. POYABZALLARNI RAZMER VA TO'LALIK ASSORTIMENTI

17.1.1. POYABZALLARNING RAZMER ASSORTIMENTINI HISOBBLASH

Poyabzal razmeri oyoq panjasining uzunligiga teng bo'lgani uchun, uni razmer assortimentining asosi sifatida oyoq panjasini uzunligi bo'yicha tekis taqsimlanish qonuniyatini keltiriladi. Tekis taqsimlanish qonuniyatini oyoq o'lchamlaridagi I-qonuniyatdagidek bo'lib (III bo'limga qarang), egri chiziq yoki quyidagi formula yordamida ifodalanadi:

$$Y \frac{1}{\sigma \sqrt{2\pi}} e^{\frac{(x-M_x)^2}{2\sigma^2}}.$$

Bunda: Y — berilgan oyoq panjasining uzunligi bo'yicha jamoadagi odamlar soni; σ — kvadrat chetlanish; X — oyoq panjasining berilgan uzunligi; M_x — oyoq panjasining o'rtacha uzunligi.

Bunda taqsimlanish kengligini va egri chiziq shaklini, aniq berilgan jamoani oyoq panjani o'rtacha uzunligi M_x hamda kvadrat chetlanishi aniqlaydi. Oyoq panjasining o'lcham tadqiqotlari asosida $\sigma = 10,3$ dan 12,2 mm gacha deb topilgan va balog'atga yetgan aholining har bir guruhi uchun $\sigma = 11$ mm qabul qilingan.

Shu holatdan foydalanib, tekis taqsimlanish tenglamasida σ ni o'zgartirmasdan, har bir hudud uchun oyoq panjasining uzunligini taqsimlanish miqdorini aniqlash mumkin. Shunday qilib, agar berilgan hudud

uchun erkaklar poyabzalini o'rtacha razmeri $N = 270$ bo'lsa, unda razmer assortimentagi 100 juftdan 20 juftni 270-razmer tashkil qiladi. 275 razmerda 16 juft va hokazo. Agar berilgan hudud uchun razmer assortimenti ayol aholisiga tuzish kerak bo'lsa va uni o'rtacha razmeri 245 bo'lsa, unda 100 juftdan 20 juft 245 razmerdan, 16 juft 240 razmerdan, 11 juft — 235 dan, 215 razmer esa 1 juftni tashkil qiladi. Bu taqsimlanish miqdorlari 19-jadvalga asoslanib olinadi. Agar ba'zi hududlar uchun ayollar oyoq panjasini o'lchamlari bo'lmasa, unda ayollarning oyoq panjasini uzunligi erkaklar oyoq panjasining uzunligidan 20—24 mm kam deb qabul qilinadi. 100 juftga hisoblangan razmer assortimenti — *savdo razmer assortimenti deyiladi.*

19-jadval

100 juft poyabzal uchun razmer assortimenti

Poyabzal razmeri	N-25	N-20	N-15	N-10	N-5	N	N+5	N+10	N+15	N+20	N+25
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Juft sonlar	1	4	8	11	16	20	16	11	8	4	1

Lekin poyabzalni o'rta razmerini ko'rsatuvchi, oyoq panjasini o'rta uzunligi har doim ham 0 yoki 5 raqam bilan ifodalanmaydi.

Binobarin, har bir hol uchun tegishli o'rta razmerlarga qator taqsimlanishni hisoblab chiqish kerak. Bu usul bilan hisoblash sermehnat bo'lgani sababli, metrik sistemasidagi tipik razmer assortimenti jadval sifatiga keltirilgan (20-jadval).

20-jadval

100 juft poyabzal uchun razmer assortimenti

O'rta razmer assortimenti	Poyabzalni 100 juftga nisbatan soni											
	N-25	N-20	N-15	N-10	N-5	N	N+5	N+10	N+15	N+20	N+25	N+30
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13
N+0	1	4	8	11	16	20	16	11	8	4	1	0
N+1	1	3	7	11	15	20	17	12	9	4	1	0
N+2	0,5	3	6	10	14	19	19	13	9	5	1,5	0
N+3	0	1	5	9	13	19	20	14	9,5	6	3	0,5
N+4	0	1	4	9	12	17	20	15	10	7	4	1
N+5	0	1	4	8	11	16	20	16	11	8	4	1

Keltirilgan jadval xohlagan hudud uchun razmer assortimentini hisoblash imkonini beradi. Buning uchun berilgan hududning aholisini oyoq panjalarini o'rtacha uzunligini bilish kifoya. Misol uchun, oyoq panjasining o'rtacha uzunligi 238 mm bo'lgan ayollar tuflisining razmer assortimentini olish quyidagicha: bu assortiment uchun poyabzalni o'rta razmeri 235. Binobarin 20-jadvalni tepa qatoridagi N ni o'rniga 235 qo'yiladi. Izlanayotgan tartib qatoridan razmer assortimenti N + 3 = 235

+ 3 = 238 bo'lgani sababli 20-jadvaldan N + 3 assortiment qatori olinadi. Natijada 21-jadvaldagidek razmer assortimenti hosil bo'ladi.

21-jadval

Masalan, $L_{o.p.} = 238 \text{ mm}$ o'rta o'lchamdagagi razmer assortimenti

Poyabzal razmeri	215	220	225	230	235	240	245	250	255	260	265
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
N+3	1,5	5	9	13	9	19,5	14	9,5	6	3	0,5

Yuqorida keltirilgandan tashqari katta sonlar qonuniga nisbatan kichik jamoalarda, chetki razmerlarni paydo bo'lish ehtimoli kamroq. Bu esa o'rta razmerlar sonini ko'paytirib, chetkilarni kamaytirish zaruratini taqozo qiladi. Shuning uchun son jihatidan har xil bo'lgan hududlarda xizmat qiladigan savdo korxonalari uch ko'lamda, I-har xil hududlardan kelgan ko'pchilik aholiga xizmat qiluvchi shahardagi katta do'konlari uchun = 11 mm; II-o'rta ko'lamdagi tuman do'konlari uchun $\sigma = 10 \text{ mm}$; III-kichik ko'lamdagi qishloq do'konlari uchun $\sigma = 9 \text{ mm}$ bo'lgan poyabzal razmer shkalasi asosida razmer assortimenti tuzilishi lozim (22-jadval).

22-jadval

Har xil ko'lam (chetlanish)dagagi 100 just poyabzallarning tipik razmer assortimenti

σ mm	Razmerlar											
	N-25	N-20	N-15	N-10	N-5	N	N+5	N+10	N+15	N+20	N+25	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	
11	1	4	8	11	16	20	16	11	8	4	1	
10	0,5	2	6	13	17,5	22	17,5	13	6	2	0,5	
9	0,5	2	5	12	19	23	19	22	5	2	0,5	

Bundan tashqari, ishlab chiqarish korxonalari uchun va harbiy xizmatdagi askarlar uchun mo'ljallangan poyabzallar assortimenti (I) katta ko'lamda, kundalik poyabzallar assortimenti (II) o'rta ko'lamda va bashang poyabzallar assortimenti kichik ko'lamdagi razmer shkalasida tayyorlashni tashkil qilish kerak. Natijada, oyoq panjasining o'rtacha uzunligi bir xil, ya'ni 238 mm bo'lgan poyabzallar vazifasiga qarab razmer assortimenti turlicha bo'lishi mumkin.

Yosh bolalar uchun razmer assortimenti katta yoshdagagi aholini razmer assortimentidan birmuncha farq qiladi.

Bir yosh guruhdagi bolalarning oyoq panjasasi uzunligini taqsimlanishi ham tekis taqsimlanish qonuniga itoat qiladi. M va σ miqdorlarini bilib, bolalar poyabzali uchun razmer assortimentini hisoblash mumkin. Lekin yonma-yon yosh guruhlarini oyoq panjasining uzunlik taqsimlanishi transgressiv tabiatga ega. Ya'ni, yonma-yon yosh guruhlarni tekis taqsimlanish chiziqlari bir-biriga kirishib ketib, razmer assortiment taqsimlanishga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, bir nechta yonma-yon yosh

guruhlarga bitta razmer assortimenti hisoblanadi. Davlat andozalari taklifiga binoan, bolalar poyabzalini razmer assortimenti, turli yosh guruhlari uchun quyidagi (23-jadval) larga bo'linadi.

Yuqorida keltirilgan jadvalga asoslanib har bir yosh uchun taqsimlanish chizig'i quriladi. Bolalarni hamma yoshi uchun ma'lumotlar guruhlari asosida birlashtirilib, yangi jamlangan chiziq hosil bo'ladi. Agar har bir guruhdha o'lchangan bolalar soni bir miqdorda bo'lsa, tekis taqsimlanish chizig'i ham o'xshash bo'ladi. Lekin yoshiga qarab tekis taqsimlanish chiziqlari bir-biriga nisbatan o'ng yoki chapga suriladi.

Natijada jamlangan chiziqning o'rta qismida tekislik, ya'ni plato hosil bo'ladi. Har yili tug'iladigan bolalarning soni aslida bir xil bo'lmaydi, shuning uchun jamlangan chiziq plato emas, balkt qabariq yoki botiq bo'lib qolishi mumkin. Shu miqdorlarni aniqlagan holda bolalar uchun razmer assortimenti quriladi.

23-jadval

Bolalar poyabzalini razmerlar bo'yicha bo'linishi

Poyabzalni yosh-jinsiy guruhi	Razmerlari (mm)	Yoshi (yil)
0. Chaqaloqlar (I-guruhi)	95—125	0,5—1,0
1. Chaqaloqlar (II-guruhi)	120—140	1,5—2,0
2. Maktab yoshigacha bolalar (I-guruhi)	145—175	2,5—3,5
3. Maktab yoshigacha bolalar (II-guruhi)	180—200	4,5—7,5
4. Maktab yoshidagi qiz bolalar	205—225	8,0—11,5
5. Qiz bolalar	230—260	12,0—15,5
6. Maktab yoshidagi o'g'il bolalar	205—225	8,0—11,5
7. O'g'il bolalar	230—280	12,0—16,0

Eslatma: Hozirgi paytda bolalar oyoq panjasining uzunligi o'zgarishi (aksseleratsiya) munosabati bilan bu jadvalga aniqlik kiritilmoqda.

17.1.2. POYABZAL ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING RAZMER ASSORTIMENTI

Yuqorida qayd qilingan savdo razmer assortimenti bo'lib, undan tashqari ishlab chiqarish razmer assortimenti ham mavjud.

Katta poyabzal korxonalari bir qiyosa va turdag'i poyabzallarni, har xil razmer assortimentiga ega bo'lgan bir nechta hududlarga tayyorlab chiqaradi. Shuning uchun ishlab chiqarish razmer assortimenti har bir hudud uchun mo'ljallangan savdo assortimentlarni yig'indisidan iborat.

Iste'molchi hududlarni o'zgarib turishi, ishlab chiqarish razmer assortimentini tez-tez o'zgarishiga olib keladi. Ishlab chiqarish razmer assortimentini qurish uchun har bir ta'minlovchi hudud uchun mo'ljallangan savdo razmer assortimentlarini bitta jadvalga ko'chiriladi. Har razmerni just miqdori, ta'minlovchi har hududni 100 justlik soniga ko'paytiriladi. Keyin sex rejasida ko'zda tutilgan just miqdoriga umumiyl assortiment jadvali tuziladi. Poyabzalni har razmerini yig'indisi topilib, sex uchun


umumiylar assortimenti hosil qilinadi. Undan keyin uzatma to'da (partiya)larga qayta hisoblanadi va konveyerga shu to'dalar asosida qo'yiladi. Agar korxona poyabzalni doimo bir hudud uchun ishlab chiqarsa, unda ishlab chiqarish razmer assortimenti sifatida savdo razmer assortimentini qo'llash mumkin.

17.1.2. POYABZALNI TO'LALIK ASSORTIMENTINI HISOBBLASH

Poyabzal qulayligi nafaqat razmer (uzunlik o'lcham) bilan, balki kengligi bilan ham aniqlanadi. Bu haqiqatni razmer assortimentini qurishda e'tiborsiz qoldirish mumkin emas. Shuning uchun razmerdan tashqari to'lalik assortimenti ham hisoblanadi. Poyabzal to'laligi oyoq panjasining beshinchchi kaft suyagining distal qismidagi quchoq o'lchami bo'lgani uchun, oyoq panjasining shu o'lchami, qo'shimcha tur(tip)larga guruhlashtirish, ya'ni to'lalik assortimenti hisoblash asosi bo'lib xizmat qiladi.

Aholini ratsional razmerli poyabzal bilan ta'minlash uchun oyoq panjasining tutam qismidagi quchoq o'lchamlar oralig'i 8mm dan 3 to'lalik joriy qilinishini hisoblab ko'ramiz. Katta yoshdagagi aholi uchun ko'ndalang kvadrat chetlanish $\Sigma = 9$ mm deb qabul qilib, tekis taqsimlanish zichligi, jadval bo'yicha aniqlanadi. Shu jadval bo'yicha aholini 81,6 % ratsional razmerdagi poyabzal bilan (17.1-rasm), shu jumladan tor to'lalikdan — 23,4 %, o'rta to'lalikdan — 34,8 %, keng to'lalikdan — 23,4 % aholi ta'milanadi. Qolgan 18,4 % aholi qulay poyabzalga ega bo'lmaydi. Tekis taqsimlanish egri chizig'ini $abvb'a'$ maydonini 100 % deb qabul qilsak, unda poyabzalni to'lalik bo'yicha taqsimlanishi tor to'lalik uchun — 29 %, o'rta to'lalik uchun — 42 % va keng to'lalik uchun — 29 % bo'ladi.

Agar aholini 18 % o'ta tor va o'ta keng oyoq panjalik bo'lsa, ular tor va keng poyabzallarni sotib olishadi deb taxmin qilsak, unda chetki to'laliklar sonini andak ko'paytirish tavsiya etiladi. Shunday qilib, tor



17.1-rasm. Oyoq panjasining to'lalik bo'yicha taqsimlanishi.

to'lalikdan — 30%, o'rta to'lalikdan — 40%, keng to'lalikdan — 30%, ya'ni 100 % taqsimlanish hosil bo'ladi.

17.2. QO'LQOPNI RAZMER ASSORTIMENTINI HISOBBLASH

Qo'l panjasini 5-kaft suyagi distal boshchasini quchoq o'Ichami bo'yicha tekis taqsimlanish qonunini hisobga olgan holda tipo-razmerlar soni hisoblanadi. Ko'p tadqiqotlar asosida aholining qo'l kaftini quchoq o'Ichami bo'yicha kvadrat chetlanish $\sigma_{\text{eq}} = 11,9 \text{ mm}$ dan $7,96 \text{ gacha}$ o'zgarishi aniqlangan va hisob uchun shu taqsimlanish bo'yicha $\sigma_{\text{eq}} = 9 \text{ mm}$ qabul qilingan.

Razmer assortimentini hisoblashda qo'lqop razmeri N , quchoq o'Ichami O_q ga teng bo'lib, yonma-yon razmerlar orasidagi farq $\Delta N = 5 \text{ mm}$ ni tashkil qiladi.

Qo'lqop razmer assortimentini hisoblash tartibi va usuli poyabzal razmer assortimentidan farq qilmagani uchun ta'rif bermasdan 24-jadvalda $N = 0,5 \text{ sm}$, $\sigma_{\text{eq}} = 0,9 \text{ sm}$ uchun qo'lqop tipik razmer assortimentini keltirish bilan kifoyalandik.

24-jadval

Qo'lqopni tipik razmer assortimenti
($\Delta N = 0,5 \text{ sm}$, $\sigma_{\text{eq}} = 0,9 \text{ sm}$)

Assortimenti o'rta razmeri	Razmerlar							
	N-1,5	N-1,0	N-0,5	N	N+0,5	N+1,0	N+1,5	N+2,0
1	2	3	4	5	6	7	8	9
N	6	13	19	22	19	13	6	2
N+0,1	5	10	17	21,5	19,5	15,5	9	2,5
N+0,2	4	9	16	21	19,5	16,5	10,5	3,5
N+0,3	3	8	15	20	20,5	17,5	11,5	4,5
N+0,4	2,5	7	14	19,5	21,5	18	12,5	5
N+0,5	2	6	13	19	22	19	13	6

Nazorat savollari

1. Poyabzal va qo'lqoplarni razmer assortimentini hisoblash nimaga asoslangan?
2. Poyabzallarning razmer assortimentini hisoblash asoslarini izohlang.
3. Savdo va chiqarish razmer assortimentlarini tafovutini ta'riflang.
4. To'jalijk assortimentini hisoblash asoslarini izohlang.
5. Qo'lqop razmer assortimentlarini hisoblash asoslarini keltiring.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Зыбин Ю.П. История развития конструкции обуви. Учеб. пособие по курсу лекций. Изд. МТИЛПа, 1978.
2. Николаева Ж.Б. и др. Моделирование кожгалантерейных изделий. М. 1975.
3. Зыбин Ю.П. и др. Конструирование изделий из кожи. М. 1982.
4. Макарова В.С. Моделирование и конструирование обуви колодок. М. 1987.
5. Хайдаров А.А., Камалов А.К. Чарм бутомларини конструкциялаш. Тип. ТТЕСИ, 1999.
6. Ключникова В.М. и др. Практикум по конструированию изделий из кожи. — М. 1985.
7. ГОСТ 23251-78. Обувь. Термины и определения. М. 1982.
8. Курепина М.М., Воккен Г.Г. Анатомия человека. М. 1971.
9. Татаринов В.Н. Анатомия и физиология. — М. 1967.
10. Крамаренко Г.Н. Вопросы этиологии и классификации статических деформаций стоп. Сб. Стопа и вопросы построения рациональной обуви. Изд. ЦИТО. М. 1972.
11. Пашаев В.С., Фамицин Б.М. Аппаратура для стереофотограмметрической съемки плантарной части стопы. Кожевенно-обувная промышленность, 1978, N 7.
12. Зыбин Ю.П. и др. Практикум по конструированию изделий из кожи. — М. 1972.
13. Катамадзе А.Г., Зыбин Ю.П. О размерах левой и правой стопы человека. Изв. ВУЗов Технология легкой промышленности, №3, 1977, с. 51-55.
14. Колесникова Н.А., Крамаренко Г.Н. Характеристика стоп женского населения г. Москвы. В кн. Стопа и вопросы построения рациональной обуви. М. ЦИТО, 1968.
15. Чумакова М.П. и др. О закономерностях размеров кистей рук. Изв. ВУЗов Технология легкой пром-сти №5, 1970, с. 94-99.
16. Чумакова М.П. и др. К установлению стандартных размеров перчаток. Изв. ВУЗов Технология легкой промышленности №4, 1971, с. 100-103.
17. Кобылянский Е.Д. О изменчивости морфологических признаков в отдельных профессиональных и территориальных группах. Вопросы антропологии, Вып 35. 1970. с. 93-111.
18. Дунаевская Т.Н. и др. Размерная типология населения с основами анатомии и морфологии. М. 1973.
19. Xudoyberdiyev R.E. Odam anatomiyasi. Т. 1993.
20. Лыба В.П. Фукин В.А. Теоретические предпосылки силового взаимодействия стопы с обувью. Сб. трудов МТИЛП. 1981.
21. Шагапова И.М. Определение изгибающего момента для сращенных систем низа обуви. Изв. ВУЗов Технология легкой промышленности №5, 1972.
22. Горбачек В.Е. и др. Исследование распределения давления по плантарной поверхности стопы и обуви. Изв. ВУЗов Технология легкой пром-сти №2, 1970.
23. Калита А.Н. Исследование деформации верха обуви при изгибе с целью повышения его износостойчивости. Дис МТИЛП 1966.
24. Черников Н.Н. Установление срока службы материалов в деталях обуви. Гизлэгпром. М. 1952.
25. Кедров Л.В. Теплозащитные свойства обуви. М., 1979.
26. Духота Ф.Ф. и др. Определение опорной жесткости пакетов низа детской кожаной обуви. Изв. Вузов Технология легкой промышленности № 1, 1980.
27. Ченцова К.И., Муханова В.Н. Просктирование и моделирование обувных колодок, М. 1971.
28. Фукин В.А. и др. Метод построения формы обуви. Сообщение I. Построение контура стельки методом сопряжения дуг. Изв. ВУЗов Технология легкой промышленности №6, 1964.
29. Хайдаров А.А. Просктирование рациональной внутренней формы обуви для женского населения Узбекистана. Тезисы второй Республиканской научно-технической конференции 1975.
30. Фаришева О.В. Новый метод расчета ростовочного ассортимента. Изв. ВУЗов Технология легкой промышленности №6, 1966.
31. Катамадзе Г.А. Проектирование размерно-полнотного ассортимента обуви на ЭВМ. Сб. трудов МТИЛПа. М. 1979.

MUNDARIJA

Muqaddima	3
1-bob. Charm buyumlarini rivojlanish tarixi	5
1.1. Poyabzal konstruksiyasining rivojlanish tarixi	5
1.1.1. Turli mamlakatlarda poyabzal konstruksiyasini rivojlanish tarixi	5
1.1.2. Markaziy Osiyo xalqlari poyabzallari konstruksiyasining rivojlanish tarixi	11
1.2. Charm-attorlik buyumlar konstruksiyasining rivojlanish tarixi	13
2-bob. Zamonaviy charm buyumlarining konstruktiv tavsifi	16
2.1. Poyabzallarning konstruktiv tavsifi	16
2.1.1. Poyabzalning qiyofasi	16
2.1.2. Poyabzal ishlab chiqarishda ishlatalidigan materiallar	16
2.1.3. Poyabzalning ustki detallari, ularning tuzilishi va o'lchamlari	17
2.1.4. Poyabzalning tag detallari, ularning tuzilishi va konstruksiyasi	20
2.1.5. Detallarni birkiritsda ishlatalidigan choklar	23
2.1.6. Poyabzalning ichki o'lchami (razmeri) va shakli	30
2.1.7. Poyabzalning vazifasi bo'yicha turlari	32
2.2. Charm-attorlik buyumlarini konstruktiv tavsifi	34
2.2.1. Ixtiyoriy o'lcham va shakldagi buyumlar detallarini soni, o'lchami va shakli	35
2.2.2. Qo'lpoplarning konstruksiyasi bo'yicha tavsifi	39
3-bob. Charm buyumlarni qurishda odam anatomiya va fiziologiyasi, antropometriya hamda biomexanika asoslari	41
3.1. Qo'l va oyoq anatomiya hamda fiziologiyasi	41
3.1.1. Skeletning tuzilishi va vazifalari	41
3.1.2. Suyaklarning tuzilishi	41
3.1.3. Suyaklarni turkumlarga bo'linishi	42
3.1.4. Suyaklarning o'zaro birlashuvi	43
3.1.5. Harakatchan birikmalar (bo'g'implar)	44
3.1.6. Qo'l skeleti	45
3.1.7. Qo'l suyaklarining birlashuvi	47
3.1.8. Oyoq skeleti	48
3.1.9. Oyoq suyaklarining birlashuvlari	49
3.1.10. Mushaklar sistemasi	51
3.1.11. Terining tuzilishi va vazifasi	57
3.2. Oyoq antropometriyasি	58
3.2.1. Oyoqni o'lchash usullari	59
3.2.2. Oyoq panjasи va boldirini o'lchashda ishlatalidigan asbob hamda moslamalar	59
3.2.3. Oyoq panjasи va boldirni o'lchash uchun asosiy anatomik nuqtalarni belgilash	61
3.2.4. Oyoq panjasи, boldir uzunlik va balandlik o'lchamlarini olish	62
3.2.5. Oyoq panjasining izi, konturi va uning en o'lchamlarini aniqlash	62

3.2.6. Oyoq panjasini va boldirning quchiq o'chamlarini o'chash	63
3.2.7. Oyoq panjasini o'chamlarining taqsimlanish qonuniyatları	63
3.2.8. Oyoq panjasini odam tanasining uzunligi bilan bog'liqligi	66
3.2.9. Oyoq panjasini bilan qo'l panjasining o'chamlarini o'zaro bog'lanishi	66
3.3. Qo'l panjasining antropometriyasi	67
3.3.1. Qo'l panjasining uzunlik o'chamlarini aniqlash	67
3.3.2. Qo'l panjasini va barmoqlarning quchiq o'chamlarini aniqlash	67
3.3.3. Qo'l panjasining en o'chamlari va barmoqlar qalitligini aniqlash	68
3.3.4. Olingan o'chamlarni o'rta tipik qiymatlar bilan solishtirish	68
3.4. Oyoq panjasining biomexanika asoslari	69
4-bob. Poyabzal detallarining ishi	72
5-bob. Poyabzalning gigiyenik va fizik xususiyatlari	75
5.1. Poyabzalning nam almashtirish va namdan himoya qilish xususiyatlari	75
5.2. Poyabzalni issiqdan himoya qilish xususiyatlari	76
5.3. Poyabzalning bikirligi	77
6-bob. Poyabzal konstruksiyasining texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari	79
6.1. Poyabzal konstruksiyasining material sarf hajmini aniqlash	79
6.2. Poyabzalning mehnat sarf hajmini aniqlash	82
7-bob. Poyabzal ichki shakli(qolip)ni loyihalash	87
7.1. Poyabzal qoliplarining konstruktiv tavsifi	87
7.1.1. Qoliplarning konstruksiyasi	88
7.1.2. Qoliplarni ishlab chiqarishda ishlataladigan materiallar	90
7.1.3. Qoliplarning tovon qismini ko'tarilish balandligi	91
7.1.4. Qolipning indeksi	91
7.2. Qolip loyihalashning umumiy asoslari	92
7.3. Qolipning asosiy o'chamlarini o'zgarishi	93
7.4. Qoliplarni (unifikasiyalash) bir shaklga keltirish	94
8-bob. Charm buyumlarini loyihalash	95
8.1. Poyabzal ustki detallarini loyihalashning umumiy asoslari	95
8.2. Poyabzal tanavorini loyihalash usullari	97
8.2.1. Nusxalash usuli	97
8.2.2. Grafik-nusxalash usuli	98
8.2.3. Bikir qobiq usulida loyihalash	98
8.3. Bikir qobiq usulida poyabzal tanavori deformatsiyasini hisoblash	100
8.4. Grafik-nusxalash usulida poyabzal ustki detallarini loyihalash asoslari	102
8.4.1. Qolipning yon sirtining shartli nusxasini olish usullari	103
8.4.2. Qolipning o'rta nusxasini olish	107
8.4.3. Qolipning o'rtacha nusxasini koordinata o'qlariga joylashtirish, bazis va yordamchi chiziqlarni chizish	108
8.4.4. Poyabzallar ustki detallarining asosiy o'chamlarini hisoblash	110
8.4.5. Tanavorni yig'ish va ko'rinadigan ziylariga ishlov berish uchun qo'shimchalarini hisoblash	112
8.4.6. Poyabzalning ichki detal (astar)larini loyihalash asoslari	113
8.4.7. Oralig detallarni loyihalash	116
9-bob. Qo'njsiz botinkalarning ustki detallarini loyihalash	117
9.1. Qo'yma dastakli qo'njsiz botinkalarni loyihalash	117
9.1.1. Sirtqi detallarini loyihalash	117
9.1.2. Ichki detallarini loyihalash	119
9.1.3. Oralig detallarni loyihalash	121
9.2. Qo'yma betlikli qo'njsiz botinkalarni loyihalash	121
9.2.1. Bettikni loyihalash	122

9.2.2. Dastakni loyihalash	122
9.2.3. Astarlarni loyihalash	123
9.3. Rezinkasi yon tomonida joylashgan qo'njisiz botinkalarining ustki detallarini loyihalash	123
9.3.1. Sirtqi detallarini loyihalash	124
9.3.2. Ichki detallarini loyihalash	126
9.4. «Loafer» turidagi qo'njisiz botinkalarini loyihalash	126
9.4.1. Sirtqi detallarini loyihalash	127
9.4.2. Ichki detallarini loyihalash	129
10-bob. «Qayiqsimon» tuflilarni loyihalash	131
10.1. Sirtqi detallarini loyihalash	132
10.2. Ichki detal (charm va to'qima astar)larini loyihalash	134
11-bob. Botinkaning ustki detallarini loyihalash	136
11.1. Qo'yma betlikli botinkalarining ustki detallarini loyihalash	136
11.1.1. Sirtqi detallarini loyihalash	137
11.1.2. Astarni loyihalash	139
11.1.3. Oraliq detallarni loyihalash	141
11.2. Qo'yma dastakli botinkalarini loyihalash	142
11.2.1. Sirtqi detallarini loyihalash	142
11.2.2. Astarini loyihalash	143
11.3. Erkaklar rezinkali botinkalarini loyihalash	143
11.3.1. Sirtqi detallarini loyihalash	143
11.3.2. Astarlarini loyihalash	145
12-bob. Etik va kalta qo'njili etiklarni loyihalash	146
12.1. Etik va kalta qo'njili etiklarning ustki detallarini loyihalash asoslari	147
12.2. Chaqmoq zanjirsiz etik va kalta qo'njili etiklar modelini loyihalash	149
12.2.1. «Kazachok» turidagi etiklarning ustki detallarini loyihalash	150
12.3. Chaqmoq zanjirli etiklarni loyihalash	153
12.3.1. Sirtqi detallarini loyihalash	153
12.3.2. Astarni loyihalash	154
12.4. Ayollarning kalta qo'njili va mabkab yoshidagi bolalar etiklarini loyihalash	155
12.5. Erkaklarning chaqmoq zanjirsiz etiklarni loyihalash	156
12.5.1. Sirtqi detallarini loyihalash	156
12.5.2. Ichki detallarini loyihalash	157
12.6. Erkaklarni biriktirma boshliqli, charmdan ishlangan etiklarining ustki detallarini loyihalash	157
12.6.1. Sirtqi detallarini loyihalash	157
12.6.2. Ichki detallarini loyihalash	159
13-bob. Sandaletlarni loyihalash	160
13.1. Doppel usulidagi sandaletlarni loyihalash	161
13.1.1. Sirtqi detallarini loyihalash	161
13.1.2. Ichki detallarini loyihalash	163
13.2. Yelimlama usulidagi ochiq sandaletlarning sirtqi va ichki detallarini loyihalash	164
14-bob. Poyabzalning tag detallarini loyihalash	165
14.1. Asosiy patakni loyihalash	165
14.2. Taglikni loyihalash asoslari	166
14.3. Poshnalarini loyihalash	170

14.4. Qo'ygich va to'ldirgich (gelenka va prostilka)larni qurish	171
14.5. Ich patak, yarim ich patak va tovon osti ich pataklarini qurish	172
14.6. Bikir dastaklarni loyihalash	172
14.7. Tumshuq ostini qurish.....	173
15-bob. Charm-attorlik buyumlarini loyihalash	174
15.1. Xaltalarini loyihalash asoslari	174
15.2. Charm qo'lqoplarni loyihalash	178
16-bob. Poyabzal detallarini seriyaga ko'paytirish	183
16.1. Seriyaga ko'paytirishning nazariy asoslari.....	183
16.2. Seriyaga ko'paytirish usullari.....	187
16.2.1. Yerevan poyabzal modellar uyi (YEDMO) usuli	187
16.2.2. B.P.Xoxlov va A.A.Yeryomin usuli	191
16.2.3. Mexanik usulda seriyalarga ko'paytirish (gradirlash)	192
17-bob. Poyabzal va qo'lqoplarni razmer assortimenti	197
17.1. Poyabzallarni razmer va to'lalik assortimenti	197
17.1.1. Poyabzallarning razmer assortimentini hisoblash	197
17.1.2. Poyabzal ishlab chiqarish korxonalarining razmer assortimenti	200
17.1.2. Poyabzalni to'lalik assortimentini hisoblash	201
17.2. Qo'lqopni razmer assortimentini hisoblash.....	202
Foydalaniłgan adabiyotlar ro'yxati	203

Ozod Abduvaliyevich Haydarov

**POYABZAL VA CHARM-ATTORLIK BUYUMLARNI
MODELLASHTIRISH ASOSLARI**

Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma

«SHARQ» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririysi — Toshkent — 2007.

Muharrir *X. Po'latxojayev*

Badiiy muharrir *J. Gurova*

Texnik muharrir *A. Salihov*

Musahihh *M. Qisimova*

Kompyuterda tayyorlovchi *A. Yuldasheva*

Bosishga 24.08.07 da ruxsat etildi. Bichimi 60×90^{1/16}. «Tayms» garniturasida
ofset bosma usulida bosildi. Sharqli b.t. 13,0. Nashr-hisob.t. 13,2.
Adadi 850. 245-raqamli buyurtma.

«Arnaprint» MCHJ da sahifalanib, chop etildi.
Toshkent, H. Boyqaro ko'chasi, 41.